

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI



O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI

**ANDIJON ADABIY MUHITI
fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: - 100000 - Gumanitar soha

Ta'lism sohasi: -120000 - Gumanitar fanlar

Ta'lism yo'nalishi: - 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

Tuzuvchi: **f.f.d., dotsent Abdullaeva Dildoraxon
Zumratbekovna**

ANDIJON - 2021

Tuzuvchi:

Abdullayeva Dildoraxon Zumratbekovna
filologiya fanlari doktori,
ADU o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasi
dotsenti

Taqrizchilar:

Quronov Dilmurod Haydaraliyevich,
filologiya fanlari doktori, o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasi professori.

B.Rahmonov – ADU o‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I. MA`RUZA MATERIALLARI

KIRISH. QADIMGI ANDIJONDA MADANIY VA ADABIY HAYOT	5
XV-XVIII ASRLARDA TARIXIY SHAROIT VA MADANIY MUHIT	9
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI	14
BOBUR DAVRIDAGI ANDIJON ADABIY MUHITI	16
XVIII ASRLAR VA XIX ASRNING I YARMIDAGI ADABIY HAYOT. 20	
MOHLAROYIM NODIRA HAYOTI VA IJODI	20
MUNTAZIR, BIYMIY, SAMARBONU HAYOTI VA IJODI	23
XIX ASRNING II YARMI VA XX ASR BOSHLARIDAGI ANDIJON ADABIY MUHITI.....	27
PIRIMQORI HAYOTI VA IJODI	27
ORAZIY VA HAYRATIY HAYOTI VA IJODI	34
QO'QONQISHLOQ ADABIY MUHITI	40
SULAYMONQUL BAZZOZ (VOLAI RASVO) HAYOTI VA IJODI ..	50
XX ASR ANDIJON ADABIY HAYOTI.....	56
ANDIJONDA HOZIRGI ADABIY JARAYON	137
ANDIJON ADABIY MUHITIDA NAZM VA NASR RIVOJI	145

II. SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI.....	170
--	------------

III. MUSTAQIL TA'LIM MASHG`ULOTLARI	174
--	------------

IV. GLOSSARIY.....	175
---------------------------	------------

V. ILOVALAR	180
--------------------------	------------

FAN DASTURI	180
--------------------------	------------

ISHCHI FAN DASTURI	195
---------------------------------	------------

TARQATMA MATERIALLAR.....	210
----------------------------------	------------

TESTLAR.....	216
---------------------	------------

KIRISH

O'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotida Andijon adabiy muhitining ham o'ziga xos salmoqli o'rni bor. Andijon zaminida qadimdan adabiyot, madaniyat, san'at, musiqa kabi sohalarning rivojiga hissa qo'shgan ijodkorlar yetishib chiqqan. Zahiriddin Muhammad Bobur, mavlono Yusuf, mavlono Safoiy, Nodirabegim, Samarbonu, CHo'lpon, Komil Yashin, Habibiy, Hayratiy, Oraziy, Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov, Ulfat, Saida Zunnunova, Tursunoy Sodiqova, Qamchibek Kenja, Olimjon Xoldor, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Yusuf kabi shoir va adabiyotshunoslarning nomlarini xalqimiz bilsa-da, ayrim iste'dodli shoir va adiblarning adabiy merosi ommalashtirilmagani va tadqiq etilmagani sababli, nafaqat xalqimizga, adabiyotshunoslarga ham noma'lum bo'lib kelmoqda. Bu ijodkorlarning asarlari ham adabiy merosimizning bir qismi hisoblanadi.

Milliy madaniy meros xalqning o'zligini, o'ziga xos xususiyatlarini, milliy mentalitetini o'zida aks ettiradi. Bugungi kunda millatning, xalqning milliy madaniy merosi, milliy qadriyatlarini saqlash va o'rganish, uni kelgusi avlodlarga yetkazish muhim masala hisoblanadi. Andijon zaminida turli davrlarda yashagan shoirlarning adabiy faoliyatini yoritish bilan ular shakllangan muhit, adabiyotga kirib kelish yo'llari haqida, ularning dunyoqarashi, ma'naviy olami, badiiy, ilmiy salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar orqali Andijon adabiy muhitining tarixiy tadrijini tuzish mumkin bo'ladi.

Andijon adabiy muhitida faoliyat ko'rsatgan Muhyi, SHahzoda (Nasriddinbek), Muntazir, Abdurazzoq Bimiy, Mahjuriy, Pirimqori, Anisiy, Qori Zokir, Rasvo (Sulaymonqul bazzoz), Jasur, Boqir kabi ijodkorlarning hayoti va ijodi shu kungacha to'la o'rganilgan emas. Mazkur shoirlarning hayoti va ijodi birlamchi manbalar asosida chuqur va izchil tadqiq qilinishi zarur. Xususan, ularning tarjimai holiga oid ma'lumotlar jamlab, saralanib, qiyoslanishi galdeg'i vazifalardan biridir. Asarlarini to'plab ilmiy tizimga solish, shoirlarning badiiy tafakkur olamini tahlil qilish, birinchi manbalar asosida asarlarini ilmiy istifodaga kiritish adabiyotshunoslik uchun dolzarb hisoblanadi. Ularning ilmiy bibliografiyasini yaratish ham qilinajak muhim ishlardan biridir.

Andijonda yashab ijod qilgan shoir va adiblar haqida amalga oshirilgan ishlar juda ham sanoqli. SHulardan adabiyotshunos Nabijon Qobulovning "Andijonlik taraqqiyatshunoslar" risolasini, Ahmadrafiq Qambarovning "Navodir ul-vaqoe", Maqsudxon hoji Ishoq Mahjuriy o'g'li tomonidan tayyorlangan "Andijon adabiy gurungi", Usmonjon SHukurovning "Andijon yozuvchi va shoirlari" to'plamlarini ko'rsatish mumkin. SHuningdek, tarixchi olim Sayfiddin Jalilov shaxsiy kutubxonasi bayoz (951 sahifa)da Kamoliddin ibn Abduxoliq Andijoniy tomonidan to'plangan andijonlik ijodkorlarning asarlari jamlangan. Undan turli yillarda SHarqiy Turkiston, Qozog'iston, Saudiya Arabistoni va boshqa xorijiy yurtlarga surgun qilingan yurtdoshlarimizning asarlari ham joy olgan. Mazkur qo'lyozma hali to'la tadqiq etilganicha yo'q.

Mazkur vazifalarning bajarilishi o'zbek adabiyoti tarixiy tadrijining keng ko'lami, xalqchil mohiyati, davrning dolzarb hayotiy muammolarini badiiy tahlil

etishda erishgan yutuqlari haqidagi mavjud nazariy fikrlarni yanada kengaytiradi. Andijonda yashab qalam tebratgan, biroq nomlari ma'lum bo'lsa-da, hayoti va ijodi haligacha tadqiq etilmagan shoir va yozuvchilar haqidagi tasavvurni boyitadi. Bu esa o'zbek adabiyoti tarixinining bo'sh sahifalarini to'ldiradi.

Mazkur ishni bajarishda Andijon shahridagi Tarix va madaniyat davlat muzeyi, O'zRFA SHarqshunoslik instituti jamg'armalaridagi hamda shaxsiy kutubxonalardagi andijonlik ijodkorlarning asarlari qo'lyozmalari, jumladan shoirlarning dastxat asarlari, matbuot va internet nashrlariga tayanildi. SHuningdek:

- qadim davrlardan hozirgacha Andijon zaminida shakllangan madaniy va adabiy hayot tadriji o'rghanildi. Qadim va o'tmish davrlardagi Andijon adabiy muhitiga mansub ijodkorlarning asarlari haqida ma'lumotlar yig'ildi;
- turli davr adabiy-madaniy muhitini ilmiy asosda yoritish, tarixiy sharoit va adabiy hayotga tarixiy hujjatlar va muayyan manbalar yordamida tavsif berildi;
- Turkiston madaniy hayotida andijonlik ijodkorlar va ma'rifatparvarlar ishtiroki darajasi belgilandi;
- adabiy-badiiy asarlarning mavzuviy, g'oyaviy, badiiy jihatlari tadqiq etildi, etik-estetik funktsiyasi tekshirildi;
- davr madaniy hayotida andijonlik ijodkorlarning o'rni belgilandi va faoliyati yoritildi.

Andijon adabiy muhitini tizimli yoritish maqsadida ushbu qo'llanma tayyorlandi.

Qo'llanma xalqimizga nomlari u qadar tanish bo'lмаган shoir va ijodkorlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berib, ma'naviy merosimizga, badiiy adabiyot, jumladan mumtoz she'riyatimizga bo'lган hurmat va muhabbatni uyg'otishda, kelajak avlodning o'z xalqi milliy merosidan faxrlanish tuyg'usini o'stirishda, milliy g'urur hissini shakllantirishda muayyan ahamiyat kasb etishi mumkin.

QADIMGI ANDIJONDA TARIXIY SHAROIT VA MADANIY HAYOT **Reja:**

- 1. Qadimgi Andijonda ilk madaniyat o'choqlari.**
- 2. "Andijon" so'zining etimologiyasi, toponimi va fol'klor manbalaridagi materiallar.**

Tayanch so'z va iboralar: qadimgi Andijon, Buyuk ipak yo'li, ilk madaniyat o'choqlari, Andijon so'zi etimologiyasi.

Andijon qadimdan tabiatining mo''tadilligi, dehqonchilik va bog'dorchilik an'analari, savdo va sanoati, hunarmandchiligi bilan mashhur bo'lган. Bu yurtdan qadimda Buyuk Ipak yo'li o'tgan bo'lib, dastlabki madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Miloddan oldingi II asr xitoy solnomalarida bu madaniyat maskani haqidagi ma'lumotlar uchraydi. SHunga ko'ra Andijondagi madaniy hayot

namunalari, ashylari ko'p ming yillar avval paydo bo'lgan deb hisoblanadi¹. Viloyatning Jalaquduq tumanidagi Dalvarzintepa yodgorligi, Eylaton arxeologik yodgorligi, Xo'jaobod tumanidagi Ko'krakli g'oridagi muz davriga oid devoriy rasmlar, Sarvontepa, Marhamat tumanidagi Ershi shahri qoldiqlari shundan dalolat beradi. Tarixshunoslarning qayd etishicha, Andijon Qoradaryoning o'rta oqimida joylashganligi bu yerda ham ilk shahar madaniyatining paydo bo'lishiga olib keldi². Ko'chmanchilik sharoitida yashagan odamlarning o'troqlashishi suv va unumdon tuproqning mavjudligi sababli ro'y berdi. Manbalarda keltirilishicha, eramizdan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatorining topshirig'i bilan Davan davlatiga kelgan elchi CHjan TSzyan bu yerda 70 ga yaqin katta-kichik shaharlar mavjudligini yozadi³. "Uning kelishi Xitoy bilan O'rta Osiyo tarixiy-madaniy viloyatlari o'rtasida savdo-sotiq aloqalarining tiklanishiga sabab bo'ladi. Yurtimizdan Xitoyga beda, uzum, gilam va uchqur otlar olib ketilgan bo'lsa, u yerdan vodiyya shoyi matolar, chinni, choy va boshqa buyumlar olib kelinadi"⁴.

Andijonning Buyuk ipak yo'lida joylashganligi bu yerda nafaqat savdosotiqlarning rivojlanishi, balki madaniy, adabiy, tarixiy va boshqa o'zgarishlarning ro'y berishiga, sharq va g'arb tamadduni yangiliklarining kirib kelishiga ham sabab bo'lgan. "Andijon viloyati Farg'ona mintaqasining sharqiy qismida, Farg'ona va Oloy tog'lari oralig'ida, Buyuk ipak yo'lining Koshg'ar – O'sh – Toshkent yo'naliishida, intensiv sug'orma dehqonchilik va aholisi ko'p va juda zinch yashaydigan mintaqaning markazida joylashgan"⁵.

Andijon qadimgi davrdan buyon Buyuk ipak yo'lida joylashgan shahar bo'lib, ikki yarim ming yildan beri rivojlanib kelmoqda. Andijon Farg'ona vodiysi hududidagi Davan davlati tarkibiga kirgan bo'lib, bu davlat ahamoniylar va yunonlar hukmronligi davrida ham o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan edi. "Milodiy I asrдан boshlab Andijon Kushon davlati, undan so'ng hukmronlik qilgan eftalitlar hamda VI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyoga kirib kelgan Turk hoqonligi davrida ham rivojlanishdan to'xtamadi. ...Turk hoqonligi Xitoy, Eron va boshqa hukmron davlatlarning Markaziy Osiyoga, jumladan Farg'ona vodiysiga bostirib kirishiga yo'l bermadi"⁶. VI asrning oxirlariga kelib turk hoqonligi sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketgach, ummaviylarning Xurosondagi noibi Qutayba ibn Muslim (705-715) 706 yili Movorounnahrga bu yerdagi xalqlarni islam diniga kiritish maqsadida lashkar bilan kirib keladi⁷. Arab istilosi 714 yili Andijonni egallaydi. Tarixiy manba va adabiyotlarda keltirilishicha, Andijon aholisi islam dinini hech qanday qarshilik ko'rsatmasdan qabul qiladi. Bu davrgacha Andijonda zardushtiylik diniga e'tiqod qilingan, bugungi kunda ham xalqning ayrim urf-odatlarida shu e'tiqodning unsurlaridan saqlangan.

¹ Бугунги Андикон. – Т., 2006. – 8-б.

² Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андикон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. - 19-б.

³ Кўрсатилган асар, 19-б.

⁴ Кўрсатилган асар, 23-б.

⁵ Мамажонов М. Андикон географияси. – Т.: Академнашр, 2018. 6-б.

⁶ Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андикон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. - 31-б.

⁷ Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Кўрсатилган асар, кўрсатилган бет.

“715 yili Sulaymon arab xalifaligi taxtiga ko’tariladi. Qutayba ibn Muslim bilan yangi xalifa o’rtasida fitnachilik uyuşhtiriladi. Natijada unga qarshi isyon ko’tariladi. Tamim qabilasi vakili Vaqi Abu Sud boshchiligidagi isyonchilar Qutayba ibn Muslimning chodiriga bostirib kirib, u bilan birgalikda Abdurahmon, Abdulloh, Solih, Husayn, Abdulkarim nomli ukalarini, o’g’li Kasir ibn Qutayba va jiiyanlarini (jami 11 erkakni) o’ldirishgan¹. Qutayba ibn Muslim Qoh qishlog’idagi Raboti Sarhang (hozirgi Mozorbuva) qabristoniga dafn etilgan, deyiladi. Boshqa manbalardan birida Qutayba ibn Muslimning o’ldirilishi Qirg’izistonning Novqat tumanı, Sahoba qishlog’ida sodir bo’lib, uning jasadi Andijon viloyati, Jalaquduq tumaniga keltirilgan deb ko’rsatiladi.

Arab xalifaligi davrida Andijonda islom dini hukm surgan. Bu davrda ilm, fan, madaniyat gullab yashnagan. Arablar hukmronligida islom dini, Qur’oni karim, Hadisi sharif xalqqa singdirilgan. Arab tili davlat tili va fan tili sifatida e’tirof etilgan. Andijon xalqi islom dini asoslarini, Qur’oni karim, Hadisi sharifga oid ilmlarni ixlos bilan egallagan. SHu bois ham XVI asr tarixchisi Hamdulloh Qazviniy “Nuzhat ul-qulub” (“Qalblar rohati”) kitobida Andijonga “Qubbat ul islom” (“Islomning cho’qqisi, markazi”) deb nom berilgani aytib o’tiladi².

VIII asr oxiriga kelib Arab xalifaligi o’rniga Somoniylar sulolası hukmronligi boshlandi. XI-X asrlarda Farg’ona vodiysida, jumladan Andijonda madaniyat, ilm-fan, savdo-sotiq rivojlanadi. X asr o’rtalarida SHarqiy Turkistonda qoraxoniylar davlati tashkil topadi. Andijonga yaqin bo’lgan O’zgan shahri qoraxoniylar davlatining ikkinchi poytaxti deb e’lon qilinadi³. Andijon Farg’ona vodiysining yirik savdo va hunarmandchilik markazlaridan biriga aylanadi.

Andijon shahrining paydo bo’lishi, nomining etimologiyasi haqida turlicha qarashlar, fikr-mulohazalar, shuningdek, xalq o’rtasida tarqalgan afsona va rivoyatlar mavjud.

“Andijon” so’zining etimologiyasi, toponimi va folklor manbalaridagi materiallar. Xalq o’rtasida keng tarqalgan rivoyatlardan birida quyidagicha keltiriladi: “Qorabug’raxon degan podsho bo’lib, uning o’zi Qashqarda turar ekan. Kunlarning birida u ov qilib yurib, suv bo’yida qo’shiq aytib o’tirgan go’zal qizni sevib qolibdi. To’y-tomoshalar bilan unga uylangan kuni urush boshlanib, Qorabug’raxon urushga jo’nab ketibdi. Bu urushda u g’olib chiqibdi. Ammo og’ir yaralanibdi, yo’lda kela turib ahvoli og’irlashibdi. SHunda xon kun chiqish, ya’ni qaylig’i bor tomonni ko’rsatib: “Anda jon qoldi, meni o’sha yerga ko’minglar”, - deb jon beribdi. Vazirlari vasiyatga ko’ra, ko’rsatgan joyga keltirib ko’mibdilar. U yer keyinchalik shaharga aylanib, “Anda jon”, “Andijon” bo’lib ketgan ekan”⁴. H.Razzoqov “Agar o’rta asr tarixchilaridan Ibn al-Asir, Maqsidiy, Juvayniy, SHamsiddin Tabriziy, Hofizi Abru va boshqalarning ba’zilari bu shaharni

¹ Кўрсатилган асар, 32-б.

² Кўрсатилган асар, 32-б.

³ Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар. – Т., 2013. – 34-б.

⁴ Раззоқов Ҳ. Афсоналар ва ҳақиқатлар // Гулистон. 1970. 11-сон, 29-б.; Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990. 181-б.; Ўзбек фольклори очерклари. З томлик. 2-т. – Т.: Фан, 1989. 44-б.

mo'g'ullar obod qilib viloyat markaziga aylantirganlar degan ta'kidlashi e'tiborga olinsa rivoyatdagи xabar to'g'ridek ko'rindi" deydi. K.Imomov H.Razzoqov keltirgan rivoyat mazmuni va xulosalarga tayangan holda quyidagi fikrlarni keltirgan: "Agar rivoyatda mavjud sevimli yor obrazi olib tashlansa, Qora Bug'raxonning kun chiqish tomonni ko'rsatib "Anda jon qoldi" degan iborasi xalqi, o'z yurti, qabilasini izohlashi mumkin edi. Binobarin, rivoyatda mavjud xabar haqiqatga yaqin bo'lar edi". K.Imomov A.Juvonmardievning Andijon haqidagi fikrlarini ham keltirib, quyidagicha davom etadi: "CHunki Andi – qabila nomi, gon – forscha jami, birga, yig'ilishlik, degan ma'nodagi tushuncha bo'lib, Andigon o'zbeklarning jami va yig'ilgani demakdir". Ma'lum bo'ladiki, Andigon shaklan o'zgarib xalq nomi, qabila nomi ekani unutilgach, "anda jon", ya'ni yorga aylangan va Bug'raxon bilan bog'liq bo'lgan mazkur rivoyatning tashkil topishiga sababchi bo'lgan. Binobarin, rivoyat etimologik xarakterga ega bo'lsa ham, asl mohiyati bilan nom atrofida to'qilgan poetik namunadir. Demak, toponimik rivoyatlar doimo tarixiy haqiqatni ochavermaydi¹".

"Andijon" so'zining "Odinajon" so'zi bilan aloqadorligi haqidagi yana bir rivoyat ham bor. Bu rivoyatda Turon podshosi Afrosiyobning qizi Odinajon og'ir kasal bo'lib qoladi. Odinajon taxti Sulaymon etagidagi tog'li vodiya kelib shifo topadi. Qizining uzoq vaqt bu yerda qolgani uchun Afrosiyob "Anda (u yerda) jonom qoldi" degan ekan. "Tarixi Farg'ona" asarining muallifi Ishoqxon Ibrat bu rivoyatdagи "Odinajon" Afrosiyobning qizi ekanini, "Andijon" shu so'zdan kelib chiqqanini qariyalardan eshitganligini keltirib o'tadi. Jumladan, Ibrat "Qutadg'u biling"dagi ma'lumotlarga ham tayanadi: "Tarixi "Qutadg'u"dan mustafod bo'lurki, Andijon to'rt ming yildan muqaddam, ya'ni O'g'uzxon vaqtida shahar bo'lsa, andan avval ham obodon shahar ekan. O'g'uzxon (mil.avv. 200-yillarda faoliyat yuritgan xun sarkarsi) hazrati Nuh alayhissalomning to'qquzunchi o'g'ullaridur. Valhosilki, Andijon Farg'ona shaharlari ichinda eng avvalgi va qadimiyydur. Andin Afrosiyob vaqtiga kelganda Afrosiyob Turon podshohi bo'lib, Andijonni poytaxt qilib, Ko'nikdar shahridin goho Toshkand va Andijon kelur ekan. Ammoki, afvohi nosda qariyalar so'zidurki, Andijon asli Odinajondur. Odinajon Afrosiyobning qizidurki, anga o'rda va bog' bino qilib berib, aning ismiga tasmiya qilib edi. Odinajonni tilda buzub, ag'loti avom ila Andijon qilgan, deydurlar. Bar har bob bir eski shahar bo'lub, necha martaba buzulub, yana obod bo'lub, taboduli zamon va inqilobi ovon ilan tuzalub, buzulub, obod bo'lgan eski shahardur"².

A.Juvonmardievning keltirishicha esa, "Andu" – qabila nomi, "gon" forscha ko'plik qo'shimchasi bo'lib, andularning jami va yig'ilgan joyi demakdir³. "Andu" va "gon" keyinchalik talaffuzda o'zgarib "Andijon" shakliga kelgan. Qabila nomining "and" shaklida keltirilishi ham ba'zi manbalarda uchraydi, bu so'z "hind" ma'nosini bildiradi, deb izohlangan. Yana boshqa rivoyatda shaharga ilk poydevor qo'ygan shaxsning ismi "Andi" bo'lgan deyiladi.

¹ ИМОМОВ К. Ривоят / Ўзбек фольклори очерклари. З томлик. 2-т. – Т.: Фан, 1989. 45-б.

² Ибрат. Фарғона тарихи / Китобда: Мерос – Т., 1991. 324-б.

³ Жувонмардиев А. Шаҳарларнинг номларидан баҳс./ "Ер ва эл", 1962. 4-сон, 29-бет.

Andijon atamasi tarixi, etimologiyasi, toponimikasi bilan shug'ullangan olimlarning tadqiqotlarida ham turlicha qarashlar kuzatiladi. Rus tarixchisi V.P.Nalivkin ham "andi" qabilasi va "gon" ko'plik qo'shimchasidan "Andigon", keyinchalik "Andijon" bo'lib ketgan, degan fikrni keltiradi. Lekin 92 urug'dan iborat deyilgan o'zbek urug'lari ichida "andi" deb nomlangan urug' yo'q ekanligi tarixshunos va boshqa olimlar tomonidan qayd etiladi.

Andijon nomi ilk marta yozma manbalarda IX asrlarda keltiriladi. Arab sayyoohlari Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida "Andukan" shaklida qayd etiladi. X asrda yashagan arab olimi Ibn Havqal bu shahar haqida quyidagilarni yozgan: "Dehqonchiligi rivojlangan shahar, iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham rivojlangan, katta hunarmandlar shahri Andukan". Ushbu ma'lumotga ko'ra, tarixchi olimlarimiz R.SHamsutdinov va A.Ishoqovlar "demak, Andijon arab xalifaligi davrida Andukan deb atalgan"¹.

Adabiyotlar:

- 1.Abulg'oziy. SHajarayi turk. – T.: "CHo'lpon", 1992.
- 2.Andijon adabiy gurungi. – T.: "Mumtoz so'z", 2013. 256 b.
- 3.Bugungi Andijon. – T.: "O'zbekiston", 2006 b.
- 4.Jalilov S. Bobur va Andijon. – T.: "O'zbekiston", 1993. 104 b.
- 5.Jalilov S. Xudoyorxon. T.: "Mumtoz so'z", 2014 y. 60 b.
- 6.Ibrat. Farg'ona tarixi. – T.: Kamalak, 1991.
- 7.Manas. – T.: CHo'lpon, 1993.
- 8.Matboboev B., Mashrabov Z. Drevniy i srednevekoviy Andijan. (istoriko-arxiologicheskoe issledovanie). – T.: SHarq, 2011.
- 9.Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
- 10.SHamsutdinov R., Ishoqov A. Andijon tarixidan lavhalar. –T., 2013.
- 11.SHamsutdinov R. Andijon davlat universiteti. – T.: SHarq, 2014.
- 12.Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. – T.: SHarq, 2005.

XV-XVI ASRLARDA ANDIJON ADABIY MUHITI Reja

- 1. XV-XVI asrlardagi Andijon adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi manbalar.**
- 2. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasidagi andijonlik shoirlar haqida.**
- 3. Xoja Yusuf Andijoniy haqida.**
- 4. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi.**

¹ Шамсутдинов Р., Исҳоқов А. Андикон тарихидан лавҳалар. – Т.: Шарқ, 2013. - 27-6.

Tayanch so'z va iboralar: XV-XVI asrlardagi Andijon adabiy muhiti, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasidagi andijonlik shoirlar, Xoja Yusuf Andijoniy, Bobur hayoti va ijodi.

O’zbek adabiyoti tarixi tadrijida XV-XVI asrlar alohida o’rin tutadi. Bu davrda Movorounnahr, Xurosonda adabiyot, madaniyat, san’at, ilm-fan keng miqyosda rivojlandi. Madaniy markaz Hirotda juda ko’p sohalar taraqqiy etdi. XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan andijonlik shoir, adib va san’at vakillarining hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar asosan tazkiralar orqali yetib kelgan. Garchi bu davrdagi Andijon adabiy muhitiga oid manbalardagi ma’lumotlar ozchilikni tashkil qilsa-da, muayyan tasavvur hosil qilish mumkin bo’lgan manbalar mavjud.

XV-XVI asrlardagi Andijon adabiy muhiti haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Davlatshoh Samarcandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Abdurazzoq Samarcandiyning “Matla’i sa’dayn va majma’i bahrain”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Xoja Hasan Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob” tazkirasi, Darvesh Ali Changiyuning “Musiqiy” risolasi, Po’latjon Qayumiyning “Tazkirai Qayumi” asarlari muhim manba hisoblanadi¹.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasining ikkinchi majlisida andijonlik ikki shoir haqida ma’lumotlar beriladi. Mavlono Safoiy Andijoniy haqida: “Mavlono Safoiy – andijonlikdur. Soda (sodda) yigit erdi. Ammo soda yuzluk yigitlar suhbatig’a mash’uf erdi. Tab’idin goh-goh rangingina nimalar bosh urar erdiki, o’z sodalig’i munofisi erdi.

Ul jumladin bu bayt aningdurkim:

Menamoyad gohi javlon na’li shabrangat ba chashm,
CHun mahi nav k-az nazar sozand mardum g’oyibash.

(Tarj.: Kishilar yangi oyga tikilib turganlarida u g’oyib bo’lganidek, qora oting javlon urgan paytida uning nag’aligina ko’zga chalinadi.)

Samarqandda favt bo’ldi”².

Alisher Navoiyning bergan ta’rifiga ko’ra, Safoiy sodda tabiatli bo’lgan. Akademik A.Qayumov shunday izohlaydi: “Lekin, deydi Navoiy, Safoiyning tab’idin shunday go’zal she’rlar chiqar ediki, ular bu yigitning soddavashligiga tamomila ziddir”³. Safoiyning keltirilgan forscha baytida shoir yangi oy va chopqir otni o’zaro qiyoslab tashbeh keltiradi. Alisher Navoiy Mavlono Safoiy Andijoniyning Samarqandda vafot etganini yozadi. Aytish mumkinki, Samarqandga tahsil maqsadida kelgan mavlono Safoiy uzoq yillar ilm hosil qilgan, umrguzaronlik kechirib shu yerda vafot etgan.

¹ Каюмов А.Бобур давридаги Андикон адабий мухити. Хожа Юсуф Андиконий. – Т., 2009. 3-б.

² Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис / Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 13-жилд. – Т.: Фан, 1997. 60-б.

³ Каюмов А. Бобур давридаги Андикон адабий мухити. Хожа Юсуф Андиконий. – Т., 2009. 8-б.

Akademik A.Qayumov shunday keltiradi: “Ikki hamshahar andijonli shoirlar Badiiy va Safoiy bir-birlari bilan yaqin bo’lsalar-da, xarakter jihatidan farqli edilar. Ba’zi hazilkashlar Badiiy Andijoniya tegishib, goho uni Yusuf Safoiy der ekanlar. Bu esa Yusuf Badiiyga yoqmas edi”¹. Darhaqiqat, Yusuf Badiiyga berilgan tavsifda Alisher Navoiyning “faqirdin o’zga kishi aning she’rida so’z ayta olmas erdi” jumlasidan uning noziktab’ bo’lganligi, uning kamchiligin faqat Navoiydek shoir ayta olganini anglaymiz.

Mavlono Yusuf Badiiy haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Mavlono Yusuf-“Badiiy” taxallus qilur erdi. Ul ham Andijondindur. Mavlono Safoiy bila bo’lur erdi. Faqir tahsil uchun Samarqandg’ a borg’onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo’lur erdi. Sig’ari sin jihatidin she’rida xomlik bo’lsa faqir isloh qilur erdim. Bot buzurgmanish va mutasavvir yigit bo’ldi va Xurosonga kelib ko’p salohiyatlar ham kasb qildi. Faqirdin o’zga kishi aning she’rida so’z ayta olmas erdi. Ushbu jihatidin sho’xlar ani Yusuf Safoiy derlar erdi. Ammo yaxshi suhbati bor erdi va ko’prak sinf she’rni yaxshi aytur erdi va aruz bilur erdi. Bu matla’ aningdurkim:

Gar bad in obu havo ko’yat buvad manzilga ham,

Ne zuloli Xizr boyad ne dami ruhullaham.

(Tarj.: Agar ko’chang shu suv va havosi bilan mening manzilim bo’lsa, na Hizr suvi, na o’lik tiriltira oladigan (Iso) nafasi kerak bo’ladi.)

“Mir’ot us-safo” (“Soflik oynasi” – D.A.) qasidasi tatabbuda bu bayti yaxshi voqe’ bo’lubturkim:

Duri maqsud jo’yon majma ul bahrain shud sufi

Ki, bahre dar ast chashmai har chashmi giryonash.

(Tarj.: So’fiy maqsad injusini qidirib borib (ya’ni yosh to’kaverib), “majma’ ul bahrain” (ya’ni ikki daryoning to’planish joyi) bo’ladi. CHunki har bir yig’layotgan ko’z chashmasidan bir daryo hosil qilgan.)

Muammo risolasi bitib, anda ko’p ish qilibtur. “Mansur” ismiga bu muammo aningdurkim:

Maro z on shud manur xona chashm

Ki omad do’st dar koshona chashm².

Saraxsda favt bo’ldi. Mozori hazrat SHayx Luqmon honaqohidadur”³.

Alisher Navoiyning tazkirada bergen ma’lumotlari, tavsif-baholariga qarab ayrim xulosalarni berish mumkin. Mavlono Yusuf Andijoniying taxallusi “Badiiy”. Bu ism – taxallusga ko’ra shoirning she’riyatda ko’proq badiiyatga, so’zlarning shakliy va ma’noviy jihatlariga, so’z o’yinlariga e’tibor qaratganini

¹ Каюмов А. Бобур давридаги Андикон адабий мухити. Хожа Юсуф Андиконий. – Т., 2009. 8-б.

² Таржимаси: Менинг учун кўзим уйи равшанлашгани шундай бўлдики, кўзим кошонасига дўст келди. Ечими: “Мунаввар” сўзи “дўст” сўзининг арабчаси “сиддик”нинг биринчи ҳарфи “сад” билан тўлдирилса, (кошона – баланд, юқори ишорага мувофиқ биринчи ҳарф), “Мансур” –сўзи хосил бўлади.

³ Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис / Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 13-жилд. – Т.: Фан, 1997. 60-б.

taxmin qilish mumkin. Alisher Navoiyning “faqir (A.Navoiy – D.A.) tahsil uchun Samarqandg'a borg'onda, ul Andijondin keldi va anda faqir bila bo'lur erdi” so'zlariga ko'ra, ular Samarqandda 1459 yilda ko'rishganini anglash mumkin. Yana ustoz shoirning “she'rida xomlik bo'lsa faqir (A.Navoiy – D.A.) isloh qilur erdim” so'zlaridan ularning yaqindan muloqot qilganlari, Yusuf Badiiy Alisher Navoiyning e'tiboriga tushgani, o'z she'rlarini ko'rsatib, ustoz shoirning maslahatlarini olganliklarini xulosa qilamiz. Yusuf Badiiy haqida “yaxshi suhbat bor edi” deyilishi uning shirinsuxan, xushzabon bo'lganligi, Alisher Navoiy bilan tenglashib suhbat qura olganligini anglatadi. SHuningdek “ko'prak sinf she'rni yaxshi aytur erdi va aruz bilur erdi” degan izohiga to'xtalsak, uning turli janrda she'rlar yozgani, aruz vaznini yaxshi o'zlashtirganligini ko'rsatadi. A.Qayumov Yusuf Badiiy qasidalari haqida quyidagicha yozadi: “Navoiyning Yusuf Badiiy qasidasiga bergen bahosi Badiiyning qasidalariga Boburning bergen bahosi bilan hamohang ekani ko'rinish turibdi. Navoiy Yusuf Badiiy Andijoniyning muammo risolasi bitgan ekanini aytadi va o'sha muammolardan birini o'z asari “Majolis”da keltirgan”¹. Muammo janrida asar bitganligi ham bu shoirning mahoratli ijodkor bo'lganligining dalilidir.

Mavlono Yusuf Badiiy haqida Boburning “Boburnoma” asarida quyidagicha ta'rif beriladi: “Yana Yusuf Badiiy edi. Farg'ona viloyatidindur, qasidani yomon aytmas ekandur”². Adabiyotshunos olim H.Boltaboev Alisher Navoiy keltirgan Yusuf Badiiyning fors tilidagi tatabbuuni Bobur “Muxtasar” asarida misolga olganini ta'kidlaydi. “Boburnoma”dagi “qasidani yomon aytmas ekandur” jumlesi esa Boburning mavlono Yusuf Badiiy Andijoniy bilan hayotda ko'rishmaganini bildiradi.

Xondamirning “Xulosat ul axbor” asarining “Hidoyatli amirning ayyomi davlatida dorussaltana Hirotda istiqomat qilgan va hozir (hijriy 905)da tangri taoloning hukmi bilan dunyoning mehnat saroyidan jannatga ko'chgan ulamo, mashoyix va fuzalodin ba'zilarining zikri” bobida u haqda “Mavlono Yusuf Badiiy tab'i va zehnining nuqson sizlig'i bilan ma'lum, doimo oljanob, sulton hazratlarining yaqin do'sti Amir Alisher mulozimmatida kun kechirgan, uning in'omu ehsonlaridan bahramand bo'lgan, vafoti 897 (melodiy 1492) yili sodir bo'ldi”³. SHunga ko'ra Mavlono Yusuf Badiiy Andijoniy 1440-yillarning o'rtalarida tug'ilgan. 1463-1465-yillar oralig'ida Alisher Navoiy Samarqadga tahsil uchun borganda Fazlulloh Abullays dargohidan qaror topgan. Turkiy va forsiy tillarda g'azallar bitgan. Qasida janrida ijod qilgan va shuhrat topgan. Uning she'rlari haqida Navoiydan “o'zga kishi so'z aytma olmas” bo'lgani uchun Alisher Navoiy uni poytaxtga chorlagan. Saraxsda hijriy 897 (melodiy 1492)da vafot etgan⁴.

¹Қаюмов А. Бобур давридаги Андижон адабий муҳити. Хожа Юсуф Андижоний. – Т., 2009. 8-б.

² Бобур. Бобурнома. Т., 2002. – 139-б.

³Навоий замондошлари хотирасида. – Т., 1986. – 65-б.

⁴ Болтабоев Ҳ. “Бобурнома” саҳифаларида андижонийлар / Китобда: Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. 54-б.

Xoja Yusuf Andijoniy. Akademik A.Qayumov andijonlik shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qiyoslab, ilmiy tahlillari asosida Mavlono Yusuf Badiiy Andijoniy va Xoja Yusuf Andijoniy boshqa boshqa ijodkorlar ekanini yoritadi. Xoja Yusuf Andijoniy shoir, musiqa ustasi bo'lgan. Boburning "Boburnoma" asaridagi "Andijon" ta'rifida "Xoja Yusufkim" musiqada mashhurdur, Andijoniydur" kabi qisqa ma'lumot beriladi¹.

Ma'lumki, XV asr o'rtalari Xuroson poytaxti Hirot shahri madaniyat, adabiyot, san'at markazi bo'lgan. Xoja Yusuf Andijoniy Andijondan Hirotga kelib, bu yerda doimiy yashab qolgan. Uning ota-onalari o'qimishli insonlar bo'lganlar. Akademik A.Qayumovning keltirishicha, Xoja Yusufning qachon va qanday qilib Andijonda Hirotga kelib qolgani ma'lum emas².

Bu davrda yashagan Darvesh Ali CHangiyning "Musiqiy risolasi"da Xoja Yusufning g'azalidan uch baytni rus sharqshunosi, shu asarning tarjmoni A.A.Semyonov rus tiliga tarjima qilgan:

Jemchujina, kotoruyu ya viju gosudarъ, v twoem uxe
Estь zvezda, kotoruyu ya viju podle mesyatsa.

CHtob u tebya za gore, kogda ты postoyanno vidishъ sebya
A vot u menya gore, ibo ya viju tebya lishъ vremenami.

Protiv togo, chtoby ya был pered twoimi vol'shebnyimi ochami (govorit to, chto vziraya na nix).

Ya viju tochъ v tochъ dva chernых (bezisxodnykh) neschastъya.
Forscha asl nusxada:
Durreki, dar barigo'shi tu shoh, mebinam,
Sitoraest ki, pahluyi moh mebinam.

Turo chi g'amki, tu xudro hamisha mebiniy
Marost g'amki, turo goh-goh mebinam.

Ba qasdi kushtan mo du chashmi joduyat
Ba oyini du baloyi siyoh mebinam.
O'zbek tilida:
Gavharekim, ko'rgamen, shoho qulog'ing yonida
Yulduzedurkim, ko'ringay birga oy maydonida.

Senda g'am netsin, ko'rarsen har qachon o'z o'zingni,
Mendadir g'am chunki bormen bir ko'rish armonida.

Boqa olmaydur fusunkor ko'zlaringga ko'zlarim,

¹ Бобур. Бобурнома. – Т., 2002. – 35-б.

² Қаюмов А. Бобур давридаги Андижон адабий муҳити. Хожа Юсуф Андижоний. – Т., 2009. 8-б.

Ikki qora baxtimi ko'rgusi boqqan onida.
Bu she'r Abulqosim Bobur mirzoga bag'ishlangan bo'lgan. Darvesh Ali CHangiyning "Musiqiy risolasi"da Xoja Yusufning yana bir she'ri bor:
Har dilki, volai ruhi on mohpora nest
Uro mago'y dilki, kam az sangi xora nest.

Guftam, buto chi chora kunam dar g'ami tu
Guft injo bog'ayr kushta shudan hech chora nest.

Ey mohi navnamosh tu abru chu mohi iyd
Juz az ruyi vasli tu or nazora nest.

SHud siyna chok lola sifat, laxti chun jigar
Kas nest kaz tu bo ro'yash pora pora nest.

Navro'zu navbahoru mayi dilbaroni xush
Bobur ba aysh kushki, olam dubora nest.

Ma'nosi:

Agar biror dil o'sha oychehra ruhiga volau shaydo bo'lmasa,
Uni dil dema, u toshdan ham qattiqroq bir narsadir.

Dedim: ey go'zal, sening g'amid dan qutulmoqqa ne chora qilayin
Dedi: Bu ishda o'lmoqdan boshqa chora yo'q.

Ey yangi chiqqan oy, qoshing bayramdagi oyga o'xshashdir,
Sening yuzingni (ko'rmoqqa) mushtoq va visolingga intizor bo'lmoqdan
yuoshqa ishimiz qolmadi.

Ko'krak lola singari chok bo'ldi, jigar esa laxta qonga to'ldi,
Biror inson yo'qdirki, seni ko'rganda parcha parcha bo'lib ketmasa.

Navro'zu navbahorda go'zal dilbarlar bilan
Bobur ayshga berilgin chunki hayot ikki bor kelmaydi.

Adabiyotshunos olim H.Boltaboev Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asariga to'xtalib, "Navoiyning o'zi musiqiyini Xoja Yusuf Burhon degan atoqli bir musiqa olimidan o'rgandi" degan ma'lumotdan keyin "Husayn Boyqaroning musiqiy muallimi andijonlik Mavlono Yusufdir" degan qo'shimcha ma'lumotni ham qo'shsak, yuqoridagi ikki manbada ikki xil uchragan musiqachilarining ayni bir kishi ekaniga gumon qolmaydi", degan fikrlari e'tiborga molik.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI (1483–1530).

Lirk shoir va nosir, adabiyotshunos, muarrix, sayyoh, geograf, dinshunos Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil, 14 fevralda Andijon shahrida temuriyzoda

podsho Umarshayx mirzo oilasida dunyoga keldi. Otasi Umarshayx mirzo (1455-1494) Amir Temurga to’rtinchi avlod, onasi Qutlug’ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo’lib, shajarasi o’n ikkinchi avlod bilan Chingizzonga borib taqaladi. U Amir Temurga beshinchi (Umarshayx Mirzo – Abu Said Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh – Amir Temur) avlod edi. Bobur Umarshayx Mirzoning uch o’g’lining to’ng’ichi edi (Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo).

1494 yil, 9 iyunda otasi Umarshayx mirzo Axsida vafot etgach, o’rniga 12 yoshli Bobur taxtga o’tirdi. 1495 yilda Bobur Samarqandga yurish qiladi. 1497 yilning noyabr oyida bobosi Temurning poytaxti bo’lgan Samarqandga hujum qiladi va uni egallaydi. Ammo yuz kundan so’ng Andijonni qo’ldan chiqarmaslik, uchun bu yerni tashlab ketishga majbur bo’ladi. 1493 yil fevralda o’zini Andijon hokimi deb e’lon qilgan Uzun Hasan Boburni shaharga kirgizmaydi. Bobur madad izlab tog’asi Sulton Mahmudning oldiga Toshkentga keladi. 1501 — 1502 yili tog’asi yordamida Andijonni egallaydi. 1503 yilda Andijonni Shayboniy zabit etadi. 1504 yilda 300 tacha yigit bilan Bobur Afg’onistonga jo’naydi. Tez orada Afg’onistonga podsho bo’ladi. Bobur 1504 yilda «Boburiy xati»ni yaratgan. 1505 yili onasi Qutlug’ Nigorxonim vafot etadi. 1512 yili Bobur Samarqandga hujum qilib uni egallaydi.

1513 yilda Shayboniy sulolasidan bo’lgan Ubaydullo Sulton va Muhammad Temur Sulton Samarqandga qarshi yurish boshladilar. Bu urushda Bobur yengildi va Samarqandni tashlab Hisorga qochdi. Shundan so’ng u bobosi yurtini egallah va davlatini tiklash umididan voz kechdi. Endi Bobur Afg’onistonda ilm-fan, madaniyat, hunarmandchilik va qishloq xo’jaligini rivojlantirishga, mamlakat osoyishtaligiga katta e’tibor qildi. Ayni zamonda Afg’onistondagi davlatini janub va Hindiston hisobiga kengaytirish rejalarini tuza boshladi.

1519 yilda Bobur o’z lirik she’rlarini to’plab Kobulda birinchi devoniga tartib berdi. Ammo bu devon hozircha topilgan emas. Bobur besh marta yurish qildi va oxiri Hindistonni batamom bo’ysundirdi. 1526 yil, 27 aprelda Bobur Hindistonning hokimi mutlaqi deb e’lon qilindi va hamma joyda uning podsholigi tan olindi. U Agra shahrini o’ziga poytaxt qildi. Mamlakatda tinchlik o’matib, obodonlashtirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1530 yil, 26 dekabrida Agrada vafot etadi. Vasiyatiga ko’ra qabri Kobulga ko’chiriladi.

Ijodiy merosi. SHoh va shoir Boburning quyidagi asarlari yetib kelgan:

1. Lirik devoni. 2. “Boburnoma”. 3.“Mubayin”. 4.“Muxtasar” (“Mufassal”) 5. “Xatti Boburiy”. 6. “Risolai aruz”. 7. “Voldiya” (tarjima asar).

Nomlari ma’lum, lekin bizgacha yetib kelmagan yoki topilmagan asarlari: 1. “Xarb ishi”. 2. “Musiqa ilmi”.

«Boburnoma» asari memuar-biografik xarakterda, «Risolayi aruz» asari turkiy aruz nazariyasiga bag’ishlangan, soliq ishlarining qonun – qoidasi haqidagi «Mubayyin al - zakot» nomli asarlari yaratilgan. Bobur «Chorgoh savti»ni bog’lagan, «Musiqa ilmi» risolasini yaratgan. Harbiy sohaga oid «Harb ishi» nomli asarini yozgan. Keyingi ikki asari hozirgacha topilmagan. Tarjimon

sifatida Xoja Ahrori Valining «Volidiya» asarini fors tilidan o’zbek tiliga o’girdi.

BOBUR DAVRIDAGI ANDIJON ADABIY MUHITI Reja

1. H.Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasiidagi andijonlik shoirlar haqida.
- 2.P.Qayumiyning “Tazkirat-ush shuaro” asaridagi andijonlik shoirlar haqida.
3. P.Qayumiyning “Tazkirai Qayumiy” asaridagi andijonlik shoirlar haqida.

Tayanch so’z va iboralar: “Muzakkiri ahbob” tazkirası, P.Qayumiyning “Tazkirat-ush shuaro” asarı, “Tazkirai Qayumiy” asarı.

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (“Do’stlar yodnomasi”) tazkirasida Farg’ona vodiysida XVI asrda yashab ijod etgan yetta ijodkor haqida ma’lumotlar uchraydi¹. Ulardan to’rttasi andijonlikdir.

1. Mavlono Fozil Andijoniyning muqaddas yodi. Mavlono Fozil mo’’tabar fozillardan. Ulug’ sultonlar nazdida to’la ehtiromga ega ekan. Zamon ahli uning suhbatiga rog’ib va majlisiga tolib bo’lishgan. SHoirlik sohasida yetuk kishi bo’lgan va so’zamollikda chechanlikni kanda qilmagan. Bu matla’ uning dilga xush yoquvchi yaxshi so’zlaridan. Matla’:

Hast dil ka’bai maqsud mashav g’afil az u,
Gardi dil gard ki maqsud shavad hosil az u.

(Mazmuni: Dil maqsadlarni beruvchi ka’badir, g’ofil bo’lma undan, Dil atrofida aylan, tavof et, undan maqsading hosil bo’ladi.) Aytishlaricha, Hindda dafn etilgan”².

2. Mavlono Nasibiy Andijoniy. Xushgo’y shoirlardan va fazilatlar nasib etgan baxtli insonlardan biri bo’lgan. Bu matla’ unga mansubdir. Matla’:

Ba zulfi pech-pechash shona to dandona meboyad,
Zi g’ayrat har taraf devonae zanjir mexoyad.

(Mazmuni:

O’ram-o’ram sochini bir to’p qilib tarash lozim,
G’ayratga kelib har tarafdan bir telba zanjir tishlagusi)”³.

3. Mirzo Ibrohim Joniy. Bobur podshohning amirlaridan bo’lgan. Bobur podshoh andijonliklarga ko’proq e’tibor qilarkan. Mir Ibrohim qanchalik jon kuydirmasin xizmatiga yarasha qadr-qiyomat topmabdi. SHunda yo’nalish jilovini Hirot tomonga buribdi va yo’lda mana bu matla’ni bitib, podshohga yuboribdi. Matla’:

Yorg’a jon chektim, ammo yor joni bo’lmadim,
Ayladim azmi Hiri chun Andijoniy bo’lmadim.

¹ Каюмов А. Бобур давридаги Андижон адабий муҳити. Хожа Юсуф Андижоний. – Т., 2009. 10-б.

² Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993. 105-б.

³ Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993. 116-б.

Bu so'zlar Bobur podshohning humoyun qulog'iga yetib, iltifot orqasidan bo'lib, uni askarlar orasida baxtiyoru shodmon qilibdilar¹.

4. Muhammad SHarif Sadr Andijondandir. Ko'p fazilatlar kasb etgan va a'zam sultonlar uni oliyqadr sadrlik mansabi bilan siylaganlar. SHe'rga ham iltifoti bor. Va bu matla'sini Buxoroga yuborgan edi. Matla':

Ba xun nishastaam az xanjari judoni tu,

Zi po o'ftodaam az dasti oshnoni tu.

(Mazmuni: Hajring hanjaridan qon ustida o'tirib qoldim,

Ag'yor ila oshnoliging meni oyoqdan oldi)

Xoja Salmon*ning masnu' qasidasiga ham tatabbu' yozgan".

Tazkiraning ushbu to'rtinchi bobি to'rtinchi fasliga Hasanxoja Nisoriy "faqir ularni ko'rmagan, keksalik yoshiga yetmagan, Buxorodan tashqari joylarda yashayotgan jamoat zikrida" deb eslatma beradi². Demak, tazkiravavis Muhammad SHarif Sadrni ko'rmagan, eshitgan va bilganlari asosida ma'lumotlarni bayon qilgan.

"Boburnoma"da Mir Sarbarahna haqida quydagilar keltiriladi: "Sudur: biri Mir Sarbarahna edi. Andijonning kentlaridindur. G'olibo mutasayyiddur, bisyor xushsuhbat va xushtab' va shirinkalom kishi edi. Xuroson fuzalosi va shuarosi qoshida aning daxli va so'zi mo''tabar va sanad edi. Amir Hamza qissasining muqobalasida umri zoyi' qilib, uzun uzoq yolg'on qissa bog'labtur; bu amr muxolifi tab' va aqldur"³. Bobur Mir Sarbarahnating Andijondan ekanligi, sayyid avlodи ekani, Xurosonda olimlar, fozillar, shoirlar huzurida o'zining bu davraga ta'siri borligi hamda aytgan so'zlari e'tiborga ega, qadrli hamda asosga ekanligini ta'kidlaydi. Amir Hamza haqida qissa yozganini aytib o'tadi.

Professor H.Boltaboevning "Boburnoma" sahifalarida andijoniyalar" maqolasida Muhammad SHarif Sadrning asl ismi Xondamirning "Xulosat ul axbor" asarida Sayyid SHamsuddin Muhammad Andijoniy deb keltirilgani, Mir Sarbarahna uning laqabi ekanini izohlaydi⁴. Xondamir asarida mazkur shoirning fe'l-atvori, sajiyasi va boshqa fazilatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan: "Fe'lining xushligi, so'zlarining muloyimligi, fahmining tezligi hamda zehnining o'tkirligi bilan zamon fozillari va davronning ziyrak kishilari orasida tamom ajralib turar edi. Hamma vaqt so'zlari shirin va ma'noli, hikoyatlari go'zal, suhbatlari ajoyib va g'aroyibdir. Hayotining boshlarida ko'p vaqt Movorounnahr mamlakatida ilm toliblari orasida kun kechirdi. Hirotg'a kelganidan keyin Mir Alisherning inoyati va tarbiyati tufayli firqadondan ham yuqori bo'ldi. Sultan

¹ Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993. 120-б.

* Ҳожа Салмон – мўғуллар даврида маснуъ шеър жанрини қайта жонлантириб, ажойиб бадиий намуналар яратган Ҳожа Жамолиддин Салмон Ҳожа Алоиддин Муҳаммад (Сова ноҳиясидан бўлгани учун Салмон Соважий тахаллуси билан танилган) 1299-1376 йилларда яшаб ижод қилган.

² Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. – Т., 1993. 264-б.

³ Бобур. Бобурнома. – Т., 2002. – 136-б.

⁴ Болтабоев Ҳ. "Бобурнома" саҳифаларида андижонийлар / Китобда: Мумтоз сўз кадри. – Т.: Адолат, 2004. 55-б.

sohibqiron ham ul janobni maqbul ko’rdi va oliy mansablardan sadrlik lavozimiga Xoja Kamoliddin Korangiyga sherik qilib tayinladi... ul janobning vafoti 898 (1493) yili sodir bo’ldi”¹. Xondamir keltirgan ma’lumotlarga tayanib professor H.Boltaboev Muhammad SHarif Sadrning ma’lum muddat Movorounnaharda, aynan esa, ilm-fan markazi bo’lgan Samarqandda yashaganligi Hazrat Navoiyning rag’bati bilan oddiy fuqarolikdan (firqadon) sadrlik mansabiga ko’tarilganini ta’kidlaydi². “Sarbarahna” laqabi haqida Xondamirning mazkur asarida ishora bor bo’lib, u quyidagicha izohlangan: “Faqat Xondamir uning Hazrat oldiga “banda sayyid va yoshi ulug’ bo’lsam-da, xodimlar orasida xizmatda bo’lsam” degan arz bilan kelganida bir bayt bilan javob berib, “Sadrlik gadoylarga berilgan in’om qilingan joyda she’r undan ustun turishi”ni keltiradiki, bu nozik qochirimni shoirning dastlab yalangoyoq, ya’ni sarbarahna bo’lganiga ishora deb qabul qilsak, uning “umid yulduzi iqbol darajasiga ko’tarilganini” anglash mumkin. Xondamir uni sadr va sayyid sifatida anglatgani uchun ham shoir ijodidan biror bayt keltirmagan”³.

Mir Sarbarahnaning Bobur aytgan “Amir Hamza qissasining muqobalasida umri zoyi” qilib, uzun uzoq yolg’on qissa bog’labtur” ta’rifini adabiyotshunos olim H.Boltaboev quyidagicha izohlaydi: “Amir Hamza islomni olamga yoyishda ulug’ ishlar sohibi bo’lgan lashkarboshilardan bo’lib, Payg’ambarimiz (s.a.v.) yoronlaridan Hazrat Umar bilan bir vaqtda islomga kirgan, qator janglarda Payg’ambarimiz (s.a.v) bilan barobar jang qilgan bahodirlardan. Musulmon dunyosida “Amir Hamza qissasi” “Abu Muslim jangnomasi” kabi mashhur manqabaldan. U haqda Mir Sarbarahna yirik asar yaratishga say’ harakat qilgan ekanlar, Boburshoh aytganidek, buni “tab’ va aql” mevasi sifatida qabul qilish mumkin”⁴. “Yolg’on qissa” esa tarixiy voqelikni badiiylashtirilishiga nisbatan aytildan ibora ekan.

Demak, Mir Sarbarahnuning to’liq nomi Sayyid SHamsuddin Muhammad SHarif Sadr Andijoniy bo’lib, “Muzakkiri ahbab”da keltirilgan fors tilidagi baytiga ko’ra uning forsiy va turkiy tillarda she’rlari mavjud bo’lgani, “Amir Hamza qissasi”ni yozganligi bizga ma’lum bo’ladi. Biroq, bu asarlar bugungi kungacha bizga noma’lum qolmoqda.

PO’LATJON QAYUMIYNING “TAZKIRAT-USH SHUARO” ASARIDA ANDIJONLIK SHOIRLAR HAQIDA

Akademik A.Qayumov tazkiraning ikkinchi jildida Ali Navidiy nomli shoir haqida ma’lumot borligini aytib o’tadi.

¹ Навоий замондошлари хотирасида. – 67-б.

² Болтабоев Ҳ. “Бобурнома” саҳифаларида андижонийлар / Китобда: Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. 56-б.

³ Болтабоев Ҳ. “Бобурнома” саҳифаларида андижонийлар / Китобда: Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. 56-б.

⁴ Болтабоев Ҳ. “Бобурнома” саҳифаларида андижонийлар / Китобда: Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адолат, 2004. 57-б.

Ali Navidiy. Bu shoirning **SHoh Tohir Andijoniy** degan shoirning shogirdi ekani yozilgan.

Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Navidiy sayohatga chiqib Hindistonga borgan. Dakan viloyatida u yerning hokimi Abulfath Nizom Husaynning iltifotiga erishgan. Ammo keyinchalik hokimning iltifotidan mahrum bo'lgan. SHuning uchun taxallusini Navmidiy deb o'zgartirgan ekan. Bir qancha vaqt Ahmad Nigor degan shaharda yashagan. Navmidiy 915/ 1567-1568 yili vafot etgan¹. Tazkirada bu shoirning she'rlaridan keltirilmagani aytib o'tiladi. Ali Navidiy ustozи SHoh Tohir Andijoniy qo'lida ta'lim olganini taxmin qiladigan bo'lsak, SHoh Tohir Andijoniy XV asr oxirlari yoki XVI asr boshlarida yashab ijod qilganini aytish mumkin. Ma'lum bo'lishicha, Navidiy Hindistonda yashab qolgan va o'sha yerda dunyodan o'tgan. Garchi ikki ijodkor Ali Navidiy va SHoh Tohir Andijoniylar haqida ma'lumotlar yetarli bo'lmasa ham, ularni XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi Andijon adabiy muhitining vakillari hisoblanadi.

Furqatiy Andijoniy. Tazkirada andijonlik shoir Furqatiyning Kosonda yashagani va 1616/1617 yillarda vafot etgani haqida ma'lumot mavjud. Fors tilidagi bir bayt keltirilgan:

Siyohbaxtiy az in peshtar nameboshed,
Ki majlisi digaron ravshan az chirog'i manast.

Kalon I. Bu kishi asli Farg'onadan bo'lib andijonlidir. Turk-chig'atoy elidan edi. Nomi Xoja Kalonbekdir. Zahiriddin Muhammad Boburning amirlaridan, a'yoni rijollaridan edi. Kobil va Kandahon tomonlarda hokim, amir bo'lib xizmat etar edi. Ko'pincha Kobilda turmishdur. Unda vafot etmishdur. Turkiy va forsiy ash'orlari bordur. SHul bayt shoirning nashidai tab'idandur.

Nadoram tob didan peshi u badxo' raqibonro,
Az in bar subhi vasli u guzidam shomi hijronro.

Ma'nosi:

Uning yonida xunuk bashara raqiblarni ko'rmoqqa toqatim yo'q,
SHuning uchun uning vasli tongidan ko'ra ayriliq kechasini afzal ko'raman.

Akademik A.Qayumov Kalon I ni "Boburning eng yaqin do'stlari va harbiy qo'mondonlaridan biri bo'lmish Xoja Kalon bo'lsa kerak", deydi. "Boburnoma"da ham Xoja Kalon haqida, uning G'aznaga ketayotib bir bayt yozib qoldirgani, unga Bobur javob bitgani haqida aytib o'tilgan. Gap shundaki, Hindistonning issiq havosiga chiday olmagan Xoja Kalonbek yor-birodarları, yaqinlarini tashlab Afg'onistonning G'azna shahriga ketmoqchi bo'ladi. Ketish oldidan uyining darvozasiga quyidagi baytni bitib yopishtirib ketadi:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind shavam,
Siyoh ro'y shavam gar havoyi Hind kunam.

(Mazmuni: Agar sog'-salomat Sinddan o'tib ketsam, Hindistonni yana havas qilsam, yuzim qora bo'lsin.)

"Boburnoma"da shunday keltiriladi: "Biz Hindistonda turub, mundoq zarofatomiz bayt atmoq va bitmoq besurattur. Ketmakdin bir kudurat bo'lsa, bu

¹Қаюмов А. Бобур давридаги Андикон адабий муҳити. – Т., 2009. 14-15-б.

nav' zarofattin ikki kudurattur. Men dag'i badihada bir ruboiy aytib, bitib yubordim:

Yuz shukr de, Boburki, karimu g'affor,
Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.
Issig'lig'iga gar sanga yo'qtur toqat,
Sovuq yuzini ko'ray desang, G'azniy bor"¹.

Sipohiy I. Bu ijodkor Turkiston shoirlaridan bo'lib, farg'onali ekanligi, asli Andijonda tug'ilgani aytildi. Kiborlarning, ya'ni yuqori tabaqa vakillarining o'g'li ekanligi keltiriladi. Nomi Xudodo'st bo'lib turkcha she'rlari bo'lsa ham zamonamizgacha yetib kelmag'an ekan. Uning fors tilidagi bir ruboysi keltirilgan:

Afsuski, vaqt gul bazudiy biguzasht,
Faryodki, to chashm kashudiy biguzasht.
Ba chashmu xamat binaf shau nargisro
Ayyomi bako'riyu kabudiy biguzasht.
Ma'nosi:
Afsuski, gul vaqt tez o'tib ketdi,
Faryodki, ko'z ochib yumguncha o'tdi.
Binafsha xating bila nargisingsiz
Ko'rlik ayyomi kuni bitdi.

Darvesh ali CHangiyning "Musiqiy risolasi"da hofiz Ohiy Hiraviyning shogirdlari sirasida **Maqsud Andijoniy** aytib o'tiladi. Maqsud Andijoniy Hirotda Sulton Husayin dargohida xizmatda bo'ldi. SHayboniyxon Hirotni egallagach, boshqa san'atkorlar bilan Buxoroga keltirilgan. "Tarona", "Amal", "Peshrav", "Savt" kuylarini ijod qilgan. Ular Jomiy g'azaliga aytilgandirlar. Maqsud Andijoniy yaxshi she'rlar ham yozar edi. Hirotda vafot etgan².

Xulosa qilib aytish mumkinki, XV-XVI asrlarda Farg'ona viloyatining poytaxti bo'lган Andijon adabiy-madaniy markazlardan bo'lган. Bu adabiy muhitda ko'plab shoир, foziл, musiqa ustalari, san'at namoyandalari yetishib chiqqanlar. Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu adabiy muhitning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan bo'lib, o'z davrida adabiyot va san'at ahllariga homiylik qildi, adabiyot, ilm-fan, san'at sohalarining rivoji uchun g'amxo'rlik ko'rsatdi.

XVIII-XIX ASRLAR ANDIJON ADABIY MUHITI.

NODIRA HAYOTI VA IJODI (1792-1842)

Reja

- 1. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi.**
- 2. Nodira davrida adabiy muhit.**

Tayanch so'z va obrazlar: XVIII-XIX asrlar Andijon adabiy muhiti, Nodira hayoti va ijodi, Nodira lirikasi.

¹ Бобур. Бобурнома. – Т., 2002. – 211-б.

² Каюмов А. Бобур давридаги Андикон адабий муҳити. – Т., 2009. 18-б.

Asl ismi Mohlaroyim bo'lgan shoira Nodira 1792 yilda Andijonda shahar hokimi Rahmonqulibiy oilasida tug'ilgan. Otasi o'zbeklarning ming urug'iga mansub bo'lib, Farg'ona hukmdori Olimxonning tog'asi edi. Onasi Oyshabegim ham savodxon, o'qimishli ayol bo'lgan.

Nodiraning otasi Rahmonqulibiy «notiq va so'zga chechanligi» tarixiy manbalarda qayd etiladi. Uning «Rahmonqul to'qsoba Tojiy Andijoniy» sarlavhasi qo'yilgan g'azal Andijon viloyat Tarix va madaniyat muzeyida inv.№5045 raq.ostidagi bayozda uchraydi:

Bu ayrlig' bila bormen ki zoru beorom,
Asiri ofat beintihoyi charx mudom.
Zamona ishlari bunyodidek dilim vayron,
Nigor sochi kibi ham taralmish erdi tamom.
Agar havas qiladurg'on esa bu holima bazm,
Rubob nolam o'lub, ko'zyoshimg'a to'lg'ay jom.
Falak molik jilovin berdi aqlsizlarg'a,
Vale mening yo'lima makr ila qurubdur dom.
Falak ki tong kibi mehrin bog'ishlag'on kaskim,
Ani shafaq qonig'a g'arq etar falak har shom.
Xato yuzig'a tutar bo'lsa yerdakim, to'lking,
Dilini otashi g'am ichra kuydurur ayyom.
CHaqimchilig'ni qayu mushxis qilsa tong kibi kasb,
Boshig'a kelgusi Tojiy quyoshdek zarfom.

Rahmonqulbiy o'z davrida obodonchilik, bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Uning nomida madrasa qurilgan bo'lib, chor Rossiyasi davrigacha faoliyat ko'rsatgan.

Nodiraning ota onasi sohibqiron Amir Temur xonadoniga mansub bo'lgan. Buni ushbu baytlaridan bilish mumkin:

Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen,
Xudoyo rahmat ayla barcha ajdodi izomimni.

Nodiraning onasi Oyshabegim qizining komil shaxs bo'lib yetishuviga hissa qo'shgan.

1806-1807 yilda Nodira Qo'qon xoni Olimxonning ukasi Amir Umarxonqa turmushga chiqadi. Amir Umarxon bu vaqtida Marg'ilon hokimi edi. Nodira Marg'ilonga keladi. 1808 yilda Nodiraning o'g'li Muhammad Alixon tug'ilgan.

1810 yilda Olimxon o'limidan keyin Amir Umarxon Qo'qon taxtini egallaydi va oilasi bilan Qo'qonga keladi. 1822 yili Nodiraning turmush o'rtog'i Umarxon vafot etadi. 14 yashar Muhammad Alixонни xon qilib ko'taradilar. Nodira mamlakatni boshqarishda o'g'liga yo'lboshchi bo'ladi. Amir Umarxonning ishlarini davom ettiradi. Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijondan usta naqqoshlar, me'morlarni Qo'qonga chaqirtirib, madrasalar, kutubxonalar qurdiradi. Xattotlarga Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Amiriy kabi shoirlarning asarlarini ko'chirtirib, devonlar tuzishni topshiriq qilib beradi. Iste'dodli xattotlarga tilla qalam va kumush qalamdon berib "zarrin qalamlik" mansabiga ko'taradi. Adabiyot

va madaniyat borasidagi bunday ishlari sabab shoiraga “Nodirai davron” nomini bergenlarini uning zamondoshi Xotif qayd etadi. 1842 yili Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan Nodira, o’g’illari Muhammad Alixon, Sulton Mahmud, nabirasi Muhammad Amin o’ldiriladi.

Nodirabegim qabrtoshiga quyidagi bayt bitilgan:
"Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O’tar bu dahr foniydan o’zini nek nom aylab"

Shoira Mohlaroyim Nodira taxallusidan tashqari “Komila”, “Maknuna” nomi ostida ham o’zbek va tojik tillarida lirik she’rlar yaratdi. O’zR FA Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida 4182 raqami ostida bir devoni, 7766 (ayrim manbalarda 7768) raqami ostida fors-tojik tilidagi Maknuna taxallusli devoni, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida 313 raqami ostida namanganlik shoir Nodimning neverasi bo’lgan Musallamxon shaxsiy kutubxonasidan olingan yana bir devoni ma’lum. Devonda Nodira taxallusi bilan yozilgan 180 ta she’ri mavjud, ulardan 136 tasi o’zbek tilida, 44 tasi tojik tilida. Bulardan 11 ta muxammas, 2 musaddas, 1 musamman, 1 tarjiband, 1 tarkibband, 1 firoqnama. Maknuna taxallusi bilan yozilgan tojik tilidagi she’rlar devonida 333 g’azal mavjud.

1958 yili shoira asarlarining to’liq nashri akademik A.Qayumov tomonidan nashr etildi. 1963 yili shoiraning o’zbek va tojik tilida yozgan she’rlari devon shaklida chop etildi. 1965 yili M.Qodirova Nodira hayoti va ijodini maxsus o’rgandi, “Nodira hayoti va ijodi” monografiyasi nashr etildi. 1993 yili “O’zbek shoiralari bayozi. Uvaysiy. Nodira” nomli kitob M.Qodirova tomonidan nashr etildi.

Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi jamg’armasidagi inv.5045 raq. Bayozda Nodiraning haligacha noma’lum bo’lgan, Komila taxallusida yozilgan, uning devonida uchramaydigan g’azali borligi ma’lum bo’ldi.

Ishq aro baxtim menga bir iltifote qilmadi,
Baxtsizlig’ ofati mendin sira ayrlmadi.
Lola jomida labolab qon ichib o’tdim mudom,
Qat baqat qonlig’ bu ko’nglim g’unchasi ochilmadi.
Vah nasibim hajr o’lub peshonama yozildi, lek
Vasl jomidin xumori furqatim yozilmadi.
Bulhavaslig’ni namoyish qildi kim, qildi havas,
Ishq uni ne bilmadi, to ko’ksida yoqilmadi?
Kim haqiqiy oshiq o’ldi bildi sevgi qadrini,
O’zga qadrin bilmadi, o’z qadrini to bilmadi.
Yoshim aylabdur tanim loy, o’yla bir tun yo’qdurur,
Kim qadam qo’yganda uyqu ko’zima toyilmadi.
Komila, men ishq maydonida javlon ayladim,
Yorliqqa ishq aro bir komile topilmadi.

Muntazir, Biymiy, Samarbonu hayoti va ijodi Reja:

- 1. SHoir Muntazir hayoti va ijodiy merosi.**
- 2. Abdurazzoq Biymiy hayoti va ijodi.**
- 3. Samar bonu hayoti va ijodiy merosi.**

Tayanch so'z va obrazlar: Muntazir hayoti, Muntazir lirikasi, Biymiy lirikasi, Samarbonu she'riyati.

Yusuf qori Mirzohid o'g'li Muntazir(1831-1884) Qo'qon shahrida ma'rifatli oilada tavallud topadi. Dastlabki savodini otasining qo'lida chiqaradi. Otasining vafotidan so'ng amakisining qaramog'ida qoladi, madrasada tahsilni davom ettiradi. O'sha paytdagi ilm va tahsilni puxta o'zlashtiradi, so'ngra o'zi o'qigan madrasada mudarris bo'lib qoladi. Xudoyorxon saroyida munshiylik vazifasida ishlaydi.

Muntazir o'z asarlarini bir bayozga yiqqan, lekin u yo'qolib ketgan bo'lib, undan ayrim she'rlargina qolgan. "Otim", "Salla" nomli hajviy mazmundagi, "Ko'rib", "O'lg'il" kabi lirik yo'nalishdagi she'rlar, fors tilidagi "Dorad" radifli she'r yetib kelgan.

Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek Andijon viloyatiga hokim qilib tayinlangandan keyin Muntazir unga bek atka sifatida Andijonga yuboriladi. Uning qolgan umri Andijonda o'tadi. Uning o'z vazifasidan kelib chiqib, andijonlik shoirlar Qori Zokir, Bimiy, Pirimqori kabi shoirlarga homiylik qilganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Uning Qo'qon, Toshkent adabiy muhiti bilan ham bog'langanligini bilish mumkin.

Tarixiy sharoit ziddiyatli bo'lган bir paytda Andijon hokimiga bek atkalik qilish katta mas'uliyatni yuklar edi. SHu bois bo'lsa kerak shoir Muntazir bu vazifadan ketib Andijon shahridagi "Bobo Sa'diddin" qabristoni yonidan bir hujra olib umrguzaronlik qiladi. U qolgan umrini badiiy ijodga bag'ishlab, she'riy asarlar yozadi. Muntazirning ijtimoiy tanqidiy she'rlari uchun ayrim tabaqa vakillari yoqtirmagan. O'zi haqida shoir shunday yozadi:

Erur oni Ho'qand aro maskani,
Hajvgo'ylik erur faolu fani.
Topolmas kishi aybin atvordin,
Qilur hajv o'z to'nu dastordin.

Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili Muqimiy Muntazirning "Dorad" radifli forscha g'azaliga muxammas bog'lagan.

XXX

Ko'rib bir yo'l jamolingni ko'ngil husnungga zor o'ldi,
Hazin jonim firoqing shiddatidin beqaror o'ldi.
Qadingga jilva berding, bog' aro nogoh xirom aylab,
Dedi el ko'rgach, ul qomat qiyomat oshkor o'ldi.
Menga ham ishqing ichra ta'nalar aylar edi zohid,
Bihamulloh, yuzing ko'rgach, so'zidan sharmisor o'ldi.

Qadding mayli yu, zulfiing yodiyu, xoling xayolindi
Qadim xam, ro'zg'orim tiyra, chashmim ashkbor o'ldi.
Tong ermas qilsa komil ishqimi husning tamoshosi
Ki har yerda haqiqatga majoz oynador o'ldi.
Malak zodu, falak qadru ostonang sajdagoh etgach,
SHarafdin Muntazir nazmi durri shahvor o'ldi.

Mulla Abdurazzoq Homidxo'ja mirzo boshi o'g'li Biymiy. Jalaquduq tumanı Oyim qishlog'ida tug'iladi. Otasi Homidxo'ja mirzo boshi o'g'li Abdurazzoqning yaxshi ta'lim tarbiya olishi uchun harakat qilgan. Abdurazzoq o'z qishlog'idagi dastlabki maktabni tugatgach, Qo'qondagi madrasalarda tahsilni davom ettiradi. Qo'qon shahri bu davrda madaniyat markazlaridan edi. SHu bois Abdurazzoqning ijodkor bo'lib yetishuvida bu madaniy markazning ta'siri katta bo'ldi. Qo'qon madrasalarida o'qirkan, bo'lg'usi shoir adabiy muhit namoyandalari bilan yaqindan tanishdi, adabiy mushoiralarda ishtirok etdi. Abdurazzoq Bimiy shoirta'b bo'lishidan tashqari ovozi yoqimli bo'lib, soz chalib qo'shiq kuylar edi. U Muqimiy boshliq adabiy mushoira davralarida qatnashib, g'azal aytish bahsida ishtirok etgan, mushoiradan so'ng bo'ladijan musiqiy kechada soz chalib kuy ijro etgan.

P.Qayumiyning "Tazkirayi Qayumiy" asarida "Bu shoirning nomi Mulla Abdurazzoq bo'lub, Ho'qandlidur. (Bir kishi Andijonli deb edi)" degan ma'lumot beriladi. So'ngroq esa "shoir asli andijonli bo'lub undan Nasriddinbek ila yo ergashib kelmish ekani ehtimolga yaqindur" degan fikrlarni keltirgan¹. Mavjud adabiy va tarixiy manbalarda esa Biymiyning andijonlik bo'lib, garchi bir muddat Qo'onda bo'lsa-da, asosiy umri Andijonda kechganligini ko'rsatadi.

Biymiy madrasa tahsilidan so'ng o'z qishlog'iga qaytib qozixonada mirzolik bilan shug'ullandi. SHuningdek badiiy ijod bilan shug'ullandi. O'z she'rlariga kuy bastalab ijro etar edi. Aytishlaricha, badiha usulida to'qilgan g'azaliga shu paytning o'zida kuy bastalab ijro etgan. Biymiy Qo'qon shoirlari bilan aloqani uzmay, ular bilan xat orqali xabarlashib turdi. Do'stlariga o'z she'rleridan yuborib ularning fikridan xabardor bo'lgan. O'zi ham ular yuborgan she'rlarga munosabat bildirgan.

"Tazkirayi Qayumiy" muallifining e'tiroficha, bir qo'lyozma kitobning oxirgi sahifasidan birida Biymiyning bir she'riga ko'zi tushganini aytadi.

Bor erdi Abdurazzoq devona xo',
Ki devona ermas neku tab' neku.
Birav topmas aybini atvoridin
Qilur hajv o'z to'n dastoridin.
Bo'lub Ho'qand oning maskani
Hijo g'o'liqdur shioru fani
Bu bahri tavil tarkini qildi raqam
Malikzodadin topdi ul dam karam.

¹ Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. I жилд. – Т., 2004. – 200 б.

So'nggi misradagi "malikzoda" Xudoyorxonning andijonga hokim etib tayinlangan o'g'li Nasriddinbek ekanı ma'lum bo'ladi. Tazkirada "bekning (Nasriddinbek – D.A.) Biymiyning debochasiga o'xshatma etib xuddi shul vaznda yozganları bordur. Aloqasi shundan bilinadur" degan izohi Nasriddinbekning nazira she'ri bor ekanligidan dalolat beradi. Nasriddinbek SHaxzoda taxallusi bilan g'azallar yozgan, uning bir namunasi "Tazkirayi Qayumiy"da keltiriladi.

Abdurazzoq Biymiy Nasriddinbekdan bir salsa so'rab bahri tavilda yozadi: "Sayyidim, toji sarim, nukta rasim, ahdi qadim. Bandaga bir salsa karam qilg'an edilar, magaram xotiri ashraflaridin mahf bo'lub kelgani uchun yodi muborakka solay deb bu sifat bahri tavil ayladim insho. Maliko, muhtashamo, anglaki, kallamdagı sallam titilib har yeridin turli teshiklar qiymai parcha bo'lub ilma uloq..." "Bahri tavil" mazmunidan Abdurazzoq Biymiyning qiyinchilik va nochorlikda yashaganini anglaymiz. Uning qachon va qaerda vafot etgani haqida ma'lumot saqlanmagan. Tazkirada keltirilgan

Debochay ishqdin rivoyat

G'am daftaridin bu bir shikoyat

matlali asar parchasi uning masnaviy debochasiga o'xshashligini ko'rsatadi.

San ishq o'tisan ki, man kabobam

O't yonida doim iztirobam.

San mahvashi ofati zamona

Man mardum ichinda bir fasona.

Endi netaramki, toqatim yo'q,

Hajring alaminda mehnatim cho'x...

Muhibu junun ahli ushshoq,

Biymiyi g'aribu Abdurazzoq.

Tazkirada shoirning yana bir g'azali keltirilgan:

Ishq ichra qachon Majnun devona ekan mandek,

Laylini firoqinda afsona ekan mandek.

G'am tog'ida qon yig'lab SHirin g'amida Farhod

Hasratda qachon ashki durdona ekan mandek.

Ovorayi hijronlar sahroyi malomatda

Mushtoqi visoli ul jonona ekan mandek...

Uzroni g'ami birlan Vomiqni dilu ko'ngli

Ishq ofatila Biymiy devona ekan mandek.

SHoir Biymiy o'z g'azal va boshqa she'rlarini bir bayoz tarkibida yig'ib borgan, biroq bu bayoz yo'qolgan. Uning asarlari adabiyot muxlislarining daftarlari va boshqa bayozlar tarkibida mavjud.

Bimiyning kuy bastalangan g'azallari yaqin vaqtlargacha to'yu tomoshalarda ijro etib kelingan, radio va televidenieda ham berilgan. Uning "Bormayman de di", "Qayga boray" she'rlari shular jumlasidandir.

"Bormayman dedi"

Bazm aro ul sho'xi dil ozor bormayman dedi,

Sendin o'zga oshiqim bisyor, bormayman dedi

“Aylama arzing yozib izhor, “bormayman” dedi,
Zoe o’lg’ay mehnating bekor, bormayman dedi
Nozaninim, mahvashim, bor bor, bormayman dedi.

Men qulingmang deb necha izhor ahvol aylasam,
G’amzasi paykoniga jonomni yaqqol aylasam.
Bori g’am birla alifdek qomatim dol aylasam,
Ko’z yoshimni hasrati dardi bila ol aylasam,
G’ayr ila ishrat tuzib, bor bor, bormayman dedi.

Hajrida tortgan har oqshom iztirobimni ko’rib,
Qil kabi ishq otashida pechi tobimni ko’rib.
Nola tori birla bergan tilgrofimni ko’rib,
Ofati jonom mening holi xarobimni ko’rib,
Rahm qilmay holima bor bor, bormayman dedi.

Intizorin torta torta zor bo’ldim kechalar,
Furqati dardi bila afgor bo’ldim kechalar.
Ibtiloi hajr ila bemor bo’ldim kechalar
Vasl ummidi bila bedor bo’ldim kechalar
Ne bo’lur kelsang desam bor bor bormayman dedi.

Zulfidan tushgan edi savdo mening bu boshima
Bir tarahhum etmadi hajrida oqqan yoshima.
Ofarin der bu jahon ahli mening bardoshima
Desa bo’lmas Bimiy hijron qissasin sirdoshima
Bovujud holim ko’rib bor bor bormayman dedi.

Samar Bonu Sirojiddin qizi(1834-1894) O’sh shahrida tug’ilgan. U shoir Huvaydoning neverasi bo’lib, otasi Sirojiddin ham “Sirojiy” taxallusli ijodkor bo’lgan. Samar Bonu yosh chog’ida xat savodini chiqaradi, adabiyotga mehr qo’yadi. SHarq adabiyotining yirik namoyandalari Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Boburlarning asarlarini mutolaa qiladi. Bu mutolaa uning ijodkor bo’lib yetishuvida katta ta’sirini ko’rsatgan. Samar Bonuning hayot yo’li qiyinchiliklar, fojealar bilan kechganligi haqida ma’lumotlar bor. Samar Bonu o’zi xohlamagan yigitga turmushga chiqishni istamay, to’yi arafasida Marhamatga ketib qoladi. 1855 yilda Samar Bonu otasi Sirojiddinning shogirdi mulla SHarifga turmushga chiqadi. SHarifjon bog’bonning o’g’li bo’lib, Marhamatning Mingtepasida yashar edi. Samar Bonu va SHarifjonning Zahiriddin ismli o’g’illari bo’ladi. Ular turmush qurbanlarining ikkinchi yilida Samar Bonuga avval unashirilgan kuyov yigit sheriklari bilan kelib SHarifjonne o’ldiradi. Samar Bonu chaqalog’i bilan beva qoladi.

Samar Bonu bobosi Huvaydo, otasi Sirojiy kabi ijod bilan shug’ullanadi, maktabdorlik qiladi, otinoyilik ham qiladi. “Qizlar” radifli g’azalida nomi zikr

etilgan shogirdlaridan SHarifanisoni keyinchalik o'g'liga kelin qilib oladi. SHarifanisodan yetti nabira, qorasuvlik kelinidan uch nabira ko'radi.

Samar Bonu Marhamatning O'qchi qishlog'ida o'z uyida qizlar uchun mактаб ochadi. U qizlarga xat savod o'rgatishdan tashqari husnixat, adabiyot, she'riyatdan saboq beradi. U tashkil etgan maktabda Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil kabilarning asarlari o'qitilgan. Xat mashqi darslarida shoira o'z she'rlarini aytib yozdirgan.

Menga shogird bo'libsizlar, necha qimmatbaho qizlar,

Bari bir biridan ortuq, farosatli, raso qizlar.

Saodat axtari birlan tug'uldi yaxshi saodatda

Tamomi insu jinsdin ham paridin purhayo qizlar.

Yuzi issiq, qadi ko'hlik. Iboyu ham ishoratlik

Sifat az Qof to Qof aylasam bo'lmas ado qizlar.

Maktabda o'quvchi qizlarni arab yozuviga o'rgatishning o'ziga xos usuli, metodiga tayangan. Samar Bonu so'zlarni yozdirish uchun topishmoq, so'z o'yinlari, o'xshatishlardan keltirgan. Bu maktabda mushoira davralari, she'riyat kechalari bo'lib turgan. Samar Bonuning bu faoliyati Uvaysiy, Dilshodi Barno kabi maktabdor ayollar faoliyati bilan tenglashtiriladi.

PIRIMQORI HAYOTI VA IJODI

Reja

1. Pirimqori Ibrohimhoji Andijoniy hayoti va ijodi.

2. Pirimqori she'riyatining mavzu ko'lami, badiiyati.

Hayot yo'li. Pirimqori Ibrohimhoji o'g'li 1860 yilda Andijon shahrining sobiq Yalang'ochqo'rg'on mahallasida mayda savdogar oilasida tavallud topadi. Ilk ta'limni Andijonda olgandan keyin o'z davrining ma'rifatni qadrlaydigan kishilaridan bo'lgan otasi Ibrohimhoji uni Qo'qon madrasasiga o'qishga yuboradi. Pirimqori bu yerda tahsilni davom ettirish bilan birga Qo'qon adabiy muhitiga yaqinlashadi va Muqimiy adabiy maktabidan ijodiy oziqlanadi. Ilk she'rlari shu yerda bitilgan shoир Pirimqori taxallusi bilan tanila boshlaydi. Pirimqori tahsilni tugatib, Andijonga qaytgach, otasiga savdo ishlarida ko'maklashadi, lekin badiiy ijodni ham davom ettiradi.

Ijodi. Pirimqori Toshkent adabiy muhiti bilan ham yaqin aloqada bo'ladi. Ayniqsa, unga Xislat Toshkandiying ta'siri katta bo'ldi. Pirimqori Xislatga bir necha g'azal va muxammalar yozib jo'natadi.

Nabijon Qobulovning keltirishicha: "Pirimqori o'ta hozirjavob shoир bo'lib unga she'riy misralar bahor yomg'iri kabi quyilib kelgan. Qish kunlarining birida shoир Pirimqori xonodonida mushoira ayni qizib turgan bir paytda, deb hikoya qiladi she'r muxlisi shoirning hammahallasi keksa ishchi Sulaymon ota Akbarov – birdan tashqarida qandaydir besaranjomlik boshlanib ketdi. Pirimqori darpardani ochgan edi, bo'ron aralash qor yog'ayotgani ma'lum bo'ldi. U o'sha zamoniyoq mana bu baytni to'qib tashladi:

Qoru bo'ron kelsa lashkar tortibon el qasdig'a,

Pahlavon o'chog'imiz, sohibqirondur sandali.

Undan keyin mushoiraga allaqanday ko'tarinkilik va fayz tushdi”¹.

SHoir mumtoz adabiyotning g'azal, muxammas, tuyuq, mustahzod, ruboiy janrlarida ijod qilgan. Bayozdagi she'rlarining jami 15 ta bo'lib, ulardan 10 g'azal, shu jumladan olti muvashshax, bir fard, to'rt muxammasdan iborat.

“Savg'oti Xislat” deb nomlangan bayoz 1914 yil Toshkentda Portsev matbaasida chop etilgan bo'lib bu kitob keng jamoatchilikka ma'lum emas edi. Bayozda asosan XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Muhayyir, Xislat, Pirimqori, Roiq, Figoriy, Asiriy, Sidqiy, Ibrat, Zululiy, Pisandiy, Hoji Mirzo Ya'qub, Mir Maqsud, Akmalxon'ta, SHavkat kabi shoirlarning mumtoz adabiyotning turli janrlarida yozilgan 60 dan ortiq asarlari jamlangan. Ularning mavzu doirasi ham keng bo'lib, ishqiy, diniy, axloqiy kabi mavzularda bitilgan. SHuningdek, bayozga Mashrab, Fazliy, Komil Xorazmiy asarlari ham kiritilgan.

Bayoz kotib Mullo Mirzo Ahmad qori Toshkandiy tomonidan bitilgan bo'lib, u hajman kichik, 128 sahifadan iborat. Pirimqori, Figoriy, Sidqiy, Zululiy, Asiriy kabi shoirlarning Xislat Toshkandiya yuborgan g'azali va muxammaslari bayozning asosiy qismini tashkil qiladi. Bayoz Muhayyir g'azali bilan boshlanib Pirimqori, Roiq, Figoriy asarlari bilan davom etgan. Xotimada kotibning bayozni tez muddatda kitobat qilgani sababli ba'zi xatolar bo'lishi mumkinligi haqidagi she'riy ilovasi bor. So'nggi sahifada quyidagi e'lon berilgan: “Hurmatlu mushtariyalarimizga ma'lum bo'lsunki, ushbu “Savg'oti Xislat”ni Andijonda Mullo Iso Oxun do'konlaridin yo'qlab olmoqlarini rijo va tamanno qilurmiz. Faqat ushbu “Savg'oti Xislat”ni sohibidin beijozat chop qilmoq o'zgaga mammadir”.

Bayozda shoir Pirimqori Andijoniying she'rlari salmoqli o'rinni egallaydi.

Andijonlik shoirlarning hayoti va ijodini tadqiq qilgan adabiyotshunos Nabijon Qobulovning “Erk va ma'rifikat kuychilari” qo'llanmasida ba'zi ma'lumotlarga duch keldik.

Pirimqorining g'azal muvashshahlar baytlarining birinchi misralaridagi harflar arab imlosi qonuniyatlariga ko'ra jamlansa, Musallamxon, Sobirxon, Maqsudxon, Ahmadjon, Ma'rufxon ismlari kelib chiqadi. Quyidagi muvashshah Ma'rufxon ismiga bitilgan bo'lib, u bayozning 12-13-betida berilgan, unda beshinchi bayt tushib qolgan. Ushbu g'azal-muvashshah qayta tahrir qilinib 78-79- sahifalarda quyidagicha berilgan:

*Man ul kun sanga mubtalo bo'l madimmu??
Ko'rub oy ko'zingni ado bo'l madimmu??
Ajab ishvalar bila rom aylading,
Bu ko'nglum qushi fido bo'l madimmu??
Ravodur manga aylasam dodlar,
Seni deb hamadin judo bo'l madimmu??
Visoling talab aylab, ey guluzor,
Kuyingda yotib xuni gado bo'l madimmu??
Fano bo'ldi jismim seni gulxaningdin
G'ammingda asiri sado bo'l madimmu??*

¹ Кобулов Н., Долимов У. Эрк ва маърифат куйчилари. – Ташкент, 1979, 27-бет.

*Xayol aylabon sanga oshnolig',
Vafo ko'rmayin g'amzado bo'l madimmu?!
Alifdek qadingga xasad tegmasin deb,
Dilu til bila xush duo bo'l madimmu?!
Ne deb muncha, jono, manga zulm qilding,
Pirimqori oxir ado bo'l madimmu?!*

Bayozning 15-betdagи “Volahu ayzo” g’azal ham tahrir qilinib 79-80-sahifalarda qayta berilgan.

Andijon Viloyat Adabiyot va san’at muzeyida saqlanayotgan Pirimqori she’rlarining to’plamida yetti baytli muvashshaxda “Muslimxon” ismi yashiringan:

*Mehri muslimingdin ne maqsaddir ki ey, jon,
Bir dam tafakkur aylab ko'nglum bo'lur parishon.
Sendin murod siring oshiqlaring bilolmay,
SHakar labing so'rolmay dilim qilurlar afg'on.
Lom lozim ermas erdi sendin bu bevafolig',
Aylab manga tag'oful bo'lmoq raqibga milon.
Mendin ne gar muroding ko'yingda o'ldurarsan,
Zulm tori birla oxir bo'lur xushmiyon.
Xolin xayol aylarsan har xata g'amza aylay,
Mahbubalar jafosi bag'rimiz ayladi qon.
Alif aylasang ishorat gohi ko'zing uchidin,
Xursand o'lub dilimiz bo'lsun farog'oni jon.
Nun nola fig'ondur qori Piriming karim,
Omon bo'lg'il nigorim doim saqlasin furqon.*

Muvashshah – ar. – bezatilgan. Adabiyotlarda lirik janr sifatida istifoda etiladi. Bayt, band. Misralar boshidagi harflar yig’indisidan biron so’z, kishi ismi yoxud biror jumla keltirib chiqariladi. Muvashshahdagi misralar yo bayt, bandlar sonini ism, so’zdagi harflar soni belgilaydi. XIX asr II yarmidagi o’zbek adabiyotida muvashshah yozish an’ana bo’lgan. Muqimiy, Furqat, Zoriy, Muhayyir, Nisbatiy singari shoirlar ijodida ko’plab namunalar uchraydi.

Furqat ijodida Toshkandxon, Yusufxon ismlari keltirilgan muvashshahlar mavjud. Muvashshahlar jami o’n oltita. Akademik A.Qayumov Furqat muvashshahlari haqida to’xtalib quyidagilarni yozgan: “Agar ba’zi muvashshah yozgan nazmbozlar bu she’riy shakldan g’ayri adabiy, g’ayri axloqiy maqsadlarda istifoda etgan bo’lsalar, unday she’rlar adabiyot va ilm doirasidan tashqaridadirlar”.

Muvashshahning ayrim namunalarida kishi ismi yashiringaniga ishora beriladi. Ba’zan muvashshah unda zikr etilgan shaxsga bag’ishlanmagan ham bo’lishi mumkin.

Maqsud SHayxzoda “muvashshah kimning ismiga bog’langan bo’lsa, o’sha g’azalda e’tirof etilgan obraz ham aynan mazkur kishining o’zidir deb o’ylash xatodir. Muvashshahdagi ism bu g’azalning kimga bag’ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo’lishi mumkin”, – deb yozadi. Haziniy ijodida 25 ta muvashshah mavjud bo’lib, Qo’ldoshxon,

To'tixon-To'ti, Ibrohimxon, Ishoqxon, Jo'rabek, Jo'raxon, Inomjon, Mo'minxon, Muhammadjon, Oyshaxon, Ashuroyxon, Hamrahxon, Nazirxon ismlari asosiga tuzilgan. Haziniy muvashshahlari ishqiga haqiqiyga bag'ishlanganligini professor SH.Yusupov quyidagicha yozadi: "Ishqi haqiqiyga bag'ishlangan g'azalni ham muvashshah tarzida yaratilganiga men o'zim bilgan mumtoz shoirlar orasida faqat Haziniy to'ra merosida duch kelganimni aytmoqchiman". Muvashshah yozish hozirgi she'riyatimizda ham uchrab turadi.

O'rni kelganda aytib o'taylikki, Pirimqorining Furqat g'azaliga bog'lagan muxammasi zikr etilgan "Erk va ma'rifat kuychilar" qo'llanmasida¹ aslidan o'zgartirilib ko'chirilgan. Uning oltinchi bandidan bir misra tushirib qoldirilgan va "vahdat" so'zi o'rniga sun'iy ravishda "sevgi" so'zi bilan almashtirilgan. Bu bandning asli quyidagicha:

*Ajabkim, tegdi ishq o'ldi yurogim dardinok oxir,
Icholmay bodai vahdat bu siynam bo'ldi chok oxir.
Tanim g'am shikoridin har to bo'ldi xalok oxir,
Muhabbat o'tida kuygach bo'lub bir to'da xok oxir.
Fano bodi tegib nomu nishonimdin adashganman.*

SHe'riyati. Pirimqori g'azallarining tili sodda va xalqona. SHoir ijodida tazod, tashbeh, istiora, kitobat kabi badiiy san'at vositalaridan mohirona foydalangan. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda yorning qaddi ko'proq "alif"ga qiyoslanadi. Pirimqori g'azalida esa alif tasdiq ma'nosini ham anglatadi:

*Alif aylasang ishorat gohi ko'zing uchidin,
Xursand o'lub dilimiz bo'lsun farog'oni jon.*

SHoir g'azallarida lirik qahramonning ichki kechinmalari va yorning tavslifi poetik bo'yoqlarda obraxli va yorqin aks ettiriladi. O'zbek mumtoz adabiyotidagi an'naviy poetik obraxlar oshiq, ma'shuqa va raqib Pirimqori ijodida ham yetakchilik qiladi. Bu obraxlarga har bir shoir o'zining badiiy xayolotida yaratgan tasavvuri orqali yondashadi. Ag'yorga munosabat masalasi ham turlicha ko'rindi. SHoir g'azallaridan birida esa oshiq holati shu qadar o'tda kuyganki, xatto unga boqqan raqiblar ham rashk qiladi:

*Ohkim rahm aylamas zebo sanam dildorlar,
Rashk o'tida kuydi bu jismim ko'rib ag'yorlar.*

Ma'shuqa tasvirida kitobxon ko'z oldida benuqson, barkamol, hamisha navqiron qiz timsoli gavdalanadi:

*Bir qarab ko'nglimni olg'ay deb umidim bor edi,
Nozu istig'no bila qildi ko'yida zorlar.*

Oshiq ishqning zo'ridan xastaga aylangan. Yorning barcha mukammal sifatlari uning jonini parishon qiladi, holini zabun etadi:

*Muncha ham men xastaning jonin parishon etdilar,
Siymtan, nozikbadan, ya'ni pariruxsorlar.
Naylaramkim bevafolig' rasmig'a yuz kelturub,
Bu zabun holimni so'rmaslar shakarguftorlar.*

¹ Ўша асар, 29-бет.

Lirik qahramon o'zini mazhabi ishqqa kirgan hisoblaydi va ma'shuqadan vafoni umid qiladi, lekin o'z ta'biri bilan aytganda "umid qildim vafo, yedim ozorlar":

*Mazhabi ishqqa kirib aylab muhabbat bul ajab,
Kishidin umid vafo qildim yedim ozorlar.*

Mumtoz she'riyatda oshiqning bir holati borki, u yorini doimo qoshimga keladi, deya umid bilan kutadi. Lekin shoir ijodida ham yor jafokor tarzda taassurot qoldiradi:

*Kelmadilar bir yo 'li holing nechuk deb oldima,
G'unchalablar, sarvqadlar, zulfi anbarborlar.
Yorsiz naylay tiriklikni Pirimqori g'arib,
CHun go'ristonadir ko'zumga bog'lar, gulzorlar.*

SHu bilan birga g'azal va muxammaslarda diniy-tasavvufiy g'oyalar, pand-nasihat ohanglari ham mavjud. Inson umrining mazmuni haqida o'yagan shoir falsafiy qarashlarini quyidagicha aks ettiradi:

*Afsuski behuda kechurdim avqot,
Yo'q jurmu gunohdin o'zga manda hasnot.*

Inson bu dunyoga sinov uchun keladi. U moddiy va hayvoniy ehtiyojdan yuksaklikka ko'tarilsa, o'z nafsiengsa ruhi takomillashadi. Ruhni yuksaltirish esa uzoq mashaqqatli yo'lmdir. Kishi hayotida o'tkinchi, yengil hoyu-havaslarga berilmasligi, g'ofil bo'lmasligi va doimo tavba qilmog'i kerak. SHoir "darkor" radifli g'azalida shunday tasavvufiy g'oyalarni ilgari suradi.

*Talabdin qolma, ey oqil, sanga oxir ziyo darkor,
Fig'onu nola birlan bandasidin iltijo darkor.*

SHoir e'tirof etganidek, inson yashar ekan, u ilm va ziyo talabida bo'lmos'i kerak. Bandalikda jaholat va gunohlarga yo'l qo'ymaslik va ayblardan poklanish uchun esa Yaratganga fig'onu nola bilan iltijo qilmoq zarur. Hirsu havoga berilish insonda g'ofillikni yuzaga keltiradi:

*Hayotingni g'animat bilmayin hirsu havo birlan,
Nechuk g'ofil yurursan, tun sahar ohu navo darkor.*

Inson yo'qlik olamidan fano olamiga kelgan. Har bir insonning hayoti omonatdir. SHu bois odamni bu dunyoga "mehmon" ekanligi, bir kuni dorulbaqoga ketish muqarrar ekanligi ta'kidlanadi:

*Adam sahrosidin kelding bu olamga bo'lub mehmon,
Ketarsan oqibat turmay o'shal dorulbaqo darkor.*

Mo'minlikning sharti tildan haq yodini qo'ymaslikdir. Bu haqda shoir qo'yidagi fikru xulosalarini beradi:

*Tilingdan qo'y mayin hargiz duruddin qilib tuhfa,
SHAFOAT vaqtib bo'lganda mahrami mustafo darkor.*

SHoir o'zining payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga ummat ekanini faxrlanib e'tirof etadi va buni ko'pchilik nomidan "biz" deb aytadi:

*Bihamdullah, qilibdur bizni ummat shohi oliyga,
Muhabbat birla qilmoqqa ummatdin jon fido darkor.*

Mahshar kuni barchaning qayta tirilishi va o'tgan hayotidagi ilmu amallari uchun ajru niyoz berilishini shoir zikr etadi:

Sabo maydoni mahshar ilg'atay deb tashna bo 'lg'anda,

Berurga obi kavsar choryoru bosafo darkor.

SHoir fikricha, gunohu savobni mezon bilan o'lchaganda, ya'ni sirot ko'prigidan o'tayotganda rahnamo – yo'lboshchi kerak bo'ladi:

Solib mezon gunoh birla savobingni ko'rар bo 'lsa,

Sirot uzra qadam quygonda, bilg'il, rahnamo darkor.

Bu o'rinda shoir haq va nohaqni, oq va qorani tanituvchi, shariat va tariqat ilmlaridan saboq beruvchi, umuman olganda ta'lim beruvchi rahnamo bo'lishi zarurligiga ishora qiladi.

Tamug'din xavf etib qilg'il riyozat bu jahon ichra,

Borur bo 'lsang senga jannat aro xoki a'lo darkor.

Tamug' - do'zah ma'nosini bildiradi. Ma'lumki, dunyodagi hamma xalqlar diniy e'tiqodi mazmunida do'zax va jannat tushunchasi bor. Ana shu tushunchaga ko'ra, musulmonlarda kimki shariatda ko'rsatilgan amallarni bajarmasa, ta'qiqlangan ishlarni, gunohlarni bu dunyoda qilsa, u boqiy dunyoda do'zax o'tida kuyadi. SHuning uchun shoir bu dunyoda do'zaxdan qo'rqib riyozat – mashaqqat chekishni yo'l-yo'riq sifatida ko'rsatadi.

Muyassar bo 'lsa, ey dil, piri komil domanin tutgil,

Toparg'a qurb haqni domani bir yori darkor.

Piri komil – bu tariqat yo'lidagi ustozdir. Piri komilning har bir xohishi murid uchun qonun barobarida bo'lgan. Murshid o'z muridiga g'ayb olamidan saboq berib, haqni tanitgan. Ma'lum holatlarda murid xilvatga chekingan. Bu ilohiy g'aybiy bilimlarni egallagandan so'ng bajariladigan ruhiy holat mashqlari hisoblangan. SHoir bu haqda quyidagicha yozadi:

Mujarrad tut o'zingni, go 'shai xilvatg'a uzlat qil,

Ne kim toat qilur bo 'lsang senga bo 'lmoq fano darkor.

G'azal so'nggida shoir o'ziga o'zi murojaat qilib eranlardan duo olish uning uchun muddao ekanini ta'kidlaydi:

Pirimqori g'aribu bekasu norahnavodursan,

Eranlardin duo ayg'il senga bu muddao darkor.

Pirimqorining bayozga kirmagan she'rlari qo'lyozma devon holida tartib berilgan bo'lsa-da, u bizgacha yetib kelmagan yoki hanuz topilmagan. O'zR FA SHI fondida saqlanayotgan bayozlarni ko'zdan kechirayotganimizda "Bayozi Haziniy"da shoirning yana bir muxammasi topildi¹. Bu muxammas diniytasavvufiy mavzuda yozilgan bo'lib, shoirning Makka va Madinani ziyorat qilish orzusi haqida bayon qiladi.

Och yo 'lum, yo rabki, o'zni shodmon aylab ketay,

Qasd etibman Ka'bani tarki jahon aylab ketay.

Ul Madinag'a fidoi jamu jon aylab ketay,

Gar qabul etmas qator zormon aylab ketay,

¹ Баёзи Хазиний. Ўз ФАШИ. Инв № 349.

Ostoniga vujudim posbon aylab ketay..

Rusiya bosqini davrida bir qancha musulmonlar o'z yurtlarini tashlab ketishga majbur bo'lganlar. CHunki rus chorizmi yerlik aholining diniy e'tiqodi, urfatlari, milliy qadriyatları, tili, madaniyati va tarixiga salbiy ta'sir qilgan edi. SHu bois ko'pgina turkistonliklar yo Makkai Munavvaraga yoki SHarqiy Turkistonga ketib boshpana topganlar.

*Toqatim yo'q tortqali javru sitamlar, ketmasam,
Haddin oshti ko'nglim ichra g'ussa g'ammlar ketmasam,
Ko'ksumi majruh etar tiyra alamlar, ketmasam,
Dam-badam chekay kiyno haylig'a raqamlar, ketmasam,
Bayt alar har onim qo'yub naql makon aylab ketay.*

SHoir ushbu kattagina muxammasida faqat o'z boshidan kechirganlarinigina emas, balki o'z vatanida muhojirga aylayozgan vatandoshlarining dardu hasratlarini ham ifodalaydi:

*Garchi bad yana siynai badkirdorman, qandog' qilay,
Qilmishimdin siynasi afgorman, qandoq qilay,
Ko'rmakka Makka Madina zorman, qandoq qilay,
Charx urub har dam qalandarvorman, qandoq qilay,
Kim uchub himmat birla oshyon aylab ketay.*

Ma'lumki, musulmonlarning bajarishi shart bo'lган amallaridan oxirgisi haj ziyyoratidir. Lekin tarixda so'nggi chora sifatida ham haj ziyyoratiga otlanish holatlarini ham kuzatish mumkin. SHoirning lirik qahramoni ham bu safarga otlanganu, bormagan vaqtida u doimo bemor singrai his qiladi o'zini. Agar ajal kelsa unga ham tayyor ekanligini ta'kidlaydi:

*Bormayin tansihat o'lmas, doimo bemorman,
Kecha-kunduz giryon aylab ko'zları xunborman.
Bir jigar bag'ri ezilgan bandai nochorman,
Qay mahal kelsa ajal qulluq aro tayyorman,
Yurgucha mundoq vujudimni nihon aylab ketay.*

SHoir o'z umrini tashnalikda ohu voh bilan o'tkazganiga samimiyl iqror bo'ladi. O'zini osiyi gumroh deb biladi, agar uni hazrat yo'qlasa, it kabi vafodorlik bilan kelishini ta'sirchan misralarda bayon etadi:

*Umrum o'tti tashnalikda doim ohu voh deb,
Gar nasib bo'lsa yuray boshim bilan osor deb.
Bir tarahhum birla shoir osiyi gumroh deb,
Yo'qlasa hazrat meni kelay sak, dargoh deb,
Erga ko'ksumni surub ohu fig'on aylab ketay.*

SHoir o'zini bulbul kabi nolayu afg'on chekishini, ko'zida nam va tanida alam borligini ta'kidlaydi:

*Misol bulbul nolayu afg'on chekorman dam badam,
Hasrato tobmay murodim ko'zda nam, tanda alam.
Bosh ila kirsam haram manga ne armon ne g'am ,
Jannatal baqya nasib etsa karimo bekaram,*

*In Pirimqori videoe raviston aylab ketay*¹.

Pirimqori Andijoniy g'azallari o'z davrida mashhur bo'lib toshkentlik To'ychi hofiz ularga kuy bastalab ijro etgan. SHoir o'z davrida toshkentlik Xislat Toshkandiy bilan ijodiy aloqada bo'lган. Quyidagi g'azal ularning do'stona, iliq munosabatlariga dalil bo'la oladi:

*Xislato, do 'koningga qo 'ydum ayog',
Bordimu ko 'rdim seni topdim farog'.
Sen deding: - Qaydin kelursan, mehmon?
Bir sasingdin bo 'ldi ta 'bim turfa chog'.
Man dedim shahru diyorim Andijon,
Munda tiyron ayladim men charog'
SHukrlarkim manga bo 'ldi nasib
Toshkand shahrida qildim sayri bog'.
Har taraf javlon urub atrofni,
Barcha g'amilar ketar chog' o 'ldi dimog'.
SHafqatingdin menga dasturxon yozib
Iltifot aylab deding kim sihat chog'.
Muncha Xislat bor ekan ey dilpazir,
Sanu man bilmas ekandur man bu chog'.
Bu Pirimqori xatosin avfu qil,
Avfu aylang, ayladim sendin so 'rog'.*

Pirimqori Andijoniyning ijodiy faoliyati va yaratgan asarlari o'z davrining adabiy hodisasi sifatida ahamiyatlidir. SHoir asarlari asr boshidagi yana boshqa bayozlarga kiritilgani ehtimoldan holi emas va ularni topib tadqiq qilish galadagi vazifadir.

Adabiyotlar

- 1. Qobulov N., Dolimov U. Erk va ma'rifat kuychilar. – Toshkent, 1979.**
- 2. Qobulov N. Andijonlik taraqqiyparvar shoirlar. – Toshkent, 1977.**

ORAZIY VA HAYRATIY HAYOTI VA IJODI REJA

- 1. Oraziy hayoti va ijodi.**
- 2. Hayratiy hayoti va ijodiy merosi.**

Alixon Mulla oxun o'g'li ORAZIY. (1869-1942). Alixon Mulla oxun o'g'li Oraziy 1869 yilda Andijonning SHahrixon tumanining Qashqar mahallasida kulol oilasida tug'ilgan. Oraziy haqida P.Qayumiyning "Tazkirayi Qayumiy" asarida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Bu shoir Farg'ona vodiysida SHahrixon qasabasinda 1869 yilda sopol idishlar yasovchi kulol oilasida dunyoga kelmishdir".

¹ Баёзи Хазиний. ЎзРФАШИ №319. 91-бет.

SHoirning bobosi Muhammad Karim taxm. 1830/1835 yillarda Qashqardan kelib qolgan uyg'urlardan edi¹. Tazkirada ham Qashqarni xitoyliklar bosib olgach, juda ko'p uyg'ular Farg'ona vodiysiga ko'chib kelganlari va shoirning bobosi kosib kulol Muhammad Karim ham kelib qolganligi aytildi.

Onasi Bibi Xadicha ma'rifatli ayol bo'lib, dastlabki savod chiqarishda o'g'liga ustozlik qilgan. Oraziy 1884/1890 yillarda SHahrixondagi Dasturxonchi madrasasida tahsilni davom ettiradi. Madrasada arab tili va uning sarfi, nahvi, lug'atini o'rgandi. SHu davrda kitob mutolaasiga beriladi, bir necha shoirlar bilan adabiy muloqotda bo'ladi. Biroq madrasa tahsili uzoqqa bormay, ro'zg'or ishlarida otasiga yordamlashish uchun u boylar qo'lida, qozixonalarda ishlaydi. Lekin adabiyotga mehri tufayli mustaqil mutolaa bilan shug'ullanadi. Oraziyning yaqin do'sti Hoshimjon Solih o'g'li Hayratiy bo'lib, ular mumtoz adabiyot namunalarini birga o'qib o'rganishadi.

P.Qayumiyning eslashicha, 1906 yili Qo'qonning Kabutarboz masjidida istiqomat qiladigan shahrixonli mulla Nizomiddin peshqadamroq mulla bo'lib, ta'bi nazmi bor ekan va she'rlarida Nozim taxallusini qo'llagan ekan. Otasi juda kambag'al bo'lgan ekan. SHu mulla boshqa bir kishiga Oraziy to'g'risida so'zlab, uning madrasai Sultonmurodga kelib edi, degan ekan². Ko'rindiki, Oraziy ilma'rifat izlab Qo'qonga ham borib turgan.

SHoir CHarxiy bergen ma'lumotda esa Oraziy Hayratiyning ustozi bo'lganligi ta'kidlanadi.

SHuningdek "Turkiston viloyatining gazeti, "Sadoyi Turkiston" kabi gazeta va jurnallarni ham o'qishadi. Bu haqda tazkirada "SHoir (Oraziy – D.A.) taraqqiy parvar, munavvar fikrli kishi bo'lgani tatar gazetalari o'qib turganidan ko'rindi, deyiladi. Oraziy qo'shni mamlakatlarda chop etiladigan "Xo'ja Nasriddin" nomli jurnalni ham o'qib boradi. Oraziy SHahrixonda "Russkoe tuzemnoe uchiliše"ning ochilishida ham faol ishtirok etadi. U "Qo'shchilar soyuzi", "Paxta shirkati" kabi jamoat tashkilotlarida kotib bo'lib ishladi.

Tazkirada Oraziyning 1924 yildan boshlab o'g'ullari qaramog'ida turaboshlagani ziyoli bolalarga ega ekanligidan, deb ko'rsatiladi. SHuningdek "qalam xizmati ila ishtig'ol etgani ijodiy ishiga yordam etgani, boshqa shaharlarga ham yurgani fikrini ochilishiga yo'l bergan, boylarni zulm sitam etganlarini anglagan" degan ma'lumotlar ham ahamiyatli. Tazkira muallifi Oraziyni revolyutsiyadan keyin shuhrati ziyodalashdi, deb yozadi.

SHoir 1942 yilning 1 sentyabrida 73 yoshida SHahrixonda o'z hovlisida vafot etadi. Uning mahallasiga shoir nomi qo'yildi. 1969 yilda shoir Oraziyning 100 yilligi munosib tarzda nishonlandi.

Oraziyning o'z qo'li bilan yozilgan asarlarining ko'p qismi yo'qolgan. SHoir hayoti va ijodini ilmiy tadqiqot sifatida o'rgangan adabiyotshunos H.Solihova: "SHoirning o'g'illari Abdumo'min va Abdurahimning guvohlik berishlaricha,

¹Раззоков Х. Оразий. – Т., АС, 1959.

²Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. III ж. – Т., 1998. 594-6.

1937 yili shoir o'z kutubxonasida saqlanayotgan ko'pgina nodir asarlar qatorida o'zining to'plab yurgan she'rlarini ham yo'qotgan”¹.

Oraziy ijodiy merosining ko'lami 3500 misrani tashkil etadi. SHoir asosan g'azal va muxammaslar yaratib, ustoz shoirlarga ergashib an'analarni ijodiy davom ettirdi. Uning lirik asarlari bilan birga hajviy-tanqidiy mazmundagi she'rlari ham xarakterlidir. Oraziy ijodida ijtimoiy hayot masalalari qalamga olingan, ma'rifatparvarlik mavzusi ham asosiy yo'nalishni tashkil etadi. SHunga ko'ra Oraziy she'riyatining asosiy mavzu guruhlarini quyidagicha tasniflash mumkin bo'ladi: 1) Lirik; 2) peyzaj; 3) axloqiy-ta'limiy; 4) hajviy-tanqidiy; 5) ijtimoiy-siyosiy; 6) ma'rifatparvarlik.

SHoir ijodida Alisher Navoiy g'azallariga o'xshash namunalar ham uchraydi. Ustoz shoirning "Ey pari, yuz yoraliq ko'ksim sori anzora qil" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini esga soluvchi muxammas Oraziy ijodida mavjud:

Ey pari, boshing haqi, holimga bir nazzora qil,
Surati holim ko'rib, insofa kel, bir chora qil,
Lutf qil, xohi g'azab, men zor xizmatkora qil,
Hech qachon husning zakotin mustahiq bechora qil,
Iltifoting tashnai diydon o'lan xumora qil.

SHoir inson hulqi, odobi qanday bo'lishi kerakligi, hayot mazmuni, umrning mazmunli o'tishi kerakligi haqida o'ziga xos tashbehlар vositasida bayon qiladi:

Yuz o'girma to'g'ri yo'lidan charx qashshoq etsa ham,
Uchmagil dushman so'zin har qancha yumshoq etsa ham.
Mard kelding, mard ketgil, toqating toq bo'lsa ham
O'tma nomard ko'prigidin, suv seni oqizsa ham.

Ilm-ma'rifatning jamiyatdagi o'rni, insonlar uchun ahamiyati to'g'risida qayg'urgan shoir quyidagicha yozgan edi:

Er yuzi bir dashtu sahro bo'lsa, gulzori ilm,
Sahnai olamni bo'lmoqda namudori ilm.
Ilmu fan birla qurollanmoqda sardori ilm,
Ilm o'qi, hech bir jonga yetkurmaydi ozor ilm.

Oraziy asarlari tarkibida axloqiy-ta'limiy mazmundagi, hikmatli so'zlar kabi jaranglovchi baytlar uchraydi:

Hunar bir bo'lub yopmis ayb,
Qilur do'st ul bir hunarga nazal

“Hunar do’st singari kishi ayblarini yopadi” mazmunini ifodalagan ushbu qit’aning bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyati bor. Do’stu dushman haqida xalq maqollari ko’pchilikni tashkil qiladi. Oraziy esa tazod vositasida do’stlik va dushmanlik munosabatini “o’t va suv” tarzida tashbeh bilan ifodalaydi:

Aduvdin do'stlikni tutma umid,
Ki, bo'lmas jam' hargiz o't bilan suv.

Yoki:

Bilsang, topsang ilojin, bo'limgil nodonga do'st,

¹ Солиқова Х. Истиқлол орзуси ва реалистик тасвир. – Т., 2009. – 27-б.

Ittifoq bo'lsang, izhor etmagil asrordin.

Inson hayotda yasharkan, har doim ham to'g'ri ish qilavermaydi, adashadi, qoqiladi. Tajriba paydo bo'lgach, kamroq yanglishadi. Do'stu yor tanlashda ham adashmaslik borasida shoir quyidagicha o'git beradi:

Husnu suratga boqib oshifta bo'lma, ey ko'ngil,

Aqli bo'lmay hur tal'at bo'lsa ham darkor emas.

Oraziy she'rlari hayot tajribalaridan saboq singari jaranglaydi, ulardagi o'git, nasihatlar go'yo hayot uchun yo'riqnomalari, dastur o'rnini bosadi. Masalan,

Mashaqqat chekmayin aslo kamola yetmas insonlik,

Yigitlikda yarashmas har ishda bo'lmoq parishonlik.

Xxx

Rohat tuyassar o'lmas to chekmasang mashaqqat.

Oraziy hayoti Turkistondagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatga to'g'ri keldi. Uning ijodida inqilob, kolxozlashtirish kabi o'sha davr yangiliklari aks etgan va ularni ijobiy qabul qilgan shoir munosabatini anglaymiz. Lekin shoirning a'moli va e'tiqodida inson erki, baxtu saodati uchun kurashish g'oyalari mavjudligining guvohi bo'lamicha. Oraziy jamiyatdagi o'zgarishlarga hozirjavoblik bilan yondashdi, she'rlar orqali o'z munosabatini bildirdi, ayrim vaqlarda shu tufayli yashirinib yurishga ham to'g'ri keldi. Inson kamoloti haqida qayg'urgan shoir quyidagicha yozgan edi:

O'qib bir fazl top olamda sultonlikdan a'lodir,

Farosat birlan ish ko'rsang sulaymonlikdan a'lodir.

HAYRATIY. (1873-1964). Hoshimjon Solih o'g'li Hayratiy SHahrixonda Begvachcha mahallasida aravasoz oilasida tug'iladi. Hayratiy 1957 yilda yozgan "Hayratiy o'zi haqida" nomli hasbi hol she'rida o'z tarjimai holiga oid quyidagi ma'lumotlarni keltiradi:

SHahrixondir vatanim, otim Hoshim,

Saksonu beshga to'lib hozir yoshim.

Solih mahdumdur, aravasoz otam,

Aylab mehnatni qoldirmay mudom¹.

"Tazkirayi Qayumi" asarida "Hayratiy II" deb ko'rsatilgan. "Bu kishi SHahrixon qasabasida bo'lub 1873 nchi yilda tug'ilishdurdur. Nomi mulla Hoshimjon domulla bo'lub, Soleh o'g'lidur. SHoir Oraziyning shogirdidur" degan ma'lumotlar berilgan².

Adabiyotshunos H.Solihova shoirning o'z holi haqidagi she'r mazmunidan ularning oilasidagi fojeali holat ma'lum bo'lishini yozgan edi³. SHoirning otasi usta Solih boyvachcha Qosimhojidan qarzdor bo'lib, pulni vaqtida to'lay olmaydi, olingan yuz so'm qarz sudxo'r hisobida yil davomida bir yuz qirq so'mga yetib

¹ Хайратий. Ҳайратнома. – Т., 1960.

² Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. III ж. – Т., 1998. – 592-6.

³ Солихова Ҳ. Истиқлол орзуси ва реалистик тасвир. – Т., 2009. – 29-б.

vaziyat yanada jiddiy lashadi. Qiyin holatda qolgan ota Samarqandga bosh olib ketadi. Qosimhoji esa qarz evaziga ularning hovlisini tortib oladi:

Qarz uchun ochdi otam bir kecha,
Bizga g’am tushdi mashaqqatdan picha.
Pulning evaziga sotildi joyimiz,
Haydatib uydan chiqardi boyimiz.
Mulla Qosim nomi boy hoji edi,
Har yiliga yuzga qirq so’mdan yeysi.

Bo’lg’usi shoir yoshligidan maktabdor amakisi mulla Jalil qo’lida tarbiyalanadi. Mulla Jalil SHahrixonning Namozak guzaridagi masjidda muazzin bo’lib, maktabdorlik qilardi. Hayratiy amakisi qo’lida xat-savod chiqaradi. Mulla Jalil zamonasining ilg’or, ma’rifatli kishilaridan bo’lib, shogirdlariga Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi shoirlarning asarlarini o’qitgan. Hayratiy 1903 yillarda ilk she’rlarini yoza boshladi.

1897-1898 yillarda shoir Muqimi Shahrixon ga keladi. Bu yerda Hayratiy va Oraziylar ustoz shoir bilan uchrashadilar. Har ikki ijodkorning shoir bo’lib yetishuvida mavlono Muqimi bilan ijodiy uchrashuvlarining ahamiyati katta bo’ldi. 1904-1905 yillarda Hayratiy va Oraziy Qo’qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro bo’ylab safarga chiqadilar. SHahrixonga qaytib kelib adabiy to’garak tashkil qiladilar. To’garakka uyushgan yoshlar, ijodkorlar jamiyat voqealariga munosabatlarini bildirganlar, “Sadoi Turkiston”, “Turkiston viloyati gazeti”, “SHo’ro”, “Isloh” kabi gazetalarni o’qir edilar.

Tazkirada Asqarali Charxiyning Hayratiy va Oraziyning Qo’qonga kelganliklari keltiriladi: “SHoir Oraziy bu shogirdi Hayratiyning to’g’risida mahorat adabiyasi juda ziyoda bir shoir ekanining istihson etib maqtagan emish. 1926 nchi yilda Oraziy ila birga Ho’qand shahariga bir sayl munosabati ila har ikki shoir kelgan ekanlar”¹. Hayratiyning tashqi ko’rinishi ham berilgan: “Hayratiy oq po’stli to’laroq gavdali kishi ekan”. SHoirning bir necha vaqt sudya bo’lib ishlagani, tazkira yozilayotgan vaqtida Hayratiy 85 yoshda ekani va adabiy faoliyatiga 60 yil to’lishi munosabati bilan Andijonda yubileyga tayyorgarlik ko’rilayotgani aytib o’tilgan.

1916 yildagi xalq qo’zg’olonida Hayratiy va Oraziy qatnashadilar, so’ngra Marg’ilon atrofida yashirib yurishga majbur bo’ladilar. Bir yil o’tib Hayratiy inqilobni ijobiy kutib oldi. SHuni ta’kidlash o’rinligi, sho’ro inqilobini Turkiston xalqlari chinakam hurriyat, ozodlik beradi, deb umid qilganlar. SHoir Hayratiyning ham zamonasozlik ruhida yozilgan she’rlari yo’q emas.

Hayratiy 1917 yillarda o’qituvchi, revkom lavozimlarida, 1924-1930 yillarda xalq sudi raisi bo’lib ishladi. 1930-1940 yillarda “O’zbekiston” kolxoziда ishladi. Hayratiy shoir Hamza, Oxunboboev kabilar bilan hamsuhbat bo’lgan. Hayratiy 1940 yildan umrining oxirigacha Toshkent viloyati Yangiyo’l tumanida yashadi. SHoir 1963 yilda shu yerda vafot etdi.

¹Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. III ж. – Т., 1998. – 593-6.

SHoir nomini vatanimizda abadiylashtirish maqsadida 1974 yili Hayratiy tavalludining 100 yilligi keng nishonlanadi. Hayratiy tavallud topgan Namozgoh mahallasiga va SHahrixon tumanidagi 49-maktabga shoir nomi beriladi.

Hayratiy ijodiy merosi adabiyotshunoslar tomonidan bir qadar tadqiq etilgan. Ushbu manbalarga ko'ra shoirning aniqlangan va hali chop etilmagan asarlarining hajmi bir doston hamda 8000 misradan ortiq she'rni tashkil etadi. SHoirning 1937 yili "Tortiq" nomi bilan "Tanlangan asarlar"i nashr etiladi. 1960 yilda she'rlar va bir dostoni "Hayratnoma" nomi bilan chop etiladi.

SHoir Hayratiy lirkasining mavzu ko'lami keng, obrazlar xilma-xilligi kuzatiladi.

Ayo gulchehra, soqiy, kel qadah davrini ijod et,
Muhabbat qoplagan g'amlik dilim lutfing bila shod et

matlali g'azalida shoir an'anaviy g'azalchilik yo'lidan boradi. G'azalda mumtoz an'anaviy obrazlardan yor, oshiq, raqib; may, soqiy, mastvor; ishq o'ti, samandar, oshiq kabilar vositasida o'ziga xos poetik manzaralar yaratiladi:

Kuyarman ishq o'tida doimo misli samandardek,
Xalos etmoqqa jono, bu alamdan manga imdod et.
Raqiblar bilmasin, qilg'il tarahhum manga pinhoniy,
Talab sandan shudir, e nozanin, bir bor dilshod et.

Hayratiy ijodida hajviy-tanqidiy g'azal va muxammaslar ham yetakchilik qiladi. SHoir o'z davrida bo'layotgan siyosiy-ijtimoiy voqealarga dadil munosabat bildirdi, kamchiliklar vaadolatsizliklarni tanqid qalami bilan fosh etdi. Xalq o'rtasidagi zararli udumlarni ham tanqid qildi. "Nadur" radifli g'azalida motam marosimidagi noxush manzaralarni tasvirladi, keraksiz chiqimlar odamlarni qashshoq qilayotgani kabi bir qancha illatlarni ifodaladi:

Soch yozib, o'zdan ketib, ko'kka yeturib navhalar,
Sodir aylab hoy-hu birlan navo qilmoq nadur?
"Sizni ko'p ko'rdi xudoyim", deb tobutga tashlanib,
Kosh men o'lsam, debon o'zni fido qilmoq nadur?
...Bas yigirma, qirq, yil oshiga yer mulkin sotib,
Bor yo'qdan ajrab o'zni mosivo qilmoq nadur?
Ya'ni bir miskin o'lugiga ketar bir qancha pul,
O'lgani yetmasmi, ortiqcha jafo qilmoq nadur?

"Ey yoru oshnolar..." deb boshlanadigan manzumasida Hayratiy davr voqealarini real tasvirlaydi. SHo'ro inqilobi arafasidagi ijtimoiy ahvolning ayanchli manzaralari shoir tomonidan bayon qilinadi. Kambag'allarning tushida ham non ko'rmasligi, uydagi go'daklar ochlikdan yig'lashlari, bir tomonidan qishning sovug'i vahimasi, bir tomonidan nonga muhtojlik avj olgani, boylarning esa saxovat ko'rsatmasligi tanqid qilinadi.

Har bir eshikda soil besh olti, balki o'ndir,
Bo'ldi ulusning yarmi ovqat uchun gadolar.
Ochlikning hukmi joriy, bechoralarga qishda
Non qayda, bal o'tin yo'q, o'lmoqqadur rizolar.
Soilga bersang avval non yoki boshqa narsa,

Non olmas erdi pul deb aylardi iddaolar.

Ana shu ahvolga tushgan odamlar haqida shoir “endi pul bersang, pulni olmay parcha non ber, nonsiz tanim qahrabo kabi qorayib ketdi”, deb zorlanganini aytadi. Qishloqlardagi ayanchli ahvol tasvirlanib, bir necha qishloqlardagi aholi ovqat, yemak maqsadida sarson sargardon bo’lganliklarini, uylarini majbur tashlab ketganliklari va farzandlaridan judo bo’lganliklari bayon qilinadi. Ba’zi onalarning ilojsizlikdan bolasini masjidga tashlab ketgani, ba’zilari odamlarga berib yuborganliklari, qimmatchilik zamoni uzayib ketgani, boylarning kambag’allarga g’alla bermayotgani bayon qilinadi.

“Mardikor oldi” g’azalining sarlavhasi ostida “1916 yildagi loshmon, ya’ni mardikor janjalidan boshlab Farg’onada bo’lgan hodisalar” yozuv bor. G’azalda keltirilgan voqealarni shoir “sho’rish”, ya’ni xalq boshiga tushgan kulfat, baxtsizlik deb ataydi.

Bu yangi ish edi xalq o’rtasida bo’lmagay joriy,
Bu ish ham bir sababdek qaynatilgan bir qozon o’ldi.
Tamomi poraxo’r bo’lgan edi hokim pristuplar,
Ishi bitmas edi, gar bermasa, shunday zamon o’ldi.
Amaldorlar hamisha boyga aylar erdilar xizmat,
Ularga ishchi dehqonlarni ashysosi talon o’ldi.

Dehqonning arzu dodini qozi, mingboshilar eshitmas edi, u zolimlarning zulmi kundan kunga ortib bormoqda, deb davom etadi shoir. Dehqonlarning ojizlik holatini qo’yga, amaldorlarni cho’pon – bo’riga o’xhatadi:

Na qilsin kambag’allar, qayga borsin, kimga arz etsin,
Misoli qo’y kabi dehqonlara bo’ri sho’bon o’ldi.
Amaldorlarga yordamchi bo’lib boy birla eshonlar,
Firibgar omidan ham salsa boylab bir eshon o’ldi.
Jahonga kelmasin aslo o’shal zolim hukumatlar,
Bu kun el yayradilar ham gadolar al’amon o’ldi.
Murodim mardikor olmoqni ta’rixin yozish erdi,
Va lekin chetga chiqdim, bir qo’shimcha doston o’ldi.

Hayratiy ijodida tanqidagi realizmning an’analari kuzatiladi. SHoir ijtimoiy hayotdagagi voqealarni o’z ko’zi bilan ko’rdi, ularni mushohada qildi hamdaadolat, tinchlik mezonlari asosida baholab, o’z his tuyg’ulari, munosabatlarini she’riy misralarga muhrladi. Hayratiy asarlari o’tmish voqeligining real kartinasini, desak yanglishmaymiz.

QO’QONQISHLOQ ADABIY MUHITI Reja

- 1. Qori Zokir hayoti va ijodi.**
- 2. Mahjuriy hayoti va ijodiy merosi.**
- 3. Habibiy hayoti va ijodi.**

Tayanch so’z va iboralar: Qori Zokir she’riyati, Mahjuriy lirkasi, Habibiy she’riyati.

MAVLONO QORI ZOKIR HAYOTI VA IJODI. (1870-1943)

SHoirning to’liq ismi Muhammadnazar (Mamanazar) o’g’li Zokirjon qori bo’lib, u 1870 yilda Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi Qo’qon qishloqda o’rta hol dehqon oilasida tug’iladi. Uning otasi G’oyibnazar aka bilim va madaniyatning qadrini baland tutadigan shaxs bo’lgan. O’g’li Zokirni dastlab ibtidoiy shakldagi eski maktabda o’qitgach, Buxorodagi madrasaga yuboradi. Bo’lg’usi shoir madrasada tahsilni tugatib, Qo’qon qishloqqa qaytib keladi va dehqonchilik bilan shug’ullanadi. Badiiy ijod bilan qiziqib, she’rlar mashq qiladi.

Qori Zokirda adabiyotga mehr erta shakllandi. Uning onasi Oyshabibi fozila, aqli, mehribon, san’at va adabiyotga ko’ngli oshufta ayol bo’lgan. Qishloqdagi to’y va ma’rakalar, yig’inlar Oyshabibisiz o’tmas, u o’zining so’zamolligi, shirinsuxanligi, hozirjavobliligi bilan davralarga fayz kiritar edi. SHoirning onasi o’g’lining adabiyotga mehrini payqab unga adabiyot qoidalaridan o’zi saboq berar, turli tuman qiziqarli hikoyalari, she’rlar hamda xalq og’zaki ijodidan namunalar aytib berar edi. Bo’lg’usi shoir mumtoz adabiyot vakillari ijodiga qiziqar, ayniqsa Alisher Navoiy va Fuzuliy ijodi unga katta ta’sir qilar edi.

SHoir Buxorodagi madrasada o’qib yurgan vaqtlaridayoq she’rlari bilan atrofdagilarga manzur bo’lgan edi. Qori Zokir Andijondagi adabiy mushoira davrasida qatnashgan. Muntazir, Biymiy, Volaiy kabi shoirlar bilan yaqindan do’slashib, ijodiy munosabatda bo’lgan. O’sha davrning yetuk shoirlari Muqimi, Furqat, Zavqiylar bilan tanishadi. Qori Zokir asarlari bu ma’rifatparvar shoirlar tomonidan yuqori baholanadi. Keyinroq u Zokirjon Holmuhammad o’g’li (Habibiy), Mamatxon Ishoq o’g’li (Anisiy), SHodmon hoji To’raxo’ja o’g’li (Sayfiy), Aziz Soli o’g’li (Mavjiy)larning Qo’qon qishloq mushoira davrasiga boshchilik qildi.

SHoir Qori Zokir o’z ijodiy asarlaridan devon tuzgani ma’lum. Adabiyotshunos Nabijon Qobulov devonda uch ming misradan ziyod she’r borligini ta’kidlagan¹. Biroq biz qo’lga kiritgan Qori Zokir asarlarining hajmi bundan ko’p ekanligini ko’rsatadi. SHoirning turli mavzularda yozgan asarlari daftar varaqlarida parokanda holda mavjud. Bu asarlar Andijon viloyat Tarix va madaniyat davlat muzeyida saqlanadi. Mazkur she’riy asarlarni janrlariga ko’ra quyidagicha tasniflashtirish mumkin: g’azallar, muvashshahlar, ruboilar, muxammaslar, tuyuqlar, mustahzodlar, hajviyotlar, soqiy nomalar, ta’rix.

SHoir Qori Zokir Turkistonda murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealar ro’y berayotgan davrda yashadi. Xususan, shoir chor Rossiyasi bosqini, qizil inqilob taloto’mlarini, sho’ro tuzumining totalitar boshqaruvi voqealarini o’z ko’zi bilan ko’rdi. SHu bois she’riy asarlarida doimo Inson erki va ozodligi masalasi, baxt va farovon turmush istagi,adolat va haqiqatni izlash motivlari balqib turadi. Biroq, uning asarlarida g’oyaviy cheklanganlik izlari ham yo’q emas. U sovetlar va’da qilgan baxtiyor zamonni shoirona kayfiyat bilan kuylagan. CHunki shoir e’tiqodida insonni baxtiyor ko’rish orzusi hamisha sobit bo’lgan.

¹ Кобулов Н. Андиконлик тараққийпарвар шоирлар. – Т.: Фан, 1977. – 47-б.

SHoir Qori Zokir umr bo'yi kamtarona hayot kechirgan, halol mehnat qilgan va 1943 yilda Qo'qon qishloqda vafot etgan.

Qori Zokir umumiy dunyoqarashicha, mavjudot: 1. Olam. 2. Odamdan iborat. Inson mehnati orqali esa boshqa narsa-buyum, ashyolar yaratiladi. Uning she'riy asarlarini quyidagicha mavzu guruhiga tasniflash mumkin: ishq – muhabbat, axloqiy-ta'limiy, peyzaj lirkasi, vatan mavzusi, diniy – tasavvufiy, hajviytanqidiy:

Ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar mumtoz she'riyatdagi an'anaviy g'azallarni eslatadi. SHoir ishqqa quyidagicha ta'rif beradi:

*Bo'lsa kim ko'nglida agar ishq,
Ko'ksi sadafdurki baxravar ishq.
Jism kul jilva qilib ochilib
SHavq o'tidin bo'ldi xabardor ishq.
Yonsa kishi sidq ila ishq o'tiga,
Bo'yla xalil otashi gulzor ishq.
O'tga urub o'zini parvona,
Ayladi otashga sazovor ishq.
Oshiq atab kimsa o'zin komi uchun
Sodiq agar tolib diydor ishq.
Jism erur ishqning oynasi,
Zohir o'lub aksida anvar ishq.
Bo'lmasa har oyna husni oyna,
Yor qayon boqsa namudor ishq.
Haq dediyu haq ani nohaq dedi
Loyiq analhaqni qilib dor ishq.
Zokir ichar ishq ayog'ida may,
Ko'ngli bo'lur ma'dan abror ishq.*

Poetik obrazlardan oshiq, ma'shuqa, ag'yor tavsifi asosiy o'rinni egallaydi.

"Keldi" radifli g'azalida shoir yorni kutgan oshiq uchun uning kelishi bayram ekanini ta'kidlaydi:

*Ayyom muborak bu kun ul mahliqo keldi,
Gulzora xirom aylab bir nozik ado keldi.
Keyingi baytlarda yorning tashqi portreti chiziladi:
Ruxsoralari purnamo gulshanda chaman aro
Jon baxsh farax avzo bo sharmi hayo keldi.
Mastona qilib suhbat bazm ichra kamon abro',
Mujgon o'qidin otmish o'ldurgali yo keldi.
Xush keldilar azm aylab mushtoqi jamol erduk,
Hijron tunini ravshan aylarga ziyo keldi.*

Ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlarda lirk qahramon intim tuyg'ularining yorqin ifodasi ko'zga tashlanadi:

*Ijozat bersangiz, ey yaxshilar, yorimni bir o'psam,
O'shal jondin aziz jonona g'amxo'rimni bir o'psam.
Eram bog'ida bitgan ul qizil norimni bir o'psam,*

*Qaddi sarv, xiromon kabi raftorimni bir o'psam,
Borib ta'zim ila ohista dildorimni bir o'psam.*

“O’zing” radifli g’azalida shoir yorning tashqi va ichki go’zalligini ta’rif-tavsif etadi, yorning yuzini yorug’likda oyga (qamar ruxsor) o’xshatib, lablarini shakarga (shakari guftor) mengzaydi:

*Mahro’lar sarvarisan ey qamar ruxsor o’zing,
Lablaring ham obi dandon shakarri guftor o’zing.*

Yorning qadamiga barcha intizor ekanligi quyidagicha tavsiflanadi:
Intizor maqdamingdurlar hama mahbublar,
Qaysi jannat gulshanida sarvxush raftor o’zing.

SHoir ijodida davr adabiyotida an’ana bo’lgan muvashshah janri ham alohida o’rin tutadi. Qori Zokir ijodiy merosida har baytning birinchi misrasiga ismning bosh harflari yashirilishini kuzatish mumkin:

*Qizil gul g’unchasi la’li badaxshoningga o’xshaydir,
Guliston maysasi zulfi parishhoningga o’xshaydir.
Malohat bog’ida tovuslarni jilva qilgani
Yarashgan qomat sary xiromoningga o’xshaydir.
Barobar kelmas ammo har nechuk qiymat baho bo’lsa,
Sadaf og’zidagi durdona dandoningga o’xshaydir.
Rasolar mardida har mevalaring o’xshatib bo’lmas,
Ki jannat olmasi sohib xandoningga o’xshaydir.
Ajabkim ko’zlaring shaxlosini ohuga o’xshatsam,
CHaman charkaslari ham chashmi mastoningga o’xshaydir
Labing ta’rifiga xushxon o’lib bulbuligo ’yo
Tilingni shahdiga to’ti suxandoningga o’xshaydir.
Yuzing gulzoriga oshiqlaring kelgay tamoshoga
Nechunkim orazing bog’i gulshuningga o’xshaydir.
Xirom aylab uyingdin har zamon o’ynab kulib chiqsang,
Seni ko’rgan kishilar zo’r xayroningga o’xshaydir.
Agarchi senga qadrim yo’qdur budur aybim qadrdonman
Yoningda o’tirsaydir yaxshi mehmoningga o’xshaydir.
Nigoro, nomingni yoshurdim dilga naqsh aylab
G’uloming Zokiriy doim g’azalxoningga o’xshaydir.*

SHoir muvashshah yozish an’anasiga muvofiq g’azalning so’nggi baytida ism yashirilganini ishora qilgan. Bu g’azal baytlarining birinchi harflari jamlansa “Qambaralixon” ismi namoyon bo’ladi. Garchi muvashshax bag’ishlangan shaxs yigit bo’lsa-da, g’azalda lirik mazmun aks etadi. CHunki muvashshaxda nomi aks etgan shaxs tasvirlanishi shart emasligi janr imkoniyatidir.

Qori Zokir ijodida “Qiynalib”, “Qiynaldim”, “Qiynab” radifli uchta g’azal uchraydi. Bunda asosan lirik qahramon - oshiq holati tasvirlanadi:

*Dod dastingdan falak, bezor bo’ldim qiynalib,
Yordin qilding judo afgor bo’ldim qiynalib.*

Oshiqqa an’anaviy g’azallardagidek “har ulfatu ag’yor” ham ta’na qiladi. “Qiynaldim” g’azalida esa oshiq o’zining har bir a’zoi badaniga bir-bir murojaat

qilib, ular yorning biror a'zosiga giriftor bo'lgani vajidan o'zining qiyalganini aytadi, yoki bu yerda har bir a'zo bir tasvir vositasiday tuyuladi. Masalan, shoir diliqa qarab: "Asir o'lding ani zulfiga", desa, "Visolin istading, ey ko'zlarim" deb ko'ziga xitob qiladi"¹.

*Visolin istading, ey ko'zlarim, qon yig'lagil emdi,
Mani qilding yuziga termulib xushtor, qiyaldim.
Yugurding, ey oyog'im, Layling ko'yida Majnundek,
Xavfi sirimni qilding xalqaro izhor, qiyaldim.*

Mumtoz she'riyatda so'z o'yiniga asoslangan bir necha she'riy janrlar va san'atlar mavjud. Qori Zokir ijodida ham san'atkorlik bilan yaratilgan g'azallar talaygina topiladi. Masalan:

*Dilim zog'i ilingan zulfigu, tuzog'mi qiyab,
Tuzog'ida va yo ikki ko'zim duzog'mu qiyab.*

SHoir aytmoqchiki, dilning qushi (dilim zog'i) yorning zulfiga ilingan. Demak, yor sochi go'yo qush ovlaydigan to'r yoki qafasga o'xshatilmoxda. Oshiq ko'zining ikki qorachig'i go'yo ikkita zog'dir.

SHoir Qori Zokir she'rlari tarkibida diniy-tasavvufiy mazmundagi g'azallar ham uchraydi. Bunday she'rlarda shoir haqiqiy ishq va unga yetish yo'llari haqida so'z yuritadi.

*Sun ey soqiy, vahdat mayidin sharob
Yotay to ro'zi jazo mast xarob.*

Odatda tasavvufiy she'riyatda ramz-timsollar orqali tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni, falsafiy g'oya va umumlashmalarni berish an'anadir. Bu o'rinda soqiy obrazi oshiqni haq vasliga yetkazuvchi vosita, tariqatga kirgan solikning rahnamosi, piri hisoblanadi. Pir Haq ishqidan ogoh etgach, mast bo'lgan oshiq to ro'zi qiyomatgacha shu ko'yda yuradi

*Tushub zarra jamni aksidan
Bo'lur ul qorong'u ko'ngul oftob*

Jam – Olloh, zarra – Inson va boshqa yaratilgan hilqatlar. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Inson yaratilganda uning tanasiga Ollohnинг nafasi kiradi va u tililadi. Ana shu nafas Ollohnинг bir zarrasi, shuning uchun ham inson qadrli, sharafli zotdir. Insonning qorong'u tanasi ichiga ko'ngil joylangan esa-da, haqning zarra nafasi bo'lgani uchun, oshiq vahdat mayidan bonasib bo'lgani uchun u go'yo oftob darajasida munavvardir.

*Ko'ngil lavhida g'ussa qolmagay,
Na tashvish olamni fikri azob.*

Demak, ko'ngilga zarra nur tushgach, unda hech qanday g'ussa, olamning tashvishu azoblari qolmaydi. Oshiq yaratgandan umid bilan karam qilishini so'raydi. Keyingi o'rinda may o'rniga dil xunidan qon yutayotganini obrazli tasvirlaydi:

*May o'rniga dil xunidan qon yutub
G'azo daf'i andog' jigarlar kabob.*

¹ Кобулов Н. Андиконлик тараққийпарвар шоирлар. – Т.: Фан, 1977. – 48-б.

Qori Zokir hayoti va ijodini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirgan shoir sifatida o'zidan boy adabiy meros qoldirdi.

Mahjuriy hayoti va ijodiy merosi.

ISXOQOV MUHAMMADXON – MAHJURIY¹ (1889-1973).

Muhammadxon mulla Ishoq qori o'g'li 1889 yilning avgust oyi, dushanba kunida hozirgi "Elektrosvigatel's" zavodi, "Yoyilma" mavzesida tavallud topgan. Otalari mulla Ishoq qori mukammal savodli, o'z zamonasining yetuk zabardast olimlaridan bo'lib, katta maktabdor edi. Onalari ham Hamrobibi otin nomi bilan mashhur otin ayalardan bo'lган. Hayotlik davrlarida 40 yil otinlik qilib, maktabdor bo'lганligi ma'lum. Bu oilaning katta farzandi Muxammadxon bo'lib, keyingilari Avliyoxon, To'raxon, Fotimaxon edi. Mulla Ishoq qori turmush taqozosi bilan bir yoshlik o'g'li Muhammadxonni olib Qo'qonqishloqqa ko'chib keladi. Oz fursat ichida xalqqa tanilib, obro' e'tiborli bo'lib ketadi. Muhammadxonning onalari o'g'lining xotirasi juda o'tkirligini bilib to'rt yoshidan boshlab saboq bera boshlaydi. Alloh bergen qobiliyat va iste'dodi bilan Muhammadxon nafaqat onalaridan, shu yashab turgan joyidagi katta domlalardan ham saboq olib o'qiydi. SHu darajaga yetadiki, 7 yoshlik vaqtidayoq mukammal savodi chiqadi. Qur'onne yodlamagan bo'lsa ham xatosiz bemalol o'qir edi. Bundan tashqari o'sha zamonda katta yoshdagi talabalar o'qiydigan Xoja Hofiz, Mashrab, Navoiy, Sa'diy, Bedil asarlarini ma'nisini bilmasa ham hech tutilmasdan o'qir edi. Xat savodi ham xuddi shu asnoda chiqadi. Xatto Bedilning qiyin "shikasta" (ya'ni harflarni har xil siniq holatda yozilgan) xatlarini ham o'qiy oladigan bo'ldi. Mulla Ishoq qori domla o'g'lini bu iste'dodini yanada ilm olishga yo'llab 7 yoshli o'g'lini Xo'janddagi do'sti Abduvahhobnikiga qo'yib keladi. Maqsad eng avvalo Xo'janddagi "Miyon hazrat" madrasasida o'qitish edi. SHuning bilan birga fors tilini mukammal o'zlashtirish edi. Bu madrasada juda chuqur ilm berilar edi. Qur'on tafsirlarini arab, fors, tatar, turk tillarida ham o'qitilar edi. Yana shu tillarda ijod qilgan shoirlar asarlarini ham mukammal ma'nolari bilan o'qitilar edi. Muhammadxon ko'proq uxraviy ilmgaga berilgan bo'lib, bu sohadagi kitoblarning juda ko'pini o'zlashtirib olgan edi. Muhammadxonning talabi ilm davrini bayonini davom ettirmay, quyida u kishining o'z dastxatlari bilan yozib qoldirgan bitiklarni keltiramiz..."Kamina 33 yil tahsili ilm qildim, bunga men O'zbekiston Fanlar Akademiyasida hazrat Alisher Navoiy asarlari ustida olib borgan ilmiy ish davrimni ham qo'shaman. CHunki bu ishda men Alisher Navoiydan juda ko'p ilm o'rgandim" degan edilar.

SHu o'rinda Mahjuriy domla hayotida bo'lган bir tarixiy voqeani eslab o'tish joiz bo'ladi. 1948 yili Hazrat Alisher Navoiyning 500 yilligini nishonlash anjumaniga O'zbekistonning barcha viloyatlaridan, qo'shni respublikalardan va chet ellardan navoiyshunos olimlar taklif qilinadi. Bular qatorida Andijondan Mahjuriy va Xurramlar bor edi. Bu anjumanda qatnashishning o'zi bir baxt edi. Anjuman boshqaruvchilaridan G'afur G'ulom va Oybek taklifi bilan chet ellik arab va fors tillarida so'zlashadigan mehmonlar bilan suhbatlashish uchun ularning

¹ Андикон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

tillarida bemalol suhbat qila oladigan Mahjuriy domlani tavsiya kiladilar. Bu ham Mahjuriy domlaning ilmiy salohiyat, darajalari qanchalik yuqori ekanligidan dalolat.

Mahjuriy domla to'g'risidagi barcha axborotlar “Hijratda o'tgan umr” nomli devonlarida to'la ravishda bayon qilib berilgan.

Mahjuriy domla Xo'jandda sakkiz yil tahsil oladi. So'ngra Qo'qonqishloqqa qaytib keladi. Yana bu joydagi ulug' olimlar, shoirlar, adabiyot va san'atkorlar, xonanda va bastakorlar anjumanida faol qatnashadi. Ushbu anjuman ulug'lari u kishining yoshlikdagi ustozlari Qori Zokir, Mavjiy, Ajziy edilar. Bu safda keyinchalik Habibiy, Anisiy, Sayfiy, Ashkiy, mulla Muhammadxon, Fazliddin qori Ifor maxsum, Yusuf qori va bir qancha shu sohaning ashaddiy muxlislari bor edi. Bu anjumanda kitobxonlik, she'rxonlik, xonandalar ijrosida maqomlar, hazil mutoibalar bo'lar edi. Anjumanda Mahjuriy domlani juda hurmat qilar edilar. Habibiyni o'z qo'li bilan yozgan tarjimai holida aytishicha, har bir yozgan she'rularini avval Mahjurga o'qib berar ekan. Qori Zokir Mahjuriy domlani ustozи bo'la turib, o'z asarlarida u kishini “Mavlono” deb atagan.

G'afur G'ulomdek bilimdon shoir uni uch oy davomida uyida mehmon qilgan ekan. CHunki Mahjuriy domlaning suhbatiga to'ymas ekan. Bu borada Mahjurni eng sevimli shogirdi Ulfat Mahjurning vafotiga yozgan marsiyasida nazm bilan shunday ifodalagan:

*“Maftun etardi dilni bo'lganda nuktapardoz,
Bo'lg'ay edi asiri, kim bo'lsa ahli suhbat”*

Xullas, Muhammadxon Xo'janddan kelgandan keyin bir qancha yillar otasiga dehqonchilik ishlarida yordam berib ishlaydi. So'ngra 1920-yillardan boshlab yana o'qish uchun Andijon jome' madrasasiga keladi. U kishining tengdoshlari ham tarqalishib o'qishga ketishadi. Andijonda tez orada muxlis va do'stlar ortirib bu yerdagi ulug'lar Hofiz, Huzuriy, Xurram, Ulfat, Boqir, Anisiy va barcha she'riyat muxlislari bilan “Andijon adabiy gurungi”ni davom ettirishadi. 1933 yili qatag'onlik siyosati oqibatida Mahjuriyi ham “SHo'roga xaqsiz” tamg'asi bilan qoralangan ro'yxatiga qo'shib mahalla masjidi eshigiga yopishtiriladi. Do'stlarining maslahati bilan shu kuni kechasi qochib, Qirg'izistonning O'sh viloyatiga o'tib ketadi. Bu yerda 1938 yilgacha O'shning “Dom-otdix”ida o't yoquvchi (kochegar) bo'lib ishga kirib, shu shaharda istiqomat qila boshlaydi.

1938-yili O'zbekiston Fanlar akademiyasiga Navoiyshunoslik bo'limiga ishga taklif qilinadi. 1941 yilgacha bu yerda faoliyat ko'rsatadi.

1942 yillarda hozirgi Elektrosvigatel' zavodi yonidagi eski MTS (Mashina traktor stantsiya) deb ataluvchi tashkilotda oddiy ishchi bo'lib ishlaydi. So'ngra 1943-yillarda Andijon teatrda adabiy emakdosh(sufler) bo'lib ishlaydi. 1943-1945 yillarda “Yangiyo'l”dagi teatrda ham xuddi shu lavozimda ishlaydi. 1947-1950 yillarda Buloqboshidagi “Sotsializm” kolxoziда bog'bon bo'lib ishlaydi. 1950-1954 yillarda Buxorodagi “Mir Arab” madrasasida mudarris bo'lib ishlaydi.

1954-1957 yillarda Mirzacho'lда imom xatib bo'lib ishlaydi. 1957-1958 yillarda Buloqboshi rayonidagi bosh jome' masjidda imom-xatib bo'lib ishlaydi. 1958-1973 yillarda umrining oxirigacha O'shdagi SHahidtepa masjidida imom

xatib bo'lib ishlaydi. Umrining oxirgi uch oyini o'zi tug'ilgan Andijon shahrida o'tkazib, 1973 yili 84 yoshlarida Mahjuriy payshanbadan jumaga o'tar kechasida vafot etadi. Andijon shahridagi "Yorkan-shayx" qabristoniga dafn qilinadi. Mahjuriy domladan bizgacha yetib kelgan nazmiy va nasriy asarlari nashrga tayyorlangan.

Imodiddin Qosimov-Ulfatning Mahjur domlaga yozgan marsiyasining muqaddimasi:

Jondin ko'ngilni uzgach, lab tarki roz qildi,
Favtiga bo'lди tarix, "*Mehmoni bog'i jannat*".

Andijon 1973- yil.

(Marsiya oxirgi baytidagi "Mehmoni bog'i jannat"-dagi harflaridan Abjad hisobida u kishi vafot qilgan yilning hijriy hisobi chiqadi)

Mahjuriy ijodlaridan

Otalarning so'zi bari hikmat,
Eshitib pandidan oling ibrat.

Otalarning so'zin eshit Mahjur,
SHoyad etsa duo qilib manzur.

Qarindosh yoru-do'st oshnoni,
Suyung siz bo'lmasa ham oshu-non.

O'qigan kimsaga yetsun salomim,
Qabul etsun yuborgan bu payomim.

Qaerda chin inson agar topilur,
So'zidan shakar yo guhar sochilur.

Uyotlig' bo'lur oqibat bir kun,
Agar nafsi-chun pulga sotilur.

Topilgay haqiqat sadoqat aro,
Xiyonatning oxir siri ochilur.

Agar topsa rahbar bu Mahjur,
Tutib mahkam etokiga osilur.

Aylab keling

Kulbam ichra bir yo'li nozik xirom aylab keling,
Ul shakardek til bila shirin kalom aylab keling.

Husningizni nuridan sham'i shabistonim bo'lib,
Ko'zlarimga uyqu kelmoqni xarom aylab keling.

Topti ziynat ko'z uyi rangin yoshimning naqshidan,
Ey pari, mardumlig' etmoqqa maqom aylab keling.

Sozingizga tor etib bu joni zorim rishtasin,
Bazmi ishratni qurarga mayli jom aylab keling.

Yo'lingizga muntazir Mahjuringizni ko'zlar,
Lutf ila ey nozanin bir ehtirom aylab keling.

ZOKIRJON HABIBIY. (1890—1982) Shoир Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Habibiy 1890 yilda Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi Qo'qon qishlog'i Soy mahallasida dehqon oilasida tavallud topgan. Avval eski tartibdagi maktabda, so'ng Andijon, Qo'qon madrasalarida ta'lif oladi. Adabiyot bilan jiddiy qiziqdi. Navoiy, Fuzuliy, Muqimiy va Furqat g'azallarini mutolaa qildi, ulardan ilhomlanib she'rler yozdi. Aytishlaricha, Habibiy *yigirma yoshlaridan boshlab she'r yozishga kirishadi*. *Uning o'z tarjimai holida keltirilishicha, yozgan she'rlerini eng avval, shu qishloqda birga dars o'qigan, yetuk shoир, olim, do'sti Muhammadxon (taxallusi Mahjuriy)ga va yana bir o'rta yoshlik peshqadam, shoир Zokir Qori (Zokiriy), Sayfiy, Ulfatiy, Anisiy va boshqa do'stlar muhokamasiga havola qilar edilar.* 1919 yilda Bo'taqora qishlog'iga kelib, dehqonchilik qildi. "O'lkam", "Farhod qo'shigi", "Muborak yosh", "Inson aziz", "Ulug' burch", "Chevarlar", "Muddao bilan" kabi she'rlerini yozdi. 1938 yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligiga bag'ishlangan yubiley qo'mitasi tuzilib, unga Habibiy a'zo bo'ladi hamda Navoiy va Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarini sinchkovlik bilan chog'ishtirib o'rganadi, "Xazoyin ul-maoniy" asarini arabcha nusxasidan kirill alifbosiga o'girib, nashrga tayyorlaydi.

1939 yyilda shoир Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindi. 1941-1945 yillarda "Jangchi yigit qo'shig'i", "Boladan ota-onaga xat", "Onadan bolaga xat" kabi g'azallari yozildi. 1941 yilda ikkinchi jahon urushi tufayli Navoiy qo'mitasi tarqab ketadi. Habibiy Yangiyo'l shahridagi yangi musiqali drama va komediya teatriga adabiy emakdosh vazifasiga tavsiya etildi va 1946 yilgacha shu vazifada ishladi. 1949 yilda "Mehnat qo'shiqlari" va "Yangi yallalar" nomli kitoblari nashr etildi. 1951-1971 yillarda "Ko'ngil taronalari", "Tanlangan asarlar"i chop etildi. 1971 yilda "Devon"i nashr etildi. A. Navoiyning "Mezonul avzon"ini mukammal o'rganib, o'z ijodlarida faol foydalaniб, "Devon"larini yaratadilar. Bu devonda "Aruz" ilmida zikr qilingan vaznlarning qirq besh turida ijod qiladilar.

1974 yilda 85 yoshga to'lishi munosabati bilan O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'ldi, bir qancha orden, medallar bilan taqdirlangan. 1980 yil, 12 aprelda 90 yoshida Toshkentda vafot etdi. Tug'ilib o'sgan vatani Qo'qonqishloqda u kishining uy muzeyi tashkil qilingan. Toshkentda va Andijonda Xabibiy nomini adabiylashtirilib, bir qancha ko'cha va maktablarga Xabibiy nomi berilgan.

Dilbarim

Dilbarim olijanobu sohibi fazlu karam,
Dilrabolar ko'p va lekin dunyoda monandi kam.

Qomati sarvu, yuzi gul, so'zлari totlig' samar,
Gar muyassar bo'lса vasli, men uchun bog'i eram.

Har zamon husnu jamol axloqini vasf etgali,
O'ylasam, hayratda lol o'lgay tilim, ojiz qalam.

Bora-bora avj olib iqbolu baxtu davlati,
To hayoti boricha bo'lsin azizu muhtaram.

Xalq aro erkin yashab, gul-gul yonib, topsin kamol,
Lahza ham nozik diliga yetmasun anduhi g'am.

Bevafoliq yo'q, Xabibiy dilbaring siymosida,
O'zga dilbarlardan afzaldur vafo bobida ham.

Ichra men

Ishq savdosi boshimda, mojarolar ichra men,
Ko'p xijolatlikda qoldim, porsolar ichra men.

Qurmagur ko'nglim ilindi halqa-halqa zulfiga,
Hayrat oshdi telbadek, aqli rasolar ichra men.

Fikru zikrimda ajab, yorimdan o'zga narsa yo'q,
So'zlasam og'zimda turgay oshnolar ichra men.

Kecha-kunduz boshim uzra, jilvagar oyu-quyosh,
Yayraganman har mahal nuri ziylar ichra men.

Marhamat qilsa kulib, yorim raqiblar qoshida,
Faxr etar erdim o'zimdek, benavolar ichra men.

Hurmatim bo'lgay edi, ishq olamida to abad,
Umrим erkinlikda xeshu aqrabolar ichra men.

Ey Xabibiy koshki ostonasiga bosh qo'yib,
Baxt ochilgay erdi, yetsam rahnamolar ichra men.

O'zbekiston xalq shoiri Ustoz Xabibiyning vafotlari munosabati bilan yozilgan ta'rix (Boqirdan)

E'lon etib, umri bevafo der
Tarixini, "SHoiri suxanvar!"

26.04.1980 y.

SULAYMONQUL BAZZOZ (VOLAI RASVO) HAYOTI VA IJODI

REJA:

- 1. Sulaymonqul Bazzoz (Volai Rasvo) hayoti**
- 2. Sulaymonqul Bazzoz (Volai Rasvo) ijodiy merosi ko'lami.**
- 3. SHoir she'riyatining badiiy xususiyatlari.**

Asli ismi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o'g'li (1874-1929) bo'lgan andijonlik qalamkash shoir jadid arbob CHo'lponning otasidir. Uning kasbi bazzoz (hozirgi tushunchamizdagi mato bilan savdo qiluvchi) bo'lib, do'kondorlik, savdogarlik bilan shug'ullangan. Bazzozlik asosiy mashg'uloti bo'lsa-da, Sulaymonqulning adabiyotga havasi baland bo'lgan. O'zi she'r mashq qilgan, adabiy taxallus sifatida Volai Rasvo nomi bilan asarlar yozgan.

Sulaymon Mulla Muhammadyunus o'g'lining nabirasi bobosi haqida quyidagilarni yozgan: "Bobomiz Sulaymon Yunus o'g'li (1874-1929) she'riyatga qiziqqan, "Rasvo" taxallusi bilan she'rlar bitib, uni devon holiga keltirgan edi. Andijonliklar uni "Mulla Sulaymonqul bazzoz" deb atashardi. Uning devonidan mistik she'rlar bilan birga hayot go'zalliklarini, insoniy sof muhabbatni tarannum etuvchi g'azallar, hajviyotlar, axloqiy masalalarga bag'ishlangan masnaviyalar o'rinni olgan bo'lib, bu devon hozirda onamning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Unda Rasvoning Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi ustodlarning g'azallariga bog'lagan muxammaslari ham mavjud. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tog'amizning so'z san'atiga qiziqishida, shoir bo'lib shakllanishida otalarining ta'siri sezilarli bo'lgan. U 16 yoshidan ijod qila boshlagan"¹.

Adabiyotshunoslikda Sulaymonqul Volai Rasvo haqida, uning she'rga iqtidori bo'lgani, oilada o'ziga xos adabiy muhit shakllanganligi olimlar tarafidan e'tirof etilgan. "Otasi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o'g'li bazzoz edi. Bazzoz – gazlamafurush degani. Taxmin qilish mumkinki, oila o'ziga to'q bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sulaymon bazzoz zamonasining ko'zi ochiq ziyorolaridan bo'lib, "Rasvo" taxallusi bilan she'rlar yozgan, xatto devon tartib qilgan. O'g'li CHo'lpon bilan she'riy yozishmalari bo'lganini naql qiladilar. Xonadonda zamonning olimu fozillari tez-tez bo'lib turganlar"².

CHo'lponning jiyani O'ktam Mirzaxo'jaev tog'asining ismi asli "Teshaboy" bo'lganligini ta'kidlab, uning tug'ilish voqeasini bayon qilgan. "Onamning bu so'zlarini isbotlash uchun bobom Sulaymon Rasvoning bir oilaviy hangoma she'rlaridan ayrim misralar keltirmoqchiman:

Keldi o'tgan juma Tesha Toshkentdan Andijon,
Lek turg'aymu bu yerda ikki-uch oy, begumon.
Tesha ham biz birla turg'ay loaqlal bir oyg'acha,

¹ Мирзахўжаев Ў. «Рухият манзилига етдинг» / Чўлпон. Адабиёт надир. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 194-б.

² Қосимов Б., Юсупов Ш. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 428-б.

Fozilani ko'nglini shod etmaga ahd aylag'on.
Bo'lmasin aslo xafa Fozilaxonim O'shda,
“Ko'rmadim Tesha akamni”, - deb ko'ngillar pozimon.”¹

Volai Rasvo va CHo'lpon haqida Foiqa aya quyidagilarni aytadi: “Rost, otam (Sulaymonqul bazzoz – M.G.) o'zining yagona o'g'lini erkalatib qo'ymadidi. Uni o'qimishli, balki mudarris qilish maqsadida bir turk domlasiga beradi. Biz u kishini (aytishlaricha juda talabchan bo'lgan) “turk afandi” deb bilar edik”².

Ko'rindiki, Sulaymonqul bazzoz oilada talabchan va g'amxo'r ota bo'lgan. O'.Mirzaxo'jaevning esdaliklaridagi quyidagi o'rirlar ham ahamiyatli: “Onamning akasi CHo'lpon to'g'risidagi hikoyalarini eshitib, o'yga tolaman; u kishining chin inson bo'lib kamol topishida tug'ilib o'sgan oilaviy muhitni, qolaversa otasi Sulaymon Rasvoning xizmatlari katta bo'lgan bo'lsa kerak, deb so'rayman. Bunga javoban onam: “Ha, albatta. CHunki, mening bilishimcha, otam o'z davrining o'qimishli, bilimdon odami hisoblangan, “Rasvo” taxallusida juda ko'p she'rlar yozib qoldirgan. Otamning she'rlar devoni, o'zing bilasan, menda saqlanib qolgan”³.

Foiqa aya keltirgan g'azal quyidagicha:

Malomat, mahlakiga tashlabon ketmoq shioringdur,
Ko'tarmay boshini yerdin nigan sardil fiqoringdur.
Xudo haqqi ko'rib bu holi zorim yor boqmaysan,
Meni bir yo'lga tashlab, o'zga yo'ldin roh-guzoringdur.
Tarahhum aylag'il sendin bo'lak yo'q menga g'amxo're,
Boshim pomol xok bo'lganda chashmim intizingdur .
O'larman furqatingda begumon boshim uza kelgil,
Qadumingga g'arib jon tuhfa qilg'on beqaroringdur.
Rizo men ushbu dunyodin ketarda bir ko'rib qolsam,
Yo'lingga termulib qon yosh to'kon bir ashkuboringdur
Halillilocha o'tni aylag'on gulzor ollohu,
Dil otash xonasin gulzor etan chashmu xumoringdur.
Nihoyat ixtiyorimni inonin senga topshirdim,
Bu Rasvo Volag'a lutfila boqsam ixtiyoriringdur.

Inson yaralibdiki, uning qalbi doimo go'zallikka, nafosatga tashna holda yashaydi. Go'zallik va nafosatni, haqiqat va yolg'oni, poklik va nopoklikni esa ijodkor ahli teranroq anglaydi. Balki, shu bois ham inson qalbiga taskin-tasalli beruvchi san'atlardan biri she'riyatdir.

Sulaymonqul Volai Rasvoning qizi Foiqa aya ta'kidlaganidek, uning otasi “badiiyatning sir-asrorlarini yaxshi tushungan, chuqur anglagan”. Foiqa aya jiyani bilan suhbatda, “so'nggi paytlarda CHo'lponga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlarda otam bilan akamni (ota-bolani) bir-birlariga qarama-qarshi qilib qo'yishga

¹ Мирзахўжаев Ў. Онамнинг ҳикояси. / Чўлпон. Адабиёт надир. – Т.: Чўлпон, 1994. – 157-158-б.

² Кўрсатилган асар, 158-б.

³ Кўрсатилган асар, 159-б.

intilishlar sezilayotgani, N.Karimovning “CHo’lpon” kitobchasida “shoir otasining “nodonligi” tufayli uyini tark etgan, otasi esa o’g’lining gapiga kirmaganligi uchun “oq” qilgan, uydan haydab yuborgan”, -degan fikr bayon etilganligini” aytadi. Aslida esa otasi CHo’lponni “oq” qilib uydan haydamagan. CHo’lpon ham o’z otasini “nodon” deb bilmagan. O’z o’g’lini diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur egallashini, mudarris yoki mullo bo’lib yetishishini xohlagan, doimo o’z yonida bo’lishini orzu qilgan.

Sulaymonqul bazzozning nabirasi ota-bola munosabatlarini quyidagicha sharhlaydi: “SHoirning otasi 1924 yilda bo’lsa kerak, og’ir kasal bo’ladi. O’g’lining bir kelib ketishini istab, to’qqiz baytli muvashshah she’riy maktub yo’llaydi:

Adam sahosini sayyohi men Majnunga hampomen,
Nigori Laylining ko’yidagi itlarga oshnomen.
Bisotimda g’ariblikdin bo’lak asbобу xonam yo’q,
Keling, chug’z ahli sahroi dilim-la sizga ma’vomen.

1929 yilning dekabrida shoirning otasi olamdan o’tadi. Ne sababdandir, shoir otasining dafн marosimiga kela olmaydi. Oradan ancha vaqt o’tgandan keyin Andijonga kelib, ota qabrini ziyorat qiladi. Unga ushbu marsiyani bag’ishlaydi:

Alamlar o’chog’i, hasratlar quchog’i,
Ey, qani dunyo qadar yuraging.
Valohud ustidan tushmagan,
Quyunga uchmagan tilaging qoldi.
Izing-da yo’qoldi.
Sen yuksak yerkarda chiqasan,
Yuksaklar sen uchun qo’ynini ochajak.
O’ngga- so’lga malaklar chechaklar sochajak.
Malaklar kelishib, bahslar qilishib,
Ko’klarga chaqirib ketdilar.
Sen ketding va bizni tark etding
Ruhiyat manziliga yetding¹.

Aytish mumkinki, Sulaymonqul bazzoz oila a’zolarining barchasida she’riy iqtidor bo’lgan. Foiqa ayaning ham she’riyatga ayricha mehri bo’lganki, ba’zan-ba’zan she’r yozib turgan.

Assalom, ey yangi mehmon, xush kelibsiz, pahlavon,
Men borolmay noma yozdim qutlamoqqa, jona-jon.
Ming shukr, qo’yding qadam gulshan diyoring ko’ksiga,
Marhabo, botir yigit, obod Vatanga posbon.
Hur diyoru, qush onangning bag’rida sen katta bo’l,
Ulg’ayib o’sgil tilaymiz bobojonu onajon.
Katta bo’lsang, o’qib o’rgan xalqing uchun ilmu fan,
Maktabu dorilfununlar qo’ynida farzandijon.

¹ Мирзахўжаев Ў. «Рухият манзилига етдинг» / Чўлпон. Адабиёт надир. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 196-б.

Mangu porlar boshing uzra baxti iqbol mash’ali,
Davrimiz farzandidursan, senikidur keng jahon
Er yigit bo’l, sher yigit bo’l, toza vijdon pok dil,
Oqilu dono yigitga muntazirdur bu zamon
Qancha yozsam shuncha ko’pdur orzu ham istaklarim,
Yozmoqqa yo’qtur iloj, dardman onangman, notavon.

SHoir Volai Rasvo mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettirdi. U aruz vazniga panja ortidan qaralayotgan murakkab davrda yashadi va ijod qildi. O’z ijodi orqali sharq she’riyati an’analariga sodiqligini namoyon qildi. SHoir ijodida an’anaviy ishqiy g’azallar ko’pchilikni tashkil qiladi.

Adoyi yor o’lib umrim oxir ado bo’ldim,
Qadi zebo sanam ruxsoringga zoru gado bo’ldim.
Yutarmen zahru hajring boda o’rnig’a kecha-kunduz,
Halokat ichra qoldim “ol qulim” deb benido bo’ldim.
Avalda sen ishontirding vafo qilmoqqa ey jonim,
Seni bu vada’i bofingga men joni fido bo’ldim.
Nadur ayyyorlik, makkorlik aldar meni mundoq,
Xarob etding vafo qilmay, hama hasrat sado bo’ldim,
Xumor o’ldim visoling bir ko’rib bori digar ko’rmay,
Ilindim rishtai mehringga taqdiri Xudo bo’ldim.
O’zingga oshnolik ko’chasin shomu sahar istab,
Kiyib egnimg’a janda ham qalandar bonido bo’ldim.
Na aylarman sening ishqingda bo’ldim volai Rasvo,
Bo’lib har qilmishimdan manfail mahva zido bo’ldim.

Hech bir ijodkor yo’qliki, uning she’riyati ustoz shoirlar ijodiga bog’lanmagan bo’lsin. Volai Rasvo g’azaliyoti ham mumtoz adabiyotimiz buloqlaridan bahra olgan, inja va sohir merosdir.

Volai Rasvo g’azaliyotining mavzu ko’lami keng, obrazlar olami rang-barangdir. SHoir ijodiga xos bo’lgan xususiyatlardan biri shundaki, u aruz vaznida ijod etar ekan, o’zi yashab turgan zamondagi ijtimoiy mavzularni ham estetik printsiplari darajasida o’z estetik printsiplari darajasida talqin qildi. Volai Rasvo g’azaliyotida umuminsoniy g’oyalardan tortib haqiqat va go’zallikka oshufta qalbning nozik kechinmalarigacha, yorning benazir tashqi tasviri-yu oshiqning ishq yo’lidagi turfa holatlari bo’y ko’rsatadi.

Volai Rasvo she’rlarini quyidagicha mavzu guruhiga ajratish mumkin: 1. Lirik. 2.Diniy-tasavvufiy. 3. Axloqiy-ta’limiy. 4.Hajviy tanqidiy.

Inson ma’naviyatiga oid masalalar hamma zamonlarda ham muhim bo’lganidek, Volai Rasvo g’azallarida ham bu mavzuga bot-bot murojaat etiladi:

Ishing hamisha azizlarning xizmati bo’lsun,
Bular oyog’i tagida bo’lib zeru taboh.
Visol tolibisan dilga qo’yma mehri g’ayr,
Mukammal istaki, dil zulmatigadur muboh.

SHoirning «Farhod» radifli g’azalida esa mumtoz she’riyatimiz an’analariga xos shakl va mazmunni ko’ramiz:

Ruxsorai SHiringa oshuftai zor Farhod,
G'am tog'ini kadarga ustod kor Farhod.
Aylab hamisha zori parvardigora yig'lab,
SHirin g'amida kuydi ko'ksida nor Farhod.

G'azal janrida ijod etishning o'ziga xos mas'uliyati bor. CHunki asrlar silsilasida tadrijiy ravishda shakllanib kelayotgan aruz vaznida ustoz shoirlar an'anasi davom ettirish va o'z davrining masalalarini ham badiiy talqin etish shoirdan ulkan imte'dod va mahoratni talab etadi. Volai Rasvo ijodida ushbu xususiyatlarni yaqqol kuzatish mumkin.

Mumtoz adabiyotimizdagi an'anaviy obrazlar Volai Rasvo g'azallarida yangicha mohiyat kasb etishi bilan e'tiborga loyiqdир. An'anaviy obrazlardan gul, bulbul, bog', sunbul, yulduz, oy, qosh, ko'z, sabo, soch kabilar Volai Rasvo g'azallarida ma'no ko'lami kengayib, ifoda miqyosi chuqurlashadi:

Zor o'lsam har kuni gardi g'uboring yastanib,
Ushbu ne'mat menga yo rab bog'i kavsardan laziz.

Yorning gardi g'ubori, ya'ni poyqadamining changi oshiq uchun barcha ne'mat hamda bog'i kavsardan ham ortiq turishini san'atkorlik mahorati bilan o'ziga xos go'zal manzara yaratgan.

Volai Rasvo g'azallari sirasida axloqiy-ta'limiy mazmundagi g'azallar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, abas radifli g'azalida shoir umumlashma falsafiy fikrlarini qo'yidagicha beradi:

Ro'z shab umringni isrof aylading hosil abas
Yaxshilarni orqasidan yurmading koxil abas.

Ma'lumki, tasavvufda tariqat yo'liga kirgan solikning birinchi ish amali nafsga barham berishdir. Agar nafs yengilmasa inson uchun hech qanday saodat yo'qligi, bunday inson johilligicha qolishi quyidagicha tasvirlanadi:

Ish qilib nafsingni to'ydirding xaromu shubhadin,
Topmading istab saodat yo'lini johil abas

Bu dunyoda ziynat, molu dunyoga berilish g'aflat botqog'iga botishdir. CHunki o'ziga rom etgan narsalar ta'sirida insonning ongi o'tmaslashib, fikrlashi torayadi, rohat-farog'atning me'yordan ortishi, o'yin-kulgiga, kayf-safoga berilish ham g'aflatni paydo qiladi. SHu bois shoir ogohlilikka da'vat qilib shunday davom etadi:

Ziynat dunyo firibga ilinding ogoh bo'l
Yo'qsa ketgaysan nadomat birla, ey g'ofil abas.

G'aflatda qolgan insonlarga qarata shoir inson umri davomida belgilangan shariat amallariga rioya etmaganligini ta'kidlab, bu holatlar umrni behuda o'tib ketganligi bilan tengligini aytadi:

Qayda yoursang qayda tursang qilmading xayrulamal,
Bu sifat behuda umring o'tkarib botil abas.
Quyidagi misralarda shoirning tasavvufiy-falsafiy qarashlari aks etgan:
SHahodat sharbatin ichmakka nozing navbati yetti,
Bo'lib behud bu istig'no sabab o'zdin judo bo'ldim.

O'z she'rlarida u insonni asl komillikka eltadigan din, imon, Xudo yo'lida fidoiylik, e'tiqodda sobitlik, halollik va poklikni targ'ib etadi. Bu targ'ibotida shoir Qur'on oyatlari va hadislarga asoslanadi. SHu boisdan ham hikmatlar bir qarashda oyat va hadislar bilan birdek tuyuladi. Boshqacha aytganda, muvofiq keladi. Lekin bu shoir she'rlarida oyat va hadislar mazmunini to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirgan, degan fikrni bermasligi kerak. Qolaversa, shoir o'z g'oyaviy-axloqiy, falsafiy maqsadlari yo'lida ulardan ijodiy foydalangan deyish mumkin.

Joningni boshing bila qilmay fido ishq yo'liga
Da'voi oshiqlig'ing albatta lo toil abas.

SHoir ko'zlagan maqsad bitta, u ham bo'lsa, barcha mavjudotlar ichida eng mukammal qilib yaratilgan inson va jamiyatni bir so'z bilan aytganda bashariyatni mukammal ko'rish orzusidir. SHoirning ta'biricha, bu mukammallik eng avvalo nafsni o'ldirish va Haqni sevish tomoniga qilinadigan harakatdan boshlanadi:

Asli taslim o'lmaiding tig' rizosig'a bosidq,
Murdadursanki senga xanjar qotil abas.
Naylay matlub senda yo'q cho'mding havoyi bahriga
Zavq jisming xalok etding senga sohil abas.

Bularning barchasi nafs tufaylidir. Nafs kishi ko'zini parda bo'lib to'sib qo'yadi, to'g'rilikdan adashtiradi.

Va'dai diydor uchun qon yutdi loyiq bandalar
Lofu qof aylab yurib qilg'on ishing botil abas.
Aylanib ming o'rgilib piring oyog'in o'pmading,
Sidqsiz qilg'on ibodat chun havo zoil abas.

SHuning uchun ham Volai Rasvo pandu-nasihatlarida nafsga qarshi kurashni bosh masala qilib qo'yadi, unga qarshi isyon ko'taradi.

Loaql bir kunda bir soat nadomat aylamay
Ayshu ishrat birla umring o'tkarib komil abas.
Himmating yo'q ravzai hasrat yetarga sidqu jon,
Ey asiri Volai Rasvo nafsingga moil abas.

Anglamoq kerakki, shoirning bu isyonи ruhiy isyondir. Nafsdan qutulishning yagona chorasi esa Haqqa oshiqlik ehtiyojidir.

Omon ber bir dami ojizligimni arzi hol etsam,
Tarahhum aylagil olloh uchun bu iltijo gulruh.
O'tar deb yo'liga bosh qo'ydimki shoyad bir tepilsam deb,
Sen o'lma bexabar bu rohguzoringdin yo gulruh.

SHoir she'rlarida oshiqliknii yolg'on oshiq va chin oshiqqa bo'lib ko'rsatadi. Ishq savdosi-og'ir savdo. Uning qiyinchiliklariga bardosh berish o'ta mashaqqat. Ishq bu-darddir. Ishq odamda bedorlikni paydo etib, e'tiqod-imon mustahkamligini ta'minlaydi, nodonlikdan saqlaydi. Natijada insonda o'z-o'ziga murosasiz bo'lish ehtiyojini hosil etadi.

Murosasiz bo'lish-o'zini doimo nazorat ostida tutmoq, o'z-o'ziga hisob berib turmoq, xato ishlarini takrorlamaslik va bular ortidan keladigan har

qanday kiyinchilikka bardosh bermoqlikdan iboratdir. Ana shu jarayonda inson o'z-o'zini anglab boradi, g'ofillik va nodonlikdan qutila boradi. SHoir she'rlari ana shunday oliy Haqiqat, ulug' ma'rifatdan saboq beradi.

Yorning tashqi portretini tasvirlashga bag'ishlangan g'azallarda original obrazlilik o'quvchiga zavq baxsh etadi, badiiy estetik didini shakllantiradi.

Volai Rasvo g'azallarida hayotiy-falsafiy qarashlar ham chuqur aks etgan. SHoir ko'proq hayot tajribalari asosida axloq-odob mavzularida ijod qildi. Uning she'riyatida umuminsoniy g'oyalar keng ko'lamda o'z ifodasini topadi. Inson umrining mohiyati, xalq xizmatiga fidoiylik, el roziligin olish kabi chuqur ijtimoiy masalalar namoyon bo'ladi.

Volai Rasvo umri davomida xalq ichida bo'ldi, ishtiyoq va shijoat bilan ijod qildi. Insoniy fazilatlarni kamolga yetkazish haqida to'xtalib shoir quyidagicha yozgan edi:

Havoi nafsingni tark etki Volai Rasvosan,
O'qi masohu saboh mushkulingga yo fattoh.

XX ASR ANDIJON ADABIY HAYOTI Reja

- 1. XX asr boshlaridagi adabiyotda poetik turkumlar an'anasi. Andijon zilzilasining nazmiy ifodasi.**
- 2. Abdulhamid Sulaymon o'g'li CHo'lpon hayoti va ijodi.**
- 3. Abdulahad Azizov – Anisiy va Xurram hayoti va ijodi.**

1902 yil 2 (16) dekabrь (amazon oyining 14 kuni seshanba) ertalab soat 10⁰⁰ da Andijonda ro'y bergan zilzila davrning yana bir muhim ijtimoiy-siyosiy voqealaridan bo'ldi. Bu tabiiy ofatga o'z munosabatlarini bildirib, bir qancha shoir va ijodkorlar she'rlar yozishdi. Tabiiy ofat davr shoirlarini loqayd qoldirmadi. O'ndan ortiq ijodkorlarning turli janrdagi asarlari «TVG»ning sahifalarida 1903 yil yanvaridan may oyigacha e'lon qilib borildi. Gazetada bu haqda xabarlar, yangiliklar, maqolalar ham chop etilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, zilzila juda kuchli bo'lib, shahar ichi va atrofdagi binolar buzilgan. 5 mingdan ortiq kishi o'lgan¹. Gazetada bosilgan maqolalarda shahar aholisi boshiga tushgan musibat oqibatlari, hodisadan ko'rilgan zarar va talofotlar xususida so'z yuritiladi. SHu voqeaga bag'ishlab, shoirlardan Muqimiy, Muhyi, Ibrat, Kamiy, Zoriy, Nasimi, Haziniy, Pisandiy, Saidabdulmajid SHavqiy, Fayoz, Xatmiy, Dabiri, SHohiy, Mirsolih Mirzohidboy o'g'li, qozi Rahimxo'ja eshon, Olim Nuriylar bu falokatdan chuqur zarar ko'rgan oddiy xalq ahvoliga achinib, o'zbek va tojik tillarida muxammas, g'azal, manzuma, ta'rixlar yaratdilar. Bulardan Zoriy, Haziniy, Pisandiylarning asarlari gazeta sahifalarida uchramaydi. Zavqiyning bu xususda "Zilzilai Andijon" she'rining faqat bir bandi ma'lum. Ro'y bergan tabiiy ofatni tasvirlagan ijodkorlar o'z asarlarida og'ir ahvolda qolgan xalqqa hamdardlik bildirib, g'amlariga xayrixoh bo'ldilar. Zamonaning yirik shoirlaridan

¹ Мўминов И. Танланган асарлар. Ж.1. – Т., 1969. – 233-6.

Muqimiyning «Tarixi zilzilai Andijon az mavlono Muqimiy Ho'qandiy» asari haqida I.Mo'minov, G'.Karimov, A.Abdug'afurov, R.Tojiboevlar ma'lum bir fikrlarini bildirganlar¹.

Akademik I.Mo'minov «TVG» sahifalarida bosilgan Olim, qozi Rahimxo'ja eshon, Kamiylarning she'rlari mazmuniga to'xtaladi. Muqimiyning shu mavzudagi asaridan parchalar keltirib, «yuksak poeziya namunasi bo'lib, o'z mohiyati bilan XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkuriga yangi, demokratik g'oyalar olib kiradi», deb yozadi. G'.Karimov bu asarni Muqimiy asarlari to'plamida nashr etdi. AAbdug'afurovning ilmiy asarida Muqimiyning manzumasi sharhlanib, zilziladan zarar ko'rgan shahar aholisiga ruslar tomonidan yordam berilgani haqida so'z yuritiladi²:

*SHohdin agar yetmasa imdod chun,
Erdi raiyatga nihoyat ziyor.
SHafqat ayla bordi yarim podshoh,
Hozir o'shal zilzila bo'lgon zamон.*

Muqimiy zilzila ro'y bergan joylarni borib ko'rgan va uning sabablarini «paxtaga hirs qo'ygan» boylarning «yurtga kasofatlari tekkan»dan deb bilgan. Adabiyotshunoslar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, shoir voqealarni realistik tasvirlaydi. SHoirning ofatni tangri yuborgani uchun bunga ta'na qilish xatodir, degan fikrlari Zoriy misralari mazmuniga hamohang:

*Nogoh itob aylasa, berur digar,
Hojat emas, lashkaru tiri kamон.
Ta'na xato, ushbu musibatlarin,
Ro'zi azal kotibi yozgon ekan.*

Muqimiy she'rining so'nggi baytida zilzila vaqtি ta'rix san'ati orqali berilgan:

*Jon boshina zilzila qasd aylagach,
Tarixin aql aydi: «darig' Andijon».*

«Darig' Andijon» ta'rix moddasi bo'lib, muallif ishorasiga ko'ra «jon boshi» - «jim» isqot qilinsa, so'zlarning raqamlar yig'indisi 1320 hijriy, 1902 milodiy yil hosil bo'ladi.

Ta'rix qo'llanishi Ibrat, Nuriy asarlarida ham uchraydi. «TVG»ning 1903 yil 3-sonida Muhyining «Ho'qandlik shoiri nomdor, sohibi iqtidor mavlono hoji Muhyi afandining Andijon shahri xususida dilso'zona abyotlari» bosilgan. Ma'lumki, Muhyi Andijonda shahzoda Nasriddinbek saroyida unga ustozlik qilgan, yosh shaxzodaga adabiyot va boshqa ilmlardan saboq berib, shoirlik qobiliyatini shakllantirgan edi. SHu bois Muhyi uchun Andijon shahri bag'oyat qadrdon edi*. SHoirning o'n to'qqiz banddan iborat muxammasida zilzilagacha

¹ Мўминов И. Кўрсатилган асар. 233-б.; Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 1-т. Сўз боши муаллифи ва тузувчи F.Каримов. – Т., 1960. – 360-б.; Абдугафуров А. Ўзбек демократик адабиётида сатира. – Т., 1961. – 40-б.; Тожибоев Р. Андижон зилзиласи Кўкон шоирлари назмиди // Адабий мерос. 1998. №3-4. – 68-73-б.

² Муқимиининг мазкур шеъри “ТВГ”нинг 1903 йил, 15-сонида босилган. Баъзи байтлар Муқимий асарлари нашридан тушиб қолган.

* Мавлоно Мухий Хўқандий умрининг сўнгги кунларида Андижондаги дўстлари хузурига келади, бу ерда бетоб бўлиб қолиб, 1911 йил, 4 майда вафот этади. Мухий Андижон шаҳридаги “Бувасаъдиддин” кабристонига дафн этилган.

obod bo'lgan shaharni «fazosi jannat», «havosi maxmur», «sayohatchilar unga mubtalo», «Turonzamin ichinda obodliqda mashhur» deya tavsif etadi. Xususan, xalqining sohibhunar, tijoratchi, ishbilarmon hamda «sharorat» bilmaydigan musulmon deb yozadi. Muhyi ham boshqa shoirlar singari «bu balo qiyomatdan nishon, uni Haq yubordi, bu bizga berilgan tanbeh» degan fikrlar bildiradi. «Ba'zi bir odamlar tufayli shu ofat ro'y berdi», - deyuvchi shaxslarga qarata bitilgan:

*Qilmang alarga tuhmat nisbat berib sharorat,
Behuda aylamangiz o'lganlara haqorat,
Ey, g'aflat ahli, yurmang bir lahza betahorat,
SHayton magar qilibdur sizdin hayoni g'orat,
Behuda ta'n etarsiz afgor Andijona*

misralari Zoriyning quyidagi fikrlariga monanddir:

*Ta'naga til ochmanglar, barchada vahima bor,
Uxlamay shomu saharlar tavba dermiz necha bor,
Xavfimiz budirki, holo fisq o'lubdur oshkor,
Rahm etib kechgaymu shoyad jurmimiz parvardigor,
Aylagay erdi o'zi mushkulni oson, Andijon.*

Muhyi xuddi ko'pchilik ijodkorlar kabi bu falokat o'zgalarga ibrat bo'lsin, odamlar, ko'zni ochinglar, g'aflatda yurmanglar, tavbayu duo qilib, toat-ibodatda bo'linglar kabi nasihatlarni bayon etadi.

Zavqiy ijodidagi she'r muxammas shaklida bo'lishi ehtimoldan holi emas. Yaqin kunlargacha Zavqiyning Andijon zilzilasi haqida she'ri mavjud emas deb kelinar edi. Adabiyotshunoslar Ahmadjon Madaminov va Abdulatif Turdialiev larning sa'yи harakatlari bilan Zavqiyning bu mavzuda she'r bitgani ma'lum bo'ldi. Zavqiyning "Ajab zamona" to'plamida "Zilzilai Andijon" sarlavhasi bilan quyidagi band berilgan:

*Bul ajoyib hodisa, ko'r, xalqni vayron ayladi,
Andijon mulkini bir soatda vayron ayladi,
Bul kasofat ul sharoratdin namoyon ayladi,
"Birniki mingga, tumanga" ham parishon ayladi,
Hazrati Jabbori A'zam yerni yakson ayladi...¹*

Davrning katta voqealaridan bo'lgan zilzila ofati haqida taniqli shoirlardan deyarli barchasi o'z munosabatini she'riy yo'l orqali bildirgan. SHuningdek, Zavqiyl ham boshqa ijodkorlar singari "bunday kasofatning sababi sharorat (yomonlik)larning ko'pligidan" deb biladi. "Zilzilai Andijon" she'rining qolgan qismlari balki kelgusida topilar, o'shanda shoir Zavqiyning zilzila haqidagi fikru xulosalarini tugal anglash mumkin bo'ladi.

Zoriy merosidagi «Voqeai Andijon» sarlavhali o'n banddan iborat muxammasida bu tabiiy ofatdan qayg'urish, afsuslanish tuyg'ulari juda kuchli va ta'sirchan aks etgan. SHoir zilzila tafsilotini keltirishdan avval, Andijonning ayni zamongacha bo'lgan ko'rkam va obodligini tasvirlaydi:

Bo'ldimu ozod g'amidin, yo rab, olon Andijon,

¹ Завқий. Ажаб замона: Шеърлар / Тўпловчилар: А.Мадаминов, А.Турдиалиев. – Т.: Шарқ, 2003. – 90-б.

*Mamlakatlar ichra erdi, chunki, zarkon Andijon,
Mundog' obod o'lmagandur hech davron Andijon,
Nogohon qildi xudo yakbora farmon Andijon,
Amri haqdin ul zamon yer o'ldi larzon Andijon(17a).*

SHunday obod shaharda nima sababdan zilzila bo'lib, hamma yoq tuproqqa aylanishini shoir kuyinib qayd etib, sababi Haqdan o'zgaga ma'lum emas, deb yozadi. Ammo, avvallari halol, pokdomon, xushaxloqli kishilar istiqomat qilganligi, namozxon, e'tiqodli shayxlar, porsolar, muttaqiy sohibduolar toat bilan mehnatda kun kechirganlari, endilikda esa axloq-tarbiya va e'tiqod buzilganligidan, harom ishlar avj olganidan shahar vayron bo'lgani tasvirlanadi. «Qaysi yomon fe'limiz bu baloni keltirdi?» - deb savol qo'yadi shoir:

*Bor edilar ul diyora necha qutbi avliyo,
SHayxi sajjodanishinlar pokdomonu porso,
Go'shalarda o'lturardi muttaqiy sohibduo,
Qaysi badaf'olimizdin keldi bosh uzra balo,
Tashladi g'abro o'shal dam bo'ldi vayron Andijon (18a).*

Zoriy zilzila paytidagi odamlarning boshi yorilib, qo'li sinib, jon saqlash umidida turli yoqlarga qochganlarini juda jonli va ta'sirchan tasvirlaydi.

SHoir ayni vaqtdagi tabiatni ham tasvirlab, «oy kuyib, oftob tutilgani», yomg'iru qor necha kunlab tinimsiz yog'ib, «xalq zero turob» bo'lganini nadomat bilan aytib o'tadi. Muxammas so'ngida shoir bu jazoni xudo yuborgani va mushkulni ham o'zi oson qilajagiga umid bildiradi. Vayron bo'lgan shaharning obod bo'lishini tilab, yaratuvchidan Farg'onani omon saqlashni iltijo bilan o'tinadi.

Gazetaning ushbu sonida «Xo'jandlik Mir Solih Mirzohidboy o'g'lidi» sarlavhali 34 baytdan iborat manzuma bosilgan. Bu she'r xudoga murojaat bilan boshlangan, so'ngra xudoning insonni yerga tushirgani, Lut payg'ambar voqealari tilga olinadi. Muallif zilzila sabablarini «shariat ofatga duchor» bo'lgani uchun bu falokat ro'y berdi, Haq amrini tutmaganlarga parvardigor g'azab qildi, deb ko'rsatadi. Bu tasvirlar Zoriy muxammasida bo'lganidek real aks etgan. Zoriy muxammasida «piru juvon» dod deb, beshiklarda go'daklar yig'lab, «qiz ona, o'g'li otani furqatida dardnok» bo'lib, ko'p musulmonlar tom ostida o'lgan bo'lsa, Mir Solih Mirzohidboy o'g'li misralarida zilzila natijasida imoratlar qulab, jonu hayvonot tuproq ostida qolgani quyidagicha tasvirlanadi:

*Andijondin o'zga yerlar munchalik tebranmadni,
Er yorildi tebranib, go'yo qiyomat oshkor.
Boqmadi o'g'ul otoga, qiz onodin bexabar,
Bir-birin ko'rmay alar yig'lar edilar zor-zor.
Bu balodin qolmishini rang ro'yi za'faron,
Qabrdin chiqqan kishidek bosh-oyoq gardi g'ubor.*

Toshkentlik ma'rifatparvar shoir Karimbek Kamiy ham hajman yirik, 56 misrali musaddas bitib, Andijon ahlining boshiga tushgan bu kulfatni zo'r qayg'u bilan tasvirlaydi. Bu she'r «Andijonning voqeoti xayratafzoi motami xususida toshkandlik shoir Karimbek Kamiyning musaddas uslubida aytgon she'ri»

sarlavhasi bilan «TVG»ning 1903 yil 31 yanvarъ 4-sonida nashr etilgan. Kamiy ham Zoriy va boshqa shoirlar singari Andijonning avvalgi obod va ma'murligini hamda ayni vaqtida esa yer qimirlab, xuddi qiyomatdan nishon berayotgandek yoki intiqom olayotgandek, deb fikr bildiradi. Bu ofatni muallif «hayratafzoi motam» deb ataydi:

*Andijon ahlini mundog' hayratafzo motami,
Boshiga tushgan baloyu mehnatu ranju g'ami.
Dog'i hasrat qo'ydi ko'ngliga jami'i odami,
Juz rizoyu sabrdin yo'q o'zga chora, ey Kamiy,
Al-amon, bu zilzila ofatidin, ming al-omon,
Saqla o'z lutfing bila, ey xoliqi kavnu makon¹.*

Bu mavzuda yaratilgan she'rlar sirasida boshqa she'riy turlardan ham namunalar ma'lum. Masalan, shoир va matbaachi Ishoqxon Junaydullaxo'ja o'g'li Ibratning 13 banddan iborat ta'rix-musaddasi gazetaning 1903 yil 9-sonida chop etilgan. Ibrat zilzila tafsilotlarini real tasvirlagan:

*Bo'ldi yana xalqni uyqusida,
Ya'ni o'shal kechani bir po'sida.
Ba'zi sarir ba'zisi bolusida,
Ba'zi edi bazmni ko'sida.
Ketti bino boshi tahpo o'lub,
Tarix anga «zilzila g'abro o'lub».*

Ibrat podsho imdod uchun shaharni obod qilishga iyonat bergenini ham bir necha bor ta'kidlab o'tadi. Musaddasdagi «zilzila g'abro o'lub» jumlesi ta'rix moddasi bo'lib undan 1320 hijriy (mel. 1902) yil kelib chiqadi.

«TVG»ning 1903 yil 8-sonida qo'qonlik shoир Abdullohxon Nasimiyning 29 baytdan iborat butun she'r ruhi va dardli mundarijasini yaqqol ifodalovchi «bechora andijonlik» radifli manzumasi chop etilgan. Zilzila turkumidagi she'rlar ichida Nasimiyning mazkur manzumasi o'z davrida mashhur bo'lgan. Unda odamlarning ochu yalang'och, bir parcha nonga muhtoj qolib qiyalgani, ota-onalarning bolalarini izlab topolmayotganliklari aks ettiriladi:

*Vo hasrato ne bo'ldi bechora andijonlik,
Ko'rdik jamolin so'ldi bechora andijonlik.*

*Yakbora yer qimirlab, tomlarni urdi toblab,
Ostida qoldi yig'lab bechora andijonlik.
Boqmay oto, o'g'ulg'a, ushlab jonini qo'lg'a
Hasratda qoldi cho'lg'a bechora andijonlik.*

SHoir nochor ahvolda qolgan kishilarga tez vaqtida yordam berish zarurligini ta'kidlaydi. Ichki qofiyalar bilan bitilgan, til va ruh jihatidan nihoyatda sodda va samimiy bo'lgan baytlar esda qolarli va ta'sirchan:

*Ul xastalarga yoron lozim emasmu ehson,
Bu xilda bo'lsa sarson bechora andijonlik.*

¹ «ТВГ». 1903 йил. 31 январь. №4.

*Tom ostida bosilgon, g'am doriga osilgon,
Ko'r may jahonni o'lgon bechora andijonlik.*

Boshqa bir qator namunalarda bo'lganidek, Nasimiy ham zilziladan zarar ko'rgan shahar aholisiga berilgan yordam haqida maxsus to'xtalishni lozim topadi:

*Etkurdi nonni ortuf, g'ayrat qilib pristuf,
Berdi alarga bir tuf bechora andijonlik.
Qo'rboshi bo'lmasun kam, har dam uchun diyda nam,
SHafqat etibdi u ham bechora andijonlik.*

Zilziladan aziyat chekayotgan kishilarga qo'rboshilar ham yordam bergani Nasimiy she'ridagina ta'kidlanadi. Bu esa o'sha davr voqealarini real tasavvur qilish uchun muhim ma'lumot hisoblanadi. Xalqqa yordam qo'lini cho'zganlar turli jabha kishilari ekani, andijonliklarga barcha-barchaning qayg'urgani ma'lum bo'ladi. Nasimiy shoir Muhyi singari xaloyiqqa qarata «kim bunga sabab bo'ldi, deya ta'na qilmang, «shuldur rizoi xoliq» kabi fikrlar bildiradi:

*Ta'n etmangiz xaloyiq, deb kim jazoga loyiq,
SHuldir rizoi holiq bechora andijonlik.
Ne shahar erdi obod ko'ngul bo'lur edi shod,
Bir damda bo'ldi barbod bechora andijonlik.*

Zilziladan so'ng qor yog'ib, xalq yana ham qiynalganini Nasimiy manzumasidan bilish mumkin. SHoir Andijonday shaharga “ko'z tegdi” degan xalq iborasini qo'llab fikrini obrazli ifodalaydi hamda hamma tafsilotlarni so'zlab tugatib bo'lmasligi, bu kulfatlar ming daftarga ham sig'masligini mubolag'ali tasvirlaydi. Nasimiy bunday ofatdan har bir inson xulosa chiqarishi, bunday ko'ngilsiz voqealar ibrat bo'lishi kerakligini ta'riflaydi:

*Boz ustiga yog'ib qor, gar keldi qahri qahhor,
Titrabki yig'lashib zor bechora andijonlik.
Ko'z tegdi e voh, afsus, xok bo'ldi bekamu ko's,
Yo'q ko'rsa yerni fonus bechora andijonlik.
Ko'b muxtasar qilib bas, yozgan bilan tunganmas
Ming daftar ichra sig'mas bechora andijonlik.
Yig'lab Nasimiy chandon, bag'ri diling qilib qon,
Ibrat emasnu nodon bechora andijonlik.*

Muhyi va Nasimiyarning bu mavzudagi asarlari haqida adabiyotshunos R.Tojiboev quyidagi fikrlarni bildiradi: «*Muhyining «Andijona» radifli muxammasi, Nasimiyning «Bechora andijonlik» radifli g'azali hamda Muqimiyning «Tarixi zilzilai Andijon» she'ri... mualliflarning mazkur dahshatli hodisadan olgan taassurotlari va azob uqubatda qolgan hamyurtlariga nisbatan hayrixohliklarini aks ettirgan*»¹.

Gazetaning 1903 yil 2-sonida shoir Nuriyning 15 banddan iborat muxammasi nashr qilingan. Unda zilzila oqibatida uysiz qolgan odamlarning dod faryodi, qiy-

¹ Тожибоев Р. Андикон зилзиласи Кўкон шоирлари назмида // Адабий мерос. 1998. №3-4. – 68-73-б.

chuvi eshitilgani, shahar vayron bo'lgani haqida tasvirlar bor. SHoir bu ofatga Haqning irodasi sifatida qarab, sabr qilishdan o'zga iloj yo'q, deydi.

Muxammasning so'nggi bandida quyidagicha ta'rix keltiriladi:

*So'rsalar ta'rixini Nuriy, ne bergaysan javob,
Ro'zani o'n oltisi erdi, dedilar, shayxu shob,
Kun tuluyi yavmi seshanba erur, ey mushknob,
Bo'ldi g'arqob Andijon vallohi a'lam bissavob,
Andijon boshini so'rsang ham yomon bo'ldi darig¹.*

Andijon zilzilasiga xalqning turli toifasiga mansub kishilar ham munosabat bildirganlar. Jumladan, «TVG»ning 1903y. 5-sonida «Samarqand shahridagi russki-kitayski bonkaning tilmochi Abdulloh Ismatulloh o'g'li xo'jandlik Fayoz taxalluslikning yozgon she'ri» sarlavhasi ostida 11 banddan iborat musammani chop etilgan. Muallif andijonliklarga rahm qilmoq kerak, degan fikrini musammanning dastlabki bandidayoq bildiradi:

*Jam' ayshining falak ursa xudash toshig'a,
Yuz jahon ojiz erur payvandning kengoshig'a.
Zahr g'am soldi falokat andijonlik oshig'a,
Naqsh bejonidek qarab qoldi bori naqqoshig'a
Din qarindoshlari rahm aylang alar ko'z yoshig'a,
SHafqat aylang ul yalang'ochlar ayog', boshig'a,
Qolmasun mahfi nihon ahlini pir yoshig'a,
Kim qiyomat bo'ldi qoim andijonlik boshig'a.*

Bu she'rda muallifning andijonliklar holiga chin dildan qayg'urayotgani «Andijonlik holiga yig'lar samodin to samak», «Diydai insof ilan boqsang alar af'oliga» kabi satrlarida aks etadi. Muallif andijonliklarning kulfati bizga ham motamdir, degan fikrni aytib hamdardlik bildiradi:

*Andijonlik holiga qon yig'lasang ham kam erur,
Kim, alarning holi zori bizga ham motam erur.
Har birini boshida yuz ko'hi qofi g'am erur,
Ul dili majruhlarga xayringiz maxram erur,
Dam g'animat, deb eshitgon bo'lsangiz, shul dam erur,
Kissa kutah, kim qo'shulsa, xayrga odam erur,
Qilmasun mahfi nihon ahlini har pir yoshiga,
Kim, qiyomat bo'ldi qoim andijonlik boshiga.*

Toshkentlik qozi Rahimxo'ja eshonning 14 banddan iborat muxammasi «TVG»ning 6-sonida bosilgan. Unda zilzila juda qattiq bo'lib, yer necha kunlab qimirlagani, odamlarning tom ostida qolib un kabi ezilgani tasvirlanadi. Muallif

¹ Ушбу таърих 1320 ҳижрий (мелодий 1903) йил бўлиб Нурий мухаммас сўнггида “1320нчи моҳ шариф рамазон” деб изоҳ келтирган. Ўқиши китоби (Эски ўзбек ёзуви намуналари. Т.: Ўқитувчи, 1994. – 38-б.) да эса “тарқоб” сўзи таърих дейилиб, 1303 ҳ.й. (мел. 1885) Андижонда зилзила бўлган” тарзда хато берилган. Аслида эса “Андижон” ва “дариғ” сўзлари таърих моддаси бўлиб, биринчи сўздаги “алиф” исқот қилинса, 1320 ҳ.й. (мел.1902 й.) ҳосил бўлади.

imperator Nikolay podshoning Andijon shahriga shafqat aylab, 50.000 ming ionat tayin etganini ham aytib o'tadi.

Qozi Rahimxo'ja ham zilzila sabablarini elda insof, diyonat kamayganidan bu ofatni haq taolo yubordi kabi fikr bildiradi. Ba'zi ijodkorlar bu mavzuda bir emas, bir nechalab asarlar yozdilar. Gazetaning 14-17-18-19-20-25-sonlarida SHavqiyning fors-tojik tilidagi marsiyalari bosilgan.

1999 yilda nashr qilingan «Haziniy devoni»da Andijon zilzilasi mavzusida ikki musaddas bor. «Gunohimni xudoyo...» deb boshlanadigan musaddas yetti banddan iborat bo'lib, har band oxirida

*O'zing rahm aylagil, Farg'onani zeri turob etma,
Bu dor ul mulkni Toshkand, Andijon yang'lig' xarob etma,*

bayti takrorlanadi.

Ikkinchisidagi musaddasda muallif ham xudoga murojaat qilib, Farg'onani omon saqlashini so'raydi. Musaddas 6 banddan iborat. SHoir musaddasda xudoning qahri bilan zilzila ro'y bergani va odamlar bu ofatni oxir zamondan darak deb bilganlari haqida yozadi. Zoriy hamda boshqa shoirlar singari Haziniy ham ertayu kech duo qilib, haqdan panoh so'rashni, tavba qilishni targ'ib qiladi:

*Ertayu kech, shomu sabo aylang, birodarlar, duo,
Boshimizga g'oyibidin Haq yubormasdin balo,
Tavba aylab, ey birodarlar, tilang haqdin pano(h),
Kecha-kunduz uxlamay yig'lar Haziniy der: «Xudo».
Soxlagil Farg'onani bul iltijoning hurmati,
Andijon yanglig' xarob etma duoning hurmati.*

SHoir Pisandiyning shu mavzudagi «Ta'ixi zilzilai shahri Andijon» she'ri Qo'qon Adabiyot muzeyi jamg'armasidan topildi¹. Bu she'r masnaviy shaklida yozilgan bo'lib 17 baytdan iborat. SHoir zilzila talofatlarini tasvirlab, bu ofat xalqda insofu diyonat, hayoyu himmat yo'qolganidan ro'y berdi, deb yozadi. Pisandiy she'rida ham zilzilaning ro'y bergen yili ta'rix orqali berilgan.

Andijon zilzilasi munosabati bilan yozilgan barcha asarlar shuni ko'rsatadiki, mualliflarning barchasi bu ofatdan qattiq qayg'urganlar va o'zlarining achinish, nadomat, afsuslarini turli tarzda ifodalaganlar. Bu turkumga birlashadigan she'rlarning umumiyligi xususiyatlari quyidagicha: Aksariyat she'rlarda zilzilaning a) tasviri; b) sabablari; v) oqibatlari bayon etiladi. Ko'pchilik she'rlarda zilzilaning sabablari sifatida zamondagi axloq me'yorlari buzilgani, shariatning poymol bo'lganligi deb ko'rsatiladi. Ammo oddiy xalqni - nochor ahvolda turgan odamlarning hammasini shu ayb bilan qoralash noto'g'riliqi ta'kidlab o'tiladi. Muqimiylar, qozi Rahimxo'ja eshon, Ibrat, Abdulloxon Nasimiylar asarlarida rasmiy hukumatdan berilgan yordam haqida so'z yuritiladi.

Zoriy muxammasi bu turkumda ko'rinarli o'rinni tutadi. Undagi yetakchi g'oya - turkum uchun xos bo'lgan, Muqimiylar, Muhyi kabi yirik ijodkorlar olg'a surgan g'oya bilan to'la hamohang. Bu turkum ham, biz yuqorida so'z yuritgan turkumlar kabi davr ijodkorlarining, davr ijtimoiy muammolariga, xalq hayoti va dardu

¹ Писандий баёзи. Кўқон Адабиёт музейи жамғармаси. Инв. № 169. КП 4982.

hasratlariga benihoya yaqinlashganini, ko'pchilik boshiga tushgan ofatni o'z kulfati, o'z og'rig'i sifatida qabul qilganligini, xalq bilan hamdard bo'lganligini ko'rsatadi.

CHO'LTON (ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI). (1898-1938). Shoir, nosir, publitsist, dramaturg, ma'rifatparvar Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov — Cho'lpon 1898 yilda Andijonning Qatorterak mahallasida tavallud topgan. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus o'g'li (1874-1929) dehqonchilik, hunarmandchilik, bazzozlik (gazlama sotuvchi) bilan shug'ullangan. Shuningdek, adabiyotga alohida e'tibori bo'lib, "Volai Rasvo" taxallusi bilan she'rlar yozgan. (Uning hayotiy va tasavvufiy mazmundagi g'azallaridan iborat qo'lyozmalari daftari varaqlarida Andijon shahridagi Cho'lpon muzevida saqlanadi.) 1904-1913 yillarda Cho'lpon eski maktabda, keyin Andijon va Toshkent madrasalarida o'qib, turk, arab, fors tillarini mukammal o'zlashtiradi. Andijondagi rus-tuzem maktabida ham o'qigan.

1913-1914 yildan ijodi boshlangan. Dastlabki asarlari "Abdulhamid Sulaymon", "Abdulhamid Sulaymoniy" nomi bilan e'lon qilingan, so'ngra "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik", keyinroq "Cho'lpon" (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qila boshladi. 1914 yil, 18 yanvarda "Oyna" jurnalida Cho'lponning ilk xabari bosiladi. 1914 yil, 18 aprelda "Sadoi Turkiston" gazetasida "Turkistonli qardoshlarimizga" nomli ilk she'ri chop etildi. 1914 yili Cho'lpon Toshkentga vaqtinchalik ko'chib keldi. "Boy" dramasi, "Doktor Muhammadyor" qissasi yaratildi.

1914 yil, 29 aprelda "Sadoi Turkiston" gazetasida "Qurbanji jaholat" hikoyasi bosildi. 1915 yilda "Muhtaram yozg'uchilarimizga", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Adabiyot nadur" maqolalari, "O'sh" ocherki e'lon qilindi. 1917 yil, 26-30 noyabrda Cho'lponning "Ozod turk bayrami" she'ri yozildi. Bu she'r Turkiston Muxtoriyat hukumatining madhiyasiga aylangan. 1918 yyil, fevralda Turkiston Muxtoriyat hukumati tugatildi. Shoir Orenburgga borib, Boshqirdiston Muxtoriyat hukumatida rais kotibi bo'lib ishladi. 1918-1923 yillar "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" hamda "Buxoro axbori" kabi gazetalarda, "Inqilob", "Tong" jurnallarida ishladi. 1919 yilda "Turk ROSTA oynasi" gazetasining mas'ul muharriri bo'lib, hamda "Darxon" gazetasida ishladi. 1920-1924 yilda "Yo'lida bir kunduz", "Yo'lida bir kecha", "Sharq poezdi keldi", "Sharq uyg'ongan", "Chimkent", "Quturgan mustamlakachilar", "Yo'l esdaligi" maqolalari yaratildi. 1921 yilda "Yorqinoy" dramasi yozildi. 1922-1926 yilda "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) she'riy to'plamlari chop etildi. 1922 yilda Buxoro xalq jumhuriyati maorif nozirligida ishlaydi. "Yo'l esdaligi" safarnomasi "Bilim o'chog'i" jurnalida chop etiladi. 1923 yilda "Qor qo'ynda lola" hikoyasi "Inqilob" jurnalida chop etiladi. "Oydin kechalar", "Nonushta", "Gavharoy" hikoyalari yaratiladi. Turon teatri, O'zbek davlat teatri truppassi direktori bo'ladi. 1924 yilda "Ko'klam keladur" she'ri, A.Navoiy haqidagi "500 yil" maqolasi yoziladi. 1926 yilda "Cho'rining isyoni" dramasi (matni topilmagan), "Eski tanbur notasi" maqolasi yoziladi.

1927 yilda Karlo Gossining “Malikai Turandot” dramasini tarjima qildi. “Novvoy qiz” hikoyasi “Qizil qalam” majmuasida bosiladi. 1927-1935 yilda Cho’lpon tanqid va ta’qibga uchraydi. O’zbekiston madaniyat xodimlari qurultoyidan haydab chiqariladi. Asarlari chop etilmaydi. 1926-1927 yillarda Moskvadagi o’zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil etilgan dramatik studiya rahbari, adabiy emakdosh. 1927-1930 yilda Samarqandda drama teatrida adabiy emakdosh. 1930 yilda “Soz” va “Jo’r” kabi she’riy to’plamlari tayyorlandi. Ammo “Soz”i chop etiladi-yu, “Jo’r” to’plami nashr etilmaydi. 1922 yil “Mening tovushim”, “Kuz”, “Buzilgan o’llkaga”, “Yupanmoq istagi” kabi dardchil she’rlari yoniga “Qizil bayroq”, “Xalq”, “Qo’zg’olish”, “Qor”, “Bir tilla qo’ng’iz”, “Yaproq uchun” she’rlar, “Yov” qissasi va “Kecha va kunduz” (1938) romani, “Xalil farang”, “Cho’rining isyoni” kabi kichik p’esalari, “O’rtoq Qarshiboev”, “Mushtumzo’r” kabi dramalari, “Yorqinoy” p’esalari mashhur bo’lgan. V.Yan bilan hamkorlikda “Hujum” dramasi yaratildi. “Sho’ro hukumati va sanoi nafisa”, “Adabiyot nedur?” kabi maqolalar yaratildi. M.Gorkiyning “Ona”, Krilovning masallari, A.S.Pushkinning “Dubrovskiy” qissasi va “Boris Godunov” kabi p’esalarini, V.Shekspirning “Hamlet” fojeasini o’zbek tiliga o’girgan.

1935 yilda Cho’lpon Toshkentga qaytib keladi. “Mushtum”, “Guliston”, “Teatr” gazetasida jamoatchilik asosida ishlaydi. 1935 yil, 11 fevral Cho’lpon tarjima qilgan “Hamlet” spektaklining prem’erasi. “Soz” she’rlar to’plami chop etiladi. 1936 yilda “Kecha va kunduz” romani (“Kecha” qismi) nashr etiladi.

1937 y. 14 iyulda qamoqqa olindi. 1938 y. 4 oktyabr— Toshkentda otib tashlanadi. 1956 yilda oqlanib, 1991 yilda birinchi bor “Yana oldim sozimni” nomi bilan eng yaxshi she’riy asarlari to’plam holida nashr etildi.

1991 y. 25 sentyabrda “Yana oldim sozimni” kitobi uchun shoirga Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. 1991 yilda A.Cho’lponga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1994 yilda “Mustaqillik” ordeni berildi.

ABDULAHAD AZIZOV - ANISIY¹. (1900-1970). Paxtaobod - Qo’qonqishloqning Xayrobod qishlog’ida 1900 yili tavallud topgan. Otasi oddiy dehqon, onasi ham savodli ayol edi. Dastlabki ma’lumotini o’z qishlog’i Xayrobodda oladi. So’ngra Qo’qonqishloqdagi Qorashoh mahalla madrasasida zukko va alloma mudarris Mirzahamdam domla sinfida shoirlar Xabibiy, Mahjuriy bilan sinfdosh bo’lib tahsil oladi. SHoir Qori Zokir boshliq adabiy davrada faol qatnashadi. Yanada bilim darajasini oshirish uchun Andijon, Xo’jand, Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Buning natijasida u arab, fors tillarini puxta o’rganadi. Andijondagi tahsili davrida “Andijon adabiy gurungi” davrasidagi adabiyotshunos olim va shoirlar bilan tanishadi va o’zi ham bu gurungda faol qatnashadi. O’zi ham she’rlar yoza boshlaydi. Bo’sh vaqtlarida o’z kasblaridan: to’quvchilik, mahsido’z, igna tayyorlash va savdo ishlari bilan shug’ullanadi.

¹ Андикон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

1938 yili Toshkentga Navoiy asarlari ustida ish olib borish uchun ilmiy xodim sifatida keladi. Bu yerda Akademiyadagi barcha ko'zga ko'ringan olim va shoirlar: K. Borovkov, N. Semenov, O. SHarofiddinov, G'. G'ulom, domla Bokiy va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'ladi. 30 dan ortiq adabiy asarni nashrga tayyorlaydi. Nodiraning forsiy devonini, Badr CHochiyning g'oyat murakkab she'riy merosini 2800 baytini nasriy tarjima qiladi.

1958 yili poytaxtga taklif qilinadi va adabiyot nashriyotida bosh muharrir lavozimida ishlaydi. 1960 yildan boshlab O'zbekiston Fanlar Akademiyasida katta ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. Badr CHochiyning asarini to'la nasriy tarjima qilib nashrga tayyorlaydi. Anisiydan bir yarim ming misra she'riy meros qolgan. Quyida u kishining Andijon viloyat Adabiyot va San'at muzeyi xodimlari tomonidan 1997 yili nashr qilingan "Yurak" risolasida berilgan she'riyatidan namuna keltiramiz:

Ko'ngil dardini zohir qildi faryodu fig'on oxir,
Yurak sirrini elga yoydi bu ashki ravon oxir.

Bag'ir qoni kabi sevgimni doim sir tutar erdim,
Bilinturdi ko'zim qoni bila rangi suman oxir.

Netay, ul Laylivash yorim, el ichra telbalar aylab,
Men rasvoni qildi ta'na toshiga nishon oxir.

Jahon bog'ida hargiz bir nihole chekmadi bosh kim,
Yiqilmay qolsa, tufroq uzra ul sarvi ravon oxir.

Malomate aylamang, ul oyning ishqida navo cheksam,
Bu sevgi nolasin toki tutay dilda nihon oxir.

Nigorimni yuzidur sham'i bazm qaro yuz-ag'yor,
Nechuk xam bo'lmasun ohim mening otashfishon oxir.
Anis o'lmay menga doim yiroq tashlabdir vaslidan,
Bilolmas senki husnini kelgusi zohir qachon oxir.

Ermish

Kel, ey ko'ngil, go'zalim sho'xi maxliqo ermish,
Kulib boqquchi, shirin so'zli dilrabo ermish.

Qoshi qiyg'och, ko'zi qotil, mijjalari xanjar,
Bori bu jonga tikilgan qaro balo ermish.

Uning boshidan oyoq hama uzviga boqsam,
Ko'ngil qushiga bori domi ibtilo ermish.

Firoqu hajr xayolini qilmakim emdi,
Vafou mehr oni ko'ngliga muddao ermish.

SHoir ayla sadoqatni, bul havas bo'lma,
Bu yo'lda nafsu havo ishlari xato ermish.

Humoyun baxt menga romu tole'im mas'ud,
Nechunki sevgilim asru bevafo ermish.

Agar beray desang, ey ko'rkka boy, zakoti xusn,
Anisiy dargohinga kamtaroni gado ermish.

ABDULHAMID - XURRAM¹. (1900-1980). Abdulhamid Abdurazzoqov 1900 yili Andijonning Maygir qishlog'ida Katta masjid mavzesida tavallud topdi. Dastlabki savodini otasida chiqardi. Yoshlik davridayoq o'tkir zexnliligi, xotirasini nihoyatda kuchliligi va adabiyotga o'ta qiziquvchanligi bilan ajralib turardi. SHu bois otasi uni o'sha davrning Andijondagi eng mashhur olimlardan biri Abdulxay Maxdumga o'qishga beradi. Yosh Abdulxamid 1918-yilgacha shu yerda tahsil oladi. So'ngra 1918-1927 yillar mobaynidagi Andijonning jome' madrasasida Abdulaziz Maxdumda tahsil oladi. 1933 yillarda o'sha zamondagi pillakashlik hunarini o'rganib shu kasb bilan ham shug'ullanadi. 1938-1945 yillari gulchilik, 1965 yillari bog'bonlik qiladi. 1938-yili Andijonning Kultepa (xozirgi 30-maktab yonida) dagi Sobir Abdullaning katta xonardoniga ko'chib keladi. Va bu vaqtida Andijonning ziyolilaridan Ulfat, Mahjuriy, Anisiy, Sayfiylar Toshkentga Navoiyshunoslik komitetiga ishga ketgan edilar. SHoir bu xonadonda baqadrixol "Andijon adabiy gurungi" anjumanini davom ettiradi. Bu paytga kelib Abdulxamid anchagina she'rlar yoza boshlagan edi. U o'z she'rlarini avval "Dog'iy" taxallusi bilan, keyinchalik "Xurram" taxallusi bilan yozadigan bo'ldi. Jahon urushi munosabati bilan Qo'mitadagi ishlari vaqtincha to'xtatilib, Navoiyshunoslar Andijonga qaytib kelishadi. Buning oqibatida "Andijon adabiy gurungi" anjumanini yanada jonlanib o'z faoliyatini kuchaytiradi. Har bir qiziqarli suhbat-voqealarni Xurram tafsilotlari bilan yoddan bilar edi. Va o'z navbatida bu anjumanning ta'rif va tavsifini bu anjuman to'g'risida esdalik—"Yodnama" yozgan Ahmadrafiq Qambarovga aytib berar edi. Xurramning o'z davradoshlari orasida ikkita laqabi bo'lgan. Kungli yakin davradoshlari u kishining burni kattaroq bo'lgani uchun "Burun" deb, va umrbod uylanmay o'tganlari uchun "Abadiy" deb hazil-mutoiba qilishar edi. Xurram Jahon urishidan keyin Namangan viloyatining Uchqo'rg'on tumaniga ko'chib keldi. Bu joyda hayoti va faoliyatini davom ettirdi. Ukasi AbdulAli ham shu joyda yashar edi. Xurram bu yerdagi faoliyatini dastlab Uchqo'rg'onning 1-o'rta maktabida gulchi-bog'bonlikdan boshladi. Keyinchalik Norin daryosi bo'yida temiryo'lchilar bog'ini tashkil etib, bog'u-rog'lar yaratib kamtarona ijod bilan shug'ullandi. Uchqo'rg'onda yashab ijod qilgan paytlari mahalliy shoirlar Ibrohim Oxundiyy, Valiy, Mamajon Olimiy, Hakimiyy singari kishilari bilan do'stlashdi va ularning ijodiga ijodiy ta'sir o'tkazdi. SHuning bilan birlikda "Andijon adabiy gurungi"da doim hamnafaslakda bo'ldi, uni tark etmadi. SHoir Xurramning ijodiy she'riyati va tarixiy hikoyalari biron-bir yaxlit kitob

¹ Андижон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

shakliga keltirilgan emas. Lekin Xurramning ashaddiy muxlisi Axmadrafiq Qambarov tomonidan imkoniyati darajasida qo'lyozma va hikoyalarini tartibga keltirib Andijon viloyati “Adabiyot va san'at muzeyi”-ga topshirilgan. Abdulkamid Abdurazzoqov - Xurram 1980-yili 15-avgustda Uchqo'rg'onda vafot etdi...

Ko'zlarimga tik

Kel ey shahlo ko'zim, ko'zlarimgni ko'zlarimga tik,
Yurokim chok-chokini surmaso mujganlaringga tik.

Kelib rahming qiyo boq loaqlal ey lolaruxsorim,
Kulib, goho berib yon bag'rima mehri giyohing tik.

Tag'ofil, nozu-istig'nolaring qo'y, bevafo bo'lmay,
Karam darvozasini ochib, vafo bayrog'ini tik-tik.

Qimori ishq o'ynab boy beribsan ko'ngling oromin,
Kel endi naqdi joning “gardkam” deb bir yo'la dov tik.

Nigoring vasliga yetmog'liging mushkulmikin Xurram,
Tubandur martabang ko'p, baxtiyoringdur bag'oyat tik.

Aylab

Kelur deb mahvashimni bir kecha shirin xayol aylab,
Yo'liga ko'z tutib o'lting'on edim yaxshi fol aylab.

Xayol oyinasidan ul pari boqdi qiyo andog',
Ishorat etdi mujgon birla kelmoq ehtimol aylab.

Xaramdin chiqdi-yu, nozu karashma birla ul tannoz,
Tag'ofil pardasini yuzlarig'a ro'ymol aylab.

Yo'l oldi men tomonga ul parizodim bosib bir-bir,
Xiromin san'atini xaddin afzun e'tidol aylab.

Xiyol o'tmay eshik chertildi-yu kirdi kulib ul sho'x,
Iroqi do'ppisini o'smalik qoshiga dol aylab.

E gib boshimni aydim: “Xush kelibsiz, yaxshi mehmonim!”
Dedi: “Senga muborak, bu kecha bazmi visol aylab”.

Taraxxum bodasini tutdi tabassum sog'aridinkim,
Debon xolin gapirsun, mast etay men bemalol aylab.

Qo'niq baxtim qushi baxtimga Xurram bo'ldim andoqkim,
Tong otguncha, ko'ziga termulib men sharhi hol aylab.

ULFAT, VOSIT SA'DULLA HAYOTI VA IJODI

Reja

- 1. Ulfat hayoti va ijodi.**
- 2. Vosit Sa'dulla hayoti va ijodi, asarlarining badiiy xususiyatlari.**

QOSIMOV IMODIDDIN (ULFAT)¹. (1906-1989). Imodiddin - Ulfat 1906 yili sentyabr oyining boshlarida “Ostonaguzar” mavzesida mакtabdor domla Qosimqori oilasida dunyoga keldi. To’rt yoshlik chog’ida onasi Hamroniso vafot etdi. 1916 yili otasi ham olamdan o’tdi. 11 yoshli Imodiddin goh o’gay tog’asi Yunusxo’ja hojinikida, goh o’z tog’asi Nizomiddin qorinikida yashab, ularning uy ishlariga qarashib, tarbiya topdi. Tog’asi Nizomiddin qori ma’rifatli bog’bon kishi bo’lgan. U boshlang’ich savodini, otasi qo’lida chiqargan Imodiddinning intilishi va qobilyatini sezib, uni 1923 yili “CHuqr masjid” madrasasiga, Abdumajid qozi domлага o’qishga berdi. Yosh iste’dodli Imodiddin ustozidan dastlabki ilmlarni mukammal o’rgandi.

Imodiddin “Bobo Sa’duddin” qorixonasidagi xujralardan birida “chilla” o’tirib qirq kun ichida Qur’onni to’la yod olgan ekan. Bundan tashqari sharq mumtoz she’riyati namoyandalari Sa’diy, Xofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi shoirlar asarlari bilan yaqindan tanishadi. SHu bilan birga Qur’on karimni ham to’la yod oladi. Nihoyatda qoidalı qorilardan biri bo’lib yetishadi. Madrasada o’qib yurgan vaqtlarida Andijondagi iste’dodli shoirlar Mahjuriy (Muxammadxon Maxdum), Xabibiy (MuxammadZokir qori), Sayfiy (AbduVahhob), Anisiy (AbdulAhad)lar bilan tanishadi, ular bilan doimiy hamsuxbat bo’ladi. Ularning uchrashuv suxbatlari ko’pincha jome’ madrasasida, yoki mulla Abdulxamid (Xurram)ning hujrasida bo’lar edi. Imodiddin 1929 yili Andijondagi hisobchilar tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tugatib turli kooperatsiya tashkilotlarida hisobchi bo’lib xizmat qildi. 1937 yili A. Navoiyning 500 yilligi yubileyi ko’mitasiga tekstologiya-matnshunoslik komisiyasiga ishlash uchun taklif qilindi. Bu yerga Navoiy asarlarini yaxshi biladigan O’zbekistonidagi yirik Navoiyshunos olimlar bilan birga klassik adabiyotni tushunadigan shoirlar yig’ilgan edi. O’sha kezlarda G’afur G’ulom Imodiddingga “Ulfat” taxallusini tavsiya etib, uning tabiatiga shu taxallus mos kelishini ta’kidlaydi. SHoir 1939 yilgacha “Hoib” taxallusi bilan she’rlar yozar edi. Navoiyshunoslik komiteti faoliyati Jahon urushi munosabati bilan vaqtincha to’xtatiladi. SHoir Andijonga qaytib kelib yana o’z kasbi - hisobchilik ishlarini davom ettiradi. 1957 - 1976 yillar ichida Andijon Davlat Pedagogika Institutida bosh xisobchi lavozimida ishlaydi va shu dargohning sirtqi filologiya bo’limini bitirdi. Lekin shoir kasb ishlaridan bo’sh vaqtlarini asosan she’riyatga bag’ishladi. O’z she’riy to’plami - “Zebo sabab” kitobini 1983 yili bosmadan chiqardi. “Gulbog” she’riy to’plami esa 1988 yili nashrdan chiqdi. Oxirgi devon tartibidagi she’rlar to’plami esa farzandlari tomonidan 2008 yili nashrdan chiqarildi va she’riyat muxlislariga taqdim etildi.

¹ Андикон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

Imodiddin Qosimov qaerda, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar mas’uliyatni chuqur xis etishi, o’ziga juda talabchanligi bilan ajralib turar edi.

Davlat menga

Etdi ijod olamida qancha ko’p mehnat menga,
Lekin eldin keldi mehnat so’ngidan xurmat menga.

Zavq ahlin suhbati tortdi o’ziga doimo,
Manfaatlar berdi chunkim zavqlilik suxbat menga.

Kamtarin shogird bo’lib qildim Alisher xizmatin,
Barkamollik yo’llarin ko’rsatdi bu xizmat menga.

Sa’diyu, Jomiy, Fuzuliy so’zlarining qatrasi,
Bahra birla zavq berdi, keldi bu xislat menga.

Sayfiyu, Mahjur, Anisiy birla Bokiy ham Munir,
Berdi to’lqinlik Xabibiy she’r uchun g’ayrat menga.

Ishq zavqin totmagan she’r olamin sayr aylamas,
Iltifot etdi bu ishni ishq ila qurbat menga.

SHubha qilmang so’zlarimga lof emas, yolg’on emas,
Keldi oxir chin so’zimni aytgali fursat menga.

Gullagan davronimiz madxin qilur Ulfat mudom,
Bulbuldek sayramoqlik ulug’ davlat menga.

Yaxshiroq

Orazing gulzoridur menga chamandin yaxshiroq,
Lablaring yoqtidir la’li Yamandin yaxshiroq.

Qomating oldida gulshan sarvi hech yaxshi emas,
Anbaring zulfi hidi mushki Xo’tandin yaxshiroq.

Ishq sayyodinki, domi dor qaro soching seni,
Band etar har tori ming dilni rasondin yaxshiroq.

Men shahidi ishq bo’lsam, yor ko’yini tuprog’i,
Qonli jismimni o’rar bo’lsa kafandin yaxshiroq.

Jonni tanda asradi Ulfat fido qilmoq uchun,
Bo’lmasa senga fido ketsa badandin yaxshiroq.

VOSIT SA’DULLA (1914-1987). Vosit Sa’dulla shoir va dramaturg bo’lib, ozbek adabiyotida g’azallari bilan mashhur bo’lgan. Uning “Yashna”, “Jo’r”,

“Sayqal”, “Xuroson yulduzi”, “Yuz g’azal”, “Olam dilrabo”, “Hamroz”, “Jonajon”, “Hamroh”, “Hayot” nomli she’riy to’plamlari chop etilgan.

Vosit Sa’dulla Andijon shahri, To’qmoq dahasining Bek guzarida 1914 yili tavallud topdi. Uning otasi Sa’dullo aka mohir cholg’u asboblar yasash va ta’mirlash ustasi edi. Shu bilan birga o’zi ham katta hofizlardan edi. Onasi Turg’unoy opa xushfe’l chevar ayol edi. Vosit Sa’dullaning besh yoshdaligida onasi vafot qiladi. Uning tarbiyasini otasining do’sti Umrzoq ota o’z zimmasiga oladi. Dastlabki tahsilni 18-maktabda va keyinroq internatda oladi. So’ngra Andijon davlat pedagogika bilim yurtiga o’qishga kiradi. Otasining o’limidan so’ng, o’qishni kechki bo’limga ko’chirib ishga kiradi. 1934 yili o’qishni tamomlaydi. 1936 yili Toshkentga kelib Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga kiradi va shu yillar ichida she’rlar ham yoza boshlaydi. “Yangi to’y”, “Saltanat larzada” dramalarini yozib sahnalashtiradi. “Jo’r”, “Sayqal”, “Yuz g’azal” she’riy to’plamlari, “Hamroz”, “Hayot” devonlari va yana ikki devoni hammasi bo’lib to’rt devoni chop etiladi. 1942 yili shoir Sulton Jo’ra bilan hamkorlikda yozgan “Iroda” musiqali drama asari Andijon teatrida sahnalashtiriladi. Vosit Sa’dulla “shaxsga sig’inish” davrida og’ir qiyinchilikka uchraydi. U nohaq 1943 yili qatag’on qilinib, 1955 yilga qadar qamoqda hayot kechiradi. So’ngra oqlanib yana Andijonga qaytadi va maktabda o’qituvchilikni davom ettiradi. 1957 yili Andijon davlat pedagogika institutiga ishga taklif qilinadi. Bu bilim dargohida o’n besh yil faoliyat ko’rsatib adabiyot va falsafa kafedrasida etika va estetika fanlaridan ta’lim beradi. 1974 yili nafaqaga chiqadi. 1987 yili vafot etadi.

“Shoir Vosit Sa’dulla va uning maslakdoshlari” maqolasida uning tarjimai holiga oid ma’lumotlar beriladi. Shuningdek uning nohaq qamalganligiga doir hujjatlar tahlil qilingan. Ma’lum bo’lishicha, Vosit Sa’dulla Andijon ziyolilaridan, endigina 29 yoshni qarshilagan, adabiyot o’qituvchisi, shoir, Farg’onadagi 2-o’zbek zahiradagi o’qchi polki serjanti Vosit Sa’dulla 1943 yil 18 martda hibsga olingan¹. Uning hukumat rahbarlariga yozgan arizasida tarjimai holi keltirilgan: “Men 1914 yili O’zbekiston SSR Andijon shahrida tug’ilganman. Otam musiqa asboblarini tayyorlash bo’yicha hunarmand bo’lgan va biz juda og’ir moddiy sharoitda yashaganmiz. Onam vafotidan so’ng, 1924 yili meni tarbiyalash uchun internatga berilganman, bu yerda 1930 yilgacha, ya’ni 16 yoshgacha bo’lganman, shundan so’ng meni davlat pedagogika texnikumida o’qish uchun yuborgan, uni 1934 yili tugatganman. 1932 yildan boshlang’ich maktablarda o’qituvchilik qila boshlaganman. 1935 yili 2 yillik Andijon o’qituvchilar institutiga o’qishga kirganman, uni men 1937 yili tugatganman va o’rta maktabda o’qituvchi bo’lib ishlay boshlaganman, Toshkent shahridagi pedinstitutda o’qishni davom ettirganman, uni 1940 yili tugatganman. 1930 yildan menda she’riyatga qiziqish paydo bo’ldi va men bu ishga butun qalbim bilan kirishganman, 1934 yildan esa mening she’rlarim mahalliy va respublika gazeta va jurnallarida chiqib turgan.

¹ Шамсутдинов Р., Ҳомидов Д., Қаҳхоров Ш. Шоир Восит Саъдулла ва унинг маслакдошлари. / Водийнома. 2018. № 3. 75-б.

1939 yil menga buyuk baxt qanot bag'ishladi: nashriyot mening birinchi she'rlar to'plamimni nashr etdi. Meni katta yumush va e'tibor qurshab oldi va Andijon oblast partiya komiteti topshirig'i bilan men 1942 yili vatan urushi to'g'risida "Iroda" pesasini yozdim. Pesa Andijon dramatik teatri sahnasida katta yutuqlar bilan qo'yila boshlandi va tomoshabinlar tomonidan yaxshi qabul qilindi. Bu ishim O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti tomonidan ijobiliy baholandi. Avvalboshdan men pedagoglik qildim va institutda o'qigan chog'larimda redaktsiyada ishladim. Shuningdek o'rindoshlik asosida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida bolalar adabiyoti bo'limiga mudirlilik qildim"¹.

Maqolada keltirilishicha, bu arizalarda ilgari surilgan masalalar tegishli organlar tomonidan o'rganilgan, ayrim faktlar tekshirilgan, ariza muallifi bilan uchrashuvlar, yuzlashtirishlar, tegishli joylardan ishga aloqador masalalar bo'yicha so'rovlar bo'lgan. Vosit Sa'dullani hibsga olishda unga qo'yilgan siyosiy ayblardan biri uning badiiy asarlarida, she'rlarida sovetlarga qarshi aksilinqilobiy, millatchilik, mag'lubiyatchilik g'oyalari borligi, bu g'oyalarni askarlar orasida targ'ib va tashviq qilgani, iksilinqilobchi, millatchi Cho'lpon she'r va asarlarining faol targ'ibotchisi ekanligi edi. Aytish kerakki, Cho'lpon asarlarini o'qigan, u haqda suhbatlashganlarning barchasi "millatchi", "soveta qarshi" kabi ayblovlar bilan qamalgan.

Vosit Sa'dulla 1943 yili qatag'on qilinib, 1955 yilga qadar qamoqda hayot kechiradi. So'ngra oqlanib yana Andijonga qaytadi va mакtabda o'qituvchilikni davom ettiradi. 1957 yili Andijon pedagogika institutiga ishga taklif qilinadi. Bu yerda o'n besh yil faoliyat ko'rsatib, adabiyot va falsafa kafedrasida ishlaydi. 1974 yilda nafaqaga chiqadi. 1974 yil 7 oktyabrda vafot etadi.

Shoir va dramaturg Hoshimjon Razzoqov va Vosit Sa'dulla bilan bir kafedrada xizmat qiladi. Ular bilan doimo Andijonda o'tgan shoirlar haqida suhbatlar quradi. Ular O'zbekiston xalq shoiri Sobir Abdullaning 30-maktab yonidagi katta sahnli, bir necha xonalardan iborat bo'lgan uyiga joylashib istiqomat qiladilar. Bu xonadonda bir katta mehmonxona bo'lib, doim mehmonlar bilan gavjum bo'lgan. Bu mehmonxonaning doimiy mehmonlari Abdulhamid Xurram, Xurramning ukasi Abdul-Ali va Mufavvaz, shoirlar Mahjuriy, Ulfat, Sayfiy, Anisiy, Vosit Sa'dulla, Boqir, sozandalar va xonandalar To'xtasin Jalilov, Qosimjon Oxunov, Fattohxon Mamadaliev, G'ulomjon Xojiqulov, Yo'ldoshvoy Kiyikov va boshqa bir qancha san'atkorlar edi. Toshkentdan, Qo'qondan G'afur G'ulom, Oybek, Sobir Abdulla, Charxiy, Ramz Bobojon, Habibiy bu mehmonxonada tunashib Andijon adabiy gurungi anjumanida qatnashar edilar.

Vosit Sa'dullaning Cho'lpon asarlarini saqlab qolishda katta xizmatini ham qayd etish lozim. Adabiyotshunos Naim Karimovning "Cho'lponning noma'lum she'rlari" nomli maqolasida Vosit Sa'dulla haqida, uning Cho'lpon she'rlarini bilgani, ularni chop etgani, Naim Karimov V.Sa'dulla hayotligida ko'rishib gaplashsa-da, Cho'lpon haqida hech gapirmagani, lekin Cho'lpon haqida asar yozish maqsadi bo'lganligi aytildi. "Cho'lpon singari sho'ro tuzumining qurbanı

¹ Водийнома. 2018. №3. 75-6.

bo’lmish adiblar merosi bizga faqatgina bosma nashrlar orqali yetib kelgan. Zero, “xalq dushmani” deb bolsheviklar tomonidan qatag’on qilingan shoir va yozuvchilar qalamiga mansub asarlar o’sha vaqtdayoq yo’qotilgan”¹. Shundan so’ng Naim Karimov Vosit Sa’dullani “Cho’lponning zargar muxlisi” deb ataydi: “Ammo so’nggi yillarda ma’lum bo’lishicha, Cho’lpon ijodining zargar muxlislari orasida sho’ro tuzumining qahridan qo’rqmagan, har qanday ta’qib va tahdidiga qaramay, sevimli shoirining e’lon qilgan asarlarini to’plab, ko’z qorachig’idek saqlagan kishilar ham bor ekan. Shunday kishilardan biri Cho’lponning vatandoshi, andijonlik marhum shoir Vosit Sa’dulladir”². Maqola mazmunidan ma’lum bo’lishicha, Vosit Sa’dulla 1914 yili dunyoga kelganida, Cho’lpon endigina dastlabki she’r va hikoyalarni e’lon qilib, adabiyot deb atalmish sehrli olamning eshigini chertayotgan ekanligi, u 1940 yilda Toshkent pedagogika institutini tugatganda esa, Cho’lpon allaqachon otib tashlangani va uning hatto nomini ham tilga olish unga taqdirdosh bo’lish bilan baravarligi aytib o’tiladi. Ammo shunga qaramay, Vosit Sa’dulla sevdigi Cho’lponning e’lon qilinmay qolgan asarlarii qidirib topish, e’lon qilinganlarini esa asrash, u haqdagi ma’lumotlarni to’plash kabi xayrli ishlar bilan pinhona shug’ullananganligi ta’kidlanadi³.

Yana bir e’tiborli jihat shundaki, Naim Karimov Vosit Sa’dullaning insoniy va ijodiy jasorati orqasida saqlanib qolgan Cho’lponning bir necha she’rini havola etarkan, shoyad ustoz va shogirdning ruhlari shod bo’lsa deb umid qilishini aytadi. Shundan so’ng Cho’lponning “Er qizi”, Cho’lponning Sharafiddin Salohiddin o’g’liga Maskovdan yozgan maktublari”dan “Birinchi maktub”, “Go’zal Farg’ona”, “Kampirning To’ychisi” she’rlari e’lon qilingan.

Vosit Sa’dulla xotiralarida yozishicha, talabalik yillari “Yosh kuch” jurnalida ishlagan⁴. O’zbekiston yozuvchilar birlashmasida ham faoliyat olib borgan. 1939 yili Katta Farg’ona kanali qurilishida qatnashib, davriy gazetalar chiqarishda ishtirok etadi. Urushdagi quroldosh do’sti bo’lgan Sulton Jo’ra bilan Toshkentda tanishadi. 1940 yili institutni tugatgach, yana Andijonga qaytib o’qituvchilik faoliyatini davom ettiradi. Bu orada Ikkinci jahon urushi boshlanib, 1942 yili armiya safiga chaqiriladi. Askarlik chog’idayoq Sulton Jo’ra bilan birga urush mavzusida “Iroda” dramasini yozadilar. 1943 yili drama Andijon teatrida sahnalashtiriladi. 1945 yili frontdan qaytib kelgach, Andijonda o’qituvchilikni yana davom ettiradi, badiiy ijod bilan ham shug’ullanadi. 1959 yili Andijon davlat pedagogika institutiga ishga chaqiriladi. Bu yerda o’n besh yil ishlaydi. U jamoatchilik orasida yetuk pedagog sifatida tanildi. Ijodidan namunalar viloyat va respublika matbuotida bosilib turdi. Vosit Sa’dulla pedagog sifatida ilmiy tadqiqot ishlari olib bormasa da, shoir pedagog sifatida o’zidan ko’pgina badiiy mahsulotlar qoldirdi. O’nlab she’riy to’plamlar chop ettirdi, ikkita devon tuzib nashr qildi.

¹ www. kh-davron kutubxonasi. Каримов Н. Чўлпоннинг номаълум шеърлари.

² www. kh-davron kutubxonasi. Каримов Н. Чўлпоннинг номаълум шеърлари.

³ www. kh-davron kutubxonasi. Каримов Н. Шоирнинг номаълум шеърлари.

⁴ Улар хотираси барҳаёт. – Т., 2003. 169-бет.

Andijon adabiy muhitida Habibiy, Ulfat, Boqir, Anisiy, H.Razzoqovlar qatorida o'zidan o'chmas abadiy iz qoldirdi. U pedagog sifatida ham, shoir sifatida ham xalqchil inson bo'lib, doimo odamlar orasida bo'lgan. O'ta vatanparast – andijonparast inson bo'lgan. Bobur yurti Andijon farzandi ekanidan doimo faxrlanar edi:

*Har yerga nomi ketgan mehnatda andijonlik,
O'ynab qaerga borsa, hurmatda andijonlik.
Olgay so'zini qimmat odatda andijonlik,
Bir so'z bilan bilingay suhbatda andijonlik
Do'stlikka ahdi qattiq g'oyatda andijonlik.*

1964 yilda Vosit Sa'dullaning "Jo'r" kitobi O'zSSR Davlat Badiiy adabiyot nashriyotida chop etiladi. Vosit Sa'dullaning "Yuz g'azal" she'rlar to'plami G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etiladi. Shoir Vosit Sa'dullaning "Hamroh" devoni G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1982 yili chop etiladi. Uning "Hayot" nomli devoni G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1986 yili nashr etiladi.

Vosit Sa'dullaning she'riy asarlari kuya solinib hofizlar tomonidan ijro etib kelinadi. Uning "Kelin-kuyov" she'ri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ravshan Komilov tomonidan kuya solinib ijro etilgan. "Bu turfa gullar ayting muhabbat bog'idanmu..." so'zlar bilan boshlanuvchi she'r muallifi ham V.Sa'dulla bo'lib, Abdurauf Olimov maromiga yetkazib kuylagan.

Shoir Vosit Sa'dulla she'riyatning turli janrlarida barakali ijod qilgan so'z san'atkori hisoblanadi. Uning she'riyati mavzu ko'lami keng, lirik asarlarining g'oyaviy-badiiy mundarijasi rang-barang. Ona vatanga muhabbat, ilm-ma'rifikatga targ'ib, ezgulik tantasiga ishonch, insoniy fazilatlar tavsifi kabi hamma zamonlar uchun dolzarb bo'lgan masalalarni obrazli, badiiy va ta'sirchan tarzda kitobxonga yetkazadi.

"Dunyo – kitob" she'ridagi badiiy va ijtimoiy g'oya hozirgi kunimiz uchun ham juda zarur hisoblanadi:

*Menga zo'r dunyocha keng fikru xayol bergen kitob,
Elga ibrat o'ylasam obro', kamol bergen kitob.
Yaxshi suhbatdosh erur bo'sh chog'larim u men bilan
Kim go'zal so'z san'atin ham bemisol bergen kitob.*

Kitobning insonga dunyo qadar fikr va xayol berishi, o'qimishli bo'lish esa obro' va kamolotni belgilashi, bu esa kitob orqali bo'lishi izohlanadi. Kitob yaxshi suhbatdosh, u so'z san'atining ham misolidir.

*Bu yorug' olamgakim zehnim yugurdi nur bo'lib,
Barcha illatlarni fosh aylab, zavol bergen kitob.
So'z bilan suhbatda har dilni musaxxar aylagan,
Tillarimga o'tli so'z, shirin maqol bergen kitob.*

Nur va illat tushunchalari o'zaro mantiqan zidlanmoqda. Kitob inson zehnini nurlantiradi, u bor joyda illatlar fosh bo'lib, zavolga barham beriladi. Suhbatda har bir dil sehrlanadi, kitobxon tiliga o'tli so'z, shirinsuxanlik baxsh etadi.

Bo'lg'usi ko'nglim chaman sayru tamoshodin mudom

*Elga ham orastalik, kulgan jamol bergen kitob.
Yashnamasdan cho'l bo'lib qolgay kitobsiz har ko'ngil,
Elni go'yo yayratib obi zilol bergen kitob.
Har hunar, ishga rivoj, ijodga undan yuksalish,
Bog'u rog'larga hayot yangi nihol bergen kitob.*

Shoir ijodida yoshlik mavzusidagi g'azal ham mavjud. Yoshlik o'zgacha davrondir, unda sho'xligu havaslar, orzular bo'ladi:

*Bergisiz bir o'zgacha antiqa davron yoshliging,
Sho'xligu ming bir havas, orzuga maydon yoshliging.
Hamma narsa beg'ubor, sig'mas ko'ngilga nash'alar,
Maskan etgandek bahor ko'nglingni, bo'ston yoshliging.*

Vatan mavzusi hammavaqt dolzarbdir. Shoir ijodida u o'ziga xos tarzda san'atkorona qalamga olinadi:

*Vatan shahri emas, sahrolari ham menga rohatbaxsh,
Elim orzu bilan qilgan shiori dilga jur'atbaxsh.*

Inson tug'ilib o'sgan uyini vatan deb biladi, lekin uning hududi uy bilan chegaralanmaydi, balki uning faqat shahri emas, uning sahrolari ham rohat bag'ishlaydi.

*Zamon shiddat bilan tezkor bo'lib, olg'a bosar har dam,
Davrga hamnafas bormoq erur har kimga g'ayratbaxsh.*

Ana shu vatan tuprog'idagi o'zgarishlar, yangiliklar kishiga g'ayrat baxsh etadi, davr bilan hamnafas bormoq farzandlik burchi hisoblanadi.

*Vatan bag'rida eldoshlar qilur mehnat shijoatlik,
Ular quchgan zafar, shonu sharaflar elga ibratbaxsh.*

Xalqning mehnat qilishi, mehnat orqali shonu sharaf, zafarlarni quchishi elgan, vatan farzandlariga ibratdir.

*Aql hayron qolarlik yangi-yangi kashfiyotlar bor,
Vatan qaddini tog' qilgayki, bu ish unga qudratbaxsh.*

Yangi kashfiyotlarning yaratilishiga aql hayron bo'ladi, bu kashfiyotlar vatan qaddini tog' qiladi, ya'ni rivojlanish, taraqqiy etish millatni, xalqni farovon, g'ururli qiladi.

*Har ishchi, har hunarmand, olimu dehqon erur bir jon,
Aql, mehnatsevarlik ahdi birla hamma himmatbaxsh.*

Ishchilar, hunarmandlar, olim va dehqonlarning barchasi vatan taraqqiyoti yo'lida birgalikda ahil, bir tan, bir jon bo'lib harakat qiladilar. Ularning ahdida aql, mehnatsevarlik mavjud.

*Go'zal yurtimni ming turli giyoh, gul, ne'mati borkim,
Salomatlikda tengsizdir, elim insonga sihatbaxsh.*

Vosit Sa'dulla bu g'azalni albatta, sho'ro davrida yozgan. Lekin unda biz shoir tasvirida Andijonni, shuningdek O'zbekistonni ta'rifu tavsif etganini anglaymiz. Go'zal yurtning ming turli giyoh, gul kabi ne'matlari borligi va shu bilan xalq salomat ekani g'azalda ifodalangan.

*Zamon farzandlari qalqon erur elga - sadoqatlik,
Agar yov kelsa qaqshatgayki, Vosit, jangda nusratbaxsh.*

Vatanparvarlik xislati esa butun ijodining mazmunini, badiiyatini belgilaydi. Shoir xalqini qanchalik e'zozlasa, yurtini, vatanini ham shunchalik otashin muhabbat bilan sevadi:

*Yayra, ko'ngim, senda bor bunday diyor hech yerda yo'q,
Bunchalik odamga hurmat-e'tibor hech yerda yo'q.*

Vosit Sa'dullaning hayotga bo'lgan muhabbati beqiyos, ulkan bo'lib, u orasta inson, orasta ijodkor:

*Vosit, umring ko'hna olam oldida bir lahzalik,
Qoldir elga yashnatib orasta umring bog'in...*

Vosit Sa'dulla o'z so'ziga binoan hayotidan devon tuzib, shunday bir bog' yaratib ketdiki, bu bog'ning sarxil va hamisha yashnab turaveradigan rango-rang mevalaridan faqat zamondoshlarigina emas, balki kelgusi avlodlar ham bahramand bo'laveradilar. Vosit Sa'dulla adabiy gurunglar, mushoira davralarida faol ishtirok etgan. Uning Zafar Diyor, Shuhrat, Ne'mat Toshpo'lat kabi shoirlar bilan o'tkazgan mushoira davrasida "To'rt lavha" nomli she'r paydo bo'lgan.

Shoirni mumtoz she'riyatimiz an'analarini munosib davom ettirgan, rivojlantirgan shoir sifatida e'tirof etish mumkin bo'ladi. "Joni zorim yayragay..." deb boshlanadigan g'azalning tuzilishi va mazmuni an'anaviy uslubda ekanligini, o'zbek she'riyatida shu xildagi g'azallarning mashhur shoirlar ijodida borligini ta'kidlash joiz.

*Joni zorim yayragay, ko'rganda ko'z shahlolaring,
Zavq berur, sendan husn olgan kiyim, zebolaring.*

Lirk qahramon an'anaviy oshiq misoldida gavdalanadi. Oshiq tomonidan yorning tashqi portreti ta'rif-tavsif etiladi. Shuning barobarida oshiq o'zining ruhiy holatini ham bayon qiladi:

*Sen bilan yo'llarda birga yurgani men zorman,
Xush etar har dam dimog'im bo'y berib ra'nolaring.*

Oshiqlikning sharti yor oldida xokistarlik, yorga fido bo'lish, jonni baxsh etish deb tushuniladi. Shoir ijodida esa u zamonaviy ko'rinish kasb etadi, g'azaldagi oshiq mag'rur, buning sababi yordir:

*Shahraro mag'rur yurarman, bunga yorim sen sabab,
Elda ko'nglim tog' etar qilgan menga parvolaring.*

Yorning oshiqqa beparvo emasligi uning qalbini tog'dek o'stiradi, mag'rur qiladi.

*Qoyil o'lmasdan, netay, donoligingga, dilrabo,
Shoshtirib qo'ygay meni so'z qudrati - ma'nolaring.*

Yor har jihatdan barkamol va benazir hisoblanadi. Shuning uchun yorning so'zlashi oshiqni shoshiltirib, o'ylantirib qo'yadi.

*Bu jahondakim yetib so'z qadriga so'zlash qiyin,
Qandayin yetsin tuban, ag'yor degan a'molaring.*

So'z qadriga yetish qiyin bu olamda, deb hisoblaydi lirk qahramon. Shirin so'zlarga aldanmaslik lozim, yorni chin oshiqdan soxtasini ajratishga undaydi shoir:

Uchma shirin so'zga ko'p, jonim, ularning rosti yo'q,

*Yor, adashma, mendan ortiq bo'lmagay shaydolaring.
Sevganimdan kuydirib jon so'z dedim, Vosit, guvoh,
Loyig'ingni topding, o'rtoq, der hama oshnolaring.*

Shoir Vosit Sa'dullaning o'zi ham mumtoz she'riyatimiz janri bo'lgan g'azal, shuningdek aruz vazni haqida quyidagi fikrda bo'lgan: "G'azalmi, muxammasma, jo'n, bo'sh yozilgan bo'lsa, aruz aybdor emas, uning no'noq muallifi aybdor. Axir so'z san'atining cho'qqisi bo'lgan klassik shoirlarimizning devonlari, dostonlari shu vaznda yozilgan. Umuman, aruz bag'ri tor deguvchilarga aslo qo'shilmayman. Aruz ham, barmoq ham, boshqa vaznlar ham shoirdan ko'p qirrali ilm, so'zga boylik, hayotni chuqur bilish, badiiy iste'dod talab qiladi"¹.

Demak, shoir aruz vazni talablari, g'azalchilik an'analarini puxta o'zlashtirgan holda asarlar yozdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning "Hayot" devoni bilan tanishadigan bo'lsak, unda devon tuzish an'analariga amal qilinganini ko'ramiz. Shoir Vosit Sa'dulla she'riyatining mavzu ko'lami keng. Uning asarlarida umuminsoniy qadriyatlar, insoniy fazilatlar, umumbashariy masalalar qalamga olinadi. Lirik qahramon an'anaviy tarzdagi oshiq sifatida namoyon bo'ladi.

*Etib mehrim poyondoz yo'llaringga,
Tutay ko'nglimni guldek qo'llaringga.*

*So'zim o'ldirma, kel, jon intizorman,
Bo'lay har chog' tasadduq bo'ylaringga.*

Lirik g'azallarda shoir ma'shuqa portretini ham tasvirlaydi. Bunday g'azallarda ma'shuqaning tashqi portreti uning ichki olami bilan uyg'unlikda aks etishini kuzatamiz:

*Ko'nglim olgan jon qushi tovus misol, dilbargina,
Hech bino qo'ymas o'ziga, bo'lsa ham lobargina.
Nur ichida his etarman o'zni bir ko'z tashlasa,
Parpirar zuhrodin ortiqroq o'zi axtargina.
... Goh qovoq solgay, yarashmas bo'lsa ham gulchehraga,
Chin qilur yolg' onni bir o'rtog'i bor battargina.*

Shoir ma'shuqani "ko'nglini olgan jon qushi" deb ataydi hamda unga "tovus misol", "dilbargina", "lobargina" kabi sifatlarni beradi. Yorning turfa xislat va fazilatlarga ega bo'lsa-da, uning o'ziga bino qo'ymasligi insoniy fazilat hisoblanadi. Yorning bir ko'z tashlashi oshiqqa o'zgacha ruhiyat bag'ishlaydi, u o'zini nur ichida his qiladi. Chunki yor zuhrodan ortiq darajada oq, axtar, ya'ni yulduz singaridir. Mana shu yor ba'zan qovoq soladi, bu ham o'z o'zidan bo'lmay, yorning dugonasi yolg'on gaplarni rostga o'xshatib, avrab so'zlaganidan shu holat bo'ladi.

*Ishva birla o'ynatib ko'z, tanda jonim o'ynatur,
Tortdi qosh ko'z yetmagandek bag'rima xanjargina.*

¹ Саъдулла В. Ҳаёт. Девон. – Т., 1986. 3-б.

Yor ko'zining ishva bilan boqishi "o'ynatmoq" fe'li bilan keltirilib, "ko'z o'ynatmoq" iborasi bilan ifodalangan. Bu esa kitobxonga emotsional ta'sirchanlik effektini oshiradi. "Jonne o'ynatmoq" ham ibora bo'lib, oshiq dilini, jonini qiyynamoq ma'nosida tushuniladi. Demak, misrada "o'ynatmoq" so'zi ikki o'rinda turli ma'nolarda qo'llanilyapti va o'ziga xos so'z o'yini hosil bo'lgan. Keyingi misrada esa yor "ko'z bilan qiyagani yetmagandek qoshini xanjar kabi bag'rimga sanchdi", mazmuni ayon bo'lmoqda. Bu yerda qosh hanjarning shakliy ko'rinishiga o'xshatilmoqda.

Yorning sirtdan ko'rinishi achchiqlangan, jahldor ko'rinsa-da, lekin ibo hayoli ekani ma'lum bo'ladi, yor yuzining "cho'g'day bo'lishi" shunday deyishga asos bo'ladi:

*Aldanishdan seribolik yuzlari cho'g'day bo'lib,
"Do'stni yolg'oni yomon" der, kulgisi shakkargina.*

G'azalning maqtasida "bunday yor boshdag'i toj, nikoh gultojining gavhari bo'lishga arziydi" degan mazmun anglashiladi:

*Yolchiding yordan, muhabbatdan, yigit, Vosit, bu haq
Kim nikoh gultojiga loyiq kelin – gavhargina.*

Shoirning dunyoqarashi bo'yicha muhabbat keng ma'nodagi tushuncha. Uning fikricha, inson muhabbatsiz, e'tiqodsiz yashay olmaydi:

*Muhabbatsiz hayot bo'lmas jahonda,
Jahon ermas, kichik har oshiyonda.*

*Mehr qo'y may davr monand hunarga,
Halovat istama, rohat qayonda.*

Jahonda muhabbatsiz hayot bo'lmaydi, jahon emas, balki har bir kichik makonda ham muhabbat bo'lmos'i kerak. Bu muhabbat insonning o'z kasbiga, mashg'ulotiga nisbatan ham bo'lmos'i kerak. Biror hunar egallamay, bu hunarga mehr qo'y may yashab bo'lmaydi, hunarsiz halovat va rohat yo'qdir. Keyingi misralarda ilm-fandan xabarsiz yashab bo'lmasligi, bu zamonda temir ham tilga kirishi ta'kidlanadi:

*Yashash mushkul xabarsiz ilmu fandan
Temir ham tilga kirgan bu zamonda.
Etuk inson bilib har fanda yerni,
Hayot arshiga yetdi hur makonda.*

Vosit Sa'dulla zamon yangiliklarini ham she'rlarda aks ettirganligini ko'rishimiz mumkin.

Shoir poetik obraz yaratishda sun'iylikka yo'l qo'y maydi, uning she'riy asarlarida an'anaviy obrazlar tadrijiy rivojlanib o'z zamonasining g'oyasini ham ifodalaydi. Mumtoz adabiyotimizdagi yor obrazi jafo qiluvchi sifatida ta'riflanadi. Uning xatti-harakatlarini shoir o'ziga xos obrazli tarzda ifodalaydi:

*O'zgalarga gul otib, menga otarsan xorlar,
Rahnalar bag'rim to'la xor otma yor, xor ustiga.*

Yorning o'zga (raqib)ga gul otishi-yu chin oshiqqa xor (tikan)ni otishi ma'no zidligi bo'lib, bunda tasvirning ta'sirchanligi orttirilmoqda. "Otmoq", "xor"

so'zlarining uch marta takrorlanishi ham bejiz bo'lmay, yorning shafqatsizligini ta'kidlashda xizmat qilmoqda. "Gul" va "xor" so'zlari ham zid ma'noli bo'lib, antiteza (yoki tazod)ni hosil qilgan.

Vosit Sa'dulla she'riyatida Alisher Navoiyga tatabbu' tarzida bitilgan g'azallar ham uchraydi. Alisher Navoiyning "Kelmadi" radifli g'azali bilan shoirning "Kelmading" radifli g'azali o'zaro mushtaraklik kasb etadi. Alisher Navoiy:

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

Vosit Sa'dulla:

*Kut, kelurman deb nechun ey guluzorim, kelmading,
Yo'l qarab, toqatlarim toq bo'ldi, yorim kelmading.*

Alisher Navoiy g'azalida lirik qahramonning yorni kutganligi holati "yor kelmadi" shaklida, mazmunida aytilsa, Vosit Sa'dulla yorga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilib "kelmading" deydi. Bunda tasvir predmeti yana ham reallahadi:

*Kelmading, yor kelmading, yo'llarda qoldi ko'zlarim,
Tushdi deb ne holga oshiq, intizoram kelmading.*

Keyingi misralarga oshiqning umidli sadolari singdirilgan, u yorning bir kuni baribir kelishiga ishonadi:

*Tegmagay joninga kutmak, sen kelursan bir kuni,
Behayolar ko'rmasin deb g'amguzorim, kelmading.*

So'nggi bayt, ya'ni maqtada Vosit Sa'dulla oshiqlik odati haqida so'z yuritadi:

*Men borurman kelmasang, Vosit, kulib etgin qabil,
Odatan oshiq kelur deb balki, yorim, kelmading.*

"Qani?" radifli g'azallar o'zbek mumtoz she'riyatimizda ko'plab uchraydi. Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar ijodida lirik mavzudagi go'zal namunalarini misol qilish mumkin. Shu kabi Vosit Sa'dulla g'azallari tarkibida ham "Qani?" radifli g'azalni ana shu ijodiy ta'sirning natijasi sifatida baholash mumkin.

*Sensiz menga yor hushhavo qani?
Dardimga tabib, mo'miyo qani?
Netsin bu zor ko'ngilda shodlik,
Chehramni ochar muddao qani?*

Birinchi misrada lirik qahramon oshiq timsolida namoyon bo'lmoqda hamda yorga qarata "sensiz xushhavo qani?" degan murojaatida savolga javob kutilmaydi, balki "sensiz hayot yo'ql!" degan e'tirof ta'kidlanadi. Shoир ana shu g'oyasini tajohul ul orif san'ati asosida yuzaga chiqarmoqda. Bizga ma'lumki, tajohul ul orif "bilib turib bilmaslikka olish" ma'nosini bildiradi. Shoир biror narsa haqida ma'lumotga ega bo'lsa-da, o'sha narsa, tushuncha va h.k.ga e'tiborni tortish uchun savol tarzida murojaat qiladi. Bu esa she'rning ta'sirchanligini oshiradi.

Savolu javob asosiga qurilgan g'azallar ham shoир ijodida uchraydi. "Bir umr" deb nomlangan g'azalda oshiq va yorning suhbat dialog shaklida beriladi:

Ko'zlarimga shahlo desam, ko'r ko'zlarim fatton, dedi,

Bo'ylaring sozdir desam, men bo'yda bearmon dedi.

*Yur sayohatga chiqaylik, bir ko'ngil to'lzin desam,
Yor esang, berma muhabbatga bu xil farmon, dedi.*

Birinchi baytda oshiq va yorning suhbat natijasida yorning tashqi portreti chizilmoqda: uning ko'zi shahlo va sehrli (fatton), bo'ylari kelishgan. Ikkinci baytda esa oshiqning savoli, undoviga bergen javobida yorning hamma istaklarga ham bosh egavermasligi ma'lum bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, yor oshiqqa o'z hukmini o'tkazadi, ya'ni unga yo'q deydi-yu, lekin oshiqni qo'yib ham yubormaydi:

*Vajlaru nozlar mening jonimga tegdi bo'ldi bas,
Deb edim, bir qosh otib, u qilma so'ng armon, dedi.*

Keyingi o'rnlarda yengil hazil, humor hissi bor. Oshiqning savollariga yor "men senga o'zim darmonman", deb javob beradi:

*Kun sayin dardimga dard qo'shding, kelib hol so'r, desam,
Dard qolurmu men bilan tursang o'zim darmon, dedi.*

*Bo'ldi ishqing menga mushkullardan ortiqroq, desam,
Kel, qilur yor suhbatim har mushkul oson, dedi.*

Vosit Sa'dullaning "Yuz g'azal" kitobida "Dalalarda", "Go'zal", Farg'ona-Farg'ona", "Hayot darsi", "Tashnalik", "Ehtiyoj", "Kelgay", "Go'zallik" kabi g'azallari bor.

*Kel, hayot jomida, Vosit, boda tut,
Yelga ber qaygu'ni, sen shodlikni tut.*

Bu ga'zalda hayot jomi atalmish dunyoda menga boda tutgin demoqchi. Boda ilohiy ishq ramzi hisoblanadi. Shamol yengilligi sababli u o'z qayg'usini shamolga berishini bayon etadi. O'z qayg'uingni yelga berib, sen shodlik ortidan quvib, uni tut demoqchi.

*Kimga so'z bersang uni o'rniga qo'y
Bo'lmasa sen lof urib, so'zlashni qo'y.*

Vosit Sa'dulla ushbu fardi orqali "Agar sen kimgaki so'z ya'ni va'da bersang, va'dangni bajar. Agar buni uddalay olmasang, yolg'on so'zlab o'zingni ko'rsatishga urinma. O'mida so'zingni ustidan chiqa olmasang bekordan bekor lof urib so'zlashni bas qil. Bu bilan shoir so'zning muqaddasligini ta'kidlayapti.

*Gar g'azal yozsang mahorat bilan yoz,
Elga bersin zavq, harorat misli yoz.*

Adabiyot bo'stonida she'r ko'p g'azal ko'p. Ana shu ijod namunalari orasida badiiy mahorat bilan yozilganlari ham talay. Ammo shunchaki mashq saviyasidagi biror bir ma'naviy ozuqa berolmaydigan g'azallar ham bu bo'stondan o'rinn olayotganidan havotirdagi shoirning o'ylari shu fard zamiriga singdirilgan. Bu fard orqali shoir g'azal janriga jiddiy qarash kerakligini aytib o'tgan. U ma'naviy ehtiyojini qondirib misoli yozning yeli singari inson qalbidan o'rinn olish kerakligini o'ziga xos yo'sinda ifodalagan.

Vosit Sa'dulla g'azallarida yoshlarni ilmli, ma'rifatli bo'lishga chaqiradi. SHoir ilm koshonasi bo'lgan mактабни ulug'lab, unga nisbatan o'quvchi ongida ijobjiy hislarni uyg'otishni mo'ljallagan.U hayotni katta mактаб deb atab, ayni paytda ezgu hayot mактабда ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Quyidagi misralarga ham e'tibor qarataylik:

*Ong bilan dunyoni anglab, ish bilan pardoz berur
Tolib ersang ikkisi aynul-hayot maktabdadur.*

Ya'ni dunyoni ong bilan idrok qilib, qilgan amallaring bilan pardoz berasan. Lekin agar anglab yetsang ikkisi uchun ham ibrat maktabdandir.

*Visol vasfini, Vosit, birla siz ham jo'r bo'lib kuylab,
Muhabbat ahliga har damni e'zoz aylamaysizmi?*

Yuqoridagi bayt shoirning "Davr zuhrolari" she'rining maqta'si hisoblanadi. Unda shoir o'zi yor vasliga yetgani holda boshqalarni ham o'ziga jo'r bo'lib visol vasfini kuylashga undaydi. Toki muhabbat ahli, ya'ni oshiqlarga visolning har onini qadrlashni, e'zozlashni o'rgataylik, demoqchi bo'ladi. Bu bir to'g'ridan to'g'ri tahlil. Lekin har bir asarda albatta, ijtimoiylik bo'ladi. Ushbu baytni ham yana shunday ta'riflash mumkin. Hurriyat baxtini his qilayotgan shoir zamondoshlarini ham o'zi bilan birgalikda baxtni kuylashga chaqiradi. Hamda jamiyat ahlini dorilomon kunlarning har daqiqa qadrlashga chaqirishni mo'ljallaydi.

Shoir Vosit Sa'dulla jamiyat, insoniyat, qadr-qimmat, do'stlik, vafo kabi masalalarini ilgari surgan holda, yomonlik va ig'vo kabi qusurlar haqida ham so'z yuritib o'z munosabatini bildiradi. Yoshlik inson hayotining eng go'zal lahzalari bo'lib, uni shoir quyidagicha ta'rif etadi:

*Yoshlik xayolimdan ketmaydi sira,
Uningsiz umrning ko'zlari xira.*

Fardda umr yoshliksiz bo'lmaydi, yoshlik inson hayotidagi eng ardoqlanadigan payt mazmuni ifodalangan. Ushbu fikrni obrazli tarzda "yoshliksiz umrning ko'zlari xira" tarzida beriladi. Bu jumla ko'chma ma'noga ega bo'lib, aslida umrning ko'zlari bo'lmaydi, lekin jonlantirish (tashxis) orqali obrazli tasvir paydo bo'lmoqda.

*Izlamang qabrimdan sizlar qabrtosh,
Mening qabrtoshim toshdan qattiq bosh.*

Birinchi misrada xalqimizdagi odat namoyon bo'lmoqda, inson hayotdan o'tgach, uning qabri boshiga tosh qo'yiladi. Bu tosh belgi bo'lib, marhumning bosh qismi qaerda joylashganini ko'rsatadi. Ikkinci misrada shoir mening boshim tosh, deb tashbeh orqali boshimdan shu qadar ko'p qiyinchiliklar, mashaqqatli kunlar o'tkazganmanki, natijada boshim toshga aylangan, demoqchi.

*Bo'lmas ishga qo'l urib o'tkazma vaqt,
Ish bilan fursatni tutganlarda baxt.*

Mazkur fardda o'zbek xalq maqoli "Vaqting ketdi – naqding ketdi", "Vaqting ketdi – baxting ketdi" mazmuniga yaqinlik borligini kuzatish mumkin.

Shoir she'riyatida mumtoz she'riy janrlardan tuyuqning o'rni va ahamiyati katta. Vosit Sa'dulla tuyuqdagi an'anaviy obrazlar, mavzu, uslublarga ergashgan holda, o'zi ham ana shu janrning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini ochishga

ulush qo'sha oldi. Yangi poetik obrazlar kashf qildi, o'z zamonasining mavzusini tuyuqda ifodalay oldi.

*Yashnamas gulshan, bosib bag'rini o't,
Gulchining gar bo'lmasa bag'rida o't.
Did, havassiz, ishq yo'q bo'lsa, o'sha
Gulchiyu bog'bonni tez bag'ridan o't.*

“O’t” – maysa, yovvoyi o’t, “o’t” – qalbdagi o’t, ya’ni ishtiyoy ma’nosida, “o’t” – bahridan o’tmoq, ya’ni “o’t” fe’lning ko’makchi qismi bo’lib kelgan.

*Katta hosil kuzda bergay katta zang,
Katta ketma, besamarsan kattazang.
Yangi uy, bir o'tli so'z kelmas senga,
Kim bosib ketgan ko'ngil, fikringni zang.*

“Zang” – uzum toki, “kattazang” – o’ziga bino qo’yan, kerilgan, “zang” – dog’, temirning zang bosishi kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu o’rinda katta so’zi ham bir necha ma’noda kelganini ham ta’kidlash joiz. Katta hosil – ko’p hosil, katta zang – hajmi jihatdan yirik, bahaybat, ulkan uzum toki, katta ketmoq – kerilmoq ma’nolarini ifodalaydi.

*Kel, hayot bag'ridasan, ilhomni tut,
Elga ber qayg'uni, sen shodlikni tut.
Vosito, dilbar tabiatdek o'shal
Yoringga bir she'r o'qib, guldasta tut.*

“Ilhomni tut” – ilhomni ushlab ol, qo’ldan ketkazma mazmunida bo’lsa, “shodlikni tut” – shodlikni o’zingga odat qil, “guldasta tut” – yorga guldasta sovg’a qilmoq ma’nosida ifodalangan.

*Bo'lsa rahbar o'z so'ziga beamal,
Ish yurishmas, g'oya qolgay beamal.
Topmas obro' chiqsa kim suvdan quruq
Bunday bedod kimsalarga hayf amal.*

“Beamal” – so’ziga rioya etmasa, o’z so’ziga javob bermasa mazmunini ifodalaydi. “Beamal” – amalga oshmaydi, “amal” – mansab ma’nosini anglatadi. Bunda shoir vazifasiga mas’uliyat bilan yondashmaydigan rahbar kimsalarni tanqid ostiga olgan. Vosit Sa’dulla she’riy janrlarning shakliy va mazmuniy taraqqiyotiga hissa qo’sha olgan ijodkorlardan hisoblanadi. Uning tuyuq-fardlari misolida bu fikrni asoslash mumkin.

*Sayru jahon ayla, go'zallikni ko'r,
Kimki go'zal narsani ko'rmas, u ko'r.*

Tuyuq janri mumtoz she’riy shakklardan bo’lib, u ramal musaddasi maqsur vaznida yozilib, to’rt misradan iborat bo’ladi hamda shakldosh so’zlar qofiya o’rnida keladi. Tuyuq-farnda esa ikki misra bo’lib, shakldosh so’zlar qofiya vazifasida keladi. Yuqoridagi farnda jahonni sayr qilib, go’zallikni ko’rgin, undan bahramand bo’lgan, agar kimki go’zallikni ko’rolmasa u ko’zi ojiz, basirdir, ma’nosini ifodalanmoqda. Bu o’rinda “ko’r” – ko’zi orqali ko’rmoq, ma’nosini ifodalasa, ikkinchi o’rinda “ko’r” – ko’zi ojiz, ko’zi ko’rmaydigan ma’nosida qo’llanmoqda.

*Bo'lmasa jo'r dilimga doim tilim,
Haq qilichi qilsin uni ming tilim.*

Dildagini til bayon qilmasa, deydi shoir, haqiqat qilichi uni ming bo'lak qilsin. "Tilim" – so'zlash vositasi ma'nosida bo'lsa, ikkinchi o'rinda "tilmoq", "bo'laklarga bo'lish" ma'nosida ifodalangan.

*G'am so'ngidan yorishsa dil, bo'lma tong,
Tunni quvib, kunda kelur nurli tong.*

Tajnisli so'zlar "tong" bo'lib, birinchi o'rinda "hayratlanma" ma'nosini ifodalangan, ikkinchi misrada esa tabiatdagi o'zgarish, vaqt, tunning tongga almashinish payti nazarda tutilgan. Bunda "Oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug'" degan xalq maqoli esga tushadi.

Fardlarda shoir hayotiy falsafiy fikr va mushohadalarini obrazli aks ettirar ekan, pandu o'gitlarning o'ziga xos jaranglashi ta'minlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

*Parvarish qilsang berur ko'p meva bog',
Yo'qsa u bo'lgay o'tin bir necha bog'.*

"Bog'" – daraxtlar o'sadigan joy bo'lsa, ikkinchi misrada "bog'lam", "to'p" ma'nosini ifodalaydi. Tuyuq fardlarda inson ruhiy holati, ko'ngil kechinmalari yorqin aks ettiriladi:

*Sig'mas erdi g'ussadin ko'nglingga qil,
Do'stga roz aytib, o'shal kun toza qil.*

"Ko'ngilga qil sig'maslik" jumlasidagi "qil" ot so'z turkumiga mansub so'z bo'lib, o'z ma'nosida kelmoqda. Keyingi o'rinda "toza qil" birikmasida "qil" ko'makchi fe'l sifatida vazifa bajarmoqda.

Vosit Sa'dulla she'riyatida musallas janri ham alohida ahamiyatga ega. Shoir devonida musallasot deb nomlangandan keyin qavs ichida (uchliklar) deb yozilgan qayd ham bor. Shuni aytish kerakki, barcha ijodkorlarda ham bu she'r shakli uchrayvermaydi. Bizga ma'lumki, musallas – har bandi uch misradan iborat lirik janr. a-a-a, b-b-b tarzida qofiyalanadi. Musallas mumtoz she'riyatda Jahonotin Uvaysiy ("Rahm etib") ijodida uchraydi. Rus va G'arb adabiyotida tertsina deyiladi. a-b-a, b-v-b, v-g-v shaklida qofiyalanadi. Masalan, A.Dantening "Illohiy komediya" asari uchlikda yozilgan. Vosit Sa'dulla devonida beshta musallasot mavjud bo'lib, ular turli mazmundadir. "Bu vatan" musallasotida ona vatan madhi kuyylanadi:

*Bu vatan sevgan sevilganlarning dilbar bog'idir,
Hur muhabbatli ko'ngillarning suyangan tog'idir,
Yaxshi orzularga maskan, davru davron chog'idir.*

Keyingi bandda atrofdagilarga, yoshlarga qaratilgan shoirning xitobi singari jaranglaydi:

*Ne muroding bo'lsa gar, yetmoqqa intil, to tirik,
Qolmasin armonlaring kel, chorasin qil to tirik,
Har tilak, har ezgulik niyatga imkon chog'idir.*

Shoir ijodida musallaslar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu musallaslar zamonaviy mavzuda bitilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mumtoz she'riyatda g'azal janrlar tarkibida yetakchi o'rinda turadi. G'azal janrida ijod etmagan birorta mumtoz shoir bo'lmasa kerak. O'rta asrlarda turkiy adabiyot o'zining eng yuqori taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilgan. Vosit Sa'dulla an'anaviy g'azalchilikda ham, barmoqda ham teng baravar ijod qildi. Uning ijodi haqida ustoz shoirlar iliq va ijobiy fikrlar bildirganlar. Shoirning "Hayot" devonining debochasida Vosit Sa'dullaning keltirishicha, Uyg'un uning oltmis yoshga to'lish munosabati bilan o'tkazilgan adabiy kechada: "Vosit ijodidan juda xursandmiz. Bilasizlar, qolipdan ko'chgan g'ishtni qayta o'z o'rniga qo'yish degan xalq naqli bor. Vosit esa o'z ijodini avvalgidan ziyoda qilib o'rniga qo'ydi", deydi¹. Komil Yashin esa: "Men hozir kasalxonaga borib, Sobir (Abdulla)ni ko'rib keldim, oyoqqa turib ketishi qiyingga o'xshaydi. Aruzni puxta egallaganlar juda oz. Bular Sobir, Habibiy, Charxiy, Chustiylar xolos. Shular qatori siz ham bu vaznda tuzuk yozyapsiz. Vositjon, siz boshqa narsa yozishni qo'yib, aruzda yozishga astoydil kirishing. Adabiyotimiz uchun bu klassik she'riy shakl, an'ana juda kerak" deb aytadi. Shoir Turob To'la Vosit Sa'dullaning "Xuroson yulduzi" she'riy dramasini o'qib bo'lib: "Boplabsan, do'stim, sendan chiqadi devdim-ku, tabriklayman, aruzda so'zlarni o'ynatganingga qoyilman, g'azallaring bir-biridan yaxshi, endi devon tuzishga harakat qilsang bo'ladi" deb aytadi.

Andijonlik yozuvchi Qamchibek Kenja Vosit Sa'dulla ijodiga alohida to'xtalib o'tgan. Jumladan, Vosit Sa'dullaning "Qutlug' vatan" g'azallar to'plamiga "Orasta umr bog'i" sarlavhali so'z boshisida shunday deydi: "Har bir shahar, har bir yurting o'z ulug'lari bo'ladi. Bu ulug' kishilar yurti, elining eng muhim va o'ziga xos sifatlari, fazilatlari, xulqu odatlarini o'zida mujassam etadilar. Aziz hamyurtimiz Vosit Sa'dulla Andijonning ana shunday ulug' insonlaridan biri, o'zbek adabiyotining tabarruk siymolaridan biri, mumtoz aruzning sobit davomchilaridan edi", deb yozadi². Andijondan qachon Toshkentga yo'li tushsa adabiyotimiz oqsoqollari Said Ahmad, Turob To'lalar salom alikdan keyinoq "Vosit qalay?" deb so'rashar ekan. Ana shunday paytda andijonliklar Vosit Sa'dulla bilan yana bir karra faxrlanar ekanlar. Va yurt dovrug'ini taratadigan kishilar, avvalo, shoir yozuvchilar, san'atkorlardir, degan aqidaga yana bir karra ishonch hosil qilar edilar. Ustoz adiblar mo'tabar shoir salomatligini so'rashgach: "Uni ehtiyyot qilinglar, yo'qlab turinglar, Vosit katta shoir, nozik tabiatli inson, deb uqtirishar ekan.

Qamchibek Kenjaning so'zlariga ko'ra Vosit Sa'dulla ijod ahlini, ustoz va do'stlarini, shogirdlarini hurmat qilar, sevib e'zozlar, ularni tez-tez yo'qlab turar edi. Uzoqroq ko'rishmay ketsalar o'pkalab qolar, bu o'pkalash zamirida qalamkash ukalariga nisbatan, ijod ahliga, adabiyotga nisbatan muhabbat, sog'inish tuyg'ulari sezilib turardi. Bundan ular ichdan quvonishar ekan. Vosit Sa'dulla hayotda boshqalar ko'ziga ko'ringaniday mag'rur emas, balki samimiyl, ko'ngliga yaqin olgan kishilarga kichikko'ngil bo'lgan ekan. Shoirga sirtdan qaraganda

¹ Саъдулла В. Ҳаёт. Девон. – Т., 1986. 3-б.

² Қамчибек Кенжя. Ораста умр бояни. /Восит Саъдулла. Қутлуг' ватан. – Андижон, 2004. 3-бет.

hurmattalabroqqa, izzattalabroqqa o'xshab ko'rinar ekan, biroq Vosit Sa'dulla o'zi o'zgalarni hurmat qilar va shunga yarasha javob kutar ekan. Ikkinchidan u shaxsiyatiga ko'rsatilajak hurmat, izzat ortida hamisha she'riyatga, ijodiyotga bo'lган hurmat izzatni ko'rар, shuning uchun uning bu boradagi nozik tabiatliligi boshqalarga malol kelmas ekan.

Vosit Sa'dullaning, xususan, yosh ijodkorlarga ibrat bo'lgulik fazilatlari ko'p edi deydilar: u hamisha faqat va faqat ijod bilan nafas olar, ijodkor hayotining mazmunini shunday anglar va targ'ib qilar ekan. Umri oxirlarida Vosit Sa'dullaga salomatligi bot-bot pand beradigan bo'lib qolgan mahalda Qamchibek Kenja va boshqa yosh ijodkorlar ko'rgani uyiga borsalar ham, shifoxonaga borsalar ham yonida, stol ustida dastalangan qog'ozlarga, sahifasi ochiq kitoblarga, varaqdagi hozirgina oqqa ko'chirilgan yo endi yarimlangan g'azalga ko'zlari tusharkan¹. Vosit Sa'dulla betoblikning salomatligiga emas, ijodiy kayfiyatiga ta'sir qilayotganidan, rejalarining ro'yobga chiqishi cho'zilib ketayotganidan nolir ekan. Shunda ular iymanib, shoirga tasalli bergen bo'lib: «Domla, hozir ko'proq salomatlikni o'ylasangiz yaxshi bo'lardi», deyishsa: «Men she'r yozmagan kunimni kun hisoblamayman, qalam siz kun ijodkor uchun o'lik kundir», der ekan².

Vosit Sa'dulla ana shunday qat'iyatli ijodkor bo'lган. Uning bu fazilati ulkan insoniy matonat bilan, o'ziga, o'z iqtidoriga ishonch tuyg'usi bilan omuxta bo'lib ketgan bo'lib, shu boisdan ham Vosit Sa'dulla nisbatan qisqa vaqt ichida ijodini qaytadan tiklab, bir necha she'riy majmualar, dramalar yozib qoldirgan, to'rt devonning ikkitasini nashr ettiradi, uchinchisini nashrnyotga topshiradi (to'rtinchisi shoir arxivida, qo'lyozma holida qolmoqda). Vosit Sa'dullaning chapdastligi, to'g'ri so'z, haqiqatparvarligini uni eshitgan, taniganki kishi yaxshi bilar ekan.

XX asrda g'azal ham yangi qiyofa kasb etdi. Lirikaning barcha janrlari kamol topdi. Vosit Sa'dulla o'zbek mumtoz she'riyatining barcha janrlari rivojiga katta hissa qo'shdi.

Hoshimjon Razzoqov hayoti va ijodi Reja

- 1. Hoshimjon Razzoqov hayot yo'li.**
- 2. Ijodiy merosi.**
- 3. Asarlari mavzusi, janrlari, badiiyati.**

Andijonda yaqin davrlarda ham badiiy ijodning turli janrlarida qalam tebratib, ham ilm-fan bilan shug'ullangan ijodkorlar ko'p bo'lган. XX asr Andijon adabiy muhitining ana shunday vakillaridan biri shoir, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos Hoshimjon Razzoqov bo'lib, uning badiiy va ilmiy merosi o'zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunosligimiz rivojida o'ziga xos o'ringa ega.

¹ Қамчибек Кенжа. Ораста умр бояни. /Восит Саъдулла. Кутлуг ватан. – Андикон, 2004. 3-бет.

² Кўрсатилган асар.

Hoshimjon Razzoqov Andijon viloyatining SHahrixon tumani, Xoldevonbek qishlog'ining Qumko'chasida 1916 yilning 9 mayida tug'ilgan*. Otasi Abdurazzoq Muhammadkarim o'g'li asli marg'ilonlik bo'lib, onasi Ozodabuvi edi. SHo'ro inqilobi tufayli oila Andijonning Hakan qishlog'idagi Teraktagi mahallasiga ko'chib kelib bog' hovliga joylashadi. Aytishlaricha, 6 yoshidayoq Hoshimjonning xat-savodi chiqadi, shu yerdagi Bulbul qorining mакtabida arab alifbosida tahsil oladi. So'ngra 1928 yilda Teraktagi mahallasidagi Abdurayim hojining mehmonxonasida ochilgan yangi maktabda lotin yozuvida tahsilni davom ettiradi. O'sha yillari arab alifbosida bosilgan bayozlar, "Zaynul-arab", Sa'diy SHeroziyning "Guliston", "Malikai Dilorom" dostoni, "Qisasul anbiyo", Alisher Navoiy, Huvaydo, Mashrablarning devonlarini o'qiydi. 1929 yilda Musaev nomidagi kolxoz qoshida ochilgan maktabda o'qituvchilik qiladi.

H.Razzoqov 1932 yili Andijonning eski shaharidagi ishchilar fakultetiga o'qishga kiradi. 1933 yildan boshlab uning she'r, maqola, fel'etonlari mahalliy matbuotda chop etila boshlaydi, "Paxta frontii" gazetasida tez-tez ko'rinish turadi, "Rabfakchilar" gazetasiga redaktor etib tayinlanadi. Uning fel'etonlari "Mushtum" jurnalida "Isyon", "G'azanak" imzolari bilan bosiladi. 1934 yili "Ozodlik mevasi" nomli bir parda, ikki ko'rinishli she'riy drama yozib, sahnalashtiradi.

1936 yili H.Razzoqov Farg'ona pedagogika institutining O'zbek tili va adabiyoti fakultetiga o'qishga kiradi. 1937 yildagi qatag'on siyosati H.Razzoqovni ham chetlab o'tmadi. Birinchi kursni a'lo baholar bilan yakunlab, yozgi ta'tildan so'ng uydan qaytayotib, Sa'diy SHeroziyning "Guliston", Alisher Navoiyning lirik devonini Farg'onaga olib keladi. Arab alifbosidagi bu kitoblarni o'qigani uchun institutdan haydaladi. So'ng Andijonga qaytib kelib Jalabek qishlog'idagi 1-sonli maktabda o'zbek tili va adabiyotidan dars beradi va O'zSSR Maorif xalq komissari nomiga institutdan nohaq haydalaganligi haqida ariza yozadi. 1938 yilda yozgan arizasiga muvofiq tekshiruv o'tkazilib, o'qishga qayta tiklanadi, lekin u o'qishini Toshkentdag'i Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga ko'chiradi. 1939 yilda M.SHayxzoda rahbarligida "Navoiy lirikasi" mavzusida ilmiy ma'ruza yozib, birinchi respublika talabalar konferentsiyasida qatnashadi. SHu davr mobaynida o'zbek shoirlari va adiblari Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, Habibiy, M.SHayxzodalar bilan tanishadi. Mumtoz Muhammad, G'afurjon Rasul, Abbas Muhiddin, Jalil Nodiriy, Vosit Sa'dulla, SHuhrat, Ne'mat Toshpo'lat, Zafar Diyor, Orif Yunus, Said Ahmad, Mirmuhsin, Hamid G'ulom, Solih Qosimov, Muhammadali Yunusov kabi iste'dodli yoshlar bilan birga o'qiydi.

1941 yili o'qishni bitirib kelib, Andijondagi Hamza nomidagi pedagogika bilim yurtida o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars beradi. Ikki yildan so'ng u harbiy komissariat tomonidan Ichki ishlar bo'limi tomonidan CHinobod rayoniga

* Ҳ.Раззоковнинг хаёти ва ижоди ҳақидаги маълумотларни ёритишда "Улар номи барҳаёт"(Т.: Янги аср авлоди, 2003.151–156-б.), Ўзбекистон миллий энциклопедияси (Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. 49-б.), "Андижон адабий гурунги" (Т.:Мумтоз сўз, 2013) каби асарлардан ҳамда Андижон вилоят Тарих ва маданият давлат музейи жамғармасидаги Ҳ.Раззоковнинг асарлари йиғма жилдидан фойдаланилди.

uchastka noziri qilib tayinlanadi, so'ogra Andijon rayon ichki ishlar bo'limida ishlaydi. 1948 yili yana pedagogika bilim yurtiga qaytadi, ilmiy mudir vazifasida ishlaydi. 1949 yili O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Pushkin nomidagi o'zbek tili va adabiyoti instituti aspiranturasiga o'qishga kiradi. Akademik yozuvchi Oybek rahbarligida "SHoir Zavqiy hayoti va ijodi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozib, 1953 yil 30 dekabrda yoqlaydi.

1954 yil yanvar yoyidan boshlab Andijon davlat pedagogika institutining (hozirgi Andijon davlat universiteti) o'zbek adabiyoti kafedrasiga ishga kirib, umrining oxirigacha – 1982 yil mart oyigacha kafedra mudiri vazifasida ishlaydi. 1955 yilda Zavqiy haqidagi monografiyasini, 1957 yilda Zavqiyning "Tanlangan asarlar"ini chop etadi. Adabiyotshunos sifatida aruz nazariyasi bo'yicha jiddiy shug'ullanadi. Olimning "Aruz vaznini o'rganish masalasiga doir" maqolasi "Trudы" (Andijon, 1961. 277 – 296-b.)da chop etiladi. Maqolada aruz tizimini o'zbek tiliga yaqinlashtirish, moslashtirish haqidagi e'tiborli fikrlar bildiriladi.

1955 – 1963 yillar davomida Jahonotin Uvaysiy, Oraziy kabi shoirlarning ijodiy merosini yig'ib, o'rganadi va chop ettiradi. Uvaysiy asarlarining uchta qo'lyozmasini Andijon viloyati Marhamat tumanidan topib, Andijon pedagogika instituti kutubxonasiga topshiradi. Hozirgi kunda uchala qo'lyozma Andijon viloyat Tarixi va madaniyati davlat muzeyi jamg'armasida saqlanmoqda. 1965 – 1969 yillarda H.Razzoqov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Andijon viloyat bo'limiga boshchilik qiladi. SHu yillarda "Toyilgan tirkak" komediysi, "Zulmatdagi nur" musiqali dramasini yozadi. 1950 yillardan boshlab "Yalang davron" tarixiy romanini yozishga kirishgan edi. 1960 yildan "O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va humor" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoza boshlaydi, shu mavzudagi monografiyasini (T.: Fan, 1965) chop etiladi, tadqiqot ishini 1970 yilda muvaffaqiyatli himoya qiladi. Andijon pedagogika instituti o'zbek adabiyoti kafedrasining tarixidagi fan doktorlarining birinchisi H.Razzoqov hisoblanadi.

Hoshimjon Razzoqov o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiyot nazariyasi masalalariga ham e'tibor qaratgan olim edi. Uning satira va humor haqidagi monografiyasida ham mumtoz adabiyotimizdagi hazil, mutoyiba, hajv kabilarga ham alohida diqqat qaratganini ko'ramiz. Adabiyotshunos olimning she'r tizimlari haqidagi ilmiy qarashlari, fikr mulohaza va xulosalari qator maqolalaridan joy olgan, shuningdek o'z davrida ilmiy jamotchilik e'tiboriga tushgan edi.

"Aruz vaznini o'rganish masalasiga doir" nomli maqolasida aruz she'r tizimi bilan bog'liq qator masalalar tahlil etiladi¹. "Poeziyadagi vazn masalasi "Adabiyotshunoslikka kirish" kursining muhim bo'limlaridan biridir. Biz bu ishimizda hali chuqur o'rganilib yetmagan aruz vazni va unda yozilgan ba'zi she'rlarni o'rganish tajribasini o'rtoqlar muhokamasiga havola qilmoqchimiz", deb yozadi adabiyotshunos olim.

Adabiyotshunos olim Hoshimjon Razzoqovning "O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va humor" monografiyasini folklorshunoslikda muhim ahamiyatga, ilmiy

¹ Razzoqov H. Aruz vaznini o'rganish masalasiga doir / Trudy. Andijon davlat pedagogika instituti. T., 1961. 277-b.

qimmatga egadir. Asarning kirish bo'limining so'nggi qismida Andijon davlat pedagogika institutining o'zbek tili va adabiyoti kafedralari tashabbusi bilan 1952 yildan boshlab institutda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'plana va o'rganila boshladi, deyiladi¹. Ma'lum bo'lishicha, 1962 yildan buyon institutda o'zbek folklori va etnografik materialarni to'plash maqsadida Farg'ona vodiysi bo'ylab ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Ana shu ekspeditsiyalar natijasida xalq og'zaki ijodigan oid ko'plab materiallar to'plangan. Ular tarkibida ertaklar, qo'shiqlar, laparlar, maqollar, topishmoqlar, askiya payrov, chandishlar, xalq dramalari, taqlid pantomimalar, gap mehmonxona o'yinlari, qiziqchilik, masxarabozlik, qo'g'irchoqbozlik repertuarlaridan iborat². Bu materialarning bir qismi 1963 yilda "O'zbek xalq ertaklari" kitobining birinchi va ikkinchi jildlariga kiritilganligi, "Xalq qo'shiqlari", yigirma bosma list hajmida "O'zbek xalq latifalari" H.Razzoqov tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etish arafasida turganligi aytib o'tiladi.

"O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va humor" asarida dastlab satira va humor haqida tushuncha beriladi. Folklorshunos olim satira va yumorning lug'aviy ma'nolarini sharhlaydi, ularning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek mazax, masxara, hazil, ermak so'zlariga ham tushuntirish beradi, ularning sinonim kabi ko'rinsa-da, lekin ma'nosi farqlanishini ta'kidlaydi. "Satira bilan humor kulgesi sotsial mazmun ifodalashda bir-biridan farq etishiga qaramay, ular bir-biri bilan bog'liq, shuningdek ular badiiy ijodning hamma tur, janrlari orasida ham uchraydi" deb yozadi H.Razzoqov³.

Adabiyotshunos olim xalq sayllarida kulgiga asoslangan tamoshalar bo'lishini aytib o'tib, "xalqning kulgili tomosha, qiziqchilik, masxarabozliklari va ular ijro etiladigan joylar, mavsum va marosimlar" sarlavhasi ostida ushbu masalani tahlil qiladi. Ana shu tadbirlarning Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarida o'tkazilishi, gap gashtak, turli bazm, sayllarning tashkil etish tartiblari, ularda ishtirok etuvchilar haqida ma'lumotlar hamda ushbu kulgi asos bo'lgan suhbat namunalari beriladi. Monografiyaning "So'z o'yinlari" qismida o'zbek xalq og'zaki ijodida so'z o'yinlari tushunchasi juda keng ma'noda qo'llanishi, ular qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar, latifalar, xalq dramalari, askiya payrov, chandishlarda ishlatilishi ta'kidlanadi.

Asarning "Sayl tomoshalardagi o'yin kulgi, qiziqchilik va masxarabozliklarning tur va janrlari" bo'limida sayl tomoshalarda xalq og'zaki ijodining hamma tur va janrlari aralashgan holda ishlatilganligi aytib o'tiladi.

"Epik ijodda satira, humor va komik qahramon" nomli faslda hajviy ertaklar va ularning g'oyaviy yo'naliishi, latifalardagi komik qahramon, askiya payrov, chandishlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Satira va yumorning xalq dramalarida ifodalaniishi "Xalq og'zaki dramatik ijodida satira va humor" qismida tahlil etiladi. Xalq komediylarida real hayot va

¹ Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki va ijodida satira va humor. – T.: Fan, 1965. – 13-b.

² O'sha yerda.

³ Ko'rsatilgan manba. 19-b.

uning hodisalari, turmushdagi ijtimoiy munosabatlar, oila, kishilar orasida yuz bergen har xil voqealar qiziqchi va masxarabozlar obrazlari orqali aks ettirilgan. Xalq komediyalarining bir qismini tematikasi, g'oyaviy mazmuniga ko'ra humor xarakterida ekanligi, ularda oilaviy mojarolar, qarindosh urug'chilik, kishilarning o'zaro munosabati va muomalalaridagi turli nuqsonlar vafosizlik, bemehrlik, xasislik, maqtanchoqlik, yolg'onchilik, qo'rroqlik, dangasalik, nodonlik, johillik kabi salbiy xarakterlar kulgi ostiga olinishi izohlanadi¹.

Hoshimjon Razzoqovning xalq og'zaki ijodidagi qo'shiqlarni o'rganib, saralab ularni kitob holiga keltirib "Gulyor" nomli to'plam tuzganligi ham alohida e'tiborga molik. Xosiyat Bekmirzaevaning "Gul va Bulbul" maqolasida quyidagi fikrlarni o'qiyimiz: "Xalqimizda ham yorni gul, gulni yor deydilar. Yor kim ekanligi bizga ma'lum. Binobarin gul haqidagi tushuncha ilohiy mazmun kasb etgan. Xalq og'zaki ijodida gul haqidagi qo'shiqlar butun bir siklni tashkil etadi. Folklorshunos Hoshimjon Razzoqov bu turkumdagi termalarni yig'ib "Gulyor" kitobini nashr ettirgan"².

Bu to'plam haqida professor To'ra Mirzaev ham to'xtalib o'tgan. Folklorshunos olim Tog'ay Murod ijodi haqida, uning xalq og'zaki ijodini o'rganishi haqidagi xotiralari to'g'risida so'z yuritganda quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Hoshimjon Razzoqov tuzgan "Gulyor" (1967) kabi qo'shiq to'plamlari chop etilgan bo'lib, ulardan Tog'ay Murod izlayotgan mehnat qo'shiqlari va marosim folklori namunalari juda kam o'rinni oltinadi"³.

"Gulyor" to'plami tarkibidagi qo'shiqlar H.Razzoqov tomonidan xalq orasidan yozib olingan xalq qo'shiqlari hisoblanadi. Folklorshunos o'sha davrda Farg'ona vodiysining shahar. Qishloqlarida, Qirg'iziston respublikasining O'sh, Aravon, Novqat tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi og'zidan yozib olinganini aytib o'tadi hamda qo'shiq aytuvchilarning yigirmatasining ismi va shariflarini keltiradi.

Qo'shiqlar to'plamining birinchi qismi "Ko'ngilning ko'yiga kirsang" deb nomlangan. Asosan lirik qo'shiqlardan iborat. So'ngra termalar, yangi zamon qo'shiqlari, allalar, yor-yorlar, o'lanlar, laparlar, yallalar, hajviyalar, marsiyalar hamda bolalar qo'shiqlaridan namunalar berilgan.

Kitobning so'ngida H.Razzoqovning "O'zbek xalq qo'shiqlari" sarlavhali so'ngso'zi keltirilgan. Unda folklorshunos olimning xalq qo'shiqlarini ilmiy jihatdan tahlil qilganligi bilan tanishamiz.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining eng ko'p tarqalgan turlaridan biri qo'shiqlardir. Qo'shiqlar juda uzoq zamonlardan beri mavjud, ular bundan keyin ham xalq bilan birga o'zlarida yangidan yangi g'oyaviy mazmun kasb etib yashab kelmoqda. H.Razzoqovning e'tibor bergen jihat shundaki, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining ertak, latifa, askiya payrovlardan boshqa deyarli

¹ Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va humor. – T.: Fan, 1965. 124-b.

² Bekmirzaeva X. Gul va bulbul / Yoshlik, 2014. 2-s.

³ www.ziyouz.com kutubxonasi. fayllar.org>men – qaytib...8 iyul, 2018. Mirzaev T. Otlar ham yig'laydi.

hamma turi asosan she'r yoki qisman she'riy formada bo'ladi¹. U to'plagan xalq og'zaki ijodi namunalari "O'zbek xalq ijodi" ko'p jildligening "Latifalar" to'plami 1965 yilda, "Gulyor" xalq termalari 1967 yilda chop etiladi.

H.Razzoqov o'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha ilk darslik mualliflaridan biridir. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" nomli oliv o'quv yurtlari uchun darslikning mualliflari H.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomovlar bo'lib, kitob 1980 yili "O'qituvchi" nashriyotida chop etiladi.

Adabiyotshunos olimning o'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha izlanishlari fol'klorshunoslikning yangi qirralarini ochishda katta ahamiyatga ega.

H.Razzoqov lirik shoir sifatida ham ijod qilgan. Uning she'rlari V.Sa'dulla, J.Abdulla kabi ijodkorlarning asarlari bilan birga "Farg'ona chashmalari" (1962) to'plamida nashr etiladi. SHoir ijodiy merosida barmoq vaznidagi she'rlardan tashqari g'azal, tuyuq, muxammas kabi janr namunalari ham bor. Ularda mavjud an'anaviy obrazlarning shoir zamonasidagi g'oya va tushunchalarni ifodalashi kuzatiladi, mazkur she'rlarning mavzu va janr jihatidan rang-barangligi ham e'tiborni tortadi. "Yurak dostoni", "Seni o'ylab" "Yodimdasiz" (Domlam SHayxzodaga), "Layli avlodi", "Tabassum", "Do'stimga", "O'riklar", "Do'stlik madhi", "Sog'inurman", "Andijon", bastakor va hofiz Yunus Rajabiyga bag'ishlangan "Davrimiz sozi va uning ovozi", "Keltirur", "Ichay", "Yaxshi bilgay" kabi she'rlarida inson va uning hayoti mazmuni, yaxshilik va yomonlik, do'stlik va dushmanlik, vafo va sadoqat kabi azaliy tushunchalar, qadriyatlar o'zining badiiy ifodasini topgan.

H.Razzoqovning she'rlari tarkibida mumtoz she'riyat janrlaridan tuyuq uchraydi. Ularning soni o'ttiz beshtani tashkil qiladi. Garchi tuyuq mumtoz adabiyot janri bo'lsa-da, shoir Hoshimjon Razzoqovning mahorati bilan bu janrda zamonaviy mavzu yoritiladi, ajoyib so'z o'yini o'quvchida o'ziga xos zavq uyg'otadi:

Buyuk muhandislar qurgan ***yo'llar, siz,***
Ulug' safarlarga bizni ***yo'llarsiz.***
Hamroh, ozuqasi bo'limgan kishi,
Maqsadga yetolmas bunday ***yo'llarsiz!***

Mazkur tuyuqning birinchi misrasida "siz" olmoshi ta'kidlanmoqda, ya'ni "muhandislar – bu sizlar, yo'l qurbanlar", deb tushunilsa, ikkinchi misrada "yo'llaysizlar", ya'ni safarbar qilasizlar ma'nosi anglashiladi. To'rtinchi misrada "bunday yo'llar bo'lmasa maqsadga yetib bo'lmaydi" mazmuni ayonlashadi.

Ma'lumki, tuyuq janrini yuzaga keltirishda qofiya shakldosh so'zlardan tashkil topishi kerak bo'ladi.

Har dilning sevgani chaman, ***gullar, siz,***
O'l kamda har fasl yashab ***gullarsiz.***
Gul bahor ziynati derdilar bir vaqt,
Bizda qish, kuzlar ham bo'lmas ***gullarsiz.***

¹ O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. Qo'shiqlar: Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. Razzoqov H. Gulyor. – T.: G.G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nash-ti., 1967. – 239-b.

Shoir tuyuqlarida so'zlarning shakliy xususiyatlariga ko'ra so'z o'yinlari hosil qilib, turli poetik obrazlar yaratadi. Masalan:

Hijrondan so'ng topsa kim dildorini,
O'ynar arg'amchi, simsiz dil dorini.
Sevinib qush uchsa, chaqirmang doktor,
Vasl chog'i istamas dil dorini.

Birinchi misradagi "dildor" so'zi tub so'z bo'lib, "sevimli", "mahbuba", "ma'shuqa" ma'nosini ifodalaydi. Ikkinci misrada bu so'z ikki qismga ajratilib, "dil" – qalbni, "dor" - dorbozlarning o'yinida yerga tikiladigan dorni anglatmoqda. To'rtinchi misrada esa "yurak dorisi, malhami" ma'nosini ifodalamoqda. Hijron va vasl so'zleri zid ma'noli bo'lib, tazod san'ati orqali shoir oshiq holatini kuchliroq tasvirlamoqda.

Mehnatda toblandik keksa *yoshimiz*,
Ajabmi necha yuz bo'lsa *yoshimiz*?
Tongda gul bargiga tushgan shabnam ham
Ko'rishga orzumand kulsak *yoshimiz*.

Mazkur tuyuqda yosh so'zi uchta o'rinda uch xil ma'noni ifodalamoqda. Birinchi misrada yosh – insonning umriga nisbatan, ya'ni yoshu qari ma'nosida qo'llangan bo'lsa, ikkinchi o'rinda esa odamning necha yosh ekanligi, necha yil yashaganligi tushuniladi. Uchinchi misrada ko'z yoshi ma'nosida qo'llangan. Gul bargiga tushgan shabnam va lirik qahramonning kulishi bilan ko'zdan chiqadigan ko'z yoshi tashbeh qilinmoqda.

Chalinsa "Tanovor", "Gulyor", "*Qaytarma*",
Sozanda shashtini sira *qaytarma*.
Agar u san'atni pulga bog'lasa,
Istaganin beru jo'nat, *qaytar, ma*.

"Qaytarma" kuy nomi hisoblanadi, ikkinchi ma'nosи esa "inkor etmoq", "ma'qullamaslik" bo'lsa, "qaytar, ma" so'zleri buyruq mazmunini ifodalab, "ma" so'zi "ushla" degan ma'noda qo'llangan.

Hayron bo'lib to'xtama *uchko'chada*,
To'g'ri maqsadga tomon *uch, ko'chada*.
Ko'ndalang ko'rsatkich "o'q"qa bir qara,
Qaysi yoqqa cho'zgan u *uch ko'chada*.

Tuyuqning birinchi misrasidagi "uchko'cha" yo'lga, ya'ni uchta tomonga ajratilgan yo'l qismlariga nisbatan aytiladi. Ikkinci o'rindagi "uch, ko'chada" birikmasidagi "uch" so'zi "uchib bor" ma'nosini bildirmoqda. Keyingi ma'nosи esa harakatga nisbatan tushuniladi.

Hoshimjon Razzoqov ijodida to'rtlik janridagi asarlar ham alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizdagи ruboiy janri va barmoq she'r tizimidagi to'rtlik eng kichik she'riy shakllardan biri hisoblanadi. Ruboiyda, shuningdek to'rtlikda shoirning hayotiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi fikrlari, dunyoqarashi aks etadi. Shoir H.Razzoqov inson, uning umri, hayot mazmuni haqida so'z yuritar ekan, dunyoning o'tkinchi ekani, unga odamlar kelib

ketaverishi, lekin bu kelib ketishning mohiyati yaratuvchanlik, buniyodkorlik bo'lishi kerakligini obrazli tushuntiradi:
Asrlar tarixin o'rgatar ustod,
Dunyo mehmon, kelib ketgan keng rabot.
Birov qurbanlarin boshqasi buzgan,
Yaxshidan ot qolgan, yomonlardan dod.

To'rtlikda o'zbek xalq maqoli "yaxshidan ot qolar, yomondan dod" o'z o'rnida qo'llangan. Quyidagi to'rtlik ham falsafiy umumlashmalarga ega:
Ulug'lik nima? deb bermasdan so'roq,
Kamtarin, zahmatkash himmatiga boq.
Tirik jon tepkilab qo'ysa ham oyoq,
To'ydirar, gullatar, yashirar tuproq.

Lirik mazmundagi to'rtliklar ham mavjud bo'lib, ularda shoir o'z hissiy kechinmalarini ta'sirchan va obrazli ifodalaydi:
Gullarga burkangan dilbar bahorim,
Do'stlarim hamnafas, xonada yorim.
Yarim asr o'tsa ham charchashni bilmay
Tobora ortadi quvvat madorim.

To'rtlikda bahor fasli *gullarga burkangan*, *dilbar* deb ta'riflanadi. Biror predmet, narsa, tushunchaning belgisi, xususiyati ko'rsatilsa, tavsif yoki zamonaviy adabiyotshunoslikda epitet deb yuritiladi. Shoir bahor faslidagi ilk paytini emas, balki ayni gullarga burkangan vaqtini ta'riflamoqda. Atrof, hamma yoq gullarga to'liq bo'lganda insonda go'zallikdan zavqlanish, hayratlanish hissi paydo bo'ladi. Bunday baxtiyorlikning sababi to'rtlikning ikkinchi misrasida ko'rsatiladi: "Do'stlarim hamnafas, xonada yorim" deydi shoir. Darhaqiqat, do'stu yor egiz tushuncha bo'lib, inson yaqin kishilarini, do'stlarini bag'rida o'zini shodon va baxli his qiladi. Keyingi misrada esa shoirning ellik yoshda ekani va mehnatlardan charchamay kelayotgani aytildi. Nafaqat charchashni his qiladi, balki "Tobora ortadi quvvat madorim" deydi shoir.

Tig'u o'q badanni majruh etadi,
Umrbod na qo'yib, yara bitadi.
Sof dilga nohaq til yetkazgan ozor
Jarohat o'rnidek qolib ketadi.

Mazkur to'rtlik bilan tanishgan kitobxon o'zbek xalq maqollari tarkibidagi "Tig' yarasi bitadi, dil yarasi bitmaydi" maqolini eslashi mumkin. Shoir ushbu maqol mazmunini to'rtlikka singdirgan hamda o'ziga xos tasvirlarni aniqroq yarata olgan. Tig' so'zi bilan birga o'qni ham keltirib o'tgan. Bunda tig' qilich, o'tkir kesuvchi asbobni anglatsa, o'q esa uchi uchli, otilganda tez kelib sanchiluvchi narsani tushunamiz. Demak, tig'ning o'rni garchi uzoq vaqtida bitishi mumkin bo'lsa-da, o'q badanga kirib unda qolib ketadi. Bundan tashqari o'qning tasodifan, tez sur'atda kelib sanchilish ma'nosi ham tushuniladi. SHuning uchun ham "Umrbod na qo'yib, yara bitadi" deydi shoir. Agar xalq maqolida "tig' yarasi bitadi" deyilganini eslasak, shoir badandagi tig' yarasi bitmaydi, uni majruh etadi,

degan fikrga keladi. Sofdir insonga kimdir tili, zahar so'zlari bilan ozor yetkazgani ham shu kabi, ya'ni tanadagi jarohat singari qolib ketadi, deydi.

Bu to'rtlikning tarbiyaviy ahamiyati ham shundaki, uning mazmunini chuqur tushungan kitobxon insonning tanasiga ham, qalbiga ham jarohat yetkazmasligi lozimligini o'ziga xulosa qiladi.

Kichik hajmli she'rlarida ham shoirning o'ziga xos tashbehtar, obrazli ifodalar yaratganini kuzatamiz.

Oqin suv hayotning ko'rki, u mazza,

Iflos narsani ham u qilur toza.

Ko'lmaqlab to'xtasa bir joyda uzoq,

Sasiydi, undan siz qiling andoza.

“Suv bu hayot” degan aforizm barchaga tanish. Shoir ana shu aforizmdan ilhomlanib, uni mazmunan va mantiqan rivojlantiradi. Oqayotgan suv, ya'ni harakatdagi suv hayotning ko'rki hisoblanadi, deb ta'kidlaydi shoir. Suvning eng asosiy xususiyatlaridan biri esa uning tozalovchi ekanlididir. Kimyo fanida ham suvning xossalari sifatida shu belgisi, ya'ni tozalovchi, erituvchi, yumshatuvchi ham ekanligi ko'rsatiladi. Oqib turgan suv bir joyda to'xtab qolsa, uning ifloslanishi, kirlanishi ham tabiiy jarayon. Bu hodisani ham ko'pchilik biladi. Lekin shoir o'quvchining e'tiborini tortgan jihat shundaki, insonlar ham oqib turgan suvdan andoza olishlari kerak, ya'ni o'zlariga xulosa chiqarishi kerak. Sababi inson o'z ustida ishlamasa, rivojlanmasa, mehnat qilmasa, bilim va ko'nikmalarini yangilab turmasa xuddi ko'lmaqdagi iflos suvga, yaroqsiz narsaga aylanib qoladi.

Keyingi to'rtlik ham ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida jaranglaydi:

Har nafas g'animat, ish bilan yasha,

Maqsadga yetarsan qir osha osha.

Biror kasbni elga manzur etolsang,

Baxtlisan, orzuga yetganing o'sha.

Shoir to'rtliklarida insoniy fazilatlar tavsifi bilan yomon qusurlar, illatlar tanqidi ham qalamga olinadi:

Quruq oliftalar ko'tarar burun,

Xuddi yuksiz aravadek sershovqin.

Ilm, odob kamtarin etar insonni,

Egilar ko'tarsa kim og'ir tugun.

Manmanlikni odat qilgan, takabbur, lekin o'zida biror arzirli iste'dod yoki fazilat bo'limgan odamlarni shoir “quruq olifta” deb ataydi. Bunday kishilarga xalqimiz ham “quruq”, “kekkaygan”, “burni osmonda”, “burnidan eshakqurt yog'iladi” kabi sifatlarni bergen. Shoир ularni yuksiz aravaga o'xshatadi. Yuksiz arava shaldirab, shovqin solib yurganidek, manmansiragan odamlar ham o'zini ko'rsatishga, faqat o'zi haqida gapirishga, maqtanishga, o'z manfaati uchun yashashga harakat qiladilar. Kim o'zini maqtayversa, bilamizki u yolg'on gapni ko'p gapiradi hamda o'zida arzigulik qobiliyat, ilm, fazilat ham bo'lmaydi. Shoir ham xuddi shu ma'noda ilmi, odobi bor insonlar kamtar bo'ladi, xuddi og'ir tugun

ko'targanidek u egiladi, deb xulosa qiladi. Chunki inson o'qigan ilmiga amal qilishi zarur, ilm esa kamtarlikni talab qiladi.

Hoshimjon Razzoqovning to'rtliklari bilan tanishgan o'quvchi shoirning chuqur falsafiy mushohadalar egasi ekanining guvohi bo'ladi.

Bir siqim tuproqni olsang qo'lingga,
U asta degandek bo'lur dilingga:

O'tmishu kelajak orzusi

menda,

Menga ishla, sevilursan elingga.

Shoir tuproq bilan go'yoki suhbat quradi. Bir siqim tuproqni qo'liga olib unga boqsa, tuproq go'yo shoirning diliga kirib so'zlaydi. Tuproqda o'tmish mavjud. Chunki ajdodlarimiz, o'tmish tariximiz tuproqdan joy olgan. Kelajak esa ana shu aziz tuproqni obod etuvchi kelgusi avlod, yosh avlod hisoblanadi.

Tuproqning tilga kirishi intoq san'ati hisoblanadi. Shu san'at asosida shoir o'tmish va kelajak haqidagi fikrlarini obrazli tasvirlagan. Tuproq insonga murojaat qilib, menga ishla, o'tmish va kelajak orzusi borligi uchun, ana shu orzuni amalga oshirish uchun harakat qil, shunda el uchun sevimli bo'lasan, deb xitob qiladi.

Insonning mehnati orqali elda qadr topishi quyidagi to'rtlikda ham ifodalangan:

Mehnatda oqqan ter serzavqu laziz,
Vatan deb to'kilgan qon kabi aziz.
Xalqiga fidoyi bo'lган har umr,
Abadiy barhayot, cheki yo'q hargiz.

Vatan yo'lida qoni to'kilgan mard jangchilar, qahramonlar xotirasi mangudir, ularning nomlari doimo ardoqlanadi, azizu mo''tabar sanaladi. Ulardan keyingi avlodlarning mehnatlari, vatan ravnaqi yo'lidagi fidoiyliklari ham xuddi ana shu qahramonlar singari e'tibor topadi. Xalqiga fidoyi etilgan umr ham shu bois barhayot, unutilmas, cheksiz mangudir, deydi shoir.

Umrning har nafas, dami mazmunda,
O'tgan bir asrga go'yo teng kunda.
Ish kurash, yaratish, ijod ham shunda,
Zamonlar yakuni, kelajak unda.

Ushbu to'rtlikda esa shoir inson umrining har nafasi, oni mazmunli bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Agar umrning bir kuni mazmunli o'tsa, uning qimmati bir asrga tengdir. Ish, ijod, yaratish ishtiyoqi bilan yashagan insonning umri ham mazmunlidir, zamonlar yakunlanadi, lekin bu kelajak uchun asosdir.

Shoirning to'rtliklari o'quvchini shijoatli bo'lishga, mehnat qilishga, doimo harakatda bo'lishga, yaratuvchanlik hissi bilan yashashga undaydi go'yo. Keyingi to'rtlikda ham insoniyatning azmu qarori, shijoati, hayotda sur'ati jo'shqin bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarini anglaymiz:

Mehnatkash jahon ko'z qarog'idirmiz,
Mazlumlar istagi so'rog'idirmiz.
Zulmatni yoritgan chirog'idirmiz,
Tinchligi, suyangan zo'r tog'idirmiz.

Shoirning to'rtliklarida hayotiy qiyos va o'xshatishlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Ko'z yoshi ehtiros belgisi demak,
Unda his, tuyg'usin ko'rsatar yurak.
Uyga aziz mehmon kelsa shodlangan
Go'dakdek bor gapdan u berar darak.

Insonning ruhiy holatidagi o'zgarish bejiz emasligini shoir ta'kidlab o'tarkan, ko'z yoshi ehtiros belgisidir, deydi. Yurak insonning ko'krak qafasida joylashgani uchun ham u bizga ko'rinnmaydi. Yurakda nima kechayotganini tashqaridagi odam bila olmaydi. Ko'z yoshlari esa yurakdagi kechinmalarni sirtga chiqaradi. Bu holat uyga mehmon kelib qolishdagi vaziyatga o'xshatiladi. Mehmon kelganda mezbon taraduddlanib qoladi, bolalar esa kattalarning xatti harakatlariga e'tibor bermaydilar, ular mehmon kelganiga xursandliklarini yashirmaydilar. Hayotiy voqelik she'r tarkibida keltirilsa, tamsil san'ati deyiladi. Shoir ushbu san'at orqali fikrini go'zal, ta'sirchan tarzda yetkazgan.

Inson hayotda yasharkan, uning umri asosan to'rt qismdan iborat bo'ladi: bolalik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik. Shoir ham bu mavzuda to'rtlik yaratgan bo'lib, u quyidagicha:

Sochu soqollaring oq desa birov,
Javobim: bu o'tgan umrga sinov.
Barglari to'kilsa, ochilur yaxshi,
Kuz fasli kurakka tushgan chog' qirov.

Soch soqollarning oqarishi o'tgan umrga sinov ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni hayot zarbalariga, issiq vasovug'iga chidamli bo'lsa, inson keksa yoshga ham yetib keladi, deb tushunamiz. Shoir o'ziga xos tashbeh bilan kuz faslini misol qiladi. Kuzda o'simliklar, gullar, daraxtlarning barglari to'kilib, meva berishga tayyor bo'lganidek, inson ham xuddi shu hodisani boshdan kechiradi. Tabiatdagi qirovning belkurakka tushishi sovuq kunlarning kelayotganidan darak beradi. Soch soqolning oqarishi ham umr shomining yaqinligidan dalolatdir, lekin shoir buni ochiq oshkora emas, balki tabiat hodisasiga taqqoslab aytib o'tadi. "Barglar to'kilganda ochilur yaxshi" misralari inson umrining keksalik vaqtida yetuk aqlga to'lishiga ishora qiladi.

Ona yurtga muhabbat, o'z xalqiga sadoqat mavzulari H.Razzoqov ijodida qayta qayta tarannum etiladi:

Sevaman xalqimning keksa yoshini,
Tuproq xazinasi, tog'u toshini,
Saxiy, haroratga boy quyoshini,
Malla paloviyu go'ja oshini.

Bunday misralar yoshlarni vatanga sadoqatli bo'lib ulg'ayishida katta ahamiyatga ega.

Hoshimjon Razzoqovning ijodida ham ushbu turli she'r tizimlarida yaratilgan ijod namunalarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Hoshimjon Razzoqovning barmoq she'r tizimida yozilgan ko'plab she'rlari mavjud. She'rlarning vazn va qofiya xususiyatlari ham o'ziga xos tarzda shakllantirilgan. Xususan, barmoq she'r

tizimining sodda vaznidagi she'rlariga quyidagilarni misol tariqasida keltishimiz mumkin:

Oh, so'zlar / naqadar laziz,
Qanotlanur / umid tilagi.
Quvonchimsan / ey umri aziz,
Yana seni / ko'rurman balki...

Bunda she'r $4+5=9$ hijoli vazn ko'rinishida namoyon bo'ladi. Qofiyalanish tartibini tekshiradigan bo'lsak, "laziz" va "aziz" so'zlari to'q qofiya hisoblansa, "tilagi" va "balki" so'zlari och qofiyadir. Yoki quyidagi she'r bandini tahlil qiladigan bo'lsak, u ham to'qqiz hijoli vaznda bitilgandir:

Baxtiyorman / quvonchim qat-qat,
Vatan tongi / to'lmoqda nurga.
Bo'stonimni / bezab g'unchalar
Taqdim etdim / o'g'il, qiz, elga.

Shoir ijodida o'n bir hijoli vazn ko'rinishida she'rlar ham uchraydi. Masalan, Layli zotidanman, / bu mening faxrim,
Olganman har bobda / undan andoza.
Laylining husni yo'q / menda, albatta,
Ammo ishqim uning / ishqidek toza...

Turoq guruuhlariga ko'ra $6+5=11$ tarzida shakllantirilgan. Qofiyalanishi esa toq misralari ochiq qolib, juft misralar ohangdosh bo'lib kelgan.

Quyidagi she'rda I shaxs egalik qo'shimchasini olgan so'z bilan kelishik qo'shimchasini olgan so'z qofiya bo'lib kelgan:

Ko'ksimda kitobim / - yaqin **hamrohim**,
Bilmagan narsam ko'p, / o'qiyman takror.
She'riyat bog'ining / har **gavharini**,
Dilimda saqlayman / to hayotim bor...

Mazkur she'r ham $6+5=11$ hijoli shaklda yozilgan. Ma'lumki, qisqa hijoli vazndagi she'rlar quvnoq, hazil, mutoyiba mazmunida bo'ladi. Yoki qisqa hijoli vaznlarda ichki kechinma, tuyg'ular hamda hayot harakatining shiddatli sur'atini ko'rsatish mumkin. Hoshimjon Razzoqov she'rlarida to'qqiz va o'n bir hijoli vaznlardagi she'rlarning asosan lirik mazmunda ekani kuzatiladi:

Shod edim, / quvonchim / sig'madi dilga,
Shunda sen / quyoshdek / kelding qoshimga.
Rost aytsam, / jonginam, / maftuning bo'lib,
Tikilib / qolaman / qalam qoshingga...

Ushbu o'n bir hijoli she'rni $3+3+5$ turoq guruhlarga ajratish mumkin bo'ladi.

Shoir g'azallarining katta qismi aruz she'r tizimining hazaj va ramal bahrlaridagi vaznda bitilgan bo'lib, misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Yuraklarga safo davronimiz oromijon sozi
V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
Mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun.
Bo'lar jo'n bastakor otashnafasning unga ovozi

V - - - / V - - - / V - - -

mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun.

Mafoilun ruknidan hazaj bahri hosil bo'ladi. G'azalning bahri ham hazaji musammani solimdir.

Berur mujda hayotbaxsh she'rlari shoir salomidan

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun.

Asrlardan beri yangrab, tomib bol har kalomidan.

V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun

Ma'lum bo'ladiki, yuqoridagi g'azal ham hazaji musammani solim bahrida bitilgan. Shoir ijodidagi Andijonga bag'ishlangan she'r ham aruz vaznida bitilgan bo'lib, uning taqtei va paradigmasi quyidagicha ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Andijon o'z shuhratini barqaror etdi yana

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

foilotun foilotun foilotun foilun

Tanti bir so'zlikni elga oshikor etdi yana

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

foilotun foilotun foilotun foilun

Foilotun ruknidan ramali musammani mahzuf bahri hosil bo'lmoqda.

She'rning keyingi bayti ham ayni shu bahrda ekanligi ma'lum bo'ladi:

Mehnatingdan zeb-u ziynat topdi davron Andion

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

foilotun foilotun foilotun foilun

O'yna, kul rohatda o'tsin har nafas on Andijon

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

foilotun foilotun foilotun foilun

Hoshimjon Razzoqov ijodiy merosida doston janri ham alohida o'rin tutadi.

"Bo`ston" dostonida tasvir yoshlik orzulari bayoni bilan boshlanadi. Doston qahramoni Bo`ston o`z orzularini ro`yobga chiqarish yo`lida barcha to`samlarni yengib o`tadi, o`z kasbini qunt bilan o`rganadi, mehnatda toblanadi. Hayoti davomida turli xil sinovlarni boshdan kechiradi, qoqlidi ammo metin irodasi ila yana va yana yo`lda davom etadi. Bularning hammasi doston yakunida o`z natijasini beradi. Bo`ston o`z orzusiga erishadi.

Publitsistikaning turli janrlarida ham qalam tebratgan H.Razzoqov ko'plab maqolalari, fel'eton va ocherklar yaratgan. Ayniqsa, fel'eton va hajviy maqolalari o`z davrining o'tkir muammolarini, ijtimoiy qusur va illatlarini fosh etishi bilan xarakterlidir. "Malakali nayrangboz", "To'y ustida", "Yangi ixtiro", "Bolalar arizasi" shular jumlasidandir. Hajviy chiqishlarida muallif "Bektoy Baxtiyorov" taxallusini qo'llagan.

1973 yilda H.Razzoqov professor ilmiy unvoniga ega bo'ladi. SHu yillarda uning bolalar uchun atab yozilgan ertak kitoblaridan to'rttasi o'zbek va rus tillarida "Yosh gvardiya" nashriyotida chop etiladi. Masal janridagi "Maqtanchoq chittak" asari ham e'tiborga loyiqidir. Xalq og'zaki ijodi bilan mukammal shug'ullangan

olim o'zbek xalqining hajviy va yumoristik qahramoni Nasriddin Afandi obrazini sahna asari ("Zakovat va falokat")da yaratadi.

H.Razzoqovning pedagogik va ilmiy faoliyati hukumat tomonidan e'tirof etilgan. Olim va pedagog H.Razzoqovga 1974 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni beriladi, 1977 yilda uning nomi O'zbekiston Maorif vazirligining "Mehnat shahrati" kitobiga 100-raqam bilan yoziladi.

SHoir va olim, adib va dramaturg H.Razzoqov 1982 yil 15 mart kuni kasallikdan vafot etadi. Uning vafoti munosabati bilan shoir Ulfat tomonidan yozilgan marsiyada quyidagi tavsif-baholar berilgan:

Ul edi g'oyat bilimdon, shoiri otashnafas,

El, vatan madhida erdi bulbuli sohib navo.

Borgohi ilm aro erdi mudarris ko'b zamon,

Qancha shogirdlarni qildi ilmi birla kimiyo.

Rutbasi oliy va lekin soda ham kamtar edi,

Ko'zgudek ko'ngli musaffo, zarra yo'q kibru havo.

Hoshimjon Razzoqovning 9 farzandi bo'lib, 6 o'g'il va 3 qizni tarbiyalagan. Farzandlarining barchasi ziyoli shaxslar bo'lib, jamiyatning turli sohalarida faol mehnat qilmoqdalar.

Olimning nomini adabiylashtirish maqsadida Andijon, SHahrixon va Izboskan tumanlaridagi maktablarga, Andijon shahridagi ko'chalardan biriga uning nomi berildi. Bir necha yillar mobaynida Andijon davlat pedagogika institutining o'zbek adabiyoti kafedrasи Hoshimjon Razzoqov nomi bilan atab kelindi.

Hoshimjon Razzoqov ijodiy merosining ko'lami o'n ming misradan ortiqni tashkil qiladi. U badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilgan bo'lib, roman, musiqali drama va komediylar, dostonlar va she'rlar yaratgan. Bularidan "Yalang davron" roman trilogiya, "Oychinor" va "Bo'ston" dostonlari, "Nodira", "Alam va qasos", "Zulmatdagi nur" nomli musiqali dramalar, "Toyilgan tirkak", "Zakovat va falokat" komediylari, "Muhabbat va sadoqat", "Gul bargi" she'rlar to'plamidan iborat. Dramaturgning "Nodira" dramasi 1962-yilda Andijon teatrida, 1992-yilda Qиргизiston respublikasi Bobur nomidagi O'sh davlat akademik musiqali drama o'zbek teatrida sahnaga qo'yilgan.

Hoshimjon Razzoqovning ilmiy maqolalari, monografiya va darsliklari ilgari chop etilgan bo'lsa-da, lekin badiiy ijod namunalari nashr yuzini ko'rmagan edi. SHoir va olim, pedagog va dramaturgning ilmiy va ijodiy merosi uning avlodlari qo'lida, viloyat muzeyi jamg'armasida saqlanmoqda. Mazkur nashrga uning tarixiy mavzudagi dramalari saralab olindi. Deydilarki, ijodkorning ikkinchi umri u yaratgan asarlarda davom etadi. "Nodira" dramasining xotimasida bosh qahramon tomonidan aytilgan so'zlar ham bugun go'yo muallifning o'z so'zlari bo'lib jaranglamoqda:

Yaxshi nom qoldirmoq – ikkinchi umr,

Meni tiriltirdi hur zamon, davr.

Etib keldi sizga mening salomim,

Siz bilan yashaydi abadiy nomim!

Dramaturg sifatida barakali ijod qilgan Hoshimjon Razzoqov o'zbek shoirasi va Qo'qon xonligi malikasi Nodira timsolini sahna asarlarida yaratdi, roman janrida ham ushbu timsolga murojaat qildi. Badiiy ijodi tarkibida bir shaxsga bag'ishlangan ikkita musiqali drama, bir romanida ham shu obrazning borligi tasodifiy emas. Negaki, Hoshimjon Razzoqov shoira va davlat arbobi Nodira hayoti va ijodi bilan ham ijodkor sifatida, ham adabiyotshunos sifatida juda qiziqqan, u haqdagi manba, ma'lumot, materiallarni sinchkovlik bilan o'rgangan.

Adabiyotimiz tarixida shoira Nodiraning hayoti, fojeiy taqdiri ko'pchilik adiblarni qiziqtirganligini kuzatish mumkin. O'zbek romanchilik maktabining asoschisi deb e'tirof etilgan jadid yozuvchi Abdulla Qodiriyning "Amir Umarxonning kanizi" romanini yozmoqchi bo'lganligi tarixdan ma'lum. Uning bu davrni o'rganib, Umarxon va Nodira hukronligidagi Qo'qon xonligi va undagi ijtimoiy-siyosiy holatni, ziddiyat va inqirozlarni realistik uslubda badiiy tasvirlash rejasi bo'lgan, romanga oid materiallarni yig'ib qo'ygan, biroq qatag'on siyosati tufayli ular yo'q qilingan.

Ta'kidlash joizki, hayoti tarixning g'oyat murakkab davrlariga to'g'ri kelgan, taqdiri fojiali yakunlangan shoira Nodira haqida dramatik asar yaratgan ilk ijodkor aynan Hoshimjon Razzoqovdir. U 1950 yillarda dastlab Nodira obrazi ishtirok etgan roman yozishga kirishgan bo'lib, asar qayta ishlanib, tahrirdan o'tkazilib 1979 yilda yakuniga yetgan. O'zbek adabiyoti tarixida Nodira obrazi aks etgan shoir Turob To'laning "Quvvai qahqaha" fojeasi 1970 – 1978 yillarda, yozuvchi Mirza Karim (Pirmatov)ning "Mohlaroyim" qissasi 1992 yilda, shu adibning "Mohlaroyim" romani 1993 yilda yaratilgan¹.

Hoshimjon Razzoqovning "Nodira" dramasi esa hali nashr etilmay turib, 1962 yil, 18 yanvarda Andijondagi teatr sahnasida namoyish etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, drama shu yilning o'zida 72 marta qo'yilgan, uni 67900 tomoshabin ko'rgan². Rejissyor Abbos Bakirov sahnalashtirgan dramada artistlar Qamara Burnasheva (Nodira), G.Qosimova (Uvaysiy), bastakorlar K.Jabborov, S.Hayitboev, rassom V.Ligay, baletmeyster Malohat Ishoqova, dirijyor M.Habibov, G'.Hoqiqulovlarning yuksak mahorati asar muvaffaqiyatini ta'minlagan. 1966 yilda esa Alisher Navoiyning 525 yillik tavalludi munosabati bilan asar Toshkentdagi "Melodiya" zavodida grammlastinkaga yozib chiqarilgan. "Nodira" spektakli O'zbekiston milliy akademik teatrida ham sahnalashtirilgan bo'lib, unda bosh rolni Yayra Abdullaeva ijro etgan. Nodira haqida badiiy filmlar ham yaratilgan, "O'zbekfilm" kinostudiyasida rejissyor Komil Yormatov tomonidan olingan "Nodira" fil'mida bosh rolni Sayram Isaeva ijro etgan. Rejissyor Temur Malik Yunusov tomonidan ishlangan Nodira haqidagi ilmiy-ommabop film ham shular jumlasidandir.

¹ Тўла Т. Қувваи қаҳқаҳа. Фожиа. / Шарқ ўлдузи, 1979. №11., 51 – 91-б., №12. 135 – 178-б.; Мирза Карим. Моҳларойим. Қисса. / Шарқ ўлдузи, 1992. №11. 28 – 45-б.; Мирза Карим. Моҳларойим. Роман. Биринчи китоб. – Т. 1993.

² Турсунбоев С. Андижон театри. (Тарихий очерк). – Т., 1979. 127-б.

Hoshimjon Razzoqovning “Alam va qasos” musiqali dramasi 1958 yilda yozilgan bo’lsa, “Nodira” dramasining yaratilishi 1959 yillarga to’g’ri keladi. Ikkala dramaning ham bosh qahramoni shoira va davlat arbobi Nodira bo’lib, uning hayoti, taqdiri orqali XIX asr birinchi choragida Qo’qon xonligidagi ijtimoiy hayot, tarixiy voqelik tasvirlangan.

“Nodira” musiqali dramasi uch parda, yetti ko’rinishdan iborat bo’lib, asarda Nodira hayotining so’nggi davrlari qalamga olinadi. Asarda Nodira Qo’qon xonligida olib borgan bunyodkorlik, obodonlashtirish, saxovat ishlarining rahbari sifatida namoyon bo’ladi. SHuningdek saroy amaldorlari, mulozimlari tomonidan aldangan o’g’li Muhammadalixon, uning o’z onasi bilan adovatga borishi hamda Umarxon sulolasining fojeiy tarzda qatl etilishi voqealari ko’rsatiladi. Drama voqealari ona va o’g’il o’rtasidagi konflikt asosida rivojlanib boradi. Nodira cho’llarni obod qilish istagida bo’lsa, o’g’li sayilni ixtiyor qiladi, ona suv keltirish uchun qazish ishlarini boshlasa, o’g’il bunga to’sqinlik qiladi, Nodira kanizak Oyparchani qullikdan ozod qilsa, o’g’il unga zug’um qilib uylanmoqchi bo’ladi.

Dramada Nodira va Muhammadalixon o’rtasidagi ziddiyatlar bo’rttirilgan o’rinlar ham yo’q emas. Biroq bu xususiyat H.Razzoqov yashab turgan zamon sho’ro mafkurasining sharti ekanini unutmaslik kerak. Ikkinci tomonidan esa tarixiy voqelikni dramada realistik uslubda aks ettirishning murakkab tomonlari ham bor. CHunki tarixiy fakt, voqeliklarni badiiy haqiqatga muvofiq tarzda tasvirlashda ijodkordan alohida mahorat talab etiladi. H.Razzoqovni haqli ravishda bu ishni uddalay olgan dramaturg deya olamiz. Yana shunisi ham borki, tarixiy manbalardagi Nodira shaxsi, hayoti, fojeasi haqidagi ma’lumotlar, materiallar turfa xil. Uning o’g’li Muhammadalixon to’g’risidagi batafsil ma’lumotlar esa ozchilikni tashkil qiladi.

Dramada Muhammadalixon fojeasining sabablari uning atrofidagi riyokor, sotqin saroy a’yonlari makri deb anglash mumkin. Bu saroy a’yonlari – vazir, shayxulislom kabilar o’z manfaatini ko’zlab, o’g’ilni onaga gijgijlaydilar. Nodiraning soy qazdirishini eshitib, xazinadan pul, mablag’ ketib qoladi, deb o’g’ilni avrashga tushadilar. Onasi soy qazdirayotganda, ishlayotgan odamlarning ustiga tosh qulatib, ularni halok qiladilar. Muhammadalixonga kanizak Oyparchaning sevgilisi Roziqni qanday mahv etishning yo’l-yo’rig’ini ko’rsatadilar, Oyparchaga uylanish chorasini ko’rsatib, xonga fatvo olib beradilar. Gap shundaki, Amir Umarxonning hayotlik vaqtida bir kanizagi bo’lib, u voyaga yetganida uylanish istagida bo’lgani, lekin umri yetmay vafot etgani haqida manbalarda ma’lumotlar mavjud. Muhammadalixon otasi ko’z ostiga olgan qizga uylanishi mumkinmi, yo’qmi degan masalaga shar’iy yo’l bilan javob olib, kanizakka uylanmoqchi bo’ladi, uning qilmishlari haqida “onasiga uylangan” deb Buxoro amiri Nasrulloxon Qo’qonga bostirib keladi.

Xonning bosh vaziri – Qoraxo’janing sotqinligi, uning Buxoro amiri ayg’oqchilari bilan til biriktirishi, Dushanning firibi, vahshiy qotilligi kabi qator jaholatlar oqibatida Muhammadalixonning o’zi ham tang ahvolda qoladi. Nodira, xonning enagasi sifatida tasvirlangan Uvaysiy, Mahmud, Roziqlar xonni qancha

ogohlantirib, insofga chaqirmasınlar, xonning atrofini o’rab olgan fitnachilar uni yo’ldan uring, jaholat sari boshlaydilar.

Dramada Nodiraning mehribon ona sifatidagi fazilatlari uning o’zi tomonidan hikoya qilinadigan rivoyat orqali ko’rinadi. Rivoyatga ko’ra, bir go’zal qiz oshiq yigitga o’z onasining yuragini sug’urib kelish shartini qo’yadi. Yigit shartni bajarib, yurakni qo’lida olib ketayotib yiqilib tushadi. SHunda ona yuragidan sado keladi:

*SHikastlanmadimi, aziz farzandim,
Ko’zlarimning nuri, ham jigarbandim?!*

Nodiraning xavotiri ham o’g’lining kelajagi haqida edi. Muhammadalixon qanday xulq-atvorga ega bo’lmasin, o’z farzandi – uning kelajagi onani o’ylantirardi. Xotin-qizlar huquqi, taqdiri masalasi ham dramada asosiy mavzu ekani ma’lum bo’ladi. Nodira xotin-qizlar, ayollarning erkini himoya qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. U asarning boshidan oxirigacha kanizak Oyparchani ozod qilish, uning baxti uchun kurashish yo’llarini o’ylaydi. Nodira qiz taqdiri haqida xayolga cho’markan, ikkisining taqdiri o’xshashligini aytib o’tadi. Ona tuprog’i Andijonni eslab, ovchi yigit haqida so’zlaydi.

SHuni aytish kerakki, Nodiraning bolalik chog’lari haqida tarixda ma’lumotlar kam saqlangan. Dramada zikr etilgan ovchi yigit haqida adabiyotshunoslarning maqolalarida ayrim qaydlar bor. Lekin bu ma’lumotlarning manbai ko’rsatilmagan va o’sha davr tazkiralari, tarixnavislikka oid kitoblarda bu haqda biror fikr yo’qligi uchun uni asosli deb bo’lmaydi. Akademik Aziz Qayumov tomonidan keltirilgan O’tkir Rashidning “Nodira” sarlavhali varaqasi to’g’risida va undagi ovchi yigit haqidagi ma’lumot, “O’zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”dagi Nodiraning she’r sirlarini Jahonotin Uvaysiydan o’rganganligi haqidagi fakt, – u To’xtasin Jalolovning “O’zbek shoiralari” kitobida ham takrorlanadi, – “qaysi qo’lyozma manbadan olingan ekanligi ko’rsatilmagan”, degan fikri shu to’xtamga olib keladi¹.

Dramada Nodiraning bolalik yillarini eslashi, ovchi yigit haqidagi o’ylari, saroyga o’z ixtiyoriga qarshi olib kelingani o’tmishda qizlarning erki o’z qo’lida bo’limgani, taqdiri og’ir kechganligini ta’kidlash uchun zarur bo’lgan. Qo’qon xonligiga doir tazkiralarda ham (Hakimxon to’raning “Muntaxab ut-tavorix”) Nodiraning Umarxonga uzatilishi siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgani, ya’ni amir Olimxon ukasi Umarxon va tog’asi Rahmonqulibiy bilan o’z munosabatlarini mustahkamlamoqchi bo’lganligi ta’kidlanadi². Nodira yashagan siyosiy tuzum feodalizm bosqichi ekanini nazarda tutsak, huquqsizlik va tengsizliklar uning hayoti, taqdirida kechganligi, dramada keltirilgan xotin-qizlar taqdirining fojealari, ayanchli tutqunlik holatlari real tasvirlanganiga ishonamiz. Xon o’z vaziri sotqin ekanligidan xabar topishi bilanoq, shu masala bilan jiddiy shug’ullanish, mamlakat

¹ Қаюмов А. Асарлар. Қўқон адабий мұхити. 7-ж. 1-к. – Т.: “Мұмтоз сүз”, 2010. 148-б.; Қаюмов А. Қўқон адабий мұхити (XVIII – XIX асрлар). – Т., 1961. 220-б.

² Қўрсатилган асар, 147-бет.; Яна қаранг: Мадғозиев И. Нодиранинг отаси шоир бўлганми?, Оташқалб шоиранинг янги топилган ғазали /Икки мақола. <http://www.khdavron> kutubxonasi. Электрон манба. Мурожаат вақти: 3.04.2019.

xavfsizligini ta'minlash o'rniga kanizakka uylanishni muddao qilgan o'g'ilni onasi insofga chaqiradi. Asarda xalqning erki xavf ostida turganda ham to'y-tomosha, bazmni o'ylagan xonning ayanchli qiyofasi fojea yaqinlashayotganidan darak beradi go'yo.

Adabiyotshunoslikda, shuningdek tarixshunoslikda ham Muhammadalixon shaxsi, shoirlik iste'dodi, siyosiy faoliyati, taqdiri xususida ma'lumotlar, turlicha fikr-munosabatlar mavjud, bir-biriga zid bo'lgan qarashlar ham uchraydi. Amir Umarxonidan keyin Qo'qon xonligini boshqargan Muhammadalixon, albatta, otasining obodonlashtirish, mamlakatni yuksaltirish ishlarini, adabiyot va madaniyatni rivojlantirishni davom ettirgan. Uning o'zi ham ta'bi nazmi bo'lib, "Xon" taxallusi bilan ijod qilgan, ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyga hamohang ravishda g'azallar bitgan. Siyosat sohasida esa uning qattiqqo'l bo'lganligi, otasi davridagi saroy amaldorlarini vazifasidan bo'shatganligi, yana bir qator sabablar tufayli uning hukmronligi inqirozga uchraydi.

XIX asr I yarmidagi Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonliklaridagi urush va taloto'plar oqibatida xalqning chekkan jabru jafosi, o'zbek xonlari va amirlarining toju taxt uchun, boylik va hokimiyat uchun kurashlarida to'kilgan qonlar, kulfatlar tarixda bitib qoldirilgan. "Alam va qasos" dramasida shu davrdagi achinarli manzaralar, fojeiy holatlar real hamda badiiy tarzda ifodalanadi. Asar 1958 yilda 4 pardali, 7 ko'rinishli musiqali, she'riy drama shaklida yozilgan. Ikki yildan so'ng muallif shu asar asosida "Nodira" dramasini yaratadi. E'tiborli tomoni shuki, ikkala asar qahramonlari va syujeti o'zaro o'xshasa-da, lekin ularda g'oya va xulosalar o'ziga xos tarzda beriladi.

"Alam va qasos" dramasida bosh qahramon sifatida shoir va tabib Hoziq namoyon bo'ladi. Dramaning muqaddimasidayoq asarning tuguni beriladi: Norcha mergan qizining baxtidan tashvishda. Muallif asarga Nodirani navro'z bayrami fonida olib kiradi. Xalq bilan uchrasharkan, u cho'llarni obod qilishni, bu yerlarga "CHorchaman" nomi qo'yilishini bildiradi. Hoziq va Oyparchaning to'ylariga Nodiradan duo oladilar. Xon esa ov boshlanishini bildiradi, Hoziq va Oyparcha haqida eshitib ularning yo'liga to'g'anoq bo'lish haqida buyruq beradi: ov vaqtida Norcha merganni yaralaydilar. Unga qarayotgan qizi Oyparchani va tabib Hoziqni saroy vaziri hamda tabibi kelib, olib ketadilar. Saroy tabibi Norcha merganga zahar ichirib, xotini Begimbu bilan qo'shib yoqib yuboradi.

Dramada Rusiya o'lkasidan kelgan elchingin noma keltirgani sahnasi bor. Maktubdan ma'lum bo'ladiki, rus hukumati Qo'qon xonining bosqinchilikda talagan mol-mulkarni qaytarishini talab qilmoqda. Mazkur xatga o'z munosabatini bildirib, ularning talabini bajarishni maslahat bergen Nodirani o'g'li Muhammadalixon aldab, o'z shartlarini qo'ygan holda maktub yuboradi.

Tarixdan takrorlanib keluvchi bir haqiqat borki, hukmdorlarning vaziru vuzarolari sultanat boshlig'ini o'z yo'liga yurgiza olgan. Muhammadalixon atrofidagi vaziru a'yonlar ham uni urush qilishga, jangu jadalga boshlaydi.

Xon to'g'riso'z, haqiqat talab qiluvchi shoiru ijodkorlar – Mahmud, Maxmur, Umrzoq, Hoziqlarni turli sabab, bahonalar bilan saroydan chiqarib yuborib o'z bilganicha ish tutishni xohlaydi, amir, hukmdorlarga noma yozib ularni o'ldirishga

buyuradi. Dusha ismli Buxoro amiri ayg'oqchisi vazirga uchrashadi, vazir unga yodaki xabar berib, Nasrulloxonga Qo'qonga bosib kelaverishi mumkinligini yetkazdiradi.

Xonning elga solgan soliqlari, qilganadolatsizliklari, saroyning ba'zi a'yonlari bilan munosabati buzilgani haqida Nodira va Uvaysiy larning suhbatlari orqali ham bayon qilinadi. Xon hatto onasiga ham: "To'ydan so'ng tamosha, bazm, so'ngra urush!" – deya javob beradi. Oyparchani himoya qilish maqsadida Nodira va Uvaysiy xonga pandu nasihat qiladilar, lekin Muhammadalixon ularga bo'ysunmaydi.

Dramada xalq og'zaki ijodiga xos bo'lган ayrim xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Hoziq, Umrzoq, Maximurlar tomonidan aytilgan askiyalar xonni hajv qilish, tanqid qilishga qaratiladi. Odadta saroy qiziqchilarining hazil, mutoyiba, askiyalari uchun hukmdorlar jazolamas edilar. Lekin xon ularni o'z maqsadi yo'lidiagi g'ov deb bilib, hammasini turli yoqlarga yubormoqchi bo'ladi.

Xonga xabar keladiki, Andijon, O'zgan hududlaridagi aholi saltanatga qarshi bosh ko'targan. Arzu dodga kelganlarni xon quvib soladi. SHundan keyin amir Nasrullo Qo'qonga bostirib keladi. Amir hamda sotqin vazir bilan shiddatli, keskin to'qashganda Nodiraning ovozi mag'rur jaranglaydi:

*E zabardast, g'olib mardum ozori,
Tokaygacha qizir zulming bozori!*

G'azablangan amir Nodira va uning farzandlarini qatl etishga buyruq beradi. Hoziq esa amirga qarata:

*Pichding o'z qaddingga la'natdan chopon,
Qiyomatga qadar nomingdir yomon!*

deb aytgani uchun uning ko'zlariga nina sanchib ko'r qiladilar. CHopar Xorazm lashkarlari CHorjo'yni olib, Buxoro tomonga kelayotganini ma'lum qilgach, amir Qo'qondan Buxoroga ravona bo'ladi. Farg'ona mening ixtiyorimda qoldi, deb o'ylagan vazirni xalq tutib olib jazolaydi.

Buxoro amiri buyrug'iga ko'ra kallakesar Dusha Hoziqni bir yildan so'ng SHahrisabzdan topib, uning boshini amirga keltiradi. Hoziqqa bergen o'z joynamozini tanib, Oyparcha mudhish fojeani anglaydi. Hiyla ishlatib avval amirni, so'ng o'zini o'ldiradi. Oyparchaning zulmga, haq-huquqlarning toptalishiga qarshi ovozi quyidagi misralarda ifodalangan:

*Alam va kulfatdan qo'zg'olgan g'azab,
Qasos der, qasos der har bo'g'in, asab!*

Drama uchun "Alam va qasos" nomi ham dramaturgning g'oyaviy niyati bilan bog'liq holda tanlangan bo'lib, bu nom ezgulik va yovuzlikning kurashi bashariyat uchun azaldan buyon mavjudligini ta'kidlaydi.

Hoshimjon Razzoqovning Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi "Zulmatdagi nur" musiqali dramasida shoh va shoir hayotidagi qiyin, tahlikali damlar tasvirlanadi. Dramaturg asardagi voqealar 1483 – 1502 yillarda bo'lib o'tadi deb ko'rsatgan, lekin tarixiy faktlarga ko'ra dramadagi voqealar 1495 – 1503 yillarda bo'lganligini bildiradi. Asarda shoh Boburning bobosi Amir Temurdan keyin parokanda bo'lib ketayotgan Movarounnahrni qayta tiklash, markazlashtirilgan

davlat tuzish uchun qilgan say'-harakatlari, biroq o'z ichki dushmanlarining bunga qarshiliklari, natijada tashqi dushmani SHayboniyxonga yengilishi tasvirlanadi. Dramada keltirilgan Bobur va uning raqiblari o'rtasidagi ziddiyatlar va urushlar tasviridan “eng xavfli dushman ichki dushman” degan g'oya, xulosa chiqarish mumkin.

Umarshayx mirzo vafot etgach, saroyda taxtga kim o'tiradi, degan savol paydo bo'ladi. Hayotlik chog'ida ota vasiyat yozgan bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburni valiahd deb tayinlagani uchun uni oq kigizga solib taxtga ko'taradilar. Tanbal, Sa'dixon kabilarning esa adovati battar kuchayadi. Sulton Ahmad mirzo (Boburning amakisi), Mahmudxonlar (Boburning tog'asi) Boburga qarshi jang qiladilar. Boburning ukalari Nosir va Jahongir uning tarafdori bo'lmaydilar. Jang so'ngida Sulton Ahmad va Mahmudxonlar Boburga taslim bo'ladilar.

Dramada badiiy to'qima asosida yaratilgan obraz – Boburning sevgilisi Gulasal orqali dramaturg temuriyzoda podshohning ayollarga munosabati masalasini ko'rsatgan. Gulasalning tog'asi Ahmad Tanbal bo'lib, o'zining qaramog'idagi jiyanini Nosir mirzoga bermoqchi bo'ladi. Gulasal obrazida inson erki va yurt ozodligi uyg'un tushuncha ekanligini ko'rish mumkin. Gulasal orqali o'zining yovuz reja, niyatlarini amalga oshirmoqchi bo'lgan tog'asi – Ahmad Tanbalning xatti-harakatlari oxir oqibat natijasiz tugaydi. Qorako'z obrazi misolida ham bu davrda xotin-qizlar, ayollarga bo'lgan turli nohaq munosabatlar hamda Boburning bunga qarshi kurashi ifodalananadi. O'gay ukasi Nosir mirzo qo'lidan Bobur o'z askari Qutlug'qadamning sevgilisi Qorako'zni qutqaradi.

Samarqand beklarining Boburni chorlab xat yuborishi Boburni bobosi tuzgan ulug' saltanat poytaxtini egallash rejasini amalga oshirishga undaydi. Andijonda ustozি Burhoniddin Qilichni qoldirib Bobur Samarqandga otlanadi. SHu yerda ekanida bir qalandar unga xat olib keladi, xatda Alisher Navoiy vafoti haqida xabar berilgan edi. Bu qalandar Gulasalning otasi Yusuf Badiiy bo'lib chiqadi, Bobur uni o'z sarbozlari qatoriga oladi. Boburning huzuriga Jahongir mirzo va Qutlug'nigor keladilar, ma'lum bo'lishicha, Burhoniddin Qilichni Nosir mirzo, Ahmad Tanbal, Sa'dixonlar qatl etishadi, Gulasal va Boburning boshqa hamma tarafdorlarini zindonga tashlaganlar. Bobur SHayboniyxonga xat bitib, opasini unga qoldirganini bildirib Andijonga qaytadi. Bu yerda qalandarlarga “ur Boburni, ur Bobur, sur Boburni, sur Bobur” degan takbir ayttilishadi, bularning boshlig'i Sa'dixon bo'lib chiqadi. Sa'dixon Farg'ona qozikaloni bo'lib, Ahmad Tanbalning tarafdori edi. Bobur ular bilan jang qiladi, Sa'dixon o'q otib Boburni sonidan yaralaydi. Bobur va uning qo'shnulari g'alaba qiladilar, Esondavlat va Qutlug'nigoring so'zları bilan Bobur tog'a va amakilarini kechiradi. Mahmudxonga Sayhunning o'ng qirg'og'i, Olachaxonga chap tomoni to Bobur voyaga yetguncha ular tomonidan idora etilishi haqida kelishiladi. Bobur, hamma sipohlarni menga beringlar, SHayboniya qarshi kurashaman, deb istagini bildiradi. Unga SHayboniydan bir necha marta yegilganini aytadilar. Samarqand a'yonlari Boburga o'zbek qo'shini kelayotgani xabarini beradilar, Bobur xalqqa qarata: “Men ketayapman, lekin qaytib kelaman, o'shanda adl, ma'rifatni barpo etaman!” – deydi, xalq unga ergashadi.

Hoshimjon Razzoqov “Toyilgan tirkak”, “Zakovat va falokat” kabi komediyalarini yozdi. “Toyilgan tirkak” 3 parda, 8 ko`rinish musiqali satirik komediya bo`lib, 1965 yilda yaratilgan. Komediyaning mavzusi o’sha yillarda jamiyatda avj olgan salbiy illatlar: axloqsizlik, ichkililikbozlik, poraxo’rlik, fahsh, zino, firibgarlik, tovlamachilik, davlat mulkini talon-taroj etish haqida bo`lib, dramaturg tanqidning ayovsiz qalami bilan o’sha davr qahramonlarini fosh etadi. Bu tanqidiy ruh asarda kulgi vositalari bilan jonlantirilib kitobxon yoki tomoshabinda kulgu uyg’otadi. “Toyilgan tirkak” komediyasida To’xta Kamolov “bir idoraning boshlig’i” deb beriladi. Komediya To’xta Kamolov, uning xotini Oyimxon, o’g’li Erkinlarning ma’naviy qiyofasi salbiy ekanini ko’ramiz. To’xta Kamolov pul topishga mukkasidan ketgan, bu yo’lda davlat mulkini talon taroj qilish, poraxo’rlik qilishdan tap tortmaydi. O’g’li Erkin esa hali yosh bo’laturib ichkilikka, aysh-ishratga berilgan. Oyimxonning gaplarida, atrofdagilarga munosabatida ham dunyoparastligi, yolg’iz o’g’lining yurish turishi haqida qayg’urmasligi sezilib turadi. Mol dunyo yig’ishga ruju qo’yan ota ona Erkinni eski partizan Quvonboboning nabirasi O’lmasoyga uylamoqchi. Chunki To’xta Kamolovning fikricha, O’lmasoy shahar deputati, “aktivistka”, institutda sirtdan o’qib, fabrikada ishlaydi, hozirgi zamon siyosati va talablariga mos keladi. Bundan tashqari uning qurayotgan uchastkasi, mashinalari va yana ko’plab boyliklarini partizan boboning nomi bilan yashirmoqchi. To’xta Kamolovning ma’shuqasi bo’lib, o’n yillardan buyon ular don olishib yuradilar. Ana shu ma’shuqa – Sotqinning qizi bor – Oysha. U institut talabasi, lekin oiladagi nosog’lom muhit: otaning yo’qligi, onaning ma’nan buzuqligi qizni ham yomon yo’lga boshlaydi. Onaning o’zi qiziga yigitlarni qanday qilib rom qilish kerakligini o’rgatadi. Oysha Erkin bilan ikki yildan beri uchrashib yursa ham, o’zini tanitmaydi, oxiri o’zini “O’lmas” deydi. Ikkalasi tantsa tushib, restoranlarda maishat qilib yuradilar. Sotqinga To’xta Kamolov ZAGS mudirligini olib bergan. Bu yerga hujjat olish uchun kelgan odamlarni bo’lar bo’lmas sarsongarchilikka yo’l qo’yib, keraksiz hujjatlar so’raydi, ulardan pora talab qiladi. Sotqinga bu kirimlar ham yetarli bo’lmay To’xta Kamolovdan magazin mudirligini so’raydi. Qizi Oyshani To’xta Kamolovning o’g’li Erkinga uzatmoqchi bo’ladi.

To’xta Kamolovning opasi Tojixon beva bo’lib, axloqi buzuq ayol. U ham paytdan foydalanib, Quvonboboga tegib olmoqchi. Chunki ukasining mol davlatiga u ham sherik bo’lmoqchi. Quvonboboning qulog’i og’ir, urushda o’q tegib kontuziya bo’lgan. Uning bu kamchiligidan foydalanib pasportini o’g’irlab Tojixon cholga o’zini Sotqinoy orqali ZAGS qildirib oladi. Quvonbobi avrab Tojixonga uylantirishadi. Yolg’on fosh bo’lgach, Quvonbobo Tojixonni haydaydi.

Bu voqealar To’xta Kamolov kurortga o’z xo’jayini bilan ketganda sodir bo’ladi. Uning o’g’li Erkin mashinada bir bolani urib yuboradi.

ZAGS idorasidagi poraxo’rlik va huquqbazarliklar O’lmas, Bekali, militsiya xodimi Asqarov va boshqa mahalla faollari tomonidan fosh etiladi. To’xta Kamolov, uning xo’jayini, Erkin, To’xta Kamolovning qayin ukasi Maxsum qamoqqa olinadilar. Sotqin, ukasi – ZAGS idorası kotibi Xursandlar ham javobgarlikka tortiladilar.

Hoshimjon Razzoqov ham ilmda, ham badiiy ijodda peshqadamlardan bo'lib, o'zidan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar qoldirdi. Uning ilmiy va ijodiy merosi katta hajmni tashkil qiladi. U folklorshunoslikka oid ko'plab ilmiy asarlar yaratdi. Bu asarlar o'zbek xalq og'zaki ijodiga doir ilmiy nazariy fikrlar doirasini boyitadi, ilmiy tadqiqotlarida o'zbek xalq og'zaki ijodidagi janrlar taraqqiyotini belgilab berdi. Hoshimjon Razzoqov oliy ta'lif muassasalari uchun yaratilgan "O'zbek xalq og'zaki ijodi" faniga oid ilk darslik muallifidir. Bu esa folklorshunosni ana shu fanning asoschilaridan biri deyishga izn beradi. Olimning mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining asarlarini, qo'lyozmalarini topib, ilmiy jamotchilikka taqdim etishda, asarlarni chop etishda o'rni katta bo'ldi. Jumladan Zavqiy, Uvaysiy, Oraziy, Hayratiy kabi shoirlarning hayoti va ijodini o'rganib, asarlarini ommalashtirgan. Adabiyotshunos olim aruz vazni masalalari bilan ham jiddiy shug'ullanib, bu vaznni o'zbek tiliga yaqinlashtirish, moslashtirish masalalari bo'yicha maqolalar yaratdi. "Aruz vaznni o'rganish masalasiga doir" maqolasi shular jumlasidandir. Hoshimjon Razzoqov shoir sifatida ijod qildi. Uning badiiy asarları tarkibi janr jihatidan rang-barang, mavzu doirasi xilma-xildir. Mumtoz she'riyatimiz an'anaları sifatida maydonga kelgan g'azal, tuyuq, muxammas kabi janrlar bilan birga barmoq vaznidagi she'rlar ham yaratildi. Shoir yaratgan she'riy asarlarda an'anaviy poetik obrazlar tadrijiy rivojlantiriladi, o'z zamonasidagi masalalar shoir qalami orqali badiiy, obrazli aks etadi. Hoshimjon Razzoqov dramaturgiya bilan ham shug'ullandi. Uning tarixiy mavzuda "Zulmatdagi nur", "Nodira", "Alam va qasos" dramalari, zamonaviy mavzudagi "Toyilgan tirkak", Nasriddin Afandi haqidagi "Zakovat va falokat" komediyalari yaratilgan. Bu komediyalarda o'z zamonidagi ijtimoiy illatlar kulgi vositasida tanqid qilinadi. "Toyilgan tirkak" musiqali komediyasi satirik komediya hisoblanadi. Unda poraxo'rlik, qog'ozbozlik, davlat mulkini talon taroj qilish, axloqsizlik, ichkilikbozlik, tovlamachilik, o'g'rilik kabi illatlar komik qahramonlar misolida ochib beriladi. Dramaturg To'xta Kamolov, Oyimxon, Sotqin, Xursand kabi qator salbiy obrazlar xarakterini ularning nutqi, boshqa personajlar nutqi orqali ko'rsatadi. "Toyilgan tirkak" komediyasida kinoya, fosh etish, holat kulgisi orqali komiklik yuzaga keltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, Hoshimjon Razzoqov ilmiy va ijodiy merosini o'rganish orqali adabiyotshunoslilikning turli masalalarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz, shoir yashagan davrdagi ijodiy va ilmiy muhit haqida tasavvur qilish mumkin bo'ladi. Shuningdek shoir, olim, nosir, dramaturg H.Razzoqov dunyoqarashi, ijodiy uslubidan ham boxabar bo'lamiz. Professor Hoshimjon Razzoqov yaratgan ilmiy va badiiy asarlar o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida o'z o'rniga ega bo'lib, davrlar o'tsa-da qimmatini yo'qotmaydi, bu asarlarning o'qib o'rganilishi, nashr etilishi ularning umrini boqiy qiladi, degan umiddamiz.

AHMADRAFIQ QAMBAROV¹ (1924-1982).

Ahmadrafiq Qambarov Andijon shahrida 1924 yili tavallud topgan. Otasi Qambarali SHamsiboev taniqli savdogar va ziyoli kishilardan bo'lgan. Onasi Mastura aya SHamsiboeva uy bekasi edi. Ahmadrafiq boshlang'ich ta'limni otasidan oladi. Maktabning sakkizinchisinfini tamomlab, ishchilar fakultetiga kirib uni ham tugatadi. 1938 yili Samarqand xalq xo'jaligi institutiga kiradi. Institutni muvaffaqiyatli tugatib, yo'llanma bilan Andijon matlubot uyushmasiga ishga qabul qilinadi. 1942 yili Andijon shahar xarbiy komissariati tomonidan ishga chaqirilib besh yil mobaynida mudofaa ahamiyatiga molik zavodlarda master bo'lib ishlaydi. 1952 yildan boshlab yana savdo jamiyatiga o'tib ishlaydi. 1957-1963 yillarda Bo'z tumani ijroiya kommiteti raisining o'rribosari va raisi bo'lib ishlaydi. 1963-1965 yillar davomida Andijon viloyati rahbar idoralari devonida ishladi. Keyinchalik Andijon shahar ijroiya komiteti raisi o'rribosari, shahar umumiy ovqatlanish tresti direktori, "Uzoptbakaleya" Andijon bazasida boshqaruvchi bo'lib ishladi. 1977 yildan umrining to oxirigacha Andijon shahar ijtimoiy-ta'minot bo'limiga mudirlik qildi. Bundan tashqari bo'sh vaqtlarida otalari Qambarali akaning vasiylatlari va taklifi bilan Andijon ziyoli adiblari va shoirlari yig'iladigan anjumanga qatnashdi. Bu anjumanlarga faol qatnashib ruhiy o'ziga xos tarbiya oldi. Avval ta'kidlaganimizdek, bu anjuman qatnashchilari faoliyatining Toshkent, Qo'qon va Farg'ona vodiysiga dong'i ketgan edi. Bu anjumanni sinchkovlik bilan kuzatib yurgan Axmadrafiq aka "Andijon adabiy gurunggi" qatnashchilari haqida tarixiy batafsil ma'lumotnomma yozadi. Anjumanda Axmadrafiq aka qirq yil faol qatnashgan. U o'z asarini "Xotirnomá" yoxud "Zamonamiz fozillari hayotidan ayrim hikoyalar" nomi bilan atadi.

Bu hikoyalar mubolag'asiz, ko'rgan, bilgan, xikoya qilib berilgan xar-xil mavzudagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asar bo'ldi. 800 saxifadan iborat ushbu asar arxivlarda saqlanib kelmoqda. Axmadrafiq aka bir necha marta xalq deputatlari tuman, shahar va viloyat kengashlariga saylangan. U kishining mehnatlari munosib taqdirlanib, Axmadrafiq aka davlatimiz tomonidan bir necha faxriy yorliqlar va medallar bilan mukofotlangan.

**Do'sti azizim Axmad Rafiq aka vafoti munosabati bilan
yozilgan marsiya-ta'rix
(Amonullo Valixonov-Boqirdan)
Marsiya**

Keldi, darig'o, bu shum xabarkim,
Bordi jahondin ul yaxshi inson.

Vo xasratokim, tortmish qaro yer,
Qadr ichra erdi ul garchi osmon.

Ismi sharifi Axmad Rafiqiy,
Bizga edi chin do'sti qadrdon.

¹ Андикон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

Xulqi xush erdi odobi marg'ub,
Zohirda kamgap, botin suxandon.

Tab'i buyuk, lek g'oyatda kamtar,
Kamtarlik ichra bemisl jonon.

Qilmasdi garchi da'voysi donish,
Ko'p ilm ichra erdi purdon.

Ojiz shafiqi, do'stlarga jonboz,
El xizmatini ul qildi chandon.

Illat xujumi birdan yiqitdi,
Bo'lmay shifobaxsh hech doru-darmon.

Uch xafka yotib bir so'z deya olmay,
Bor fikri ketdi ko'nglida pinhon.

Ahli ayoli ham yoru-do'st,
Motamda qoldi giryonus nolon.

Xukmi qazoga lozim rizoliq,
Har ne buyursa ul pok Yazdon.

Ta'ixi favtin aytay desam men,
Bermasdi, Boqir, hech ohim imkon.

Ohimni chekkach, ta'ixin aytdim,
“*Bordi jahondin ul yaxshi inson*”.

VALIXONOV AMONULLOXON-BOQIR¹ (1925-1986).

Garchi Amonulloxon akaning ilmiy darajasi bo'lmasa-da, u Andijonliklarga yetuk adib, matematik, astronom, tabiatshunos, kamyogar hamda biolog sifatida yaxshi tanish edi. Uning she'rlarini sevib o'qimagan kishi kam topilardi. Yuzidan samimiyl tabassum arimaydigan bu zot sadoqatli do'st, chin ustoz, mehribon oila boshlig'i edi. Amonulloxon Valixonov 1925 yil 27 dekabrda Andijon shahrida ziyoli oilada tavallud topdi. Otasidan yosh qolgan (3 yoshida) Amonulloxonni onasi Saodatxonposhsha tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Amonulloxon maktabni bitirgach, Farg'ona pedagogika institutida tahsil oldi va Andijon shahridagi 8-, 29-

¹ Андикон адабий гурунги (Т., 2013.) мажмуасидаги маълумотлардан олинди.

maktablarda o'qituvchilik lavozimida ishladi. Umrining oxirgi yillarida Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyining Andijon filialiga direktorlik qildi.

Amonulloxon akadan besh nafar farzand qolgan bo'lib, ularning barchasi ota kasbi-o'qituvchilikni tanlaganlar va yosh avlodni tarbiyalash borasida xizmat qilmoqdalar. Katta qizi Muzayyanaxon uzoq yillar Andijon shahridagi maktablarda biologiya fanidan dars berib keldi, xozir nafaqada. O'g'li Ulug'bek Andijon Davlat tibbiyot oliygoxida talabalarga dars beradi. Qizlari Qamarxon, Mohro'yaxon va Muazzamxonlar Andijondagi maktablarda o'qituvchilik qilmoqdalar. Andijon shahridagi sobiq "Solnechnaya" ko'chasiga shahar hokimining qarori bilan Omonilloxon Valixonov nomi berilgan.

Bezandi sabza bilan o'l kamiz bu fasli bahor,
Yashil kiyimda ko'ringan kabi go'zal dildor.

Yaxshilik eltadi ko'zu-ko'ngilga nuru surur,
Sururu nur yaxshilikda chunki naqshu nigor.

Qadri ketdi yashil yaprog'in oq injudin,
Kelib gul ustuda shudring qachonki topdi qaror.

G'ubori bor edi qishning ko'ngilda bu ko'klam,
Yashilga cho'mkadi to qolmaguncha bori g'ubor.

Qaerda uchrasa sahro gul undirib xalqim,
Yaratdi mehnat ila unda yashnagan gulzor.

Diyorim erdi go'zal yashnagan chaman yanglig',
Bahor etibdur uni yashnagan guliga diyor.

Ko'zim boqish-la jamoliga to'ymagay Boqir,
Bezandi sabzadan o'l kam nechunki fasli bahor.

Bu bir ajoyib oqshom ta'rifi va undagi go'zal suhbat tavsifi

Meni o'z suhbatidan bahramand etmak qaror aylab,
Kecha kulbamga ul oy keldi kelmak ixtiyor aylab.

Xayolu hushimni beliyu-sochi band-band etti,
CHu fikru aqlimi og'ziyu xoli tor-mor aylab.

Yog'sundi labi sarchashmai obi xayotidan,
Tanam pajmurdasida umri jovud barqaror aylab.

Xush ulkim, sen vafo bobida ko'rsatding mudom o'zni,
Hamisha yo'qu boring sadqai yoru-diyor aylab.

Nechuk Boqirning ovozi falakni teshmasin oxir,
Bu davlat shukriga gulyor sovtin yor-yor aylab.

**Baland iste'dodlik qalam sohibi, mumtoz adabiyotning yaxshi bilimdoni
Omonullo Valixonov - Boqirning vafotiga yozilgan marsiya-ta'rix Ulfatdan
Marsiya**

*Sarvari ahli fazl dedi tarix,
Bobsiz uyni qilgach istehsor.*

Ming to'qqiz yuzda sakson oltida,
Dekabrda bekitdi ul diydor.

15 yanvar 1987 yil.

Sarvari ahli fazl kalimasidan "Bob" kalimasi qiymati chiqarib yuborilsa 1407 hijriy sana hosil bo'ladi.(Ulfat.)

SAIDA ZUNNUNOVA (1926-1977).

1926 y. — Shoira, adiba Saida Zunnunova Andijon shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. Shahardagi 30 mактабда o'qidi. 1941-1943 y. — Andijon o'qituvchilar institutida o'qiydi. Andijon shahridagi 30 mактабда o'qituvchi, gazetada adabiy xodim bo'lib ishladi. 1945 y. — birinchi she'ri "Paxta fronti" gazetasida bosilgan.

1947y. O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qidi. O'qishni tamomlab, "Gulxan" jurnalida, "O'zbekiston madaniyati" gazetasi va Badiiy adabiyot nashriyotida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishladi. 1948 y. — "Qizingiz yozdi" she'riy to'plami. 1950 y. — "Yangi she'rlar" she'riy to'plami. 1954 y. — "Gullar vodiysi" she'rlar to'plami. 1956 y. — "Gulbahor" hikoyalar to'plami. 1958 y. — "Gulxan" qissasi. 1967 y. — "Qizlarjon", "Bir yil o'ylari" she'riy to'plamlari. 1962 y. — "Olov" asari. 1965 y. — "Odamlar orasida", "Ko'chalar charog'on" nasriy asarlari. 1972 y. — "Bo'ylaringdan o'rgilay", "Direktor" asarlari. Hukumatimiz Saida Zunnunovaning adabiyotimiz taraqqiyotiga qo'shgan salmoqli hissasini taqdirlab, uni Hurmat belgisi ordeni bilan mukofotlagan.

1977 y. — 51 yoshida og'ir xastalikdan bevaqt vafot etdi.

U 1926 yilning 15 fevralida Andijon shahridagi «Yangi turmush» mahallasida xizmatchi oilasida tug'ildi. N. Ostrovskiy nomidagi 30-son o'rta maktabda o'qidi. Yosh Saidaning adabiyotga mehr qo'yishida dadasi Ergashboy Zunnunovning hissasi katta bo'ldi. Saida Zunnunova o'z tarjimai holida bu haqida hayajonlanib, quyidagilarni yozadi: «Hamza Hakimzodaning she'rlarini birinchi marta uning og'zidan eshitgandim. Dadam menga she'r o'qishdan tortib, konsept tuzishgacha o'rgatar, nutqimga ahamiyat berar, ertaklar aytar, hatto men muharrir

bo'lgan sinf devoriy gazetasining qanday bezatishimgacha maslaxatlar berar, rasmlar topib kelardi».

Yosh shoiraning dastlabki she'rlari 30-yillarning oxirlaridan boshlab «Komuna» (Farg'ona viloyati), «Komunist» (Andijon viloyati) gazetalari sahifalarida bosilib turdi. Keyinroq Saida Andijon Davlat o'qituvchilari institutiga o'qishga kirdi. U institutni 1943 yili tomonlab, avval Izboskan tumanida, keyin esa Andijon shahridagi maktabda o'qituvchilik qiladi. SHe'r mutolaa qilishni ham davom ettiradi.

Yoshligidanoq badiy ijodga havasi zo'r bo'lgan Saida Zunnunova matbuot xodimlarining e'tiborini tortdi. 1946 yili Andijon viloyati «Komunist» gazetasi redaktsiyasiga ishga kirdi. Jurnalistik kasbi Saidaning qalamini qayray boshladi, ish muhiti uni hayotning jushqin joylarga, olma orasiga yetaklaydi, izlanish, bilimini oshirishga, hozirjavoblikka, hayotni undaydi.

«Saida «Kommunist» gazetasi redaktsiyasida ishlagan qizlarda, - deb hikoya qiladi Andijon viloyat gazetasining bo'lim mudiri Karim yo'lidashev, - yosh shoiralar, yozuvchilar, muxbirlar ishtirokida adabiy kechalar, seminarlar, paxtakorlar Bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. U bunday yig'ilishlarda faol qatnashardi

Saidaning boshqa yosh ijodkorlardan ajralib turadigan xususiyati shunda ediki, u adabiyot to'g'risida, ijod haqida gap ketganda faol ishtirok etardi, uyalib turmay, o'z o'rnini topishga intilardi. Saida yoshligidanoq she'rlarini puxta ishlaydi, qayta - qayta ishlashdan zerikmaydi, me'yoriga yetgach, she'rini redaktsiyaga olib keladi. Uning she'rlari originalligi bilan, misralarning ravnligi bilan o'quvchiga yoqardi!¹

Keyinchalik Saida she'rlarini Toshkentda chiqadigan gazeta va jurnallarga, respublika yozuvchilar uyushmasiga yuborib turdi.

Tajribali jurnalistlar, adabiyotchilar, shoirlar bu tirishqoq qizdan maslaxatlari, yo'1 – yo'riqlarini ayamadilar. Natijada Saida shoira sifatida asardan asarga o'sib bordi.

Bilim oshishiga va adabiyotga bo'lgan qiziqish Saidani Toshkentga yetakladi. 1947 yili u poytaxtga kelib Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulitetiga o'qishga kirdi. Universitetdagi va Toshkentdagi adabiy muhit Saida ko'nglida she'riyatga bo'lgan havasni yanada oshirdi.

Studentlik yillari u “Qizingiz yozdi” (1948), “Yangi she'rlar” (1950) she'riy to'plamlarini nashr ettirdi.

O'zbekiston xalq shoiri G'ofur G'ulom, Saida Zunnunova haqida quyidagilarni yozgan edi.

“... Yaqinida o'n besh – yig'irma yillar ilgari adabiyotimiz o'zining yetuk shoirlarini qo'msab ko'tardi. Ular xalqimiz orasida, xalqimizning ulug' idojkor tafakkurini ijod qilg'uvchilar safida bugun mavjuddirlar.

¹ 1967 йил август ойида Карим Йўлдошев билан сұхбатдан.

² Ғ.Ғулом. “Адабий оила”. “Ўзбекистон” 1965 15 август.

Hozirgi so'zim Saida to'g'risida, chunki bu shoiraning shu voyaga yetib keluvida kaminaning ham ozgina murabbiyligi bo'lган. Saidaning birinchi kitobini o'qib "Qizingiz yozdi" deb ism qo'yanman. Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadı. U xotin – qizlarga xos nazokat, iformay tatishi lirkasi bilan dillarimizni erkalatib, xordiqlarimizni yozib, mehnatga rag'batimizni toblantirib, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmi shoiramiz bo'lib yetishdi.”²

Saidi Zunnunova universitetni 1952 yildamuvaffaqiyatlari bitirib, "Gulhan" jurnalida, keyinchalik "O'zbekiston madaniyati" gazetasida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishladi.

1950 yilda Said Axmad va Saida Zunnunovaning nikoh to'ylari bo'ldi. Ular bir-birlariga qarab suyanib yashashdi. Bir-birlariga qarab ilxom olishdi. O'rtalaridagi mehru-muhabbatning hamma vaqt qadriga yetishdi, ardoqlashdi.

Adiba Saida Zunnunova adabiyotga asosan Ulug' Vatan urushidan so'ngi yillarda kirib keldi va o'tgan ana shu vaqt ichida kitobxonlarga "Qizingiz yozdi" (1948), "Yangi she'rlar" (1950), "Gullar vodiysi" (1954), "Qizlarjon" (1962), "SHe'rlar" (1964), "Bir yil o'ylari" (1967), "Qo'shnilarim" (1970), "Nilufar" (1972) kabi she'riy to'plamlari, "Gulbahor" (1956), "Povest va Xikoyalar" (1957), "Gulxan" (1959), "Do'stlik" (1960), "Qanot" (1961), "Olov" (1962), "Ko'chalar charog'on" (1965), "Bo'ylaringdan o'rgilay" (1972), "CHapak" (1972), hikoya va povestlar to'plamlarini, "Ona" (1966), "Qo'zlar" (1968) pesselarini taqdim etdi.

Saidani adabiyotga, she'riyatga o'zgacha nigoh bilan boqishiga uning dadasi turki bo'ldi.

SHoira keynroq "Dadam xotirasiga" she'rini yaratar ekan, adabiyotga o'zgacha mehr uyg'otgan birinchi maslahatchisi va birinchi tanqidchisi bo'lган dadajoniga mehrini yaqqol ifodalaydi.

Dadaginam

Har o'tgan umrimga nazar tashlasam,
Qitday g'ubor sezsam ko'nglim g'ashlanur
Ranjitim qo'ydimmi, deb ruhingizni
Jigarimni kabob qilar otashlar.

Bu misralarga nazar tashlasak har bir o'quvchi, har bir so'z, har bir misraning be xato bo'lishiga javobgar, ma'suliyatli shahs nafaqat shoira, balki unga hamisha hamnafas, hamdard ota ruki ekanligini yaqqol xis etadi. Bolalik chog'laridagi otasining ko'rsatgan mehribonliklarini oddiygina tasvirlagan. Bu oddiy misralarni o'qib kitobxon yuziga tabassum yoyiladi:

Goh lentam, gohida botinkamning
Bog'lagan mehribon qo'llaringizni

Chunki bu misralarni bolalikning shirin xotiralaridan biri bo'lib, bolalikni shirin bir orziqish bilan eslagen har bir ayol tilidan aytiganday.

She'riyat voqelikni ko'zgudek faqat utki tomonidan emas, balki inson qalbiga kirish orqali ko'rsatadi. Saida Zunnunova o'z she'rlarida jamiyat qurayotgan fidokor otam qalb kishilarning his – tuyg'ularini ochib berishga

intiladi. Hayotdan muhim masalalarini hozir javoblik bilan lirika torlariga solib kuylaydi.

SHe'rlardagi mavzuning rang – barangligi esa shoiraning hayotga munosabati, voqea – hodislarni to'g'ri anglay bilishiga bog'liqdir.

Har bir shoir o'z lirkasida insonni hayajonlantiradigan masalalarini lirik qahramon ichki kechinmalari orqali ifodalaydi.

Lirikada inson sezgisi kechinmasi ustun turadi. Vatanga muhabbat, haqiqiy insoniylik, shodlik va qayg'u, yor vasli,. Sevgi va hijron, oila ona va farzand, rashk va ishonch, mehnat va olivjanoblik, insoniylik, porloq istiqbol quvonch va boshqalar lirkamizning doimiy mavzularidir. Buni Saido Zunnunova lirkasi ham tasdiqlaydi. SHoira o'zining lirik she'rlarida ona yurtini va fasllar kelinchagi bahorni, tabiat manzarasini, baxt va mehnatni, sevgi va sadoqatni, hijron va bardoshni, tinchlikni ulug'laydi.

Uning she'rlaridagi lirik qahramon turli holatlarda ko'rindi. SHoira lirkasida hayot va muhabbatni baxt va mehnatni ulug'lovchi, katta qalbli teran fikrli, yuksak orzu – umidli zamondoshlarimiz timsoli ishonarli beriladi. Saido Zunnunova qahramonlari qaynoq hayotda yashaydi, shunda o'sadi, ulg'ayadi. San'atkor qahramon timsolini yaratari ekan, uning takrorlanmas hususiyatlari e'tibor beradi. Bu Saidaning takrorlanmas o'ziga hos xususiyatlaridan biridir.

Shoira o'z davri kishisi ruhini ichki dunyosini chuqur o'rganish orqali umumlashma lirik timsol yaratadi, uning "men"ida butun bir tarixiy davrning xarakterli xususiyatlari va tendentsiyasi o'z inshosini topadi.

60 – yillarga kelib Saido Zunnunova she'rlaridagi lirik qahramon turli holatlarda ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Shoira she'rlarida mehnatsiz yashash dahshatdir, degan fikr balqib turadi.

Shoira "Ba'zan horib – tolib yumush – tashvishdan . . ." misrasi bilan boshlanadigan she'rida lirik qahramonning ruhiy holatini aniq qilib chizadi. SHe'rdagi lirik qahramon charchab, bir oz dam olgisi keladi. Uning ko'nliga shu payt na o'yin kulgi va na suhbat yoqadi. Bir oz tinch o'tirgach, uni g'aflat bosadi, qo'llari go'yo ortiqchadek, o'yi ma'nosizdek tuyuladi, u dahshatdan sanchib o'rnidan turadi. Qiynalsam ham mayli, men faqat mehnat bilan bo'lay, deb xitob qiladi:

O mehnat, hayotu, shodlik doyasi,
Badbaxt etma hargiz sen mendan qochib,
Mayli, changalingda piypalasan ham,
Tovonim, qabartsa toshlaring tilib,
Hislar girdobida chipirak qilib.
SHe'r ishqida dilim qiymalasan ham Mayliga.

Saido Zunnunovaning "Hayotdan nolisabirov, so'ylayman" she'ridagi lirik qaharmon, ayniqsa, oyoq-qo'li sog' bo'la turib, hayotdan noligan odamni yoqtirmaydi. Hayotning goh alami, goh dohi bo'lsada, u insonlarni quvonch, baxt bilan siyaydi – ku! Lirik qahramon umrini sermazmun bo'lishini istaydi, hasdek

ojiz aytilishiga toqat qilolmaydi, kurashsiz, mehnatsiz shodlik va kulgini o'g'irlik mol deb hazar qiladi, mehnatni ulug'laydi.

Ona va farzand, ona qalbi va mehri adabiyotning asosiy mavzularidandir. SHoira Saida Zunnunova ham o'z ijodida ona va farzand, onalik baxti va ayolni sharaflash mavzusiga qayta – qayta murojaat qiladi. SHoiraning “Ona” (1949), “Doya”, “Qizimga” (1960, “Alla” (1960), “Muncha yaxshisan qizim” (1961), “2Qizim haqida” (1961), “Qizimga”(1963), CHumolining uyasini buzgan bolaga”, “Dadam xotirasi” (1964) kabi ko'pgina me'rlari, qasidalari ona va farzand, onalik qalbi va mehri mavzuiga bag'ishlangan.

Shoira lirkasining, umuman ijodning bosh mavzusi-ayol va uning taqdiri haqida qayg'urish. Saida Zunnunovaning she'rlari qaysi mavzuda ekanidan qat'iy nazar voqeа-hodisalar ayol qalbi orqali idrok etiladi, ayollarga xos hassoslik bilan mushohada yuritiladi. U ayol ruhiy olamini butun nozikligi va murakkabligi, his-hayajonlari, qalb tebranishlari, tovlanishlari bilan berishga urinadi, shunga loyiq so'zlar qo'llaydi, obrazlar tanlaydi. Shoira ayol baxtining eng avvalo muhabbatda, farzand tarbiyasi va oilada deb bilganini xotiralaridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Bunday shaxsiy qarash ijodkorning hayotiy falsafasi darajasiga ko'tarilib, u yaratgan qahramonlar tabiatiga ham ko'chib o'tdi. Shoira yaratgan qahramonlar ham baxtini xuddi uning o'zidek tushinadilar va shunday baxt uchun hamma narsaga tayyor turadilar. Shunga asoslanib o'zbek adabiyotida hali hech bir shoira oilaviy baxt haqida Saida Zunnunovachalik tabiiy va hayotiy yoza olmadi, deya olamiz. Chunki bunday mavzudagi she'rlarning lirk qahramoni oilaviy baxtga muyassar bo'lgan ayol-shoiraning o'zi.

Saida Zunnunova so'z sanatining badiiy mavzusi bo'lgan muhabbat mavzusiga 50-yillarning o'rtalarida murojaat eta boshlagan.

Uning ijodida sevgi va sadoqat tarannumi ham o'ziga xos bo'lib, asosan ikki qahramon “men”-lirk qahramon va “sen” ya'ni yor obrazi ishtirok etadi. Shoira odatda bu obrazlar bilan yonma-yon keladigan “raqib” obrazi ishtirokidagi murakkab kolliziyalarni yaratishga ehtiyoj sezmaydi. Chunki uning lirk qahramoni o'z ishqining pokligiga, yorining ko'ngli ham o'zinikidek pokligiga shubha qilmaydi. Lirk qahramon ichki olami, ruhiy holati, kechinmalarining tabiat hodisalari, manzaralari bilan uyg'un holda berilishi shoira she'rlarining jozibasini, ta'sir kuchini yanada oshiradi.

*Yana yillar o'tar, bahorlar balqir,
Yana ko'zlarimda ranglanar gullar
Qalbimni bitta o'y kemirar, yulqir,
Yo'q endi visolga eltuvchi yo'llar*

Nahotki, siz yo'qsiz endi, onajon. . . – deb yozadi Saida Zunnunova “Onajon” nomli she'rida. Qayta – qayta bahor kelishi yoki ko'zlarida gullarning ranglanishi lirk qahramonni quvontirmaydi. Negaki, visolga eltuvchi yo'l yo'q, ona yo'q. Bu mahzunlik she'rni o'qigan o'quvchi ko'ngliga ham kirib boradi. Ona timsolida o'zbek ayolining xarakterini ochib beradi. Ona obrazi o'zbek ayollarining umumlashma tipi hisoblanadi. Bu ijodkor ijodidagi ona obrazida

onaning o'zigagina xos betakror xarakter xususiyatlari bilan birga, u yashagan davr onalari uchun umumiylit kasb etgan xususiyatlar ham mavjud.

Saida Zunnunovaning "Ruh bilan suhbat" lirik dostonida ham onaning shodligi va hijroniga hamohang uning matonati, irodasi kuylanadi. Ana o'sha iroda, matonat, ayniqsa, urush davri ayollariga xos xususiyat edi.

*Ha, bu bilardim, qismatdan o'zga
Kimni ham bo'g'ardim o'sha damlarda
Fashist oils edi, qo'l-u ko'zimdan
G'ajib tashlay desam bu alamlarga*

Saida Zunnunova she'rlaridagi ona obrazining hayotda ikkita prototipi bor: biri onasi bo'lsa, biri shoiraning o'zidir.

Saida Zunnunova "Ona" she'rida dunyoda eng ulug' zot – onaning tipik timsolini yaratib, unga ajoyib hislatlarini qalbidan kuylaydi. SHe'rda shoira qahramonining onasi haqida fikr yuritadi. Ona o'z o'g'lini sevib, ardoqlab o'stiradi. Ulg'aygan o'g'il Vatan himoyasiga ketadi va jangda qahramonona xalok bo'ladi. Ona o'g'lini vafot etganiga ishongisi kelmaydi, uni hamon kutadi. Har oqshom, har sahar yo'liga qaraydi. Lirik qahramon onaga murojaat qilib deydi:

Shu aziz tuproqda ona, o'g'lining
Yigit nafasin bor harorati,
Shuning- chun bu tuproq muqaddas ulug'
Shuning-chun bu tuproq jonning rohati
Shu aziz tuproqda, uning jasadi
Bosh egib o'tmaydi undan yo'lovchi . . .

She'rda shu bugungi kun chiroyli ona sevgisidan, agar toshga shu mehr bilan ona boqsa u ham eriydi, uning muhabbati otash oldida osmondan quyosh ham uzilib tushishi mumkin, degan g'oya berilgan.

Shoiraning "Qizimga" she'rida onaning farzandga bo'lган qaynoq muhabbati, tunlari kechirgan holati, farzandini o'z xalqi, Vataniga muhabbat ruhida, aqli, sog'lom qilib o'stirish, haqiqiy insoniy fazilatlar ruhida tarbilashdan iboratdir.

Shoira poetik timsol yaratishda detallardan unumli foydalanadi. Detalning zamiri – hayotdir. SHoira o'z she'rlarida ishlatilgan detalning asar g'oyasini ochish uchun zarur bo'lgan vositaga aylantira olgan.

Bu holni "CHumoli uyasini buzgan bolaga" she'rida ochiq ko'rish mumkin. Unda shoira bolalarning o'yinidan bir onni gavdalantirgan, bekordan – bekorga chumolini uyasi buzayotgan bolaga qizchaning o'gitini tasvirlagan:

- O'ldirma ayasi yig'laydi, axir,
Ayasi yig'laydi, qo'y, tegma, bor ket!

Shoira she'rida kichik detal vositasida katta xulosa chiqargan. SHe'rdagi lirik qahramon farzandining onaning o'ylashidan quvonadi. Saida Zunnunova bu she'rida farzandlar qalbiga onani o'ylash, unga shavqatli bo'lishi hissini tarbiyalaydi.

Saida Zunnunovaning ona va farzand mavzuida yozgan she'rlari orasida "Sharq yulduzi" jurnalining 1972 yil 8-sonida e'lon qilingan "alla" qasidasi alohida o'rinni egallaydi. SHoira bu qasidani onasiga bag'ishlaydi:

Qaydan so'z boshlayman, dunyo umrining

Qaysi bir jildini varaqlamayin

Yotgancha xotiram, mehrim, shuurim

Onalar nomini ardoqlagumdir.

Asar yetti bo'limdan iboratdir. Ularning har birida onalar xarakteridagi asosiy xislatlardan biri madh etiladi:

Yo'q uning yig'isini eshitmayin hech

Inson bu qyinoqqa bo'lmasin duchor

Unga sig'innurman ham erta, ham kech

Uning duosisiz ko'karmoq dushvor

Odamlar, odamlar, bo'linglar xushyor!

Shoira ona allasining sehri haqida fikr yuritadi:

Tengsiz bu san'atni qo'zg'atgan ovoz,

Mainu va mudroq ona allasi.

Subh – sabih hamisha uning bilan soz,

Uning bilan go'zal sahar pallasi.

U alla aytmasi, tonglar yetmaydi,

U alla aytmasa, qo'yosh botmaydi . . .

Alla tinglamasa odam bolasi

Qaerdan oladi muhabbat kuchin

Tilaklar, ozular bo'ladi xosil

Onajonlar alla aytgani uchun.

Saida Zunnunova ona allasini ulug'larkan, onasi poyiga dunyo gullarining eng asillarini sochishini, ko'ldan nilufar keltirishini, so'ngra uning quchoqlariga bir damgina singishni va alla tinglashni istaydi

Bor bo'lzin onalar, bor bo'lzin farzand,

Yashasin hamisha olamda Alla

Shoira Soida Zunnunova o'z ijodida ona va farzand, ona qalbi va mehri mavzulariga qayta – qayta murojaat qiladi, bu mavzuni biror xodisa – voqeani tasvirlash yoki biror konkret timsolini yaratish orqali yoritadi. Shoiraning bu mavzuda yozgan har bir she'ri o'ziga xos orginal bo'lishi bilan birga, tasvirlayotgan voqeasi, biri ikkinchisining davomi sifatida maydonga keladi.

Ayolning baxti muhabbat bilangina mukammal bo'la olmaydi. U o'zini baxtli sanashi uchun Alloh uni farzand atalmish beba ho ne'mat bilan ham siylashi kerak. Onalik baxti haqida hatto sevish yoki sevilish u qadar qimmatga ega bo'lmasligi mumkin. Shoira ayolning jamiyatdagi faolligini o'z kasbini sevishi va sadoqatini yoqlagan holda "Bezovta hayolga asirman ba'zan, qolgisi kelmasa ishdan kelinchak. Bu yaxshi xislatu va lekin yomon Bir chetda bosib yotsa belanchak", deya ayol uchun farzand mehrining nechog'li zarurligini ta'kidlaydi.

Lirik qahramon ilgari dunyoni faqat ayol ko'zi bilan ko'rgan, idrok etgan bo'lsa, farzand ko'rgach, ona qalbi orqali his eta boshlaydi. Uning endi tabiat va

jamiyatdaga barcha narsa farzandi taqdiriga aloqador bo‘lib tuyuladi, ularning pokligi uchun o‘zini ma’sul sezadi. Ijodkorga onalik muhabbati cheksiz ilhom beradi, she’rlari yangi-yangi jilo, ming xil ohang, joziba baxsh etadi:

Meni katta shoir qildi qizginamning kulgusi,
Muhabbati she’rlarimni birdan qildi istilo.
Uning bilan jozibada jilva qildi kelgusi
Har jilvada ming xil ohang, ming xil bo‘yoq, ming

jilo¹

Shoir “Qizginam” she’rida farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbatni ifodalaydi, qiziga o‘zining eng ezgu tilaklarini tilaydi. Har bir ona farzandini sevib ardoqlarkan, uning kamolini ko‘rishni, unga hatto yellar ham ozor bermasligini istaydi. Doim farzandi atrofida parvona bo‘ladi. Jajjiginasining har bir hatti-harakatidan dildan quvonadi:

Qizginam, ishlaring, tashvishlaring ko‘p,
Mening baxtim bo‘lgan janjal, so‘roqlar,
Mening baxtim bo‘lgan erkaliklaring,
Mening baxtim bo‘lgan xushbo‘y dudoqlar.

Gard yuqmagan uyni nima qillardim,
Dam-badam yig‘masam o‘yinchoqlaring.
Xotirjam uyquni nima qillardim,
Yopmasam, ustingni ochgan chog‘laring.

Ba’zan polga tushgan jajji izlaringdan
Baxtimga boqqanday qilmay huzur.
Oppog‘im, o‘rgilay mehnatlaringdan,
Oppog‘im, hamisha sog‘-salomat yur²

Shoira bisotida bunday farzandiga atalgan, ayol qalbi navolarini ifodalagan she’rlar juda ko‘p. Bu jihatdan shoiraning qiziga atalgan allasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Allada onaning farzandiga bo‘lgan bor mehr-muhabbati, eng sara so‘zlar bilan erkalashi va farzandiga atalgan eng ezgu va samimiy tilaklari ifodalangan:

Oyning shu’lasi suvda,
Hamma narsa uyquda.
Mehrim tovlanib ketib,
Kuylagim kelar juda.
Uxla qunduzim, alla.¹

¹ Зуннунова С. Танланган асарлар. Т., 1976. I-

² Саида Зуннунова Танланган асарлар Т., 2001, 64-бет.

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 29-бет.

Ha, ona uchun dunyoda farzandidan ham azizroq inson yo‘q. Ona farzandi uchun har narsaga tayyor. Uning har bir buyrug‘i onalar uchun qonun. Farzandi nima qilmasin, onaga bular noto‘g‘ri bo‘lib tuyulmaydi.

Aksincha, farzandining bilib-bilmay qilgan hatti-harakati onalarga bir olam shodlik baxsh etadi. Boisi farzandining beg‘uborligi, pokligi onaga kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Saidə Zunnunova “Yana qizimga” she’rida quyidagilarni yozadi:

Bolangiz juda ham tantiq, deb ba’zan,
Tanish-bilishlarga qilardim ta’na.
Bu baxt mashaqqati oldida endi
O‘zim boshim qotib turibman, mana.
Hali tili chiqmay, buyruqlarini
Shuncha o‘tkazadi bu erka qizim.
Bilmay ham qolamiz ba’zan qo‘liga
O‘tib qolganini oila izmin.
Mana, ko‘tar deydi, ko‘zida yoshi yo‘q,
Yig‘lab talpinadi ko‘zimga boqib,
Ko‘ksimga bosaman, qo‘yib ishimni,
Yolg‘on yig‘iga ham bag‘rim tutaqib.
Yolg‘ondan bo‘lsa ham yo‘q, yo‘q, yig‘lama,
Bir tomchi yosh ko‘rmay ko‘zingda, qizim.
Umringga yuz bahor zamondosh bo‘lsin,
Kelaqol, ko‘taray baxtim, azizim.

Lekin farzandini shunchalar ardoqlagan, suygan ona uning erka-tantiq bo‘lishini istamaydi. Shuning uchun ham qiziga nasihat qiladi. Bu nasihatda onaning qizining taqdiri haqida, uning kelajagi haqida naqadar qayg‘urishi, qiziga bor umid va ishonchini tikkanligi, qizi faqat onaning farzandi bo‘lmay, balki el-yurt farzandi bo‘lishi ham kerakligi, el koriga yarashi ham mujassamlashgan:

Mayli, erka bo‘lu tantiq bo‘limagin,
Yaxshi-erka bo‘lur doim eliga.
Yomon-erka bo‘lmas, ensa qotirar,
Yaxshi yog‘dek yoqar odam diliga.
Bilasanmi, qizim, bu koinotda
Onaning orzusi quchmagan baxt yo‘q.
Onaning hayoli yetmagan bo‘shliq,
Onaning hayoli to‘xtagan vaqt yo‘q.
Ana shu tinmagan orzu-o‘ylarim,
Mehnat, muhabbatim, mehrim haqiga-
Bir g‘ubor ko‘nmasin, desang, oppog‘im,
Erka bo‘l hamisha yurting, xalqingga.¹

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001й., 214-бет.

Saida Zunnunova nasriy asarlarining qahramonlari turli xarakterdagи xotin-qizlar bo'lsa, she'riyatidagi lirik qahramon barcha illatlardan hali barkamol ayol sifatida gavdalanadi. Bu holat shoiraning "Sen ham shundaymiding", "Uchrashuv onini kutib", "Qadrlasang insonligingni", "Ne istaysan deysan", "Sira chidolmayman", "Ko'zlariga singib ketar vujudim", "Seni menga yomon desa kim", "Yor keladi", "Uyqum qochib ketdi" kabi she'rlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, shoira "Uyqum qochib ketdi" she'rida baxtni shunday tasvirlaydi:

Sen tufayli men ishq,
Sen tufayli men baxt.
Yo'llarim ham tugab qolurdi sensiz.
Sen tufayli oqshom qo'yni to'la nur,
Sensiz orzularim, aqlim ham karaxt,
O'ylarim qanoti tolurdi sensiz,
Dilda borligingning o'zi bir huzur.

"Seni menga yomon desa kim" she'rining lirik qahramoni o'z sevgan kishisini dilda ardoqlaydi, hurmat qiladi. Bir umr u bilan birga yashashni, baxt zavqini totishni istaydi. Shu bilan birga o'z juftini balo-qazolardan, yomon ko'zlardan asrashga tayyor ayol obrazi. Shuning uchun ham lirik qahramon o'z sevgan kishisi haqida yomon fikr bildirishlarini istamaydi. Sevgan insonning nomus-ori, sha'ni uchun kurashishini o'z burchi deb biladi:

Seni menga yomon desa kim,
Kechirmayman bir umr uni!
Meni senga yomon desa kim,
Qaro bo'lsin ro'zg'ori, kuni.
Dilim andakkina g'ashlanib,
Chimirilib olganim uchun,
Diling angdakkina g'ashlanib.
Bir dam qovoq solganing uchun
Kechirmayman ularni hech vaqt!
Ular sevgi kushandalari,
Ular egov umrga, baxtga,
Kechirmayman o'shandaylarni,
Kechirmayman
Kechirmayman hech.

Saida Zunnunova yashab ijod etgan davda bor haqiqatni, ko'ngildagi gaplarni ro'y-rost aytishni iloji yo'q edi. Shu bois shoira she'rlarini ayrim o'rinlarida hayot haqiqatlarini nozik qochirmalar, ramzlar vositasida anglatishga urinishlar mavjud. "Qush" ozodlik g'oyasi ilgari surilgan majoziy manodagi she'r. Qafasda dunyoga kelgan qushcha ozod etilsa-da, uchib ketolmaydi. Chunki u osmon havosidan nafas olmagan, tor qafasni dunyo deb biladi.

Bir xayrli ish ishtiyoyqida
Achinish, mehr-la qafasni ochdim

Kechdim ko‘nglim yozgan qo‘shiqlaridan
 Shundan oladigan bahradan kechdim.
 Uvishgan qanotlar parvozga matal,
 Balki tushida ham ko‘rar osmonni.
 Kishanmas, hatto ip keladi malol,
 Bir marta ozodlik ko‘rgan insonga
 Uchishga yaralgan ojiz jonivor,
 Qani yoz chiroyli qanotingni bir.
 U bo‘lsa beparvo menga jovdirar,
 Go‘yo shu qafasga mixlabdi taqdir,
 O‘zi bosh chiqarib, o‘zi cho‘qiydi.
 Sho‘rlik ishonmasmi yo shuncha qo‘rroq?
 So‘ng pirillab ozgina joygacha uchdi,
 Lekin ketolmadi qafasdan uzoq.
 Uzoq ketolmadi, chunki shu qafas,
 Uni yo‘rgaklagan,tug‘ilgan shunda.
 Osmon havosidan olmagan nafas ,
 Totsaydi,simlarni parchalarmidi?

O‘zbek adabiyotida qush timsoli an’anaviy obrazlardan sanaladi. Zulfiyaning “Uzoqlarda sayraydi bir qush ” she’ridagi qush “qor qahriga isyon ko‘tarib” sayrashga, kuylashga intiluvchi bukilmas iroda ramzi bo‘lsa, Halima Xudoyberdieva she’riyatida qushcha obrazi baxt va qabohat, go‘zallik va yozuzlik, yorug‘lik va zulmat kabi manolarni yuklaydilar. “Qush” she’ri bilan Cho‘lpon qalamiga mansub “Qushning hadigi” she’rini qiyoslash qiziqarli xulosalarga asos bo‘ladi Saida Zunnovaning “Qush” she’ridagi qush esa mutelikda tug‘ilib o‘sgan va shunday yashashga o‘rgangan, o‘z erki uchun kurashmay taqdirda boriga ko‘nikuvchi insonning yoki butun bir xalqning ramziy obrazidir..

Cho‘lpon she’ridagi qafasga mahkum etilgan qush osmon havosidan simirib, erkinlikda ulg‘aygani tufayli tor va biqiq hayotga ko‘nikolmaydi, ozodlikka talpinadi. Biroq u qanchalik urinmasin, qafasdan ozod bo‘lolmaydi. Nihoyat, taqdirga tan beradi, uning ko‘m-ko‘k dalalarni o‘rmonlarni eslab-eslab yig‘lamoqdan, to‘lib-toshib sayramoqdan o‘zga chorasi qolmaydi. Adabiyotshunos N.Karimovning fikricha, “Cho‘lpon-kechagi somon parcha-shu qush timsolida o‘z taqdirini tasvirlagan edi”. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: Saida Zunnunova ham “Qush” she’ridagi qush timsolida Cho‘lpon singari o‘zini tasvirlamayaptimikan? Shoira tilga olgan qush balki Cho‘lpon qalamga olgan qushning qafasda dunyoga kelgan va ulg‘aygan avlodidir? Shoira salkam qirq yil avval ham ozodlikka talpingan qush haqida she’r bitilganidan xabardormidi ? Bizning fikrimizcha shoira otasi, o‘qimishli adabiyot muxlisi bo‘lgan Ergashboy Zunnunovdan Cho‘lpon va Hamza asarlari haqida ma’lumot olgan bo‘lsa kerak. Shundan kelib chiqib, otasi yosh shoirani Hamza bilan bir qatorda Cho‘lpon ijodi bilan ham yaqindan tanishtirgan, deb aytta olamiz. “Qushning hadigi” she’ri shoirada katta taassurot qoldirgan, yillar davomida xotirasidan saqlanib, qaysidir sabablarga ko‘ra “Qush”

she'rining yaratilishiga turtki bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Shu bilan she'rda ochiq-oynin istiqlol g'oyasi ilgari surilgan, degan fikrdan yiroqmiz. Lekin she'r yaratilgan 1963 yillarga kelib shaxs va ijodkor sifatida shakllanib ulgurgan shoira zamondoshlarining erksizlikdan bo'g'ilayotganligini anglab yetgan, hatto buni o'z taqdirida ham sinovdan o'tkazgan edi. Balki shu sababli u shaxs erkini kuylashga o'zida ehtiyoj sezdi, ochiqdan-ochiq erkka tashnalik, erksevarlikdan azoblanish ruhini singdirdi.

Saida Zunnunovaning atiga o'n qatordan iborat "Maysa nish uribdi" deb boshlanuvchi majoziy she'rida ariq bo'yicha nish urgan maysaning xuddi birinchi sevgi yangilik¹ beg'uborligi, quyoshga talpingan qiyoslarida ham ilk sevgining soddaligi mavjudligi nozik poetik til bilan ifodalanadi. Maysa hali yozning jazirasi, kuzning to'zonli shamollari ne ekanini bilmaydi. U hayotni ariq suvining shildirashi-yu ko'klam oftobining huzurbaxsh iliqligi deb biladi:

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,
Birinchi sevgidek biram beg'ubor.
Quyoshga talpingan qiyoqlarida
Birinchi sevgining soddaligi bor.
Ko'rmagan saraton oftobini yeb,
Kuzning to'zonlarin mutlaqo bilmas.
Bulut ko'z yoshidan taltayib, ishq deb,
Bahor yellariga yuz tutadi mast
Maysa nish uribidi ariq bo'yida.
Birinchi sevgida biram beg'ubor...¹

Bizning fikrimizcha, bu yerda maysani ta'riflashdan maqsad unga nisbatan o'quvchida muhabbat uyg'otish emas. Maysa hali hayotning achchiq-chuchugini totib ko'rmagan, hamma narsada faqat go'zallik va yaxshilikni ko'rvuchi g'o'r qalb egasining ramziy obrazi. Inson katta hayotga qadam qo'yar ekan, unga olamdag'i barcha narsa go'zal yoki xunuk, atrofidagi insonlar esa birdek oljanob yoki jirkanch bo'lib ko'rinadi. Chunki u hayotda go'zallik bilan xunuklik, oljanoblik bilan jirkanchlik yana qancha-qancha sifatlar uchrashidan, dunyo sinoat va murakkabliklar asosiga qurilganidan bexabar, dastlabki taassurotlarini mutloq haqiqat sifatida qabul qiladi. Shu bois shoira uni maysaga qiyoslab, birinchi sevgining soddaligini, beg'uborligini nisbat bermoqda. Tanqidchining e'tiroziga sabab bo'lgan ikki misrasiz she'r juda g'arib, unda ifodalanayotgan fikr ham to'mtoq bo'lib qolardi. She'r avvalida badiiy niyatning sir saqlanishi, so'ng fikrda keskin burilish yasab, kitobxонни mushohada yuritishga chorlash shoira mahorati samarasidir. Tajribasiz yurak har qanday dil izhorini ishq deb qabul qilishi, o'tkinchi havasni chin muhabbat bilan, sururidan mast bo'lishi mumkin. Biroq she'r bu bilan tugallanmaydi. Punktuatsion o'zgarishini aytmaganda, she'r oxirida birinchi ikki misra aynan takrorlanadi.

Maysa nish uribdi ariq bo'yida,
Birinchi sevgidek biram beg'ubor...

¹ С.Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 82-бет.

Bu o‘rinda qo‘yilgan ko‘p nuqta fikrning tugallanmaganligini, yakuniy xulosa chiqarish kitobxon e’tiboriga havola etilganini bildiradi. Shu bilan birga, she’r ma’nosida ham serqatlamlilik vujudga kelganki, bu yerda gap faqat muhabbat haqida emas, balki umuman hayot ma’nosida ham borayotibdi. Qo‘llanilgan badiiy usul kitobxonni maysa saraton oftobi jaziramasiga kuzning yomg‘iri to‘zonlariga bardosh bera oladimi-yo‘qmi, degan saavollariga javob izlashga, uning kelgusi taqdiri haqida o‘ylab ko‘rishga undaydi, she’rning ta’sir kuchini oshiradi. Fikr oqimiga keskin burilish yashash yoki so‘nggi to‘xtamga kelishni kitobxonga qoldirish she’rning uzoq vaqt yodda muhrlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Shoira “Mashinka” she’rida gap faqat mashinka haqida emasligini, shoir qalbidagi iztiroblarni shunday ifodalaydi:

Jonsiz, hissiz, muzdek temir bo‘lmasang
So‘zlar haroratidan erib ketarding.
Bo‘xtonlar yozganda, bilmam, netarding
Jonsiz, hissiz, muzdek temir bo‘lmasang?
Shaqir-shuqur, tinmas bu ovoz tun-kun,
Osmonu zaminda so‘zlar kuyuni.
Biri childirasa hissiz kuyunib
Biri taraladi oftobdek mayin.
Shaqir- shuqur tinmas bu ovoz tun-kun,
Gazeta, kitoblar sonsiz lashkari.
Birida insonning ummon oshiqlari,
Biri shoshar tabassum bo‘lmoqlik uchun
Yaxshi ham temirsan muzdek va jonsiz...

Ushbu she’r ham kitobxonni o‘yga toldiradi, uni fikr-mushohada qilishga, ham ezgulik, ham yovuzlik va yomonliklar haqida fikrlashga chorlaydi. Eng muhimi, shoira xulosa chiqarishni kitobxonning o‘ziga qo‘yib beradi.

Bitmas-tuganmas ilhom va estetik zavq manbai bo‘lmish tabiat o‘ziga xos badiiy shakllarga kon poetik mo‘jizadir. Har bir ijodkor, xoh u yozuvchi bo‘lsin, xoh shoir, musavvir yoki bastakor bo‘lsin, tabiat qo‘sishlariga qulqoq tutib, o‘z tuyg‘ulariga esh sadolarni, ranglarni izlaydi. D.Quronov aytganidek, peyzaj lirikada tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir.¹ Demak har qanday tabiat manzarasi shunchaki tasvirlanmaydi, bu tasvir asosida ijodkor qismati, histuyg‘ular olami, uning muayyan ijtimoiy-estetik qarashlari yotadi. Tabiatni chin dildan sevgan pokiza qalbli ijodkorgina undan haqiqiy estetik zavq ola biladi.

Ana shunday tabiatni yuqori darajadagi estetik did bilan badiiy aks ettira olgan ijodkorlardan biri Saida Zunnunovadir. Agar Saida Zunnunova rassom bo‘lganda tabiat manzaralarini chizish bilan shuhrat topardi. Chunki shoira tabiatni shunchaki his qilmadi, balki uni muayyan poetik obraz va ramzlar vositasida idrok eta oldi, she’rlaridagi tasvirlangan manzara ramziy obrazga aylandi. Tabiatni jonlantirib, uning sirli qo‘sig‘iga badiiy shakl berdi, ya’ni tabiatdan olingan

¹ O’sha asar, 221-bet

tuyg'ularni misralarga ko'chirdi. Shoiraning bahor, yoz, qish, kuz shuningdek qor, yomg'ir, bog' – rog'lar vasfidagi she'rlari fikrimizning isbotidir. Shoiraning "Bahor", "Bahorni qarshilab", "Bahor she'ri", "Bahor keldi", "Kuz", "Yomg'ir shovillarydi", "Tomchilar", "Yoz", "Qish", "Qor yog'ar" kabi she'rlari shular jumlasidandir.

Bahor, tabiat mavzulari shoiraning eng sevimli mavzularidan biri edi. Bahor haqida Saida Zununovachalik ajoyib misralar bitgan ijodkor kamdan-kam topiladi. Shoira chin ma'noda bahor va baxt shaydosi edi. Buni shoirning "Bahor" she'rida ham ko'rish mumkin:

Husningning menchalik shaydosi yo'qdir,
Menchalik to'yagan gadosi yo'qdir.
Ko'kda o'yin qilgan sho'x qaldirg'och ham,
Yaxshilik yugirgan ham o't, og'och ham,
Bo'tana suvlarning yuzidagi gul,
Qirdagi lola-yu, tog'dagi sunbul
Qalbimga soladi rashksimon tuyg'u,
Qalbimga soladi rashksimon g'ulu.

"Bahorni qarshilab" she'rining esa lirik qahramoni shoiraning aynan o'zidir. Ushbu she'rda shoira bolaligi o'tgan tabiatni tasvirlaydi. Somonli shuvoq qilingan tomlarda bahor kezlari ko'rpadek ochiluvchi lolaqizg'aldoqlar, feroza osmon, latif xush bo'ylik sochpopuk, o'rik shoxlaridagi arg'imchoq, anhor labidagi yalpiz kabi detallar shoiraga beg'ubor yoshlik onlarini esga soladi.

Muncha chiroylisan, fusunkor bahor,
Munchalar qalblarga sirdosh, hamohang,
Bola chog'imda ham etardi maftun,
Sendagi go'zallik, alvon turli rang.

Saida Zunnunovaning "Bahor" turkumidagi she'rlari yoshlik va baxt navolaridan kuylasa, "Yoz" she'rida esa fasllarning tadrijiy ravishda almashinishi, tabiat hodisalarining ketma – ket ro'y berishi barobarida hayotning ham davom etayotgani tasvirlanadi.

"Kuz" she'rida shoira Vatanning tabiatidan lol qoladi. She'rdagi lirik qahramonni kulrang tog'lar etagidan asta ko'tarilayotgan quyosh ham, paxtazordagi qaynoq, serzavq mehnat ham, yo'lga tushgan "oq oltin" karvoni ham, har gul, har yaproq bo'yog'i ham maftun etadi. Shoira atrofiga termulib, go'zallikni ko'radi. "Kuz" nomli yana bir she'rida esa quyosh o'tida sarg'aygan, yashash umidini tark eta olmayotgan barg orqali inson umrini, tiriklikni tasvirlaydi.

Chirt etib uzildi oltinsimon barg,
Kuz, dedim, rangiga termilib ma'yus,
Yo'q, dedi, yo'q, shoir, undaymas afsus,
Yashash umidini etolmasdan tark

Shoiraning 1962-yilda yaratilgan "Tomchilar" she'rining lirik qahramoni tabiat musaffoligi haqida yurakdan qayg'uruvchi jonkuyar inson. U tabiatning musaffo bo'lishini istaydi. Tabiatga qo'ngan har bir gardni kipriklari bilan supirishgada tayyor tabiat shaydosi.

Ey, billur tomchilar, sizlar qay yoqdan,
Qay yoqlardan kelding, aytgin, aziz qor?
Chindan shaffofmisiz, chindan oqmisiz,
Atom zahrasidan yiroq, pokmisiz?

Saida Zunnunovaning “Qor yog’ar, qor yog’ar biram xushhavo” deb boshlanuvchi she’ri orqali qish faslining o’zgacha poetik tasviri ko’z oldimizda namoyon bo’ladi. Shoira qishdagi havoning sofligi tanga davo ekanligini ta’kidlaydi. Shoiraning qish havosidan zavqlanishi kitobxon ko’ngliga ham estetik jihatdan ta’sir etadi. Saida Zunnunovaning poetik olamida tabiat hodisalari boshqa shoirlarda takrorlanmagan holda yuzaga chiqadi:

Daraxtlar shoxida, bo’g’otlarda qor,
Tarnovlar tishlagan novvotlarda qor.
Yuziga billurdan nafis to’r tutib,
Qor qo’ynida jimjit oqadi anhor.

She’rdagi tarnov chetidagi sumalakning novvotga o’xshatilishi va tarnovning sumalakni tishlab turishi o’ziga xos poetik topildiqdир. Anhor yuzasining yupqa muz qoplashini shoira “yuziga billurdan nafis to’r tutgan” deb ifodalaydi. Mazkur she’rda tabiat hodisalari lirik qahramonning ko’tarinki kayfiyati bilan uyg’un holatda berilgan.

SHoira Saida Zunnunova lirik she’rlar yaratish bilan birga “Sodiq va Anor” (1947), “Xayrixon” (1949), “Ruh bilan suhbat” (1966), “Qo’shnilarim” (1968) kabi dostonlar ham yozdi.

Saida Zunnunovaning davri va taqdirlar oynasining aks ettiruvchi uchunchi dtoni “Ruh bilan suhbat” deb nomlanadi. SHoira bu dostonning ustida uzoq yillar o’ylab yurdi, qalbida pishitdi va bir hafta mobaynida qog’ozga tushirdi.

Shoiraning “Ruh bilan suhbat” dostoni mavzu jihatidan Mirtemirning “Surat”, Erkin Vohidovning “Nido” dostonlariga o’xshasa-da, shoira tasvirida, obraz yaratish va qahramonlarning ichki kechinmalarini berishda o’ziga xos yo’ldan boradi. Ona taqdirida o’z validasining, qolaversa, xuddi shunday qismat boshiga tushgan o’zi tanigan va yaqindan bilgan ayollarni ko’radi.

“Ruh bilan suhbat” dostoni to’y oqshomidan keyingi holatning quyidagicha tasviri bilan boshlanadi:

Odamlar tarqalgan allaqachonlar,
To’yxonaga ham hukm o’tkazgandi tun.
O’choqda kul bosgan cho‘g’lar millatlar,
Samovardan hamon o’rmalar tutun.
Mashshoqlar o’tirgan so‘ri ham bo‘m-bo‘sh,
Tuproqda eng so‘nggi raqqosa izi.
Birov karavotda uxlaydi pish-pish,
Birov muzdek suvda chayadi yuzin.
Faqt uyqu kelmas ona ko‘ziga.
Shodligu xotira qalbini qamrab,
Behush ergashtirib izidan uni.
O’tkazmay, yotkizmay yurardi sudrab.

Qarashmoqchi bo‘lar goh singlisiga,
Goh turib qoladi hayolchan, sokin
G‘ohi kelgan kabi hushi-esiga,
Entikib atrofiga qaraydi sekin.

Ushbu satrlarni o‘qigan kitobxonda “O‘lini o‘ylagan bo‘lsa. Kelin olishday ezgu niyati ushalgan bo‘lsa. Onaga yana nima kerak? Nega uning qalbi bezovta?” degan savollar tug‘iladi. Shoira onaning o‘g‘li va kelinini “Qo‘shaloq kaptardek ahil va inoq, shu uyga fayz berib yashasalar bas” deya tilak bildirishi bilan birga ayolning qalbidagi armonlar haqida “Shu orzu, ovunchda umri o‘tdi toq” deya, ayolning taqdiriga ishora qiladi.

So‘ngra stolda turgan guldastani olib ayol uyga kirib, to‘rida turgan suratning yoniga kelib gulni qo‘yadi va hayolga cho‘madi:

Sarupo kiymading qaynota bo‘lib,
Hech yo‘qsa, gullardan bo‘lgan bahramand.
Odam keldi bugun hovlingga to‘lib,
Farzanding yoniga qo‘sildi farzand. . .
Shodlik, o‘kinchdanmi ko‘z yoshlar oqdi,
Ona qalbi so‘zsiz chekardi fig‘on.
Xira ko‘zlar bilan yana suratga boqdi,
U hamon o‘shanday,sukutda hamon.

Saida Zunnunovaning “Ruh bilan suhbat” dostoni lirik doston bo‘lib, alohida bir oilaning urush tufayli chekkan musibatlari haqida. Lekin muallif ana shu birgina oila taqdiri misolida butun xalq, balki xalqlar boshiga tushgan kulfat, alam va iztiroblarni jonlantiradi. Urush millionlab kishilar umriga zomin bo‘lgani, insonlar qalbiga tunganmas qayg‘u solgani, mangu armon urug‘ini ekkani qalamga olinadi. Axir ana shu sovuq urush tufayli ne-ne alp yigitlarning umri hazon bo‘ldi. Minglab xonadonlar yaqinlaridan ayrilib. Yuzlab bolalar otasiz qoldi. Kimdir akasidan, yana boshqa birov esa sevikli yoridan ayrildi. Jangdan qaytgan yigitlarning ko‘pchiligi esa mayib-majruh, nogiron bo‘lib qaytdilar.

“Ruh bilan suhbat” dostonida ayol urushdan qaytmagan umr yo‘ldoshining ruhi bilan unsiz suhbat quradi. Ana shu suhbat asnosida qahramonlarning o‘tmishidan, tahlikali va og‘ir davr dramalaridan, insonlar qalbida qolgan bitmas jarohatlardan voqif bo‘lamiz. Adabiyot tarixida asar qahramonilarini ruh yoki arvohlar bilan hayolan muloqotga kiritish, shu usulda muallif niyatini to‘laroq ochishga urinish usuli ko‘p uchraydi. Chunonchi Shekspirning mashhur “Gamlet” tragediyasida qahramon va otasi, Fitratning “Abulfazxon” fojeasida Abulfazxon va Hayol, Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” fojeasida Ulug‘bek va Amir Temur ruhi o‘rtasidagi suhbat asar g‘oyasini yoritishda muhim o‘rin egallaydi. Bunday asarlarda, bir jihatdan, qahramon xuddi o‘z vijdoni oldida hisobot berganday dardu hasratlarini o‘sha ruh timsoli bilan o‘rtoqlashadi, ikkinchidan, ruhning qahramonga bergen daldasi uning kelgusi hayotiga muayyan ta’sirini o‘tkazadi.

Saida Zunnunova ham “Ruh bilan suhbat” dostonida shunday usulni muvaffaqiyatli qo’llay olgan. Buni quyidagi satlarda yaqqol ko’rishimiz mumkin:

Itni qopmaydi deb bo‘lmas, azizim,
Tushlaringga kirib, sergak bo‘l, deyman.
Odamlar! Dog‘ surtmang aql yuziga,
Dunyoning umriga tirak bo‘linglar.
Qachon urush oti o‘chsa olamdan
Ona tuproq ichra uzatib oyoq,
Xotirjam bo‘larkan avlod, bolamdan,
Xayol-xotirangdan ketmay yiroq.¹

Bu doston yaxshilik syujeti chizig’iga ega emas. Balki ona va sobiq jangchining xarakterini, ruxiy holatlari, ichki kechinmalari alohida – alohida tasvirlangan pishiq lavhalardan tashkil topgan.

Bu lavhalarda hislar, tuyg’ular juda aniq, haroratli tasvirlangan. Undagi realistik detallarda falsafa, turmush, psixologiya, davr, tabiat, hozirgi kun yorqin ifodalangan. Dostonda ona va sobiq jangchining yoshligi, hayot yo’li, urush tufayli onaning boshiga tushgan azob – uqubatlar, og’ir sinovlar va nihoyat, onaning ma’naviy go’zalligi tasvirlangan. Bu doston onaning nidosi uning yetuk o’y – fikrlarini ifodalagan monologidir. Dostonda urush yillari ko’pgina ayollar qatori zavodga ishga kirgan onaning qalbi, farzandiga mehr – muhabbat, Vatanga sadoqati oilaga munosabati, tinchlikni olqishlari, kelajakka umid bilan qarashi tasvirlangan va o’zbek ayolining bukilmas irodasi ulug’lanadi. Saida Zunnunova hayotni yaxshi bilgani, chuqur idrok etgani uchun ona timsolini ayollarga xos nozik nafosat bilan tasvirlaydi:

Suratda hali ham o’sha – o’shasan,
Hamon ko’zlarinda yoshlik, kulgi, nur
Hali ham o’shanday chiroyli, yoshsan
Hali ham o’shanday zabardast, mag’rur
Boqishing hali ham o’shanday iliq
Dilingda nelar bor aytmaysan faqat
Qatra ko’z yoshimga turolmasang tek,
Nega indamaysan, oh surat, surat!
Bir nafas tilga kir, mayli bir sekund
Bir nafas tilga kir, mayli bir sekund
Daryo bo’lib oqqan yoshlarim haqqi,
Kuyingda ming toshga urilsa hamki,
Ming toshdan qattiqroq boshlarim haqqi
Bir nafas tilga kir mayli bir sekund.

Dostonda insonning go’zal qalbi va ruhining murakkabligi real tasvirlangan. Asarda tasvirlanishicha, ulug’ Vatan urushi frontlarida ota halok bo’ladi. Dostondagi har bir detal, har bir so’z asar g’oyasining badiiy ifodalanishiga, ona xarakterining shakllanishiga xizmat qiladi. Asarda lirik chekinishlar doston

¹ Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., 2001 й., 223-бет.

husniga husn qo'shgan, orginal badiiy bo'yoqlar orqali psixologik mosentlar ohib berilgan. Ona timsoli tipik, yorqin xarakter darajasiga ko'tarilgan. Dostonning tili shirali, xalq tiliga yaqin. Asardagi ajoyib badiiy xarakterlar asar tilining rangdor, jozibador, boy va obrazli chiqishini ta'minlagan. Dostonda inson ruhining butun murakkabligi ishonarli tasvirlangan. Insonlarning Ulug' Vatan urushi yillarida front orqasini mustahkamlashdagi qahramonliklari, o'zbek xalqining boy ma'naviy ichki dunyosi, sof sevgi ulug'langan, sevgiga sadoqatli bo'lism g'oyasi kuylangan. Urush davrida fashistlar tufayli kishilarimiz boshiga tushgan azob – uqubatlar, hali hayot zavqidan qonmagan yigitlar, otalar yostig'ining qurilishi oilaga qanchalik katta kulfatlar keltirgani dostonda hayajonli tasvirlanadi. Kelajak avlod baxtiyor umr kechirishi uchun dunyoda mustahkam tinchlikni barqaror etish g'oyasi kuylanadi.

Asardagi har bir epizod, har bir detal, har bir so'z asar g'oyasining badiiy ifodasiga, ona xarakterining shakllanishiga xizmat qiladi. Asarda lirik chekinishlar, xarakterlarning harakatda berilishi, orginal badiiy bo'yoqlar orqali psixologik momentlar chuqurlashtiriladi va ona timsoli yorqin xarakter darajasiga ko'tariladi.

Ona va sobiq jangchining ruhiy holati, kechinmalari kishini hayajonga soladi. Urushga, uning targ'ibotchilariga la'natlar bo'lsin, mustahkam tinchlik doimo barqaror bo'lsin deb hayqiriq keladi.

Yetimlik ham gapmi, shu murg'ak jonlar
Ko'ksimga beayov otishgan – ku o'q,
(Jonindan aylanay, oq bolajonlar!
Unitib bo'larmi u kunlarni? Yo'q!)
O'ziga niqtalgan to'pponchani ham
O'yinchoq deb bilgan mitti qo'lchalar,
SHalpayib tushganda qanchalar alam
Aytchi bu alamlar qanday o'lchanar,
Murda ko'kragini beparvo surib
Ingragan go'dakni ko'rghanmisan xech
Dostonda halok bo'lgan ota surati:

- urush bor ekan, unga orom yo'qliigni aytadi:

Itni qopmaydi deb bo'lmas, azizim,
Tushlaringga kirib, sergak bo'l, deyman
Odamlar! Dog' surmang aql yuziga
Dunyoning umriga tirkak bo'linglar
Suratning xitobi javoban kuni
Kechagina Toshkentda Xindu – Pokiston
Tilu – dil topishganini aytib,
Sizlar yuosh qo'ygan bu qutlug'
Tuproqni xo'rlasak yoki bersak birovga
Bo'lginimiz yaxshi o'zimiz ham xok." Deydi.

Asardagi voqealar kishini hayajonlantirib, uni turli ruhiy holatlarga soladi. Shunisi, xarakterlikni, asar voqeasi kelajakka umid, optimistlik ruh bilan tugallanadi.

Musicha ku-kulab, bulbul sayraydi,
Oynadan nur tushdi ona yuziga
Nurga o'ralganday yashnab, yarqirab,
Kelini jilmayib turar qoshida

Shoira onaning nutqiy xarakteristikasini yaratish ustida qund bilan mehnat qilgani sezilb turadi. Shu bilan birga u ona timsoli tilini individuallashtirishida so'z boyligidan yaxshi foydalangan.

Dostonda ishlatilgan badiiy tasvir vositalari ham asar voqealarini yaxshiroq ifodalash, xarakterlarni yorqinroq ochishga yordam beradi. Urushda halok bo'lgan umr yo'ldoshini axtargan sadoqatli yorning harakati quyidagicha tasvirlanadi:

Daryo bo'lib oqdim, ko'sh bo'lib uchdim
Xuzuringga chopdim takror va takror
Juda ham notinchmiz, juda notinchman,
Qanday orom olay yer ko'rpasida
Suv, osmon, avlodim tursa betma – bet,
Hayotu o'limni qoq o'rtasida,

Mana bu poetik parchada tinchlikka tahdid solayotgan mamlakatlar tufayli faqat tiriklik emas, balki o'liklar ham orom ololmasligiga o'xshatish haqqoniy chiqqan:

Kelin ham o'zg'liday unga arzanda,
Bir aziz mehmonday kutadi hali.
Qo'shaloq kaptardek ahil va inoq
SHu uyga fayz bo'lib yashasalar bas.

Bu o'rinda kelin ikki aziz qo'shaloq kaptarga o'xshatiladi. Bunda ko'rinish turibdiki, shoiramiz hozirgi kunda ham aktual masalalardan bo'lgan qaynona – kelin munosabatiga ham o'z munosabatini bildiradi. Keliniga "o'zganing farzandi" emas, balki, o'z farzandi deya nigoh tashlaydi. "Qo'shaloq kaptarlar unga hamisha baxt hadya etadi. Onaga bundanda ortiq baxt bormi axir!

Muallif tanlagan mavzu muallifning o'zi onalar qalbini yaqindan bilganligi tufayli asar muvaffaqiya qozongan. Saida Zunnunovaning "Surat bilan suhbat" dostoni – inson ruhiy dunyosi, ona qalbi, urush va tinchlik, kelajakka umid, Sof sevgi va unga sadoqvat haqidagi g'oyaviy – puxta asar bo'lib, o'zbek dostonlarining yaxshi namunalaridan biridir.

Hikoya janri taraqqiyotiga Saida Zunnunova ham o'ziga xos hissa qo'shdi. So'zlarga hassoslik, siqqlik, tabiiylik, yasama – sun'iy obrazlardan qochish Saida Zunnunova hikoyalarining husnidir. Uning hikoyalarida ma'naviy poklik tabassum qilib turadi. Uning qahramonlari ma'naviy poklikdan olamga yashnagan bir chehra bilan boqadilar, poklik ularning hayotiga fayz, farog'at, dillarga osuda, o'zgarmas, xiralanmaydigan bir ravshanlik bag'ishlaydi. Adibaning "Gulbahor" (1956), "Do'stlik" (1960), "Qanoat" (1961), "Olov", "Ko'chalar charog'on" (1965), "Buyrlaringdan o'rgilay" (1972), "Chakak" (1973) to'plamlaridagi hikoyalar fikrimizning dalilidir.

“Ko’chalar charog’on” hikoyasidagi Gulnora shunday insoniy poklikni og’ir sinovlar ichidan olib o’tgan, uni muqaddas tutgan, gard yuqtirmagan va shuning uning uchun ham oqibatda chinakam nash’ali hayotga erishgan.

“Baxt” deb atalgan hikoyadagi keksa muallima Oysha xoladan kishilarga yaxshilik meros bo’lib o’tgan va shu meros qolgan yaxshilik uning hayotini toza bir shu’la bilan to’ldirib turadi.

Saida Zunnunova hikoyalaring mavzusi boy va rang – barang. Uning hikoyalarda zamondoshlarimiz mehnatini tasvirlashga alohida e’tibor beriladi, mehnat kishisi timsoli yaratiladi, insoniylik ulug’lanadi. Insonga ishonch bilan qarash, eskilik sarqitlariga qarshi kurash va yangilikning g’alabasini tasvirlash, sevgi va oila, urush va uning oqibatlari, tinchlik madhi, dunyoda eng ulug’ ona va uning qalbini kuylash adibaning sevgan mavzularidandir.

Saida Zunnunova mehnat mavzuiga bag’ishlab bir qancha hikoyalalar yozdi. U zamondoshlarimiz hayoti va xarakaterini mehnat, ishlab chiqarish jarayonida ko’rsatishga alohida e’tibor berdi. Insonning mehnatdagi go’zalligini mehnat tufayli baxtga erishganini tasvirlashda adibaning “Baxt”, “Qo’llar”, “Ko’ngil”, “Qaldirg’och”, “Qaytish”, “Rashk”, kabi hikoyalari o’z mazmuni, badiiy tasviri, esda qoladigan obrazlari bilan diqqatga sazovardir.

“Qo’llar” hikoyasida adiba urush kishilar boshiga naqadar ko’p falokat keltirganini tasvirlaydi. Shu bilan birga, asarda qahramonning mehnat tufayli baxtga erishgani aks ettiriladi.

Hikoyadagi to’y qilib kelin tushirib olgan Malika xola onaning psixologik holatlari, ko’rgan bilganlari, eng yaqin kishisini sog’inib qo’msash paytidagi ruhiy holati o’g’li va keliniga yurakdan aytgan so’zlari hayojonli chiqqan. Urush yillarida Malika xola zavodda ishladi, eridan qora xat kelganida ham ishchi dugonalari, opa-singillari unga hamdard bo’lishdi. U hamma vaqt erining xotirasini hurmat qilib yashaydi, yoshligini, butun umrini uning xotirasiga bag’ishlaydi. Ona o’z o’g’lini ana shu mehnatkash qo’llari bilan yediradi, kiydiradi, voyaga yetkazadi va nihoyat to’y-tomosho qilib kelin tushiradi.

Asardagi bosh qahramon Malika xola o’zining mehnatsevarligi, oilasiga sadoqati, farzandiga mehr – muhabbat bilan o’zbek ayollarining tipik timsollari darajasiga ko’tariladi.

Malika xola kelinining qo’liga uzuk taqar ekan, “ . . . ziynat uchun emas, hurmat uchun taqing, qo’llaringiz mening qo’llarimdek mehnatkash, halol bo’lsin” – deydi. Bu so’zlar asar g’oyasini ochishda katta ahamiyatga ega.

Asarni o’qigan kitobxon inson baxti uchun qayg’uradi, mehnat baxt keltirishini, uning ulug’ligini yana bir bor his etadi, urushga qirg’inliklarga la’nat o’qiydi, tinchlik uchun kurashayotgan millionlar safiga qo’shiladi.

Adiba hikoyalidagi qahramonlar uchun ijtimoiy mehnat zaruriy ehtiyojga aylanadi. Mehnat ular uchun quvonch, tinch-totuv yashash, o’z baxtini topish manbaidir.

Hozirgi davrda insonning ma’naviy boyligini, uning qalbini, vatanga muhabbat, sevgiga sadoqat bilan qarashini, yoshlari harakatining shakllanishi

yo'llarini tasvirlash katta extiyotik – tarbiyaviy ahamiyatga ega. Buni chuqr anglagan adiba Saida Zunnunova bu mavzuda ko'pgina hikoyalari yozdi.

Uning "Qanoat", "Ko'ngil", "Bahor kunlarida", "Mehr", "Ikkinchchi xotin", "Uzilgan muhabbat ipi", Chinnigul" va boshqa hikoyalari sevgi va muhabbat va mehr – oqibat mavzusiga bag'ishlangan.

"Qanoat" hikoyasida muallif urushda Stalingrad janglarida bir oyog'idan ajralgan Arslonning gospitaldag'i ichki kechinmalari mohirlik bilan tasvirlangan

Arslon uzzukun hayol suradi-yu, o'yining oxiriga yetolmasdi, xotini uning nomiga, yarashgan jismiga, keng yelkalariga zimdan muhabbat bilan termuladi .Buni Arslon yaxshi bilardi, Endi-chi! Rang-ro'yi ketgan, bu ham yetmagandek, qo'lтиqtayog'ini do'qqillatib kirib borsa, u qandoq ahvolga tushadi. Yana bu oyoq iligidan, yo tizzasidan qirqilgan bo'lsa ham mayli edi, yo'q, butunlay yo'q. Endi nişa qiladi ? Ish -chi ? U usta edi -ku ?

Hikoyada xarakter yaratish badiiy asarning eng asosiy shartlaridandir. Yozuvchi qahramonning ichki kechinmasi, tasvirlayotgan voqeadan olgan taassurotini ustalik bilan ifodalaydi.

Hikoyada gospitalda yarador yotgan Arslonning holati real tasvirlanadi. "Juftlashib qolgan kipriklari zo'rbazo'r ajraladi-yu, xira parda orasidan unga termulib o'tirgan xotinining mehribon chehrasi ko'rindi.

Bu chehra uning butun es-hushini o'ziga qaytaradi. Tili gapga kelmadni, majolsizlik bilan yana ko'zlarini yumdi. Xayol haligi xira pardani ko'tarib tashladi-da, xotinini unga yaqinroq olib keldi".

"Vafo" hikoyasida hayotimizda hozirda ham kam uchraydigan, insonlarda o'ziga nisbatan hurmat uyg'otadigan inson haqida tasvirlangan, ko'zlar chuqr qayg'uga to'lgan, muhabbatidan ayrilgan qo'lida yolg'iz farzandi bilan qolgan ota haqida so'z ketadi. Yolg'iz erkak – ota o'z ayoliga hamisha hurmatda, o'z sevgilisiga sadoqatda bu dunyodan o'tadi.

"Bo'ylaringdan o'rgilay" hikoyasidagi Tojixon esa chinakam vafo egasi Jo'ra akasiga va'da bermagan bo'lsada, uni yurak-yurakdan kutib yashaydi. O'zi yolg'iz qolishini his qilsada., vaqtinchalik hoyu-havvasga berilmaydi, balki sadoqat bilan sevgilisini kutadi.

Saida Zunnunova o'z badiiy mahoratini tabora oshirib bordi. Bu sohada mohir navelist A.P. Chexovning, badiiy so'z ustasi Abdulla Qahhor asarlarini qunt bilan o'rgandi, kichik hikoyalari yozish sirlarini o'rgandi. Va bu albatta o'z samarasini berdi. Adiba ilk hikoyalarida oilaviy munosabat, kelishmovchiliklarni tasvirlash orqali yangiliklarning eskilik ustidan ustun kelishini ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yillardagi hikoyalarida mehnat va baxt sevgi va burch, muhabbat va oila , ona va oila guli farzand; insoniy go'zallik, millatlar do'stligini asosiy mavzu qilib oldi. Bu Saida Zunnunovaning bir hikoyasidan ikkinchisiga zanjir bo'lib o'tadi.

"Go'dak isi", "Ona bag'ri", "Qizposhsha" hikoyalarida dunyoda eng mo'tabar zot-onalarimizning ajoyib qalbi, issiq mehri, ichki kechinmalari zo'r mahorat bilan tasvirlangan.

Saida Zunnunova o'z hikoyalarda o'zbek ayollari qalbining nozik tomonlarini olib beradigan Sanobar ("Qanot"), Oysha xola ("Baxt"), Munis xola ("Ona bag'ri"), Marziya xola ("Qizposhsha"), Qanoat buvi ("Umr hisobi"), Tojixon ("Bo'ylaringdan o'rgilay"), Kimsan buvi ("Qaynona") singari to'laqonli timsollarni olib kirdi.

"Umr hisobi" hikoyasini o'qigan chizgan Qanoatbuvgiga achinish hissi uyg'onadi . . . Boylik vaqtincha topilgan pullar bari sarobligi, ulardan ko'ra halol mehnat, insoniy qadriyatlar muhim ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi.

Saida Zunnunova o'z hikoyalarda oila hayotining g'oyatda nozik tomonlarini olib tasvirlaydi. Ularda zamondoshlarining va ayniqsa, yoshlar hayotining, ma'naviy dunyosining har jihatdan ibrat bo'lувchi masalalarini ko'taradi. Bu jihatdan adibaning hikoyalari o'zbek adabiyotida alohida mavqeda turadi, alohida badiiy va g'oyaviy ahamiyat kasb etadi.

"Qaynona" hikoyasida kelin va qaynonalarga iliq munosabatda bo'ladi. Gulchehra timsolida yangi kelinlar ko'nglidan o'tadigan, qaynonalarga nisbatan cho'chib boqish, qaynonaning har bir harakatiga hadiksirash bilan qarash tasvirlansa, uning qaynonasi Kimsanbuvi obrazi esa oq ko'ngil, mehribon, ziyrak, dilkash, barcha kelinlariga birday sevimli bo'lgan qaynona timsolini yaratadi.

Yozuvchining "Qaldirg'och", "Qon-qarindoshlar" deb atalgan hikoyalari ham yaxshilikning abadiy o'chmas izlari haqida yozilgandir. Yozuvchi hayotda yaxshilik izsiz yo'qolmaydi, u o'zi bilan izma-iz ertami-kechmi yangi bir yaxshiliklarni boshalab keladi, yaxshilik esa insonda axloqiy yetuklikdan tug'iladi, degan qarashga amal qiladi.

Insonlik sha'nini baland tutish, odam qadrini yerga urmaslik yozuvchining "Olov qiz", "Gulbahor", "Birinchi qadam", "Uzilgan ip" hikoyalarda o'ziga xos soda, lekin hayotiy, jonli voqealar orqali ko'rsatib beriladi.

"Uzilgan ip" hikoyasida Marg'uba Foziljoni halol mehnat qilib yashashga undaydi, qing'ir ish qirq yildan keyin bo'lsa ham ochilmay iloji yo'qligini aytib shunday deydi:

- Agar moyanangizga, mehnatingizga, shunaqa soat olib borsangiz bo'yningizga osilib rahmat aytardim, jon-jon deb taqardim.

Foziljon o'z yo'lidan qaytmasligiga qa'tiy ishongan Marg'uba bu uyni tashlab chiqib ketadi. Biroq Marg'uba o'z fikrlarini Foziljonga tushuntirish uchun, uni yo'lidan qaytarish uchun izchil kurashishi lozim edi, oiladagi bir to'qnashuvdayoq uning erinikidan ketib qolishi Marg'ubaning oilaga yengil-yelpi qarashidek tuyuladi.

Shu tariqa Saida Zunnunova o'z hikoyalarning tarbiyaviy tomoniga kuchli urg'u beradi. Uning hikoyalarda inson taqdirlaridan chuqur axloqiy xulosalar kelib chiqadi. Yozuvchi shunga ochiq intiladi.

Hikoya janrida qalamini qayrab olgan Saida Zunnunova yirik janrlarda ham asarlar yarata boshladi. Natijada «Yangi direktor», «Gulxan», «So'qmoqlar», «Olov», «Odamlar orasida singari qissalar maydonga keldi. Saida Zunnunova ham boshqa yozuvchilarimiz kabi o'z asarlarida davr muammolarini, zamondoshlarining qahramonligini, orzu-istiklarini, tuyg'ularini,

Vatan, xalq manfaati yo'lida hormay- tolmay ishlaganini, yuksak g'oyalar egasi ekanligini, muhim hayotiy materiallar asosida badiiy tasvirlashga harakat qilgan.

«Yangi direktor» qissasida Saodatxon adibaning to'laqonli ijobiy timsol aratishdagi katta yutug'idir. Asarda shahardan qishloq mакtabiga ishga kelgan Saodatxonning faoliyati tasvirlanadi. qishloq mакtabining yangi direktori Saodatxon hukumat bergen xaq- huquqini tushunadigan ayol. U eskilik qoldiqlariga, tushunchalarga qarshi keskin kurashuvi, mustaqil fikrlovchi printsipial, rostgo'y, oilada mehribon rafiqqa va ona faol jamoatchidir. Asarda erkin yashayotgan erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lgan o'zbek ayollarining jamiyatda tutgan o'rni, ayrim kishilar ongida saqlanib qolgan eskilik sarqitlariga qarshi kurash, yangilikning g'alabasi asosiy mavzu qilib olingan.

Asarda muallif Saodatxonning maktabdagi faoliyati, eski urf-odatlarga qarshim kurashini tasvirlar ekan, erkin turmush orqali voyaga yetgan ajoyib ayol timsoli ko'z oldimizda gavdalanadi.

Asarda yangi zamonning kuch- qudrati, kishilar ongida eskilik sarqitlariga qarshi kurash Saodatxon, Nodira, Salimova, mahbubaxon va boshqa timosllarda ko'rindi.

«Yangi direktor» qissasida Obidov, Ahmedov va Ro'zvon timsollari ham o'quvchi xotirasida saqlanadigan darajada tasvirlangan. Ruzvon ma'naviy qashshoq , uning hatti- harakatlari, gaplari tushunchasiga mos.

Saodatxon esa o'zining ishchanligi, olivjanobligi, mehribonligi, oiladagi burchiga sadoqatli, jamoaga oqilona rahbarlik qilishi bilan ko'pgina yaxshi qizjuvonlarimizning umumlashmasi bo'la olgan. Maktab Saodatxon uchun o'z oilasidek, o'quvchilar farzandlaridek sevimli. Uni har bir o'quvchining taqdiri qiziqtiradi. Maktab direktori har bir ota-onasi, har bir o'quvchi, har bir o'qituvchi bilan gaplashganda ularning qalbiga yo'l topa oladi.

Saida Zunnunovaning «Gulxan» qissasida o'zbek xoti-qizlarining 20-yillardagi hayoti, xotin-qizlar ozodligi harakati, ularning ochilishi, o'sishi, yangi hayot uchun yot unsurlarag qarshi kurashlari tasvirlanadi. Yozuvchi «Gulxan» qissasida o'zbek adabiyotining asoschisi H.H.Niyoziy an'analarini davom ettiradi. H.H.Niyoziy ijodi Saida Zunnunova kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Asarni varaqlar ekanmiz, bugungi ozod hayot osonlikcha bunyodga kelmaganligini, erkin hayotga erishish yo'lida olib borilgan kurash lavhalari ko'z o'ngimizdan o'tadi.

Qissada paranji yopinib yuruvchi, oq-qoraning farqiga uncha yetmaydigan sodda Adolatning hech qo'rqmaydigan jamoatchi, o'ziga o'xshash minglarcha ayollar taqdiri uchun, ozodlik uchun kurashadigan jasur qiz darajasiga ko'tarilishi ishonarli tasvirlangan.

Saida Zunnunovaning «Olov» qissasi o'quvchilar diqqatini o'ziga tortadi.

Qissada tasvirlangan voqeа Ulug' Vatan urushi yillarida bo'lib o'tadi. Adiba frontga ketgan erkaklarning o'rinalarini bosib, sabot-matonat bilan

ishlayotgan jonkuyar xotin -qizlar timsolini yaratishni bu qissada asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Adiba qissada urushning eng og'ir vaqtlarida ham o'zbek xotin-qizlarining ruhan umidsizlanmaganliklarini, dadil turib front uchun xizmat qilganliklarini, ularning ichki kechinmalarini quvonch, zavq va samimiyat bilan tarannum etadi.

Qissadagi Shirmonxon timsoli front orqasini mustahkamlash uchun sidqidildan mehnat qilgan, ko'pchilikka bosh bo'lган, ajoyib ayollarimizning tipik vakilidir. Hakimjon frontga ketganidan keyin kolxozchilar Shirmonxonni erining o'rniga rais qilib saylashadi. Ungacha Shirmonxon brigadir bo'lib ishlab el hurmatini qozongan edi. Ularning oilasiga qishloqdagilar havas qilishardi.

Muallif Shirmonxonni katta xo'jalikning jonkuyar rahbari, oqila va vafodor ayol, mehribon ona sifatida kitobxon ko'z o'ngida gavdalantiradi. Shirmonxonndagi avvalgi quvnoqlik o'rnini endi qandaydir jidiylik egallaydi. U avval xotinlarga quvnoq yashashni o'rgatgan bo'lsa, endi sabr-toqati bilan ularga ham o'rnak, ham hamdard edi.

Barcha ayollar qatori Shirmonxon ham erini, o'g'li Farhodni frontga kuzatadi. O'g'li Farhodni frontda halok bo'lganligi to'g'risida qora xatni olganida ham, farzand dog'ini ko'rsa ham o'zini yo'qotib qo'ymadni, ruhan tushmaydi.

Shirmonxonning Vatanga muhabbatni, dushmanga nafrati uning barcha ruhiy qiyinchiliklarini, og'ir musibatlarini yengadi. Mana shunday tashvishli kunlarda katta xo'jalikka rahbarlik qilishi, kolxoza kuch bo'lмаган, yigitlarning qaymog'i frontga ketgan damlarda ham ikkilanmasdan orol misol Sayxontepaga suv chiqarib, u yerdan qo'shimcha hosil olgan Shirmonxon jonkuyar rahbar, tadbirkor va oqila ayol sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi.

ni vafodor ayol sifatidagi obrazi esa yo'lidan adashgan Ashurxonga qilgan nasihatlarida aks etgan:

– Ashurxon,-dedi birdaniga sensirab,-o'zingning qanaqa yo'lga tushib qolganiningni bilyapsanmi, bundan keyin nima bo'laman deb xech o'ylab ko'rdingmi? Jang maydonida dushman bilan olishayotgan ering kelar, oilingga, uyingga qanday qaytishni o'layapsanmi? Jonini jabborga berib ishlayotgan, butun mashaqqatga chidayotgan xotinlar sha'niga dog' tushirishga qanday ko'ngling bo'ladi? Bizni, seni qo'riqlayman deb urushga ketgan eringning sof muhabbatini toptashga qanday hadding sig'di?

Adiba asarning bosh qahramoni Shirmonxon timsolini voqealar rivojida takomillashtiradi. «Odamlar orasida» qissasida Saida Zunnunova ikki xil toifadagi ikki xildunyoqarashga ega bo'lган kishilar xarakterini tasvirlaydi. Voqeа tog' bag'rida joylashgan bir qishloqda bo'lib o'tadi.

Meditina institutini tamomlagan Vasiliy Matveevich va Vera Ivanovna bilan olis qishloqda yashovchi mehnatkashlarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun kelishadi. Ularning birgina qizi bor. Vasiliy Matveevich xotini Vera Ivanovna o'z qarmoqlariga olgan Seryojani ham tarbiyalab voyaga yetkazadilar. U o'rta maktabni tamomlab, haydovchi kasbini egallaydi.

Seryoja Vasila ismli qizga ko'ngil qo'yadi. Biroq qiz bilan yigit ota-onalarining dunyoqarashlari ikki xil, Seryojaning otasi vrach, Vasilaning otasi Asqar dindor edi. Ular bir-birlariga oshkor dushman edilar.

Tibbiyotdan naf ko'rgan qishloq ahli bora-bora Asqar mulla dargohiga tobora kam boradigan bo'ladi. Daromadi kamaygan mullaning yildan-yilga alami orta boradi. U sakkizinchisinfni tamomlagan, balog'atga yetmagan qizi Vasilani erga bermoqchi bo'ladi. Qissada vrach Vasiliy Matveevich Asqar mullaga qarama-qarshi qo'yilib, oliyjanob kishilarga g'amxo'rlik, davlat va xalq manfaatini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yadigan ajoyib shaxs sifatida tasvirlanadi.

Saida Zunnunovaning prozaik asarlari turmushimizdagi muhim masalalarni qamrab olishi, yodda qoladigan timsollari bilan ajralib turadi.

Saida Zunnunova she'riyatiga sig'magan tashnalik va haqiqatparaslik uning nasriy asarlarida ham namoyon bo'ladi. Adibaning rostgo'y shaxsiyati u yaratgan hikoya va qissalarning personajlari tabiatiga ko'chdi. Ayniqsa, "So'qmoqlar" qissasi o'z davri hayoti muammolarini ro'y-rost yoritib bergen asardir. Qissa adibaning davr voqeligiga, ijtimoiy-siyosiy hayotga faol munosabati, undagi ziddiyatlarni teran idrok eta olganligi mahsuli. Asarda muallif e'tiborni asosan ikki masalaga qaratadi: birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzimning majburiy ravishda tadbiq etayotgan siyosati va uning ayanchli oqibatlarini o'zbek ayollari hayoti misolida yoritish bo'lsa; ikkinchisi ildiz otgan ko'zbo'yamachilik, poraxo'rlik, loqaydlik, o'z vazifasini suiste'mol qilish kabi illatlarni keskin qoralash, har qadamda uchrab turuvchi bu illatlarni fosh etishdan iborat edi. Adiba qahramonlarini keskin kurashlar asosida ko'rsatmoqchi bo'lib, jamiyatning asl basharasini ochib tashlaydi.

Qissada Sharq xalqlariga xos bo'lgan ayollik sha'ni, qadr-qimmati toptalayotgani, uning oqibatlari sifatida hayotda ro'y berayotgan fojealar ta'sirchan bo'yoqlarda berilgan. Yagona sho'ro xalqini yaratish siyosati qat'iy yurgizilayotgan davrda millatning qadriyatları, urf-odatlari, ming yillar davomida shakllangan axloqiy mezonlari yo'qolib borayotganidan xavotirini yashirmay dadil yozish Saida Zunnunovaning ijodiy jasoratidan darak beradi. Shu o'rinda Said Ahmadning "So'qmoqlar" qissasi haqida yozgan "Qatag'on qilingan qissa" deb yozgan so'zboshi o'rnidagi maqolasini keltirib o'tishni lozim topdik:

Ushbu qissa bundan qirq yil oldin yozilgan. Muallif Saida Zunnunova shu asari uchun ta'nayi-malomatlarga qolgan edi. Matbuotda, adabiy yig'inlarda, Saida farovon zamonimizga tuhmat qiluvchi asar yozgan, deb ko'z ochirmagan edilar.

Albatta, "So'qmoq" qissasini noyob asar deb baholab bo'lmaydi. Shu bilan birga nochor, zararli, zamonamizga yot asar ham deb bo'lmaydi.

Asarning "aybi" shuki, u o'sha zamonlarda yozgan sip-silliq, hayotni padozlab, faqat yaltiroq tomonlarini tasvirlagan asarlardan rostgo'yligi, keskinligi bilan farq qilishida xolos.

She'riyatda ancha pishib qolgan, yaxshi she'rlar yozayotgan Saidaning nasrdagi dastlabki asari sifatida baholaydigan bo'lsak, uni yaxshi nasriy asarlar qatoriga bemalol qo'yishsa bo'ladi deb aytish mumkin.

Qissada Saida o'sha paytlarda sira aytib bo'lmaydigan gaplarni yozishga nima majbur qildi ekan, degan savolga javob izlab ko'raylik.

Qissa adabiyotimizda konfliktsizlik ayniqsa avj olgan 50-60-yillarda o'quvchini o'ziga tortmaydigan, hayot muammolari chetlab o'tilgan, faqat hayotning yaltiroq tomonlarinigina aks ettirgan asarlarda sira o'xshamasligida deb bilish kerak.

"Uzoqni ko'zlagan qiz" qissasida ikki marta qahramon unvoniga sazovor bo'lган mashhur paxtakor Tursunoy Oxunovaning hayot yo'li tasvirlanadi.

Saraton jaziramasi zaptiga olgan, bir nafas olishga tangadek soya topilmaydigan Mirzacho'l dashtida yer ochayotgan, quyosh olovidan, dazmoldek qizigan traktorni minib motorning qaynoq alangasiga, butun vujudiga otash purkayotgan cho'l shamoliga bardosh berib, har bir mo'yi tagidan sizib chiqayotgan terdan ko'yylaklari shalabbo bo'lib ketganiga beparvo bu "cho'l malikasi" chinakam "sovet qizi" edi.

Xotin-qizlarni yuqori lavozimlarga ko'tarish boshlangan payt. Ularning aksari oilali go'zal ayollar edi. Ularni haftalab, o'n kunlab poytaxtga-plenumlarga, qurultoylarga olib ketardilar. Shuning uchun ham oilasi, bola chaqasi, deb o'ylashmasdi. Begona erkak bilan ketgan xotinini o'ylab ruhan ezilib o'tirgan eri borligini o'ylashmasdi. Oqibatda ularning turmushi buzilganini ko'p marta ko'rganmiz. Axir buyuk shoirimiz G'afur G'ulom "Bizning xotinlarga hayo fazilat" deb bekorga aytmaganlar.

"So'qmoqlar" qissasi ana shu ko'ngilsiz voqealarga bir isyon bo'lib dunyoga kelgan edi. Qissa 1959 yilda yozilgan va o'sha yiliyoq "Sharq yulduzi" jurnalida bosingan edi.

Jurnal qo'lma-qo'l bo'lib, qissa qiziqib o'qilayotgan bir paytda saratonda yoqqan qordek bo'lib "Sovet O'zbekistoni" (Hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasi adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning "Attang" degan maqolasi bosildi. Maqolada talantli yozuvchi Saida Zunnunovaning ushbu "So'qmoqlar" qissasida sovet voqeligiga yot bo'lgan g'oyani ko'tarib chiqqani, halol mehnat qilayotgan sovet kishilariga tuhmatdan iborat sun'iy voqealarni qalamga olgani keskin tanqid qilingan edi. Umidli yosh yozuvchining zararli asar yozganiga attang, deb afsuslangan edi.

Sal fursatdan keyin "So'qmoqlar" sobiq O'zbekiston partiya markaziy qo'mitasi byurosi muhokamasiga qo'yiladi. Unga asar mualifi Saida Zunnunova ham chaqiriladi. Ammo Markazqo'mning ideologiya ishlari bo'yicha kotibi Zuhra Rahimboboeva uni byuroga olib kirmaydi. Chunki o'sha paytda Saida og'ir oyoqli oy kuni yaqin edi. Rahimboboeva har qalay ayol kishi bo'lganidan byuroda bo'ladigan keskin gaplar Saidaga yomon tasir qilishi mumkin deb uni o'z mashinasida uyga qaytarib yuboradi.

Byuro majlisi ham Saida Zunnunova zamonomizga yot, zararli asar yozganligini alohida qayd qiladi. Mana, qirq yildirki, yaxshi niyat bilan yozilgan "So'qmoqlar" qissasi qatag'on qilingan asarlar qatorida arxivda qolib ketdi. O'zbekiston mustaqil mamlakat sifatida tan olingan kunlardan beri qilinayotgan xayrli ishlardan biri, qatag'onga uchragan o'zbek ziyorolarining pok nomlarini

tiklash, ularning asarlarini o‘rganishi va nashr qilish sohasida ko‘p savobli ishlar amalga oshirildi.

Ana shular qatori Saida Zunnunovaning “So‘qmoqlar” qissasi ham qayta o‘qilib unga bugungi kun ko‘zi bilan qarab baho berildi. Asar haqida bundan qirq yil avval “Attang” degan maqola e’lon qilgan Matyoqub Qo‘shtonov o‘sha paytda zamona zayliga berilib qissaga to‘g‘ri baho bera olmaganini, uni zararli asar deb hato qilganini matbuotda ochiq tan olib gazetaxonlardan uzr so‘radi.

Qissani qayta o‘qigan boshqa yozuvchi va adabiyotshunoslar ham “So‘qmoqlar” bugungi kunning asari deb aytmoqdalar. “So‘qmoqlar” qissasida qalamga olingan juda jiddiy, juda dolzarb bo‘lgan ayollar nomusini, o‘ziga xos o‘zbekona sharm-hayosini, nazokatini himoya qilishimiz va u hamisha diqqat markazida bo‘lishini unutmasligimiz kerak.¹

Asarning “So‘qmoqlar” deb nomlanishida ham ramziy ma’no bor. So‘qmoqlar-hayotdagi adashishlar, bilib-bilmay xatolarga yo‘l qo‘yishlar. Lekin ana shu so‘qmoqlardan o‘tmasdan katta yo‘lga chiqib bo‘lmaydi. Insonga so‘qmoqlardan o‘tishga ko‘maklashish esa uning katta yo‘lga tezroq tushib olishiga yordam beradi.

O‘z davrida qissa haqida bildirilgan tanqidiy fikrlarni tahlil qilib, asarning keskin tanqidga uchrashiga badiiylik talablariga javob bera olmagan emas, balki unda o‘sha davrda aytish va yozish mumkin bo‘lmagan hayotiy haqiqatlarning ochiq-oydin yoritilgani sabab bo‘lgan.

Saida Zunnunova o‘zbek adabiyotida Oydin, Zulfiya, Ra’no Uzoqova, Muzayyana Alaviya kabi ijodkorlar bilan bir safda turib ijod qildi.

Saida Zunnunova qirq yillik ijodi davrida she’riyat, nasr, dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Saida Zunnunova qahramonlari eliga, yurtiga, yoriga vafodor, sadoqatli, iffatli, mehnatkash ayoldir. U bu haqida shunday yozadi:

“Qahramonlarim asosan ayollar, hamma vaqt ularning ko‘ngillarini topgim, ular uchun hamisha insoniy huquqni, aqlu – hissiyotni, mehr-zakovatini kuylagim, yozgim keladi. Ularga kirgan tikanning azobini jonimdan tuyaman, quvonch va baxtlaridan baxtiyorman”. O‘zbek adabiyotiga sevgi va muhabbat oila va farzand, mavzuida yozgan she’rlar tor ma’nodagi she’rlar emas, balki keng ma’noni anglatuvchi she’rlardir. Uning bu haqida yozgan jo’shqin asarlari o‘quvchilar qalbidan munosib joy olgan.

Shoira she’rlarida o‘zbek xotin-qizlariga xos fazilatlar, kamtarlik, hayo va odob, sevgida yashirin kuyish kabi g’islatlar bo‘rtib turadi. Uning sevgi va muhabbat mavzuidagi she’rlarida ma’shuqaning oshiqqa, oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan otashin sevgisi ikki dil va ikki tilning xohish samimiyyat bilan ifodalanadi. Insoniy muhabbatni, ahdga vafodor yoshlarni ulug’laydi. Shoiraning bundayo she’rlari kuchli ehtiros bilan yozilgan va lirizmga boy. Saida Zunnunovaning hayotga, she’riyatga nuqtai - nazariy, ijtimoiy - siyosiy, badiiy-estetik qarashlari ham tasviriy til vositasida ifodalanadi. Badiiy asar, shu jumladan she’r shoirning hayotga munosabatning bir ko’zgusi. Voqelikning tushunishi hamda

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар, Т., 2001 338-341-бетлар.

tushuntirilishini ma’naviy borligini so’zlar orqali anglatadi va amalga oshiradi. Ijodkorning ongi, dunyoqarashini, tasavvur tushunchalari orqali bera oladi.

Shoiraning hayotga munosabati, voqelikni ko’rish, anglash, anglatish usullarida namoyon bo’ladi. Vatan go’zalligi bilan Onaning ko’ngil butunligi yaxlit birlikda anglashiladi. Vatan tarixiga murojaat, o’tmish lavhalarini tiklash va jonlantirish, bugungi Ona timsolini namoyon etuvchi ruhiy omillardir.

Shoirning g’oyaviy - badiiy maqsadini amalga oshirishdagi ifoda usullari, tasvir shakllari va ko’rinishlarida o’ziga xoslikning belgilari namoyon bo’ladi. Saida Zunnunova she’riyatida tasvir va talqin birgalikda olib boriladi. Bir-birini to’ldiradi va boyitadi. Bu esa shoira ruhiyatidan otilib chiqqan go’zal she’riyat manzaralarini bera oladi. Shoira lirkasi o’z dardi - dunyosida o’zini namoyon etadi. Shoira lirkasida uning qalbi, o’z so’zлari orqali namoyon bo’ladi. Bu holdagi psixologik tasvirda asosiy vosita lirk qahramonning aytgan so’zlaridir.

Saida Zunnunova shaxsidan ajralib bo’lmaydigan she’rlarida millat qalbidagi azoblar, qynoqlar, buhronlar to’g’risida alam bilan fikrlaydi. Voqealikka o’z munosabatini bildirayotgan bezovta ko’ngil izhori namoyon bo’ladi. Shoira o’ziga zamondosh odamlar ruhiyatini o’z so’zлari, fikrlash tarzi orqali psixologik holatlarni, ichki dunyosini gavdalantiradi. Majoziy obrazlar ruhiyati tasviri yetakchilik qilgan she’rlar ko’proq allegorik xarakterdadir. Shoira lirkasidagi poetik obrazlar – quyosh, yomg’ir, bahor, barglar, g’ubor, gul, yulduz, dengiz, oftob, osmon, shaydo kabilarda g’oyaviy maqsad ifodalanadi, bu esa xalq ko’nglining ifodasidir.

Bu shoira she’riyatining ruhida, ma’no - mohiyatida mujassamlangan. U lirk qahramon tafakkur tabiatini namoyon etishga ko’ra ijodkorning kimligini, qaysi millatga mansubligini ham ko’z-ko’z etadi. Shoira Saida Zunnunova she’riyatida xalqchilik ruhida milliylik xususiyati ustivor. Ona va farzand, ona qalbi va mehri, o’zbek adabiyotining asosiy mavzularidan biridir. Shoira o’z ijodida ona va farzand, onalik baxti va ayolni sharaflash mavzuiga qayta – qayta murojaat qildi. Shoiraning mahorati uch fazilatda, ya’ni – lirk mavzu tanlashi, lirk qahramon yaratishi, she’riy syujet vujudga keltirishda ko’zga tashlanadi. Saida Zunnunova lirk she’r yaratish bilan birga “Saida va Anor”, “Xayrixon”, “Surat bilan suhbat”, “Qo’shnilarim” kabi dostonlarni yaratdi.

Saida Zunnunova “Qo’shnilarim” dostoni, asarda lirk qahramonning har bir harakati psixologik harorat mazmunan chuqur, g’oyasi aniq, badiiy puxta asarlarligidan darak beradi. Demak, shoira Zamonaviy mavzularda yozilgan dostonlari bilan o’zbek dostonlichigini boyitishda munosib hissa qo’shdi.

ANDIJONDA HOZIRGI ADABIY JARAYON OLIMJON XOLDOR HAYOTI VA IJODI (1932-2016).

Andijonlik shoir, qissanavis, dostonnavis, publisist, dramaturg, jamoat arbobi Olimjon Xoldorning XX asr o’zbek adabiyotida alohida o’rni bor. Shoiraning asl ismi Olimjon Xoldorov bo’lib, Olimjon Xoldor uning adabiy taxallusidir. U 1932 yilning 18 sentyabrida Andijon viloyati Buloqboshi tumani Kulla qishlog’ida tug’ilgan. Adabiyot sohasida, jurnalistika va boshqa ijtimoiy sohalarda ko’rsatgan

xizmatlari uchun Olimjon Xoldor bir qancha unvon va mukofotlar bilan taqdirlangan. U 1992 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvonini olgan.

Olimjon Xoldor 1952 yilda Farg'ona pedagogika institutini tugatgan. So'ngra 1960 yilda Andijon viloyat radiosida muharrir bo'lib ishlaydi. Faoliyatini Andijon viloyat gazetasi «Kommunist»da 1965 yilda davom ettiradi. 1966-1968 yillarda «Yosh leninchi» gazetalarida muxbir bo'lib ishlaydi. 1968-yildan 1983-yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Andijon bo'limi boshlig'i sifatida faoliyat olib boradi.

Shoirning dastlabki she'rlar to'plami 1965-yilda «Arg'uvon tagida» nomi ostida chop etiladi. Shundan so'ng Olimjon Xoldorning 1968-yilda «Andijon suluvlari», 1970-yilda «Kaftimdag'i tuproq», 1972 yilda «Oshiqona», 1976-yilda «Andijon bahori», 1977-yilda «Subhidam qo'shiqlari», 1979-yilda «Kumush kosa», 1982-yilda «To'yona to'yona», 1986-yilda «Er farzandi» va «Senga intilaman», 1990-yilda «Davrani keng oling», 1992-yilda «Ko'z tegmasin» kabi she'riy va nasriy to'plamlar chop etiladi. Shuningdek, u «Men — Andijonman», «Andijon samosi», «Kelajakdan bir sado», «Roz», «Karvon qo'ng'irog'i» kabi liroepik asarlar ham yozdi. Olimjon Xoldorning yuzdan ortiq g'azallariga kuylar bastalangan va hofizlar, xonandalar tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Olimjon Xoldor dramaturgiya sohasida ham bir qancha asarlar yozgan. Uning 1992- yilda «Qotil kim» va «Sevgi afsonasi», 1999-yilda «Anda jon qoldi» asarlari shular jumlasidan. Asarlarida inson go'zalligi, ma'naviy olami, mehrmuhabbat va sadoqat haqida babs yuritiladi. Olimjon Xoldorning so'nggi yillarda yirik epik janrlarga mansub «Ko'ngil» (1992) qissasi, «Arosat» (1993), «Mirkomilboy» (1998) romanlari, "Mo'"jiza" va boshqa asarlari e'lon qilindi. Bolalarga bag'ishlangan «Boboruh» (2000) p'jesasi ham bor. Shoirning uch jildli "Saylanma"si 2001 yilda chop etilgan bo'lib, uning umr bo'yi yozgan lirik va nasriy asarlari saralanib to'plamga kiritilgan. Dramaturgning sahna asarlari "Pesalar" nomi ostida 2002 yilda chop etilgan¹.

Shoir, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi Olimjon Xoldor adabiy jamoatchilikda "Vodiy kuychisi" degan ajoyib e'tirofga sazovor bo'lgan. U qaldirg'och she'rlari bilan she'rxonlar nazariga tushgan va qanoatli so'z, qanoatli qo'shiq, dilbar kuya oshufta didli, nozik ta'b shoir paydo bo'lidan darak bergen. Olimjon Xoldor o'z elining orzu-armonlarini kuylashi, zamondoshlari mehnati, muhabbatini tarannum etishi, aziz xalqi baxti, kamolini qalamga olishni qalb burchi, vijdon ishi deb tushungan va ana shu e'tiborga sodiq qolgan.

Andijon viloyatida adabiy harakatchilikni rivojlantirish hamda yosh ijodkorlarni tarbiyalashdagi katta xizmatlari uchun Olimjon Xoldor O'zbekiston hukumatining Faxriy yorliqlari bilan mukofotlangan. U bir necha bor viloyat va shahar xalq deputatligiga saylangan. Olimjon Xoldor she'riyat olamiga o'zining dilbar va betakror she'rlari bilan kirib keldi.

¹www.Ziyouz.com кутубхонаси. Холдоров Олимжон. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. X ҳарфи. – Т., 2002. 171-б.

Olimjon Xoldorning turli janrdagi asarlarida g'oyat lazzatli, ayni chog'da, shu qadar murakkab hayotning hamma qirralari u yoki bu darajada o'z aksini topgan. Ularda koinotning mehvari bo'lgan insonning ham ma'naviy, ham moddiy ehtiyojlari rang-barang bo'yoqlarda tasvirlanadi.

U jurnalistik faoliyat bilan ham babbarobar shug'ullangan. Xususan, Andijon viloyati ijtimoiy-siyosiy matbuoti hisoblangan "Andijonnoma" ("Kommunist")da uzoq yillar faoliyat olib bordi. Uning viloyatimiz hayotidagi kichik voqealardan to yirik siyosiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqealargacha o'z fikrini, munosabatini bildirgan dadil, oshkora ruhda yozilgan ommabop maqolalari shu gazetada chop etilib kelingan. U qariyb yarim asrlik ijodi davomida jamiyat hayotidagi turli muammolarni ko'rib, kuzatib, o'z munosabatini bildirib bordi. Ijodkorlarning ilk asarlariga taqrizlar, oq yo'l tilash, kitoblarga so'z boshi yozishi ham uning boshqa qalamkashlarga xayrixohligi nishonasidir. Andijonlik shoir Usmonjon Shukurov, Farid Usmonning asarlariga yozgan taqrizlari ham shunga misol bo'la oladi¹.

Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, umri uzoqligi, o'ziga xosligi, sehri va jozibasi, adabiy jarayondagi o'rni, san'atkor mahorati-birinchi galda, uning tili va uslubida namoyon bo'ladi. Odatda, ijod ahli o'z ruhining, kayfiyatining quli bo'ladi. U ko'pincha ana shu ruhiyat tazyiqi ostida yashaydi, uning ta'siriga tushganda o'zini qo'yarga joy topolmay qoladi, o'z yog'ig'a o'zi qovriladi. Mana shu jarayonda yaratilgan har qanday asar kishini ham larzaga soladi, o'ylantiradi, uning qalbini ham junbushga keltiradi.

Shoirning g'oyaviy-badiiy barkamollikka ega tarixiy va zamонавиy mavzulardagi she'riy asarlardan iborat to'plamlari kitobxonni loqayd qoldirmaydi, ularni bir nafasda o'qib chiqmasa nazmga oshufta ko'ngillarning ko'ngli joyiga tushmaydi. Axir, milliy g'urur, o'zbekona iftixon, she'riy hayrat, latofat, she'riyatga, adabiyotga muhabbat tuyg'ulariga befarq qarab bo'ladimi?

Ajoyib g'azalnavis shoirning she'rlari, g'azallarisiz she'riyat kemtik bo'lib qolardi. Olimjon Xoldor Andijon adabiy muhitida kamolga yetdi, o'z so'zi, o'z ovoziga molik qalam sohiblaridan biri bo'lib qoldi. U kitobxonlar muhabbatini qozongan ijodkorlardan. Uning qalamiga mansub ko'plab g'azallarning taniqli xonandalar ijrosida baralla yangrayotgani ham e'tirofning yorqin nishonasidir.

Olimjon Xoldor badiiy adabiyot maydoniga ilk qadam qo'yan, o'tgan asrning 60-yillari g'azal janri qayta tug'ilib, yangicha tasvir vositalari, bayon usullari bilan boyib borayotgan safobaxsh bir davr edi. Yosh ijodkorning bu janr sirlarini o'rganishi uchun katta tajriba maktabi mavjud edi. Shu yillarda uning dastlabki turkum she'rlari to'plamlarda va boshqa gazeta-jurnallarda chiqa boshladi.

¹ Олимжон Холдор. Самимият тўла мисралар //Коммунист.-1991.-10 июль.; Олимжон Холдор. Умид гулзори./Фарид Усмонни янги китоби хақида//Коммунист.-1991.-2 июль

Olimjon Xoldor sharq she'riyatining g'azal janrida o'zining go'zal hissiyotlari, oliv maqsadlari, musaffo orzularini aks ettiradi. Uning g'azallarida samimiylit, rostgo'ylik va xalqona soddalik ko'zga tashlanib turadi. Shoир har doim g'azal mehri bilan yashab, uning sehrli olamiga chuqurroq kirib boradi. U mumtoz va zamonaviy shoirlarning g'azal bo'stonidagi tajribalaridan ham ijodiy, ham amaliy saboq oldi. Tinimsiz izlanish va o'rganishning samarasi asta-sekin ko'zga tashlana boshladi.

Yoshlik va go'zallik tuyg'ulari, muhabbat va sadoqat, ishq va vafo tug'yonlari, mehnat va hayot ehtiroslariga yo'g'rilgan ijod mehnati evaziga erishgan e'tibor uni yanada elga manzur asarlar yaratishga ruhlantirib keldi.

Shu boisdan lirik qahramon ziddiyatli tuyg'ular qozonida qaynab, qiyinchiliklarni boshidan kechirsa ham, oliv maqsad sari intilaveradi. Bu yo'lida inson o'ziga ato etilgan umrini to'g'rilik va halollikka bag'ishlamog'i shart. Ana shundagina uning ruh bulbuli yor visolining guli bilan qovushish baxtiga muyassar bo'ladi.

Olimjon Xoldor she'riyatining mazmun mundarijasi keng bo'lib, mavzulari rang-barangdir. Uning "Andijon bahori" to'plamiga kiritilgan she'rlarining mavzu ko'lami keng va obrazlar olami xilma-xildir. Shoир ijodida vatan mavzusi asosiy yetakchilik qiladi. To'plamdagи "Andijon bahori" she'rida vatanparvarlik g'oyasi tabiat manzaralari tasviri bilan uyg'unlashib ketgan.

*Kelinchakdek bunchalar tam tam
Atlas kiymish qir, adirlar ham,
Borliq bu kun jilvakor biram,
Ariqlarda to'lib oqar suv
Shundoq bahor bu.*

She'rning birinchi misrasida bahorning kelinchakka o'xshatilishi, atlas kiygan qir va adirlarning tavsifi, suvlarning ariqlarda to'lib oqishi o'ziga xos tashbeh bilan tasvirlangan. Tabiatdagi o'zgarishlarning turli ko'rinishlarda jilvalanishi sodda va ravon uslubda ifodalanadi. Keyingi bandda bahorning kelishi yurakka shodlik berishi, dalalarda dehqonlarning ishi boshlanishi aytib o'tiladi. Quyoshni "saxiy" deb tavsiflanishi, yog'du ulashishi she'rxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi.

*O'smasini quritib qoshda,
Kokillari chambarak boshda,
Yigitlarning rashkin qo'zg'ashda
Suluvlarni qilgan beuyqu
Shundoq bahor bu.*

Mazkur bandda o'zbek milliy mentalitetiga xos xususiyatlar zikr etilgan. O'zbek qizlarining qoshiga o'sma qo'yishi, uzun sochlaring boshiga chambarak qilib bog'lashlari faqat o'zbek millatiga mansubdir. Go'zal o'zbek qizlarining, she'rda andijonlik qizlarining bu ko'rinishdagi chiroyi yigitlarning rashkini qo'zg'aydi, buni sezgan suluvlarning esa ko'zidan uyqusi o'chadi.

Bugungi kunda o'zbek she'riyatidagi badiiy yangilanishlar shakliy mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi

tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi.

Shoirning "Tugallanmagan she'r" sarlavhali she'ri ham o'quvchida o'ziga xos tuyg'u uyg'otadi. Lirik qahramon yarim kechada qog'ozlar ichidan g'ijim bo'lgan bir parcha qog'oz topib oladi. Unda esa bayt bitilgan, bir chetiga qon uyub qolgan, bir cheti o'qdanmi yoki olovdan kuyganligi aytildi. She'rxon bu parcha qog'oz egasi urushda qatnashganligini savqitabiyy ilg'aydi. Bu parcha qog'oz kimdir tomonidan "tugallanmagan she'r" deb yozilgan.

*Payqadim, askarning yon cho'ntagida
Toza g'ijimlanib, ezilgan qog'oz.
Suronli bombalar, o'qlar tagida.
Olovlar ichida yozilgan qog'oz.
Ehtimol, dil dardin ayta olmasdan
She'ridek yarador bo'lgandir shoir.
Ehtimol, she'rini tugatolmasdan,
Dushmanning o'qidan o'lgandir shoir.*

She'riyatda ijodkorning kechinmalari va ruhiy holatiga e'tiborning kuchayishi shakliy izlanishlarning ko'payishiga olib keladi. 80-yillar she'riyatida bo'y ko'rsatgan bu holat 90-yillarga kelib, yosh ijodkorlarning deyarli barchasida kuzatila boshladи. Shakliy izlanishlar samarali bo'lgan va o'zbek kitobxoni ko'nikib ulgurmagan asarlar o'quvchilar tamonidan har xil kutib olindi.

Masalan, tabiat manzarasi tasvirlangan "Kuzda" she'rida o'ziga xos o'xshatishlar, go'zal ifodalar keltirilgan.

*Turnalar uchadi, osmon yaraqlar,
Rang surtmish bugun kuz dalaga, boqqa.
Zarrin libosini yechar daraxtlar,
Anhor to'lib oqar oltin baldoqqa.
Sixli kabob kabi g'o'zapoyalar,
"Yilt" etgan chigit ham terib olingan.
Soldat shinelini kiymish qoyalar,
Bugun hasharchilar oyog'i tingan.*

Daraxt barglarining kuzda sarg'ayishini "zarrin libosini yechmoq" iborasi bilan, barglarning yerga, suvgaga to'kilishi esa go'yo oltin baldoq bilan to'la anhordagi suv oqishi bilan o'xhatilgan. G'o'zapoyalarning sixli kabobga o'xhatilishi ham birinchi marta qo'llangan tashbehdir. Qoyalarning soldat shinelini kiyishi ham o'ziga xos tasvir hisoblanadi.

*Haydalgan maydonda qushlar galasi,
Ariqcha qirg'og'i novvot – muzlamish.
Garchi ishlarning hech yo'qdir chalasi,
Biroq yuraklarda bor pisha tashvish*

deb davom etadi shoir.

“Arg’uvon tagida” nomli she’rida shoir hissiy kechinmalarni tiniq ifoda etadi:

*Arg’uvon tagida yor, seni kutdim,
Marvarid sirg’alar o’ynar boshimda.
Gullarning atrini entikib yutdim,
Yaproqlar shivirlar sekin, qoshimda.*

«Olam va odam» she’rida quyidagilarni ifodalaydi shoir:

*Agar odam o’qilmagan bir kitob bo’lsa,
Nazarimda, har bir odam bittadan so’zdir.
Mamlakatlar bu kitobga oltin bob bo’lsa,
Varaqlarning bir beti tun, biri kunduzdir.
To’ldiraylik bu kitobni qayda bo’lsak ham,
Mayli qo’ldan qo’lga o’tsin, chetda yotmasin.
Yozuvlari bizmiz axir, bu ko’hna olam –
Varaqlarin yirtib hech kim o’tga otmasin.*

«Qoldirilgan to’y» she’ri syujetli asar hisoblanadi.

*Lolani unashdilar,
To’yyga ham oz qoldi.
U chiroyli bo’lay deb
Sartaroshga yo’l oldi.
Suqlanib o’z husniga,
Boqdi husniga takror,
Xunuk ko’rindi sochi,
Kesmoqqa qildi qaror.
- Opajon, qirqib tashlang,
Sochlarimni yelkadan.
«Sochi uzun, aqli kam,
Degan qadim kulkidan
Qutilayin tamoman
Kuyovimga yoqayin
Madaniyatli, ko’rkam
Go’zal kelin bo’layin.*

She’rda sartaroshning «bunday sochlар kam bo’ladi, soch kelinchak chiroyiku, qo’ying qirqmang, singilcham!» degan gaplariga parvo qilmagan Lola o’z so’zida turib oladi. «Yoshlik qilmang!» degan tanbehga ham e’tibor bermaydi. “Qiz go’zallagini shu yerga kecha tashlab ketdi”, deydi shoir. Endi esa ZAGS, kuyov yigit visolga oshiqib kelib qarasa Lola o’zgarib qolgan:

*- Qayda qoldi sochingiz,
Qayda qoldi go’zallik?
ZAGS ostonasida
Kuyov turib qoldi tik...
Shunday qilib ularning
To’ylari qoldirildi.
Go’zal bo’lay deb Lola,
Bir qaltis xato qildi.*

«Qoldirilgan to'y» deya nomlanadigan yuqoridagi she'rda voqeabandlik bo'rtib ko'rinadi. Aniqrog'i, hozirgi klinikda ham tez-tez uchrab turadigan syujetlarga o'xshash kichik bir hayotiy lavha badiiy izlanishning yaxlitligini ta'min etadi. Shu bilan birga u chuqur falsafiy, majoziy ma'nolarni o'z bag'rida yashirib turibdi. Ayni ma'nolar shoirga tegishli, uning she'rga yuklagan badiiy haqiqati ham shu erda – hayotiy falsafaning, san'atning mangulikka daxldorligi va unga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini aytishda namoyon bo'ladi.

“Jala” she'rida hissiy kechinmalar tabiat hodisalar bilan uyg'un tasvirlanadi:

*Chaqmoq chaqib, momaqardiroq,
Eru ko'kni larzaga soldi.
Jala tindi, toshqin misralar,
Qochmoqqa joy topolmay qoldi.
Biz shalabbo bo'ldik birpasda
Badanlarga yopishdi ko'ylak,
Jala tingach, tog' tepasida
Paydo bo'ldi oltin kamlak.
Yana birdan yorishdi osmon,
Quyosh o'tli nafasin sochdi.
U o'tkinchi g'ashlik shu zamon
Tutqich bermay sarobdek qochdi.
Baland tog'dan shabada yelar,
Taralmoqda maysalar hidi.
Jala tindi, toshqin misralar
So'ngra jala bo'lib quyildi.*

Uyda yoshlagini eslab xayolchan o'tirgan shoir e'tiborini derazani chertib yoqqan yomg'iru ko'kda guldiragan momaqaldiroq o'ziga jalb qiladi. Shu chog' tashqaridagi bolalarning qiy-chuvi uning yodiga bolaligini tushiradi va shoir xuddi bola misol, hatto bola bo'lib tashqariga otiladi. Shu lahzada u o'zini haqiqatdan ham xuddi boladek his qiladi. She'r ayni lahzada tug'iladi va uni oliy qadriyat sifatida tarannum etadi.

“Jahongashta” she'rida Olimjon Xoldor falsafiy o'ylarga beriladi. Bu she'r shoir Mashrab haqidadir:

*Olamni kezdi u piyoda, sarson,
Jahon edi go'yo tungi mayxona.
tanib-tanimagan odamlar bari,
Uni der edilar darvish-devona.
Devona – donolik degani, ha, shundoq,
Har dilga yo'l topmoq mushkul, osonmas.
Boshida kulohi, yurt kezdi, biroq,
Qo'shiq hamroh bo'ldi har nafas.
U uysiz yashadi tug'ilgandan buyon,
Ammo she'ri kirgan hovli yashnadi.
O'zgalarni o'ylab yig'ladi giryon,*

O'lgach, o'zi uchun yashay boshladi.

Shoir kitoblariga kiritilgan she'rlar mavzu, muammo, lirik kechinma va obrazlar silsilasi bilan bir-birini to'ldiradi. Shoирning mazkur kitoblarida g'azallardan tashqari muhammas, masnaviy, mustahzod, musaddas, ruboiy, qit'a, fardlar ham bor. Binobarin, bunday janrlarda benuqson asar yarata olish ijodkorning mahorat darajasini belgilovchi omil sifatida ham tan olinadi. U muhabbatli qalblarning tog' havosidek musaffo, buloq suvidek tiniq tuyg'ularini she'rga solishdan, Vatanning go'zal bog'lari, sharqiroq soylari, yurtdoshlarining fidokorona mehnatlarini tarannum etishdan tolmadи.

Shoir Olimjon Xoldor iste'dodi, tinimsiz izlanishlari natijasida taniqli shoир darajasiga yetdi. Uning ravon, serma'no g'azallari eng sohir ovoz sohiblari – sevimli xonandalar O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'raev, Nuriddin Haydarov, Zamira Suyunova, Nuriddin Hamraqulov, Yahyo Mo'minovlar tomonidan diltortar qo'shiqlarga aylanib ijro etilgan, minglab ko'ngillarni shod etmoqda.

*Shoda-shoda marvaridlar bo'yningizda,
Jonom, ayting, ne gap bo'lsa, ko'nglingizda.
Kecha-kunduz xayolimda bir o'zingiz,
Shu kunlarga meni solib qo'ydingiz-da!*

*Anov tog'da qor yog'sa gar bunda qirov
Sovchilarim uyingizdan quvmang darrov.
Ko'cha-kuyda uchratganda siz pinhona,
Sho'x qizlarga meni aslo demang: "birov".*

*Birov bo'lsam bo'lsam sizni buncha o'ylarmidim,
Nomingizni qo'shiq qilib kuylarmidim.
Sevmasaydim, har ko'rganda olov bo'lib,
Duduqlana-duduqlana so'ylarmidim?*

*Shoda-shoda marvaridlar bo'yningizda,
Jonom, ayting, ne gap bo'lsa, ko'nglingizda.
Kecha-kunduz xayolimda bir o'zingiz,
Shu kunlarga meni solib qo'ydingiz-da!*

Mazkur she'rda oshiq holati yorqin tasvirlangan bo'lib, o'zbek qizlarining go'zal tashqi surati hamda ichki ma'naviy olami ham namoyon bo'lган. Qizning o'z o'rtoqlariga oshiq haqida "birov", ya'ni "tanimayman" deyishi ibo, hayo nishonasidir.

Olimjon Xoldoning ijod namunasida ruhiy holat va manzara orasida lirik kechinma shakllanganligi qabarib ko'rinadi.

*Tong mahalda yo'lga chiqdik tun tug'ar shu tobda,
Archalarning barglari ham yaltirar oftobda.*

Chashmalar nay chalsalar, har sharshara o'qir g'azal,

Tebranur gullolalar ko'zlar rubobda.

*Ko'ksimiz tog'dek edi, tog'ning havosiga to'yib,
Elpigay borliqni daryo marjonmi purkab chapda.*

*Qancha ertak tingladik va bilmadik bizlar hadik,
Qolgusi tarix bo'lib bu lahzalar kitobda.*

*Senu men bo'lsak agarda bir baytning ikki yo'li,
Do'stlarimiz nomini zikr ayladik har bobda.*

*Men g'azalga nuqta qo'ydim, der Olimjon baxtiyor,
Yaxshi kunlar, yaxshi damlar qoldi Arslonbobda.*

ANDIJON ADABIY MUHITIDA NAZM VA NASR RIVOJI

TURSUNOY SODIQOVA (1944-2017).

1944 y. 24 mart – Shoira, publitsist Tursunoy Sodiqova Toshkentda tavallud topgan. O'rta maktabda o'qiydi. 1961–1966 y. – Toshkent Davlat universitetida tahsil olgan. 1961 y. –birinchi she'ri “Lenin uchquni” gazetasida bosilgan. 1973 y. – shoiraning birinchi she'riy guldstasi “Kuy” chop etildi.1978 y. – “Qizlar daftari” she'riy turkumi.1984 y. – “Iqbol” she'riy to'plami.1985 y. – “Dil gavhari” she'riy to'plami.

2017 y. 13 yanvar– 73 yoshida vafot etdi.

Shiora, adiba, voiz Tursunoy Sodiqova 1944 yili Andijon shahrida tug'ilgan. Dastlab Toshkent shahridagi 82-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil olgan. 1966 yili Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. 1996 – 1978 yillarda Andijon shahridagi 15-maktabda, 1978 – 1993 yillarda Andijon Tillar Pedagogika instituti va Andijon Davlat univesitetida dars bergen. 1991 – 1995 yillar davomida Andijon viloyat Xotin-qizlar qo'mitasida rahbarlik qilgan. 1993 – 2003 yillarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida bo'lim mudirasi lavozimida ishlagan. SHu kungacha Tursunoy Sodiqovaning “Izlay-izlay topganim”, “Mehr qolur”, “Hazrati ayol”, “O'g'lim, qizim, senga aytaman”, “Rizolik izlab”, “Yashash tilsimi”, “Atirgul isi”, “Ayolga qasida”, “Dildagi dur”, “Baxt qaerda?”, “Quyoshlarim, oylarim” kabi o'nlab kitoblari chop etilgan. 2009 yilda Xitoyda uyg'ur tiliga o'girilgan saylanmasi nashr etilgan. Tursunoy Sodiqova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, “SHuhrat” medali bilan taqdirlangan.

YuRAGIMNI ASRAB...

Qo'llarimni qo'l demasman
Sizni tutdi yotlarga.
Ko'zlarim ham do'st emasdir

Qarar o'zga zotlarga.
So'zlarimning yo'q imkoni
SHuncha ichib tuzimni.
Bitur sizmas o'zga nomin
Ixloslarim uzildi.
Oyoqlarim g'oyat go'l da,
SHayton uni qayirdi
Siz tomonga eltar yo'ldan
Izlarimni ayirdi.
Yolg'iz yuragim angladi
Ko'ndi amrlarimga.
Ismingizni jaranglatib
Quyar tomirlarimga.
Bu vafodor yuragimni
Asrab ag'yor qasdidan.
Yashirdim jon og'risa da
Suyaklarim ostiga...

Olis yuz yoshim
Olis yuz yoshimga
Nigoh tashlayman
Yigirma yoshimning bag'ridan turib
Ne ishlar qo'limda
Ne savdo yo'limda,
Manzilga qay yo'ldan borurman yurib?
Bu bari yashirin,
Ham og'ir, ham shirin
Yillar qanotiga berkinibdi jim.
Lekin huv uzoqdan
Ko'rinar shu choqda
Oq ro'mol o'ragan keksa savlatim.
Va uning yonida
CHarx urib yonadi
Eng shirin g'azalim, ilk muhabbatim...

Yuragimning dushmani...
Yuragimning cho'ng dushmani
Asli sovuq aqldir.
Yuragimki ne xushladi
Aqlimga noma'quldir.
Yurak dilkash, yurak otash,
Uchar zavqu shavq sari.
Yo'lin to'sar aql yakkash

Qo'llarida xanjari.
Gohi uchsam xayol ichra
Yurak yetakligida.
Tushiradi aql kuch la,
Tortib etaklarimdan.
Menga qolsa, ikkisi teng,
Babbarobar achir jon.
Aqlga ku yo'l berdim keng,
Ammo yurak qadrdon.
Goh aqldan xufriyona
Dardlashurmiz tunda biz.
Goh sirlashsak yona, yona
Goh she'r bitsak ikkimiz.
Darhol aql topar ogoh,
Ayrir sara puchakka
Yurak cho'kar jim chekib oh
Men singaman burchakka.
Hamisha shu. Lek uning la,
Tushmagaymiz chohlarga.
Aql bizni doim shunday
Asragay gunohlardan.

FARID USMON (1946).

Farid Usmon – SHarofiddin Andijon shahrining Mehnat mahallasida 1946 yilning 1 avgustida oddiy ishchi oilasida tug'ilgan. Uning otasi Kamolxon eshon (1903-1988) tijoratchi – savdogar edi. Kamolxon eshonning otasi Usmonxon eshon ham savdogar bazzozlardan edi. Xayotda o'rtahol bo'lsada ilmli-ziyolilardan edi. O'sha zamondagi o'qitilgan arabiylar, turkiy va yangi kirill alifbosidagi kitoblarni bemalol mutolaa qilar edi. Onasi Robiyaxon Uzoqboy qori akaning qizi edi. Uzoqboy qori yoshligida Qosimov Imodiddin – Ulfat bilan madrasada birga o'qigan do'sti edi. SHarofiddinning ota-onalari farzandlarini o'qimishli, ziyoli insonlardan bo'lib yetishishini juda-juda orzu qilar edilar. SHarofiddin boshlang'ich savodini mahallasiga yaqin joydagi 14 sonli maktabda boshlaydi. Sinfoshchlari ichida o'zining o'tkir zehni va odobi bilan ko'zga ko'ringan o'quvchilardan bo'ldi. 7 sinflik davridayoq adabiyotga mehr qo'yib Muqimiylar, Mashrab, Bobur, Furqat singari shoirlarni asarlarini zavq bilan o'qir edi. SHu paytlardan boshlab o'zi ham she'r yozishni mashq qila boshladi. 1964 yili Andijon Pedagogika Institutiga (hozirgi A.D.U) o'qishga kiradi. O'qish bilan birgalikda o'zining sevimli mashg'uloti - she'riyat bilan tinimsiz shug'ullanib bordi. Yozgan she'rlarini bu oliy dargohdagi zabardast shoirlar Ulfat, Boqir, Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov, To'xtasin Jalolovlarga ko'rsatib, ulardan she'riyat sirlarini va qoidalarini o'rgandi. Uning ilk bor "Vodiy g'azallari", "Yoshlik g'azallari" she'riy to'plamlari chiqarildi. Bu ijodiy g'azallarini "Farid" taxallusi bilan yozdi. Keyinchalik shoirning she'rlari viloyat va respublika matbuotlarida e'lon qilinib

turildi. Farid Usmon 1982 yili yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyat bo'limiga adabiy maslaxatchi vazifasiga tayinlandi. 1985-1987 yillarda Moskvadagi Maksim Gor'kiy nomli jahon adabiyoti institutida oliy adabiyot kursida o'qidi. Ko'plab kitoblar va qo'shiqlar muallifi. "Umid gulzori", "Sadoqat", "Navosiz navo", "Qadr kechasi", "Ul qaro ko'z bo'lmasa", "Jon qushi" va Mustaqilligimizning 15 yilligiga bag'ishlangan "Husn devoni" nomli ajoyib yangi kitobi chop etildi. SHoirning bir qancha g'azallari sevimli xonandalar O'zbekiston xalq artistlari Nuriddin Haydarov, Zamira Suyunova va xushovoz Xonanda Yaxyo Mo'minovlar tomonidan ijro etilgan. Hozirda "Kelajak" gazetasida muharrirlik qilish bilan birga iste'dodli yoshlarning jonkuyar murabbiyisidir.

2011 y. – Shaklar qo'shig'i: doston to'plami. 2015 y. – Shoh Bobur yulduzi: Qissa va hikoyalar. "G'ildirakli uy" hikoyalar to'plami. "Sharq" NMAK-2015 yil. 2016 y. - "Har kimning o'z xotirasi bo'lur". Erkin Vohidov haqida esse.

Sahna asarlari Andijon qo'g'irchoq teatrinda qo'yilib bolalarni shod qilmoqda. Bu saxna asarlari nafaqat viloyatda, balki Markaziy Osiyo davlatlarining qo'g'irchoq teatrlarida namoyish qilinib bir necha bor sovrinli o'rirlarni egallagan. 2016 y. - "Quyosh tabassumi" ertaklar. 2016 y. - "Ro'molchadagi qiz" Bolalarga bag'ishlangan p'esa (qo'g'irchoq teatrлari uchun).

Tinimsiz mehnati natijasida shoirning "Umid gulzori", "Sadoqat", "Navosiz navo", "Qadr kechasi", "Ul qaro ko'z bo'lmasa", "Jon qushi" va Mustaqilligimizning 15 yilligiga bag'ishlangan "Xusn devoni" nomli ajoyib yangi kitobi chop etildi. SHoirning bir qancha g'azallari sevimli xonandalar O'zbekiston xalq artistlari:

Nuriddin Xaydarov, Zamira Suyunova va xushovoz Xonanda Yaxyo Mo'minovlar tomonidan ijro etilgan. Farid Usmonni bolalarga yozilgan bir qancha she'rlari va sahna asarlari ham bor. Sahna asarlari Andijon qo'g'irchoq teatrinda qo'yilib bolalarni shod qilmoqda. Bu saxna asarlari nafaqat viloyatda, balki Markaziy Osiyo davlatlarining qo'g'irchoq teatrларida namoyish qilinib bir necha bor sovrinli o'rirlarni egallagan. 1998 yildan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi muassisligidagi "Kelajak" gazetasiga muxarrirlik qilib kelmoqda. Bundan tashqari yosh ijodkorlarga o'zining beminnat bilimini berish uchun "Orzular qanoti" nomli ijod markazini tashkil qilib murabbiylik qilmoqda. SHoirning bu kamtarona mehnatini va ijodiy she'larini tahlil qilib, yosh ijodkorlar va muxlislar e'tiboriga Andijon "Hayot" nashriyoti 2010 yili Abdug'ulom Sultonov muharrirligida "Andijonda bir ishqli dil bor" nomli risola chop etildi. Bu tahliliy risoladagi maqolalarga bir necha atoqli adabiyotchi olim va shoirlar qatnashgan. Ular shoirning ijodidagi barcha ijobili xususiyatlar va fazilatlar xalqimiz, millatimiz va yosh ijodkorlar ma'naviy ongini mustahkamlashga xizmat qilajagini ta'kidlashgan.

Farid Usmon yoshlik chog'laridayoq millatimiz iftixorlari, mumtoz ijodkor shoirlar Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, So'fi Olloyor, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi va ulardan keyingi asrlarda ijod qilgan Qori Zokir, Mavjiy, Xabibiy. Mahjuriy, Ulfat, Anisiy, Xurram, Boqir, Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov kabi shoirlar bilan hamsuhbat bo'ldi. Ular orqali "Andijon adabiy gurungi" to'g'risida

ko'p ma'lumotlarni oldi. Bu anjumanning asosiy faol ishtirokchilaridan biri - o'zining maxalladoshi Mahjur domla ekanligini bildi va u kishining xayot yo'lini o'rganishga astoydil bel bog'ladi. Jumladan yoshlik chog'ida Mahjur domlani birinchi bor ko'rganini eslab, shoir shunday lavhani keltiradi: Mahallada katta to'y marosimi o'tkazilayotgan paytda hamma yig'ilib o'tirganda birdaniga hamma yig'indagilar o'rinalidan turib to'yxona darvozasi tomonga qarashadi.

To'yxonaga kelgan oppoq kiyim kiygan bir ulug' odamni kishilar o'zgacha hurmat bilan kutib olishadi. Bu Mahjur domla ekanligini yosh Farid keyin biladi. Kunlarning birida Amonullo Valixonov – Boqir Farid Usmonni chaqirib, mahalladoshi Mahjuriy domlaning ijodlarini topib bir kitob chiqarish kerakligini aytadi. Bu xizmatni bajonidil bajarishga kirishib, Mahjur domlaning nabirasi Xusanxon orqali bir qancha ma'lumot va she'rlarini oladi. Bu topilmalarni jamlab bir bayoz shakliga keltirib Toshkentga olib boradi va G'afur G'ulom nomidagi nashriyotga kiradi. Nashriyot rahbari Boboxon SHaripovga Mahjur domla to'g'risida ma'lumot berib bu bayozni nashr qilish to'g'risida bitimga keladi. Ming afsuslar bo'lsinki, bayoz nashr qilingunga qadar Boboxon SHaripov boshqa ishga o'tib ketadi. Bayoz nashri qolib ketadi. Farid Usmonning Mahjurga bo'lgan muhabbat so'nmadi va shoir Mahjur domlani vafotidan keyin u kishini tarixiy shaxs sifatida abadiylashtirish uchun harakat qila boshladi.

Avvaliga "Namuna" gazetasiga: "Mahjuriyni unutayotganga o'xshaymiz" nomli maqola yozadi. So'ngra "Oltin vodiy" ro'znomasiga maqola beradi. Maqolada Mahjuriy domlaning nomini abadiylashtirish uchun birorta ko'cha va mакtabga u kishining nomini berishni Andijon viloyat hokimligi qoshidagi atamalar qo'mitasiga taklif qiladi. Oxir-oqibat Farid Usmonning qattiq talab va taklifi bilan topografiya komissiyasi tomonidan Mahjuriy domla yashab o'tgan ko'chaga (Sobiq Gagarin) "Mahjuriy" nomi beriladi. Farid Usmon tavalludining 60 yilligi munosabati bilan Andijon viloyat hokimligi hamda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi tomonidan 2006 yili o'tkazilgan ijodiy kechada bir qancha adiblar shoir haqida bir qancha ma'ruzalar qilishdi. Farid Usmon O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Hozirda nazm ijodidan tashqari nasr yo'lida yo'lida ham ijod qilmoqda.

Ne'mat

Ma'naviy istaklarim, siz qolmangiz uch pul bo'lib,
Qarshingizda toza hislar turmasin hech qul bo'lib.

Ma'naviy istaklarim, bog'lar kezing, gulshan kezing,
Millatim vasfini aylab sayrangiz bulbul bo'lib.

Termulib boqsin siza hayratlanib dunyo eli,
Ochilib xushbo'y atr soching chiroyli gul bo'lib.

Ma'naviy istaklarim, ming bor shukrlar aylagum,
Sizga xizmatlar qilib kelmoqdaman bir qul bo'lib.
Siz Faridjonga Xudoyimning aziz bir ne'mati,

Ma’naviy istaklarim, rost, qolmangiz uch pul bo’lib...

Gulistondan

Odamizod bahramanddir zavq olib doim gulistonidan,
Va lekin seskanaru, nechadir doim go’ristondan.

Tushunmam, qalbimizda nechun bu ikki tuyg’u jam,
Hanuzki bexabardurmiz muammodan – bu chistondan.

Bu bo’stonni go’riston bo’lmagan deb, rost kim aytolg’ay,
Go’ristonlar yaralgan, ehtimol, har yaxshi bo’stondan.

Ayondir o’ziga, do’stlar, ayondir o’ziga olam,
Yaralgandir, bu olam qatma-qat, ming qatma-qat jondan.

Gulistonu go’riston farqiga borgan u dunyoda,
Gadoni farq etolsa koshki erdi shohi sultondan...

Farid, tufroqqa termulgin, guliston shaklida kulgan,
Xabardor ayla do’stlarni topishmoqdan-bu chistondan.

O’lsam ham

Sevarman o’la-o’lguncha emas, hattoki o’lsam ham,
O’lib bu qop-qaro yer bag’riga bir kun ko’milsam ham.

Sevarman qish o’tib, bir kun bahor yomg’irlari yoqqach,
Qabrdan lolalar timsolida senga ko’rinsam ham.

Agarchi yig’lasa osmon, uni sen ko’z yoshim bilgin,
Sevarman sel yuvib qabrimni – toshqinga ko’milsam ham.

Tasodif bo’lsa, tep-tekkis qilib tashlashsa qabrim gar,
Sevarman ko’zlarinka yer kabi tekkis ko’rinsam ham.

Hayot turguncha sevgimni, Farid, chin asramoq burchim,
Sevarman o’la-o’lguncha emas, xattoki o’lsam ham.

QAMCHIBEK KENJA (1947).

1947 y. – Shoir, adib Qamchibek Kenja Andijon viloyati Izboskan tumanida tug’ilgan. 1964-1969 y.y. – Toshkent davlat universiteti jurnalistika, filologiya fakultetlarida tahsil oldi. “O’zbekiston madaniyati” (hozirgi “O’zbekiston adabiyoti va san’ati”) gazetasida ishlagan. 1975 y. – ilk she’rlar to’plami “Sog’inch” nashr etildi. 1977 y. – “Yashil barg” birinchi hikoyalar to’plami. 1979 y.y. – maktablarda o’qituvchilik qilgan. 1979 y. – “Ko’ngil ko’chalari” kitobi. 1980 y. – O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Badiiy adabiyotni targ’ib qilish byurosining Andijon viloyatidagi vakili. 1981 y. – “Ishqing tushsa” kitobi. 1983 y.

– O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi. 1985 y. – O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Andijon viloyati bo’limida mas’ul kotib. 1989 y. – “Orzumandlar” kitobi. 1992 y. – “Sohibjamol ayol siri” kitobi. 1993 y. – “Sohildagi suv parisi” kitobi. 1997 y. – “Muhabbatni gunoh desalar” kitobi. “Hind sorig’a sayohat” kitobi. Qamchibek Kenja “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

ISMOIL TO’LAK (1947-2003).

Ismoil To’lak 1947 yil 15 mayda Andijon tumani Xrabek qishlog’ida tavallud topgan. U Bo’taqora qishlog’idagi mакtab-internatni tugatib, Andijon davlat pedagogika instituti (hozirgi Andijon davlat universiteti)ning filologiya fakulitetiga o’qishga kirgan. 1969 yilda institutni bitirib, harbiy xizmatni o’tagan. 1971-1995 yillarda ushbu oliy o’quv yurtida, so’ngra Andijon davlat tillar pedagogika institutida ishladi. Respublika test markazi Andijon viloyat bo’limida faoliyat olib bordi.

Badiiy ijodga qiziqishi erta boshlangan, u shoир sifatida adabiyot olamiga 60-yillarda kirib keldi. Birinchi she’riy to’plami “Seni o’ylab” nomi bilan 1977 yilda chop etildi. SHoirning “To’rg’ay” (1983), “Kengliklar” (1984), “Yashil sabo” (1989), “Muhabbat shevasi” (1995), “Sog’inch dovon” (1997), Ko’ksimdag haqiqat” kabi she’riy to’plamlari chop etilgan.

Ismoil To’lak 1981 yida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “dissertatsiyasini himoya qildi. 1994 yilda “Hozirgi o’zbek lirikasida davr va lirik qahramon talqini” mavzusida doktorlik ishini yoqladi. Uning adabiyotshunoslikka doir risolalari “Nurli manzillar” (1992), “XX asr o’zbek adabiyoti” (1993), “SHe’r qalb yolqini” (1994) chop etilgan.

SHoir va olim ismoil To’lak hukumatimiz tomonidan “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

Ismoil To’lak 2003 yilning 24 dekabrida vafot etdi.

MUHAMMAD YUSUF (1954-2001).

1954 y. 26 aprel. – O’zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf Andijon viloyati Marhamat tumani, Qovunchi qishlog’ida tug’ildi. 1978 y. – O’rta maktabni tugatgandan so’ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini tamomladi. 1978—1980 y.y. – Respublika Kitobsevarlar jamiyatida ishladi. 1980—1986 y.y. - “Toshkent oqshomi” gazetasida ishladi. 1986—1992 y.y. - G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida xizmat qildi. 1993 y. - “O’zbekiston ovozi” gazetasida faoliyat ko’rsatdi. 1976 y. – Dastlabki she’rlari “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan. 1985 y. – “Tanish teraklar” kitobi. 1987 y. – “Bulbulga bir gapim bor” kitobi. 1988 y. – “Iltijo” kitobi. 1989 y. - “Uyqudagi qiz”, “Halima enam allalari” kitoblari. 1989 y. – “Uyqudagi qiz” nomli she’riy to’plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi. 1990 y. – “Ishq kemas”, “Ko’nglimda bir yor” kitoblari. 1991 y. – “Bevafo ko’p ekan” kitobi. 1992 y. – “Erka kiyik” kitobi.

2001 y. 31 iyul. — vafot etdi.

NABI JALOLIDDIN (1962).

1962 y. 2 may — Shoir, yozuvchi, publitsist Nabi Jaloliddin Andijon viloyati Izboskan tumani Jonobod qishlog’ida tug’ilgan. 1981-1983 y. — Harbiy xizmatni Afg'onistonda o’tagan. 1993 y. — Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetini sirtdan bitirgan. 1993 y. — “Yalpizli kecha” she’rlar to’plami chop etildi. 1996 y. — “Hur nido”, “Sen bilan qolmayman” she’rlar to’plami nashr etilgan. 1998 y. - “O’limning rangi” qissasi. 2002 y. — “Sen bilan qolmayman. 2005 y. - “Yig’i”, “Bolalar”, “Jin” qissalari, “Erkagi bor uy” hikoyalar to’plami. “Xayyom” va “Tegirmon” romanlari chop etilgan. A.Kamyuning «Kaligula» asarini o’zbek tiliga tarjima qilgan. “Xumor” qissa. “Chuvalchang yoqqan kecha”, “Tosh qal’a”, “Yo’lovchi”, “Qaytish”, “Urushning davomi”, “Yashash huquqi” – hikoyalar.“Tegirmon” romani.

Nabijon Jalolov Andijon viloyatining Izboskan tumani Jonobod qishlog’ida 1962 yil 2 mayda tavallud topdi. Otasi Jalolov Sotqinboy (1926-1969) oddiy kolxozchi bo’lgan. U kishi tarbiyalı, o’qimishli, ziyoli odamlardan bo’lib, goho she’rlar ham mashq qilib turar edi. Onasi Jalolova Xuvaydoxon (1930-1973) oddiy kolxozchi bo’lgan.

Nabi Jaloliddin 1980 yilda To’rtko’ldagi rassomchilik mакtab-internatini (hozirgi ixtisoslashgan san’at maktabi) tugatgan. 1981 yili Afg'on urushida qatnashib 1983 yilgacha xizmat qilgan. 1987-1993 yillarda Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O’zbekiston Milliy Universiteti)ning jurnalistika fakulitetini bitirgan. Mehnat faoliyatini 1980 yilda Poytug’dagi viloyat remont-mexanika ustaxonasida oddiy ishchilikdan boshlagan. Matbuotdagi faoliyati 1990 yilda viloyat kasaba uyushmalari birlashmasining “Adolat” gazetasida boshlandi. Xozirda viloyat “Andijonna” gazetasida bo’lim mudiri bo’lib ishlamoqda. Nabi Jaloliddin O’zbekiston yozuvchilar va jurnalistlari ijodiy uyushmasi a’zosi. Nabi Jaloliddin asosiy ish faoliyatidan tashqari o’zining sevgan mashg’uloti she’riyat va nasr yo’lidagi hikoyalari bilan shug’ullanib kelmoqda. SHoirning ijodiy mehnatidan: “Yalpizli kecha” - 1993 yili, “Xur nido” - 1996 yili, “Sen bilan qolmayman” - 2002 yili nashr qilingan. Nasriy ijodidan “O’limning rangi” - 1998 yili, “Erkagi boru,..” - 2005 yili kitobi nashr qilindi. Bundan tashqari “Xayyom” nomli romani nashr qilinib 2006 yili “SHarq yulduzi” jurnalining 1-3 sonlarida e’lon qilindi.

Hozirda shoir o’zining navbatdagi “Qurb” nomli romanini yozib tugatib uni nashr qilish arafasida turibdi. Nabi Jaloliddin adabiyot va she’riyatdagi bilim va tajribalarini yosh ijodkorlarga xolis o’rgatish uchun yordam tariqasida o’z tashabbusi bilan 2004 yildan buyon “Muxammad Yusuf ijodkorlar to’garagi” nomidagi viloyat yosh ijodkorlar to’garagiga rahbarlik qilib kelmoqda.

SHoirning keng hayot tajribasiga asoslangan holda Andijon viloyat halq deputatlari viloyat kengashiga 2009 yili dekabrb oyida deputat qilib saylandi.

NAVOIYDAN SO’Z AYTMAKLIK

Navoiydin so’z aytmaklik azal ko’ngulga roxatdir,
Ki nazm aro navosizlik g’azalga zo’r malomatdir.

Bulbul ishqqa timsol ersa ming bulbulga piri murshid,
Ayo pirim ayo shayxim xayolingiz farog'atdir.

Xar baytida zikri Olloh xar satrida g'ami odam,
Turkigo'ylar tufrog'idan boshga ko'chgan samovatdir.

Ilmi qolmi ilmi holmi va yo ilmi Laduniymi,
Bari pinhon tiynatida so'zi misli salovatdir.

Umr foniy ko'ngul ozod navolarda suzar bo'lsang,
Kuning she'r-la kecharkan to har biri bir ziyyaratdir.

Vatan ichra vatandir u ko'k tokiga tutashgulik,
Bul ma'voda fuqarolik foniy jonga halovatdir.

Nabi tufrog' Nabi gildir Navoiyning peshin tutmish,
O'zi osmon o'zi yulduz anga gardlik saodatdir!...

VATAN

Qovurg'amning ostidagi,
Alvon bulog'imsan Vatan.
Etmish ikki tomrimda jon,
Boshdin oyog'im – san Vatan.

Tanim bo'lgay chamanzorlar,
Ketib ko'ngildan ozorlar.
Navolardan hushu behush,
So'rgan so'rog'imsan Vatan.

Navolarda havolandim,
Havolarda sabolandim.
SHirin-shirin bo'ylar bergen,
Mangu uchmog'imsan Vatan.

Samolarda ko'zim qotsa,
Tamog'imda so'zim qotsa.
Xudo vasli – me'rojlarga,
Eltar Burog'imsan Vatan.

Etti falak poyingdadir,
Jumla jonzot koyimdadir.
Farishtalar majlis tuzgan,

Bog'im – quchog'imsan Vatan.

BUNCHALAR BO'LMASANG CHIROYLI!

Ko'zimga botdimi quyoshlar,
Kipriklar osdimi yo Oyni?
Vujudim tig'ladi taloshlar,
Bunchalar bo'lmasang chiroyli.

To/lg'ondi ingrandi yuragim,
Qo'lni ber yur unga kiraylik.
Yorilib ketay der qaragin,
Bunchalar bo'lmasang chiroyli.

Yukindim yutoqdim qoshingda,
Ayta qol yo jonim beraymi?
Ohimdan oq gullar boshimda,
Bunchalar bo'lmasang chiroyli.

Yorilgan lablarim bosaman,
Toshlarga yo boshim uraymi?
Hey buyuk jon ichar yosuman,
Bunchalar bo'lmasang chiroyli!

MINHOJIDDIN MIRZO (1965)

1965 y. 30 iyul — Shoir Minhojiddin Mirzo (Minhojiddin Hojimatov) Andijonda tug'ilgan. 1990 y. — O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakultetida o'qigan. 1994 y. — “Nilufar” kitobi. 1999 y. — “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. 2003 y. — “Visol xabari” she'riy to'plamlari, “Qayg'u gul”, “Sog'inch sultanati” dostonlari, “Saodatga eltuvchi qudratli kuch” esselar kitobi nashr etilgan. 2002 y. — “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist” unvoni bilan taqdirlangan. 2009 y. — “Yulduzim” she'rlar to'plami chop etildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi rais o'rinosi bo'lib ishlamoqda.

Minhojiddin Mirzo o'zbek she'riyatiga yosh ijodkor sifatida kirib kelgan. Uning she'riy mashqlari vaqtlar o'tib mukammal she'rga aylangan, shoirona mahorati she'rda she'rga shakllanib bordi.

Minhojiddin Mirzo (Hojimatov Minhojiddin) 1965 yil, 30 iyulda Andijon shahrida tug'ilgan. 2002 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist unvoniga sazovor bo'lgan. 1990 yilda Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uning she'riy to'plamlari 1994 yilda “Nilufar”, 2003 yilda “Visol xabari”, 2009 yilda “Gullah payti keldi, bog'larim” chop etilgan. Shuningdek, Rasul Hamzatov, Aleksandr Pushkin kabi shoirlarning she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1999 yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. 2013 yilgacha shoir O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining rais o'rinosi, 2013

yildan 2014 yilgacha Madaniyat va sport ishlari vazirligining vaziri bo'lib ishlagan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinnbosari lavozimida ishlab kelmoqda.

She`riyat – nafosat, go'zallik. She`riyat – shoir qalbining ko'zgusi. She`riyat – hayot mohiyatini tiniq ko'rmoq, shoirona idrok etmoq, aniq-tiniq ifodalamoq. She`riyat – yashash uchun kurashning ko'rinishi. Shoirning o'zi she`riyat borasida fikrlar ekan, uni go'zal tashbehlar bilan "koshona" deb ataydi hamda bu koshonaning ostonasi "aziz" ekanini ta'kidlaydi:

Nazir qildim dilimni
Bu go'zal koshonaga.
Er o'pib qo'ygum qadam
Shu aziz ostonaga.

Shoirning she`riyat, adabiyot, nafosat olamiga kirib kelishi bejiz emas. Uning "Gullash payti keldi, bog'larim" she`riy to'plamida "Biz suv ichgan daryolar" sarlavhali kichik badiasi bor. Minhojiddin Mirzo yozadi: "Mahallamizning qadimiyligi nomi Qatorterak bo'lган, ha, to'g'ri esladingiz, o'sha Cho'lpon tug'ilgan Qatorterak mahallasi. Qatorterak bu keng tushuncha bo'lib, u bir nechta mahallalarni birlashtirgan. Chunki Andijon shahridagi hozirgi Navoiy shohko'chasi, uning atrofidagi bir qancha ko'chalarni o'z ichiga olgan hudud kattalar tilida Qatorterak deb atalardi. O'ylab ko'rsam bizning va bizning atrofimizdagi mahallalarda ma'rifatparvar kishilar ko'p chiqqan ekan"¹. Shoirning "biz suv ichgan daryolar" deyishining o'zidayoq ikki xil ma'noni tushunamiz. Birinchi, o'z ma'nosi shundaki, o'zbek millatining buyuk ziyolisi Cho'lpon yashagan joyda tug'ilish va shu yerning havosi, suvi, ne'matlaridan bahramand bo'lib unib-o'sish tushuniladi. Ikkinchidan, Qatorterakda yashagan shoiru yozuvchilar, so'z va nafosat, musiqa namoyandalarining asarlaridan ijodiy oziq olib shoir bo'lib yetishish tushuniladi. "Atoqli shoiramiz Saida Zunnunova bizdan to'rtta naridagi xonadonda tug'ilib o'sgan, - deb davom etadi shoir esdaliklarida. - Ajoyib shoiramiz Mukarrama Murodova esa shunday orqa ko'chada tug'ilib o'sganlar. Atrofdagi ko'chalarda katta shoir Vosit Sa'dulla, betakror hofizimiz Fattoxon Mamadaliev, taniqli olim Obidjon Valiev kabi Andijonda taniqli bo'lган qancha olim va san'atkorlar, el ardog'idagi kishilar yashaganlar"².

Shoirning eslashicha, u yashagan mahalla shoirning katta bobosi (bobosining dadalari) Hojimuhammadhoji nomlari bilan ham atalgan, qo'shni mahallalar oqsoqollaridan biror to'yga yoki boshqa marosimlarga xat jo'natiladigan bo'lsa, o'tgan asrning yetmishinchi yillari o'rtalarigacha ham "Hojimuhammadhoji mahallasiga" deb yozilar ekan. Minhojiddin Mirzoning buvisi Zuhrabibi Halimboy qizi bo'lган. Uning aytishicha, Hojimuhammadhoji o'z zamonasining ham ilmli, ham xalqparvar, o'ziga to'q kishilaridan biri bo'lган ekan. Hozirgi Yangi turmush

¹ Биз сув ичган дарёлар. / Минҳожиддин Мирзо. Гуллаш пайти келди, боғларим. – Т., 2009. 114-6.

² Биз сув ичган дарёлар. / Минҳожиддин Мирзо. Гуллаш пайти келди, боғларим. – Т., 2009. 114-6.

mahallasiga kiraverishda bir paytlar katta qabriston bo'lib, shundan birgina qabr saqlanib qolgan. Hojimhammadhoji mana shu joydan o'tishda doimo otdan tushib yetaklab o'tar ekan. Saxiy, qo'li ochiq, odamparvar, katta ilm va e'zozga erishgan kishi bo'lgan ekan.

Minhojiddin Mirzoning o'z shajarasini bilishi, bobo va buvilarining katta urug', taniqli insonlar bo'lганligini, ma'rifatli sulola ekanini uning quyidagi esdaliklari orqali ham bilib olamiz: "Opoqdadam Abulqosimhoji, xalq tilida Alqosimboyvachcha ham nihoyatda sahovatli, odil, oqil, ilmli kishi bo'lgan. shu bilan birga u kishi katta tabib edilar. Men yetti yoshlarda ekanligimda vafot etgan bo'lsalar-da, ularni yaxshi eslayman. Ko'p kasallar kelar edi. Opoqdadam ularning bilagini ushlab tashxis qo'yardilar. Eslayman, hech qanday umid qolmagan, mahallamizdagi nochor oilalardan birining o'g'lini davolab yuborganlar"¹.

Shoir asosan opoqdadasi Abulqosimhoji, buvisi Zuhrabibi, opoqdadasining yana bir ayollari Saydiniso buvining ertak va hikmatlarini, katta buvisi Xosiyatxonning Oftoboyimlarnikiga o'xhash go'zal va betakror lutflarini, dadasi Mirzobek va tog'asi Qodirjonning "Ming bir kecha", "Bog'i bahor", "Ibrohim Adham" kabi qissa va dostonlarini, tog'asining Qul Xoja Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bedil hikmatlarini mag'zini chaqib beruvchi suhbatlari, onasining unchamuncha yetuk san'atkorning ovozi va ijrosidan qolishmaydigan go'zal ashulalarini va eng muhimi, "Yulduzim" deb nomlangan allalari, keyinchalik o'ziga xos ohang va usulda o'qiluvchi g'azallarini tinglab voyaga yetganini yozadi. "To'g'risini aytaman, - deydi shoir, - hali erkak ovozida dadamchalik, ayol ovozida onamchalik go'zal g'azal o'qigan odamlarni uchratmadim. U maktab ham, u ohang ham butunlay boshqacha edi. Dadam to'g'riso'z, chapanife'l, g'irromlik va nomardlik bilan aslo kelisha olmaydigan, bir so'zli, do'stlarga sodiq, nihoyatda sahovatli inson edilar. Onam esa nihoyatda lutfi shirin, sabrli, shu bilan birga shijoatli, dunyoqarashi keng, mulohazali, nazari to'q, adabiyot, musiqani nihoyatda teran tushunadigan, shirin lutfi bilan ko'ngillarga ko'prik sola oladigan ayol edilar. Maktabni oltin medal bilan tamomlagan, ilk she'rlari bilan ustozlar nazariga tushgan ekanlar. Ular dastlab Andijon pedagogika institutiga kirgan, keyinchalik Andijon tibbiyat institutiga o'qishga kirgan, oilaviy sharoit tufayli ikkisini ham davom ettirolmaganlar. Husnixatlari nihoyatda chiroyli edi. Butun oilamiz, akaopalarim, singlim va men onamning husnixatlaridan andoza olishga intilganmiz".

Oناسining yana bir fazilatlari hovliga faqat rayhon ekar ekanlar. "Ertatong va oqshom paytlari ularni erkalaganday siypaganlarida hovlimiz jannatga to'lib ketardi, deydi shoir. – Butun mahallamizga yetarli edi u rayhonlar. Ko'ngillari ham o'sha rayhonlar yanglig' iforli edi. Hatto olamdan o'tganlarida ham yaratganning huzuriga rayhon bilan kuzatganmiz".

Har bir ijodkorning katta shoir, taniqli yozuvchi, sevimli adib bo'lishida u yashagan oila muhiti, birga unib-o'sgan yor-do'stlari, qurshab turgan ijtimoiy muhitining ahamiyati juda katta. Minhojiddin Mirzoning tarjimai holi bilan

¹ Биз сув ичган дарёлар. / Минхажиддин Мирзо. Гуллаш пайти келди, боғларим. – Т., 2009. 115-6.

tanishish orqali uning asarlaridagi g'oyaning, nafosatning, badiiyatning ildizlari qaerdan boshlangani haqida bilib olamiz. Shoир ijodida ona obrazining keng ishlanishi ham uning muhabbatini onasiga yurak-yurakdan bo'lganini his qilish mumkin. Shoирning katta qalb va samimi tuyg'ular kuychisi bo'l shida onasining roli katta ekanini quyidagi e'tiroflardan anglaymiz:

“Onam aytgan “Otmagay tong”, “Bayot”, “Giryा”, “Segoh”, “Bu ko’ngildir, bu ko’ngil”, “Buncha zor etding meni” kabi o’nlab qo’shiqlar bir umr qalbimizga muhrlangan. Shundanmi, xonadonimizda ashula aytmaydigan kishi yo’q. Akalarim, opalarim, singlim va men har birimiz soz chalardik. Uyimizda rubob, tor, doira, chang, dutor, elektron musiqa asboblari bor edi. Lekin shularning debochasi sifatida dastlab onam aytgan allalar muhrlangan bo’lsa ajab emas. Ayniqsa, onam aytgan “Yulduzim” allasi menga nihoyatda boshqacha ta’sir qilgan ekanmi, shunday eslashardi:

Onam bolaligimda mening beshigimni tebratib shunday alla aytar ekanlar:

Yulduzim desam ham oz,
Qunduzim desam ham oz.
Bu dunyoda nima yaxshi
Bo’lsa o’zing undan soz.
Uxla, qo’zim alla-yo,
Uxla, yulduzim alla...

Asalmisan, qandmisan,
G’azal-muhabbatimsan,
Buncha shirinsan o’zing,
Jonimga payvandmisan...
Uxla, qo’zim alla-yo,
Uxla, yulduzim alla...

Oyni terib beraymi,
gullar terib beraymi,
Atrofingda aylanib,
Shamol kabi yelaymi...
Uxla, qo’zim alla-yo,
Uxla, yulduzim alla...

Eng qizig’i, keyinchalik tilim chiqib yura boshlaganimda ham, uyqum kelsa onamga borib tizzalariga bosh qo’yib “ayajon, yulduzim qiling, yulduzim qiling” derkanman va “Yulduzim”ni eshitib uyquga ketarkanman. keyinchalik bilsam, bu alla xassos shoiramiz Saida Zunnunova qalamiga mansub ekan”.

Bu alla shoир qalbiga shu qadar muhrlanganki, uning o’z farzandlari ham shu alla bilan voyaga yetgan ekanlar. Shoирning to’rt qizdan keyin tug’ilgan o’g’li Nurislomning ayasiga xarxasha qilib uyga tortib chuchuk til bilan “Aya, yuduzim qiling, yuduzim qiling” deganini ko’rib ko’zlaridan yosh chiqib ketganini so’zlaydi.

Minhojiddin Mirzo fikricha, ona allasi bilan farzand qoniga, ongi-qalbiga, nafaqat onaning, balki shu muqaddas zamin – Vatanning mehri singib boradi. Ona allasini eshitib, beshikda ulg’aygan boladan yomonlik chiqmaydi. Ona allasiga bo’lgan mehr bir kun ulg’ayib o’lmas qadriyatlar, an’analar, ma’naviyatga bo’lgan mehrga, beshikka bo’lgan mehr esa, Oltin beshik bo’lgan Vatanga bo’lgan mehr ko’rinishida shakllanib boradi. Ana shu buyuk mehrni farzandlar, nabiralar qalbiga singdirish hammaga nasib etishini, vatanga, yurtga, xalqqa, millatga bo’lgan sadoqat ildizlari ana shu murg’ak chog’larda qalblarga tashlangan urug’dan unib chiqishini ta’kidlaydi.

Shoir Minhojiddin Mirzo she’riyatining mavzular ko’lami keng, obrazlar olami turfa, badiiy ifoda usullari rang barangdir. Uning ijodida vatan, ona, she’riyat, mehr muhabbat, vafo, sadoqat, do’stlik, oqibat, mustaqillik, ishonch, g’urur, iyomon, sabot, tabiat, nafosat kabi qadriyatlar asosiy mavzu sifatida yetakchilik qiladi. Shoir tushunchasidagi “Vatan” juda ham keng ma’noga ega. Bu muqaddas so’z ona tuproqdagagi giyohda, tog’lardagi kiyikda, yulduzlarda, quyoshda, g’urraklarning chug’urlashida, maysalaru qizg’aldoqlarda, bog’larda, suvlarda akslanadi.

Tog’laring ko’nglimda tikladi g’urur,
Suvlaring qalbimning yuvdi zangini.
Hatto chumolilar tilida shukur,
Men shundan angladim Vatan rangini.

(“Visol xabari”. 2003. 7 b.)

“Visol xabari” to’plamiga shoir Ikrom Otamurod tomonidan yozilgan so’zboshida quyidagi fikrlar e’tiborga molik. “Iste’dodli shoir Minhojiddin Mirzoning bitiklarida kuzatuv va his, taassurot va anglash, ya’ni zohir ila botin uyqashib keladi. Yana bir tomoni, mushohada ila tuyg’u birikib ruh mohiyatiga aylanadi. Hislar bag’ridan o’sadi Vatan degan yuksaklik. Mushohadalar vazminligi tuyg’ular tug’yoniga singadi, tuyg’ular tug’yonи mushohadalar vazminligiga ko’chadi”¹. Darhaqiqat, shoir ijodini kuzatganimizda madhiyabozlikdan farqli, “yashasin!”bozlikdan yiroq, maddohlikdan uzoq turuvchi sokinlik, lekin chuqur mushohadali, teran tafakkur egasining samimiyl qalbini idrok etamiz.

Adabiyotning bosh qoidasi tasvir bo’lganidek, shoir Minhojiddin Mirzo she’riyati uchun xos xususiyat ham bayonchilik, maddohlik emas, balki tasviriylik muhim mezon hisoblanadi. Shoirning vatan mavzusida she’rlarini o’qigan kitobxonda ona yurtning go’zal tasvirlari ko’z oldida gavdalananadi.

Bulbulga tikondin yetsa-da ozor,
Unga aziz erur shu joy, shu gulzor.
Yurtim, bulbullaring nafasin tuydim,
Kim Vatanga yordir, Vatan anga yor.
(“Vatan”. “Visol xabari”. T., 2003. 8 b.)

¹ Икром Отамурод. “Рұхимга пок маъволар керак”/ Китобда: М.Мирзо. Висол хабари.- Тошкент: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси, 2003. З бет.

Taniqli munaqqid va olim A.Rasulov esa so'nggi yillar o'zbek poeziyasining biz tahlil qilgan tamoyillari haqida so'z yuritib, shunday deydi: «so'nggi yillar o'zbek poeziyasida insonning o'zini-o'zi anglash muammosi jiddiy talqin etilmoqda. Inson ruhiyatidagi hayot, ziddiyat, falsafiy-ruhoniy talqin hech kimni befarq qoldirmaydi. Abdulla Oripovning «Bir qarasam» she'rida ham o'zini-o'zi anglash, ruhiy holat, ichki kurash aks etadiki, u asarning umriboqiyligini ta`minlagan...»

O'zbek adabiyotida «men» - «yaratgan hamma narsamiz» qatlami yohud inson farzandining tabiat va jamiyat bag'rige to'la kirib borishi, «men» - «koinot» qatlami yoki ilmiy-diniy-falsafiy qarashlarni yaxlitlikda aks ettirgan murakkab asarlar hali ko'p emas... Rauf Parfi, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor singari shoirlar asarlarida tarixiy nomlar, asarlar, diniy tariqatlarga ishoralar borki, ularni o'zlashtirish uchun ma'lum tayyorgarlik bosqichini o'tash joiz»¹.

Shoir Minhojiddin Mirzo ijodga kirib kelgan onlaridayoq she'riyatni muqaddas bilgan, hayotning mazmunini xassos shoirlar kabi anglagan. Bilamizki, bulbul mumtoz she'riyatda oshiqlik ramzi, shuningdek uni o'z ishqini kuylovchi qush sifatida tushuniladi. 1984 yilda yozilgan shoirning "Ko'ngil umidi" she'rida bulbul va qizg'aldoq tushunchalari o'quvchida shoir qalbini anglashda ramziy-poetik vazifasini o'tagan:

Hayotdan umidvor yashayveraman,
Hali kutganim ko'p yorug' dunyodan.
Tiriklik dashtida goh g'am teraman
Ko'zlarim nur emar sohir ziyodan.

Yo'q, aldamayapman o'zimni o'zim.
Ishonchim bor hali hayotdan manim.
Bir bulbul umrini yashashim kerak,
Qizg'aldoq ostiga kirkuncha tanim.

She'riyatimizda mustaqillikni qutlash va ulug'lash g'oyasi uni asrash va mustahkamlash g'oyasi bilan chambarchas bog'liq holda aks ettirildi. Bir guruh shoirlar tomonidan 1991 yilda hozirjavoblik va tezkorlik bilan yaratilgan «Mustaqillik qasidasi»da mustaqillikning qadri hamma narsadan baland qo'yildi. Uni ko'z qorachig'iday saqlash va mustahkamlash uchun bir tan, bir jon bo'lib harakat qilish, qiyinchiliklarni mardona yengib maqsad sari dadil qadam tashlash g'oyasi olg'a surildi.

Shoir Minhojiddin Mirzo ijodidagi mustaqillik g'oyalari aks etgan she'rlar hayqiriq, xitob, quruq madhdan yiroq jo'shchin, qalb harorati bilan sug'orilgan, samimiyl muhabbat izhori, ozodlikning tub ildizlarini, tarixni badiiy tafakkurdan o'tkazish mahsuli sifatida yaratilgan. "O'zbekiston" she'ri go'yo musiqiy ohang bilan yaratilganday tuyuladi:

Ona yurtim, bu kun men seni,
Qutlamoqchi bo'ldim chin dildan.

¹ A.Rasulov. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan. 2006 y. 105-106-betlar.

Zulmatlar ham chekindi nурдан,
 Men rизоман endi umrimдан.
 Kishanlaring uzilgan kecha,
 Uyg'ondи-ku bir butun olam
 Cho'lponlarning sasi edimu,
 Ovoz keldi: "Bardam bo'l, bolam!"
 Qodiriyda qiyalnigan jonsan,
 Endi ozod O'zbekistonsan!

Shoir mustaqillikni qo'llab-quvvatlab, uni har tomonlama mustahkamlash g'oyasini olg'a surar ekan, mustaqillikning asl mohiyatini faxr bilan ko'rsatib ozodlikni bebaho, buyuk ijtimoiy ne'mat sifatida ta'riflaydi. Minhojiddin Mirzo mustaqillikning xalqqa bergen imkoniyat va imtiyozlarini tasvirlab, uni dil-dildan ulug'lar ekanlar, mustaqillik yo'lining o'ziga xos qiyinchiliklarini ham yashirmasdan ochiq aks ettirdi.

Shoirning "Men bilgan dunyo" (1990) she'ri jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, unda ozodlikning muqaddas orzu bo'lgani haqida chuqur, iztirobli kechinmalar aks etadi:

Dilim qon, yurak xun bo'g'ilib, bo'zlab,
 Hurlik manzil tikkан makонни ko'zlab.
 Oqibat eliminating murodin so'zlab,
 Bir go'zal dunyoning ichidan o'tdim.

Malomat g'oridan mukarram chiqdim,
 Qorong'u tun ichra munavvar chiqdim,
 Yolg'izmas umid-la baravar chiqdim
 Bir go'zal dunyoning ichidan o'tdim.

..."Ozodlik" deb kuylar bunda har bulbul,
 "Ozodlik" deb kuylar bulbul-la har gul,
 "Ozodlik" deb kuylar, mudramagil, tur,
 Bir go'zal dunyoning ichidan o'tdim.

Mustaqillik davrida inson qadri - qimmati va uning bunyodkorlik mehnati, aql-irodasi, olajanob insoniy tuyg'ulari haqida ham shoir ijodida anchagina namunalar uchraydi. Mustaqillik davriga kelib qayta tiklangan va tegishli tarzda o'z qadr - qimmatini topa boshlagan milliy urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizni va ajoyib milliy an'analarimizni shoir ixlos bilan tasvirlab, targ'ib qildi. Shoir bu davrda yozgan she'rlarida xalqimizga xos bag'rikenglik, kelajakka ishonch, hamjihatlik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, do'stlik, mulohazakorlik, donishmandlik, ilmg'a o'chlik, mardlik, to'g'rilik va axloqiy poklik singari milliy xarakter belgilarini maftun bo'lib aks ettirdi. Minhojiddin Mirzo mustaqillik davrida yaratgan sara asarlarida inson o'z hayotini xalq, mamlakat hayotidan chetda tasavvur qilmasligi, inson-insonga qo'lidan kelganicha, beminnat yaxshilik qilishi, xalqning shodligiga ham, g'amu tashvishiga ham birdek sherik bo'lishi lozimligi, boshqacha qilib aytganda,

elim deb, yurtim deb kuyib-yonib yashash, to‘yda ham, azada ham ko‘pchilik bilan birga bo‘lish g‘oyasi rang-barang shakllarda ifodalandi.

“Vatan nadur?” she’rida shoir an’anaviy mavzu – ona vatan haqida so’z yuritar ekan, ona tuproq, zaminni tarixda o’tgan mard o’g’lonlar siymosida ko’radi:

Vatan nadur, so’nmagan
Yorqin yulduz – qaroqdur.
Bosh egishga ko’nmagan,
Vatan – jasur Shiroqdur.

Qodiriyning ko’zida,
Usmon, Cho’lpon so’zida,
Behbudiyning izida,
Yonib qolgan chiroqdur.

Kim bor uni suymagan,
Furqat emas, kuymagan.
Shoh Boburni qiynagan,
U – muborak titroqdur.

Shunisi e’tiborliki, Minhojiddin Mirzo she’rlarining yozilish tarixi va tadrijiyligini kuzatganimizda, 1991 yillardagi she’rlari asosan ona vatan, xalq, yurt, ozodlik kabi mavzularga bag’ishlangan. bu so’zlar o’sha paytda oddiy tushuncha bo’lmay, balki she’rlarga ko’chganda ma’lum ma’noda obrazga, majozga, ramzga aylandi, deyish mumkin.

“Gullash payti keldi, bog’larim” kitobidagi “Sen buyuk qalbsan” she’rida shoir “munavvar kunlar” deya mustaqillikka erishilgan kunlarni nazarda tutadi. Hurlikni orzu qilgan ajdodlarimizni tilga olarkan, bu muqaddas kalomning ularning bo’g’zida qolib ketganligini ta’kidlaydi:

Ajdodlar ko’ksini yondirgan hasrat.
Shahidlar bo’g’zida ketgan u unlar.
Endi u azoblar yo’q, keldi oxir,
Hurdillar sog’ingan munavvar kunlar.

Qullik ketdi, dildan ketdi g’am-kadar,
Ozodlik yoritar, elim, yo’lingni.
Kel endi, qiyomat kuniga qadar,
Tan olmay yashaylik qullik – o’limni.

Shoir “qullik” va “ozodlik” so’zlarini keltirish bilan bu so’zlarning zid ma’nosiga diqqatni tortadi. Bu so’zlar orqali xalqning 1991 yilgacha istilo ostida yashagani, ozodlik kelib esa xalqning yo’li, ya’ni istiqboli yorug’ bo’lganini ta’kidlaydi. “Qullik” so’zida istilo ma’nosini, rus xalqiga qaramlikni tushunsak, “ozodlik”da esa istiqlol, mustaqillik mazmunini anglaymiz. Bu o’rinda qullik – o’lim bilan teng ekanligi ham ta’kidlab o’tiladi.

Minhojiddin Mirzo mazkur she'rining so'nggida O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning "Qachon xalq bo'lasan, ey sen olomon?!" misralariga javob singari jaranglaydi:

Boshingni ko'tarib olamga boqqil,
Majnuntol emassan, chinorsan – alpsan.
Shukronang tilingda, Haqning qoshida
Eng buyuk e'zozga loyiq bir qalbsan –
Sen endi olomon emassan, xalqsan!

She'rning xulosasi, yakuni o'ziga xos chaqiriq, undash, da'vat mazmunini aks ettiradi. Shoirning "boshingni ko'tarib olamga boqqil", "majnuntol emassan", "chinorsan – alpsan" kabi sifatlari go'yo bir shaxsga qaratilganday tuyulsa-da, lekin mazmunan ko'pchilikka, xalqqa qaratilgan da'vatdir. "Ozodlik nafasi" she'rida ham

Quldan bekka aylanmoq ne baxt,
Zanjirlarning ovozi o'tmish

misralarida istilo, istibdod ostida yashagan millatning qul singari turmush kechirgani, endilikda quldan bekka aylanganligi naqadar baxtligi aytib o'tiladi. Zanjirlarning ovozi o'tmishda qolib ketganligi obrazli ifodalangan.

Minhojiddin Mirzo bugungi kunda ham she'riyat olamida o'z o'rniga ijodkor. Uning ijodiy faoliyati haqida matbuotda, ijtimoiy tarmoqlarda maqolalar, xabarlar berib boriladi. Shoir Minhojiddin Mirzo ijtimoiy voqeа hodisalarga hozirjavoblik bilan o'z munosabatini bildirib keladi. Uning yaqinda yozilgan to'rtliklari "Ko'ngil tomchilar" sarlavhasi ostida shoirning o'z profilida chop etildi:

Bu yolg'on dunyodan rostni axtarib
Xayyomdek mast bo'lib icholsak edi.
U falak arshidan soqiy may quysa,
Ko'ngilni qadahdek tutolsak edi...

Shoir mumtoz she'riyatdagи obrazlar orqali o'z ichki kechinmalarini turli tashbehlар vositasida ifoda etadi. Azal-azaldan yolg'onchi deb atalgan dunyodan rostni axtaryotgan inson ko'z oldimizga keladi. Inson imkonsiz narsalarni izlaydi, ya'ni qalbi, ko'zi, tafakkuri to'g'ri odam to'g'rilikni istaydi, olamda esa nohaqliklar ko'p. SHoir shuning uchun Xayyomni eslaydi, uning soqiylilik qilishini, o'zining ko'nglini may uchun idish bo'lishini tilaydi.

Adashgan dil uchun so'zing nur – oyatdur, hidoyatdur,
Arzi dilim shikoyatmas oshiqlig'din hikoyatdur,
Bu kun mushtoq ko'ngil uyin eshiklarin senga ochdim,
Sendin kelgan ishq kalomi rivoyatmas, rioxatdur.

Mazkur to'rtlikda lirik qahramon Haq oshig'i ekanini tushunamiz. Adashgan dillarni Ollohnning so'zлari, Qur'oni Karim to'g'ri yo'lga chorlaydi, boshlaydi. Bandanining arzi dili esa shikoyatmas, oshiqlik hikoyatidir.

Ishq mening davlatu xayolim dedim,

Oshiqg'a hijron ne, savolim dedim,

Gar sendan yo'q karam, neni istaram,

Savolim javobi – zavolim dedim.

To'rtlik mazmunidan oshiq uchun ishqning o'zигина davlat, boylik ekani va xayolu xotiri ham shunda ekanini anglaymiz.

Majnunning ishqini demangiz azob,

Intihosin demang bu dilni sarob,

Bu shunday yo'lirki, anglolmas g'ofil

Dardsizlik gunohu dardmandlik savob.

Shoir ishqda jununi boshidan oshgan Qays obrazi orqali o'z kechinmalarini obrazli ifoda etadi. Majnunni hajga olib borishib, o'zingga sog'lik tila, deyishganida, bunday ishqni yana ham orttir, deydi. Yuqoridagi "Majnunning ishqini demangiz azob" misrasi Majnun bilan bo'lgan voqeani eslatadi hamda ishq yo'lidiagi majnunlik shunday yo'lirki, uni g'ofillar anglolmaydi, deb xulosa qiladi shoir.

Shoir "Chiroqli bo'lsin" nomli she'ridda azaliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz haqida so'z ochadi:

Haq amrini doim et bajo,

Ey do'st, qalbing chin nurga to'lsin.

Dildan, tildan oqsin iltijo

Iymoning ham chiroqli bo'lsin.

Sahar turib tangriga aytgan,

Vujudingda oftob uyg'otgan,

Savob bo'lib o'zingga qaytgan,

Saloming ham chiroqli bo'lsin.

Jannat haqda fikr etsang gohi:

"Qanday o'zi tangri dargohi?"
Iyemoningning bo'lib guvohi,
Gumoning ham chiroyli bo'lsein.

Fazilatga kon etgil diling,
Goh yechilsa ozordan tiling,
Johillarday ko'tarma qo'ling,
Yomoning ham chiroyli bo'lsein.

Dunyo ichra sarf aylab boring,
Aqling, kuching, sihat imkoning,
Umringni baxsh etib topganing,
A'moling ham chiroyli bo'lsein.

Yolg'iz Haqni naqsh etsin ko'zing,
Doim aytgil sen bug'doy so'zing,
Sarg'aysa gar vasl istab yuzing,
Jamoling ham chiroyli bo'lsein.

G'azal aytsang, doim dildan ayt,
Dil aytmagan so'zni qo'ygil, qayt,
Ezgu bo'lsein sen bitgan har bayt,
Kaloming ham chiroyli bo'lsein.

Beldan quvvat, ko'zdan nur ketsa,
Haq qismati, baqoni bitsa,
Bir kun umring poyonga yetsa,

Davoming ham chiroyli bo'lsin...

"Ko'ngil istagi" she'rida bahor faslidagi jarayonlar chiroyli tashbehlar asosida qo'llanadi:

Anhor labi gulga to'lgan chog',
Suv yuvmasin qirg'oqlarini.
Bulut bevaqt to'smasin oyning
Sog'inch to'la nigohlarini.

Bulbul ko'ngli ishqqa to/lganda
Sayrashidan to'xtatma falak.
Bu dunyoni sevib-sevilmay.
Tark etmasin birorta yurak.

Qalam berding qo'limga manim,
Qalbda o'zing shivirlagan sas.
Boychechakdek qor bag'rin tilgum,
Ilhomimni so'ndirmasang bas!

Shoirning "Tungi manzara" she'rida ham o'ziga xos tabiat manzarasi tasvirlangan. Minhojiddin Mirzo tundagi atrof-muhit, tabiatdagi o'zgarishlarni jonlantirish, o'xshatishlar vositasida gavdalantiradi. "Ovga chiqqan mushuklar", "chumolilar pishillab uxlari", "qari tut" kabi ifodalar she'rga hayotiy ta'sirchanlik bag'ishlaydi:

Ovga chiqqan tungi mushuklar
Tizilishar oyna tagida.
Chumolilar pishillab uxlari,
Qari tutning yashil bargida.

Darhaqiqat, mushuklarning kechasida oyna tagiga kelishi kuzatiladi. Chumolilarning tunda bo'lmasligini bilamiz, bu tushunchani shoir o'ziga xos tashbeh bilan "pishillab uxlari" deydi. Ularning qari tutning yashil bargida uplashini esa shoir tabiatda kuzatgan bo'lishi kerak. Bunday tasvirni berish uchun shoirning o'zi buni ko'rgan bo'lishi kerak, albatta.

Bazm qurib ko'kda yulduzlar
Raqs tushadi hilolni qurshab.
Gulzor to'la uxlari rayhonlar
Bir-birining qo'lini ushlab.

Yulduzlarning ko'kda bazm qurishi hamda oyni qurshagan holda raqs tushishi jonlantirish usuli bo'lib, o'quvchida badiiy zavqni uyg'otadi. Gulzor to'la rayhonlarning bir-birlarini qo'llarini ushlab uplashlari ham o'ziga xos tashbehdir. Bunda rayhonlarning o'zaro jips holida joylashishi go'yo qo'llarini ushlab turishgandek ko'rindi.

Tabiat ne'matlari va hodisalarini tasvirlar ekan, bu ne'matlar shoir vatanidagi mavjudliklar ekanini his qiladi kitobxon. "Andijon bu – sizsiz, Onajon" she'rining

ikkinchi qismida vatan tabiat manzarasi shoir kayfiyati, holati bilan uyg'un ekanini kuzatish mumkin:

Daraxt to'kar yaproqlarini
Yo'q to'kmaydi, shamol tortqilar.
Bilmam, shu kez ma'yus daraxtning
Tanasida nedir zirqirar?!

Bu she'rning ikkinchi qismining boshlanishi bo'lib, daraxt yaproqlarini o'z-o'zicha emas, shamol majburlab to'kishi o'quvchida hayotdagi qarama-qarshiliklar borligini o'ylashga chorlaydi. Demak, daraxt endi oddiygina o'simlik, tabiat ne'mati, unsuri emas, balki u badiiy obrazga aylanadi. Daraxt tanasining zirqirashi ham bejiz emas, "zirqirash" insonga xos xususiyat bo'lsa, bu jonlantirish daraxt timsolidagi insonning qalb og'riqlarini ifoda etadi.

G'arib misol yalang'och shoxlar
Eslab har tong yaproqlarini
Shamollarga insof tilaydi,
Yashirolmay titroqlarini.

Tabiatning bunday tasviri kuzgi vaqt ekaniga ishora qiladi. Daraxt shoxlarining yalong'och ekani, tongda yaproqlarini eslab titrashi o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shamol esa, to'zg'ir xazonlar,
Taqdir – quyun, qilar chirpirak.
Shu o'ylarni bitarkan nogoh,
Sanchib-sanchib og'ridi yurak.

Shamol, quyunlarning oddiy hodisa emas, uning ramzi taqdir ekani, u esa odamni daraxt barglari kabi chirpirak qilib tashlashi tushuniladi. SHoirning shu o'ylarni bitayotganda yuragining og'rishi taqdir zarbalaridan ekani ayon bo'ladi. Uzilgan yaproqning daraxtga qayta olmasligini shoir quyidagicha jonli ifodalaydi:

Azim daraxt yaprog'i harchand
Intilsa-da qaytolmas unga.
Onam – daraxt, men-chi bargmasman,
Nima bo'ldi, do'stlarim, menga?!

Shoir yoki uning lirik qahramoni daraxt timsolida onasini, she'rning avvalgi bandlarida o'zini barg deb his qilsa-da, endigi o'rinda bargmasman, deyishi o'quvchida yanada boshqacha, o'ziga xos tuyg'u uyg'otadi. Ya'ni ona va farzand rishtasi hech qachon uzilmasligini o'quvchi ham istaydi. Onani eslab yuragi og'rishidan lirik qahramonning o'z onasidan uzoqda ekani, uni istagan paytda ko'raolmasligi tushuniladi.

Garchi quyun, tursa-da dovul,
Garchi yo'lim to'ssa bo'ronlar.
Agar yo'lga otlanar bo'lsam,
Hatto tinar yog'ayotgan qorlar.

Ona nomi aytilganda quyun, dovul, bo'ron, qorlar ham to'xtab qolishi, tinishi o'ziga xos tashbeh bo'lib, o'quvchi diligiga kuchli ta'sir qilishi shubhasiz.

Otlanaman ko'zda yosh bilan

Keldim... keldim, yo'q endi firoq.
Onam sochim silab erkalar,
Tizzasida yam-yashil yaproq.

Lirik qahramonning she'r avvalida o'zini bargga o'xshatishi, tabiatga qarab bargning uzilishini ko'rib, bu menmasman deyishi hamda she'r so'nggida onaning tizzasiga bosh qo'yishi (yam-yashil yaproq) o'quvchida estetik ta'sirchanlikni oshiradi. Tashqaridagi kuzning xazonlariga qarshi o'laroq, shoir qalbining hayotga tashna ekanligi, yashovchanligini "yam-yashil yaproq" so'zi bilan ifodalashi o'ziga xoslikni ta'minlagan. Demak, tabiat ne'matlari shoir uchun obrazli ifoda vositasi hisoblanadi.

Minhojiddin Mirzoning "Qish ertagi" she'rida qish faslining fusunkor jilvalari tasvirlanadi. Bunda lirik qahramonning nafis tuyg'ulari tabiat fasliga monand ekanligini anglash mumkin:

Oppoq, harir edi borlig'ing,
Oydin eding – to'lin oy eding.
Ko'zlarimdan qochirganimda
Xayolimga sen kirib kelding.

Yorning oppoq, harir kiyimda ekani, o'zining ham oppoqligi ta'kidlanadi. "Oydin eding – to'lin oy eding" misralari esa tunga mazmunan yaqindir. Lirik qahramon – oshiqning ko'zlari oldidan yorning ketib qolishi ham o'ziga xos tazod: ko'zdan qochirmoq - xayolga kirib kelmoq. Ko'zlarning oqi va qorasi, yorning oqligi va tunning qorong'uligi tanosublikni va zidlikni anglatadi. Tabiatdagi o'zgarishlar bilan lirik qahramonning oshiqlik holati, ruhiy tasviri o'ziga xos tarzda ifodalanadi:

Qish ham kirdi, ayoz kun bo'yi
Hasratimday yog'averdi qor.
Ushalmadi kurtaklar o'yi,
Yiroqlashib ketgandi bahor.

Shoirning "Yomg'irli kechalar" she'rida ham tabiat tasviri turli tashbehlar, istioralar vositasida badiiy tasvirlangan. Yomg'irning g'unchalarga tomchilashi, shamolning yurakni qamchilash – lirik qahramonning yolg'iz ekaniga hamohang tasvirlardir:

Yomg'ir yog'ar g'unchalarga tomchilab,
Shamol esar yuragimni qamchilab,
Hech kim kelmas menga saodat tilab,
Seni kutdim men intizor nechalar,
Hazin bo'ldi bu yomg'irli kechalar.

Minhojiddin Mirzo she'riyatida ustoz shoirlar an'anasidek borish va o'ziga xos tasvir uslubini yaratish holatiga duch kelamiz:

Osmon qizi kulib tashladi ko'kdan
Oltin zanjirli ul ko'priklarini.
Shuncha yaqin keldi, taftini sezdim,
Yuzimga urilgan kipriklarini.

Shoirning mazkur “Quyosh” she’rida quyosh – osmon qizi deb atalgan. Uning charaqlab turishi esa kulganga o’xshatiladi. Quyosh nurlarining zanjirga o’xshatilishi va kipriklarini lirik qahramon yuziga urilishi o’ziga xos tasvirdir.

“Qutlug’ kun” she’rida esa shoir kun atamasiga istiqlol mazmunini yuklaydi.

Osmo bo’ldi munavvar, uyg’ondi qara, quyosh,
Gullarning kiprigiga qo’ngan g’ammas, sevinch – yosh!
Bobom kutgan kun bu kun, momom kutgan kun bu kun,
Endi ko’rsatmoq kerak, dunyoga millat kuchin.

Alp bo’lsang, beling bog’la, qalb bzlsang, o’zni chog’la,
Bayroq deb bil mardingni, haloskoring quchoqla.

Duolar haqqa yetdi, zulm kishanlar yitdi,
Tog’day qalbli insonlar, qadring yana tog’ etdi.

Istiqlolni quchgali, quyosh osmonga aylan,
Hurliling asragali bedor posbonga aylan!

Bu peyzaj tasvirida muallif go’zal tong manzarasini ko’z oldimizda gavdalantiribgina qolmasdan, shu bilan birga, qahramonning ruhiy kayfiyatini, ichki kechinmalarini ham ohib bergen.

“Kuz” she’rida shoir 1937 yildagi mash’um qatag’onni majoziy obrazlar, ya’ni tabiat manzaralari orqali tasvirlaydi.

Daraxtlarga osilgan murda –
Chayqaladi za’faron barglar.
Ichiqora bir to’p qarg’alar
Erta-yu kech qishni daraklar.

To’lib ketar zamin murdaga,
Yurolmaydi odamlar hayqib.
Toqat qila olmay azaga,
Keta boshlar turnalar qaytib.

Bunda shoirning “1937 yil” degan eslatishi bo’lmasa, o’quvchi dab-durustdan she’rni anglamasligi mumkin. “Murda”, “ichiqora qarg’a”, “qish”. “to’lib ketar zamin murdaga” kabi so’z va jumlalar ham o’sha yildagi ommaviy qatag’onning dahshatini anglatadi.

Shoirning vatan haqidagi she’rlarida anaforalarning keltirilishi ichki histuyg’uning kuchli aks ettirish uchun xizmat qiladi. “Ona tuproq” she’rida vatanga murojaat anafora orqali yuzaga chiqqan:

Ey tuproq,
Ey, mening borim, munisim
Ey elim, dunyoda suyangan tog’im.
Toki xazonrezlar hali oldinda
Toki gullayotgan ekan dil – bog’im,
Men seni degayman umrim boricha.

Misralar boshida “ey” va “toki” so’zlarining takrori o’quvchi e’tiborini kuchliroq tortadi, shoir urg’u bermoqchi bo’lgan tushunchalar o’ziga xos tarzda ta’kidlanadi. Bunda yoyiq undalmalarning “ey tuproq”, “ey, mening borim”, “munisim Ey elim”, “dunyoda suyangan tog’im”, “dil – bog’im” keltirilishi orqali vatanga muhabbatning samimiyligi va otashin ekanini anglatadi. SHoirning dilni bog’ga o’xshatishi istiora bo’lib, mazkur ifoda orqali vatanning gullayotganiga ham ishora etilgan. Fidoiylikni shoir quyidagi tashbehlari bilan ifodalaydi:

Bir kuni dunyoni tark etsak, shaksiz,
Munis tuproq berur bizga boshpana.
Shunda ham bo’lmasmiz aslo yuraksiz,
Koringga yarashga shoshurmiz yana.

Oddiy tuproqqa nisbatan tuproqshunoslar tili bilan “mayin”, “sho’r”, “la’lmikor” kabi sifatlar berilishi mumkin. Lekin shoir tomonidan berilgan “munis tuproq” tavsifi vatan ma’nosini anglatadi. Keyingi bandda esa shoir insonning hammavaqt vatanga xizmat qilishi kerakligini o’ziga xos tarzda ifodalaydi:

Tangri hukmi bilan don bo’lib unsak,
Bir ochning g’amini aritar edik.
Magarda nur bo’lib ko’klarga uchsak
Shunda ham yo’lingni yoritar edik...

ULUG’BEK HAMDAM (1968)

1968 y. — Shoir, yozuvchi, tarjimon, adabiyotshunos Ulug’bek Hamdam Andijon viloyati Marhamat tumani Rovvot qishlog’ida tug’ilgan. 1997 y. — O’zRFA TAI aspiranturasida o’qib “30-yillar she’riyatida “sof lirika” muammosi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1998 y. — “Yolg’izlik” qissa va hikoyalari to’plami. 2002 y. — ilk romani “Muvozanat”. 2003 y. — “Isyon va itoat” romani. “Tangriga eltuvchi isyon” she’riy to’plami. 2005 y. — “Atirgul” she’riy to’plami. 2007 y. — “Yangilanish ehtiyoji” ilmiy maqolalar, esse va suhbatlar. 2009 y. — “Sabo va Samandar” romani. 2010 y. — “Uzoqdagi Dilnura” kitobi. Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichindadir” asarini turk tilidan o’zbek tiliga tarjima qildi. “Badiiy tafakkur tadriji” monografiya va ilmiy maqolalar to’plami. 2018 y. — “Eski dunyo va yangi men” she’riy to’plami.

AMALIY

MASHG'ULOTLAR

1-mavzu. “Andijon adabiy muhiti” faniga kirish. Qadimgi Andijonda tarixiy sharoit va madaniy hayot

Reja:

1. Qadimgi Andijonda madaniy va adabiy hayot.
2. Andijon adabiy muhiti o’zbek adabiyotining mushtarak bir bo‘lagi.
3. Folklorshunoslik va tarixiy materiallarda Andijon haqida ma’lumot.

Savol va topshiriqlar:

1. Andijon adabiy muhiti fanining maqsadi.
2. Andijon adabiy muhiti fani tarix, falsafa, estetika, san’atshunoslik kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liqligi.

2-mavzu. XV-XVI asrlarda Andijon adabiy muhiti

Reja:

1. Temuriylar davridagi Andijon zaminida tarixiy sharoit, adabiy madaniy hayot.
2. Tazkira va tarixnavislikka oid asarlarda andijonlik shoir, adib, olim va boshqa madaniyat, san’at vakillari haqidagi ma’lumotlar va ularning sharhi.
3. Alisher Navoiy asarlarida andijonlik shoir va adiblar haqidagi ma’lumotlar.
4. SHoirlar Yusuf Badiiy va Safoiy haqida.

Savol va topshiriqlar:

1. Davr adabiyoti haqida gapirib bering.
2. Tazkira va tarixnavislikka oid asarlarda andijonlik shoir, adib, olim haqida.
3. Yusuf Badiiy va Safoiy haqida.

3-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi.

Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti

Reja:

1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo’li, tarjimai holi. Ijodiy biografiyasи.
2. Lirik devoni. Adabiyotshunoslikka oid asarlari va adabiy tanqidiy qarashlari.
3. “Boburnoma”da shoir va adiblar haqida.
4. Bobur davridagi andijonlik shoirlar: Xoja Yusuf, Navmidiy, Joniy kabilar haqida.

Savol va topshiriqlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati haqida so’zlab bering.
2. “Boburnoma”da andijonlik shoir va adiblar xususida ma’lumot bering.

4-mavzu. XVIII-XIX asrlar Andijon adabiy muhiti. Nodira, Muntazir, Biymiy, Samarbonu hayoti va ijodi

Reja:

1. Mohlaroyim Nodiraning hayot yo’li.
2. Ijodiy biografiyasи. Nodiraning Qo’qon adabiy muhitidagi o’rni.

3. Adabiyot, san'at, madaniyatga qo'shgan hissasi. Lirik devoni. Adabiy tanqidiy qarashlari.

3. Muntazir hayoti, ijodiy biografiyasi. Asarlari haqida ma'lumot beruvchi ilmiy va badiiy manbalar.

4. Abdurazzoq Bimiy hayoti va ijodi. SHoir haqida ma'lumot beruvchi manbalar va ularning tahlili. Samarbonu hayot yo'li. Ijodiy merosi ko'lami va mavzulari. Samarbonu lirkasining mazmun mundarijasи.

Savol va topshiriqlar:

1. Mohlaroyim Nodiraning hayot yo'li haqida so'zlab bering.
2. Muntazir hayoti, ijodiy biografiyasi xususida so'zlang.
3. Abdurazzoq Bimiy lirkasi tahlili.

5-mavzu. Pirimqori, Oraziy, Hayratiy, Qori Zokir hayoti va ijodi.

Reja:

1. Pirimqori Andijoniy hayot yo'li, lirkasi.
2. SHe'rларining mavzusi, janrlar rang barangligi.
3. Muvashshahlari tahlili. Badiiy mahorat masalasi.
4. Oraziy hayoti va ijodi. SHoir haqida ma'lumot beruvchi manbalar va materiallar tahlili. Oraziy lirkasining mazmun mundarijasи. Hayratiy hayoti va ijodi. "Hayratnoma" to'plami. Asarlari tahlili.

Savol va topshiriqlar:

1. Pirimqori Andijoniy lirkasi tahlili.
3. Oraziy hayoti va ijodi.
4. Oraziy lirkasining mazmuni.
5. Hayratiy asarlari tahlili.

6-mavzu. Qo'qonqishloq adabiy muhiti. Qori Zokir, Mahjuriy, Habibiy hayoti va ijodi

Reja:

1. Qori Zokir hayoti va ijodiy merosi.
2. Is'hoqov Muhammadxon – Mahjuriy hayoti va ijodiy merosi.
3. Zokirjon Habibiy hayoti va ijodiy merosi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qori Zokir ijodiy merosi haqida so'zlab bering.
2. Is'hoqov Muhammadxon – Mahjuriy hayoti va ijodiy merosi tahlili.
3. Zokirjon Habibiy hayoti va ijodiy merosi haqida so'zlang.

7-mavzu. Sulaymonqul bazzoz, Cho'lpon, Ulfat, Vosit Sa'dulla hayoti va ijodi

Reja:

1. Sulaymonqul bazzoz (Volai Rasvo)

2. XX asr boshlaridagi adabiyotda poetik turkumlar an'anasi.
3. Andijon zilzilasining nazmiy ifodasi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li CHo'lpon hayoti va ijodi.
4. Abdulahad Azizov – Anisiy va Xurram hayoti va ijodi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sulaymonqul bazzoz (Volai Rasvo) asarlarini tahlil qiling.
2. XX asr boshlaridagi adabiyotda poetik turkumlar an'anasi haqida so'zlang.
3. Abdulhamid Sulaymon o'g'li CHo'lpon ijodiy merosi.
4. Abdulahad Azizov – Anisiy va Xurram hayoti va ijodi haqida.

**8-mavzu. XX asr Andijon adabiy hayoti
Reja:**

1. Imodiddin Qosimov Ulfat hayoti va ijodi.
2. Devonlari. Lirikasining mazmun mundarijasi.
3. V.Sa'dulla hayoti va ijodiy merosi. H.Razzoqov shoir va adabiyotshunos sifatida.
4. Dramalari tahlili. A.Qambarovning "Navodir ul vaqoe" asari tahlili. Boqir she'riyatida mumtoz she'riyat an'analari. S.Zunnunova she'riyati.

Savol va topshiriqlar:

1. Imodiddin Qosimov Ulfat hayoti va ijodi haqida so'zlab bering.
2. V.Sa'dulla hayoti va ijodiy merosi haqida ma'lumot bering.
3. H.Razzoqov shoir va adabiyotshunoslik faoliyati haqida so'zlab bering.
4. A.Qambarovning "Navodir ul vaqoe" asari tahlil qiling.

**9 mavzu. Andijonda hozirgi adabiy jarayon
Reja:**

1. O.Xoldor shoir, publitsist, yozuvchi, dramaturg sifatida.
2. T.Sodiqova lirikasi.
3. SHoira asarlarida mavzu va g'oya.
4. F.Usmon she'riyati. Q.Kenja ijodiy merosi. Asarlari tahlili.
5. I.To'lak shoir va adabiyotshunos sifatida.

Savol va topshiriqlar:

1. O.Xoldor shoir, publitsist, yozuvchi, dramaturglik faoliyati haqida so'zlang.
2. T.Sodiqova lirikasining g'oyaviy badiiy xususiyatlari.
3. SHoira asarlarida mavzu va g'oya haqida so'zlang.
4. F.Usmon she'riyatining xususiyatlari.
5. Q.Kenja ijodiy merosi haqida so'zlang.
6. I.To'lak shoir va adabiyotshunoslik faoliyati.

MUSTAQIL TA'LIM MASHG`ULOTLARI

